



**O'zbekiston davlat
san'at va madaniyat instituti
XABARLARI**

**ВЕСТНИК
Государственного института
искусств и культуры Узбекистана**

**BULLETIN
of the Uzbekistan State
Institute of Arts and Culture**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti xabarlari

Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal

BOSH MUHARRIR –

SAYFULLAYEV Nodirbek Baxtiyorovich –
Tarix fanlari nomzodi, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI –

YAKUBOV Baxtiyor Choriyevich –
San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR HAY'ATI

MAVRULOV Abduxalil Abdullayevich –
Tarix fanlari doktori, professor

QODIROVA Sarvinov Muhsinovna –
San'atshunoslik fanlari doktori, professor

ABDULLAYEVA Munavvara –
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor

MAXMUDOVA Xamida Axyulovna –
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor

RIZAYEV Amanulla Zufarovich –
San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

XAYTMATOVA Sabohat Agzamovna –
San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

FAYZIYEVA Feruza Xadjimuradovna –
San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

MALIKOVA Sevar Samatovna –
Pedagogika fanlari nomzodi, professor

XALIKULOVA Go'zal Erkinovna –
San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

MAMATQOSIMOV Jahongir Abirqulovich –
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

ALIEVA Sadagat Aga Safar gizi –
Xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, dotsent

KERIMOVA Sevil Alifettah gizi –
San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

NISHONBOYEVA Qunduz Vahobovna –
Tarix fanlari nomzodi, dotsent

KOSHELEVA Antonina Fyodorovna –
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

ISMOILOV Xamdani –
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

MAXMUDOV Mirali Xaydarovich –
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

ISOQOV Ziyodulla Safaraliyevich –
Tarix fanlari nomzodi, dotsent

XUDOEVI G'ani Muhammadovich –
San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ABDURAHMONOVA Feruza Eshkobilovna –
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

JAMOATCHILIK KENGASHI

NAZARBEKOV Ozodbek Ahmadovich –
O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri,
O'zbekiston Respublikasi xalq artisti

XASANOV Otabek Abdurashidovich –
Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi direktori,
siyosiy fanlari doktori (DSc)

Sirojiddin SAYYID –
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi,
O'zbekiston xalq shoiri

RIZAYEV Shuhratilla Tursunovich –
O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi
Kinematografiya agentligi direktori,
filologiya fanlari nomzodi, professor,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi

ABDULLAYEV Rustam Abdullayevich –
O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi raisi,
O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi

SAGDIYEV Yodgor Xabibovich –
O'zbek Milliy akademik drama teatri direktori,
O'zbekiston Respublikasi xalq artisti

MUSTAFAYEVA Nodira Abdullayevna –
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi boshlig'i

MAMATMUSAYEV Toxir Shaydulovich –
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining
Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha bosh inspektori,
arxitektura fanlari doktori (DSc), professor

KASIMOV Nodir Ulug'ovich –
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi Yoshlar siyosati va ma'naviy tarbiyaviy ishlar
boshqarmasi boshlig'i

AKILOVA Kamola Boltaboyevna –
O'zbekiston tasviriy san'at galereyasi direktori, O'zBA
akademigi, san'atshunoslik fanlari doktori (DSc), professor,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

ISMOILOVA Jannat Xamidovna –
O'zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori,
tarix fanlari doktori, professor

TESHABOYEVA Umida Alimdjanovna –
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligining Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi direktori,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

*Maqolada keltirilgan
ma'lumotlarning to'g'riligi
uchun muallif mas'uldir*

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi
rayosatining 2017-yil 29-noyabrda 245/6-sonli qarori bilan
San'atshunoslik fanlari bo'yicha dissertatsiyalar yuzasidan
asosiy ilmiy natijalarni chop etishga tavsiya etilgan
ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

*O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2015-yil 14-dekabrda
0862-raqam bilan
ro'yxatga olingan*

Вестник Государственного института искусств и культуры Узбекистана

Научно-теоретический, практико-методический,
духовно-просветительский журнал

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

САЙФУЛЛАЕВ Нодирбек Бахтиёрвич –
кандидат исторических наук, профессор

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

ЯКУБОВ Бахтиёр Чориевич –
доктор философии (PhD) по искусствоведческим наукам,
доцент

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

МАВРУЛОВ Абдухалил Абдулхаевич –
доктор исторических наук, профессор
КАДЫРОВА Сарвиноз Мухсиновна –
доктор искусствоведческих наук, профессор
АБДУЛЛАЕВА Мунаввара –
заслуженный наставник молодёжи Узбекистана, профессор
МАХМУДОВА Хамида Ахюловна –
заслуженный наставник молодёжи Узбекистана, профессор
РИЗАЕВ Аманулла Зуфарович –
кандидат искусствоведческих наук, профессор
ХАЙТМАТОВА Сабохат Агзамовна –
кандидат искусствоведения, профессор
ФАЙЗИЕВА Феруза Хаджимурадовна –
кандидат искусствоведения, профессор
МАЛИКОВА Севар Саматовна –
кандидат педагогических наук, профессор
ХАЛИКУЛОВА Гузал Эркиновна –
кандидат искусствоведческих наук, профессор
МАМАТКОСИМОВ Джахонгир Абиркулович –
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, профессор
НИШОНБОЕВА Кундуз Вахабовна –
кандидат исторических наук, доцент
АЛИЕВА Садагат Ага Сафар гизи –
заслуженный деятель культуры, доцент
КЕРИМОВА Севиль Алифеттах гизи –
доктор философии в области истории искусств, доцент
КОШЕЛЕВА Антонина Фёдоровна –
кандидат педагогических наук, доцент
ИСМОИЛОВ Хамдам –
кандидат филологических наук, доцент
МАХМУДОВ Мирали Хайдарович –
кандидат педагогических наук, доцент
ИСОКОВ Зиёдулла Сафаралиевич –
кандидат исторических наук, доцент
ХУДОЕВ Гани Мухаммадович –
доктор философии (PhD) по искусствоведческим наукам,
доцент
АБДУРАХМОНОВА Феруза Эшкабиловна –
доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

ОБЩЕСТВЕННАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

НАЗАРБЕКОВ Озодбек Ахмадович –
министр культуры Республики Узбекистан,
народный артист Узбекистана
ХАСАНОВ Отабек Абдурашидович –
директор республиканского центра культуры и
просвещения, доктор политических наук (DSc)
Сирожиддин САЙИД –
председатель Союза писателей Узбекистана,
народный поэт Узбекистана
РИЗАЕВ Шухратилла Турсунович –
директор агентства кинематографии при
Министерстве культуры Республики Узбекистан,
кандидат филологических наук, профессор,
заслуженный наставник молодёжи Узбекистана
АБДУЛЛАЕВ Рустам Абдуллаевич –
председатель Союза композиторов Узбекистана,
заслуженный деятель искусства Республики Узбекистан
САГДИЕВ Ёдгор Хабибович –
директор Узбекского Национального академического
драматического театра,
народный артист Республики Узбекистан
МУСТАФАЕВА Нодира Абдуллаевна –
заведующий отделом общественно гуманитарных наук
Академии наук Республики Узбекистан
МАМАТМУСАЕВ Тохир Шайдулович –
главный инспектор по общественно-гуманитарным
наукам высшей аттестационной комиссии при
Министерстве Высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан,
доктор архитектурных наук (DSc), профессор
КАСИМОВ Нодир Улугович –
начальник Управления молодёжной политики и духовно
воспитательных дел министерства Высшего образова-
ния, науки и инноваций Республики Узбекистан
АКИЛОВА Камола Болтабоевна –
директор галереи изобразительного искусства
Узбекистана, академик ХАУз,
доктор искусствоведческих наук (DSc), профессор,
заслуженный работник культуры Узбекистана
ИСМОИЛОВА Жаннат Хамидова –
директор государственного музея истории Узбекистана,
доктор исторических наук, профессор
ТЕШАБОВЕВА Умида Алимджановна –
директор Национальной библиотеки Узбекистана имени
Алишера Навои Агентства информации и публичных
коммуникаций при Администрации Президента
Республики Узбекистан,
Доктор философии (PhD) по истории

Автор ответственен за
верность сведений,
приводимых в статье

Журнал введён в список научных изданий, рекомендуемых к пу-
бликации основных научных результатов диссертаций по наукам
Искусствоведения решением № 245/6 от
29 ноября 2017 года Советом Высшей аттестационной комиссии
Республики Узбекистан

Введен в список
№0862 от
14 декабря 2015 года
Агентством печати и
информации Узбекистана

Bulletin of the Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

A scientific-theoretical, practical-methodological,
and spiritual-educational journal

EDITOR-IN-CHIEF

SAYFULLAEV Nodirbek Bakhtiyorovich –
Candidate of Historical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

YAKUBOV Bakhtiyor Chorievich –
Doctor of Philosophy (PhD) in Art Studies,
Associate Professor

EDITORIAL BOARD

MAVRULOV Abdukhalil Abdukhaevich –
Doctor of Historical Sciences, Professor

KODIROVA Sarvinov Muhsinovna –
Doctor of Art Studies, Professor

ABDULLAEVA Munavvara –
Honored Youth Mentor of Uzbekistan, Professor

MAKHMUDOVA Khamida Akyulovna –
Honored Youth Mentor of Uzbekistan, Professor

RIZAEV Amanulla Zufarovich –
Candidate of Art Studies, Professor

KHAYTMATOVA Sabokhat Agzamovna –
Candidate of Sciences in Art Studies, Professor

FAYZIEVA Feruza Khajimuradovna –
Candidate of Sciences in Art Studies, Professor

MALIKOVA Sevar Samatovna –
Candidate of Sciences in Pedagogical Sciences, Professor

KHALIKULOVA Guzal Erkinovna –
Candidate of Art Studies, Professor

MAMATKOSIMOV Jahongir Abirkulovich –
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences,
Professor

NISHONBOEVA Kunduz Vahobovna –
Candidate of Sciences in History, Associate Professor

ALIYEVA Sadagat Aga Safar gizi –
Honored Worker of Culture, Associate Professor

KERIMOVA Sevil Alifettah gizi –
Doctor of Philosophy in Art History, Associate Professor

KOSHELEVA Antonina Fyodorovna –
Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor

ISMOILOV Khamdam –
Candidate of Philological Sciences, Associate Professor

MAKHMUDOV Mirali Khaydarovich –
Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor

ISOKOV Ziyodulla Safaralievich –
Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

KHUDOEV Ghani Muhammadovich –
Doctor of Philosophy (PhD) in Art Studies, Associate Professor

ABDURAHMONOVA Feruza Eshkabilovna –
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate
Professor

*The author is responsible for the accuracy of
the information provided in the article*

PUBLIC COUNCIL

NAZARBEKOV Ozodbek Ahmadovich –
Minister of Culture of the Republic of Uzbekistan,
People's Artist of the Republic of Uzbekistan

KHASANOV Otabek Abdurashidovich –
Director of the Republican Center for Spirituality and
Enlightenment, Doctor of Political Sciences (DSc)

Sirojiddin SAYYID –
Chairman of the Writers' Union of Uzbekistan, People's Poet
of Uzbekistan

RIZAEV Shuhratilla Tursunovich –
Director of the Cinematography Agency under the Ministry
of Culture of the Republic of Uzbekistan, Candidate of
Philological Sciences, Professor, Honored Youth Mentor of
Uzbekistan

ABDULLAEV Rustam Abdullaevich –
Chairman of the Composers' Union of Uzbekistan, Honored
Art Worker of the Republic of Uzbekistan

SAGDIEV Yodgor Khabibovich –
Director of the Uzbek National Academic Drama Theater,
People's Artist of the Republic of Uzbekistan

MUSTAFAEVA Nodira Abdullaevna –
Head of the Department of Social and Humanitarian
Sciences of the Academy of Sciences of the Republic of
Uzbekistan

MAMATMUSAEV Tokhir Shaydulovich –
Chief Inspector for Social and Humanitarian Sciences of
the Higher Attestation Commission under the Ministry of
Higher Education, Science and Innovation of the Republic
of Uzbekistan, Doctor of Architectural Sciences (DSc),
Professor

KASIMOV Nodir Ulughovich –
Head of the Department of Youth Policy and Spiritual and
Educational Affairs of the Ministry of Higher Education,
Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

AKILOVA Kamola Boltaboevna –
Director of the Uzbekistan Fine Arts Gallery, Academician of
the Uzbekistan Academy of Arts, Doctor of Art Studies (DSc),
Professor, Honored Cultural Worker of Uzbekistan

ISMOILOVA Jannat Khamidovna –
Director of the State Museum of History of Uzbekistan,
Doctor of Historical Sciences, Professor

TESHABOEVA Umida Alimdjanovna –
Director of the Alisher Navoi National Library of Uzbekistan
under the Agency of Information and Mass Communications
under the Administration of the President of the Republic of
Uzbekistan,
Doktor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences

The journal is included in the list of scientific publications
recommended for publishing the main scientific results of
dissertations in the field of Art Studies by Decision No. 245/6 of
November 29, 2017, of the Presidium of the Higher Attestation
Commission of the Republic of Uzbekistan

Registered by the Uzbekistan Press and Information Agency
on December 14, 2015, with registration number 0862

MUNDARIJA

I. TEATR

1. N.Sayfullayev. Navoiy dahosi sahnada.....	6
2. R.Kadirov. "Imon" dramasi sahnalashtirishda rejissyorlik tahlili.....	11
3. Sh.Yusupov. "Kuz" spektaklida sharq va shimol adabiy an'alarining sahna sintezi.....	14
4. Sh.Imomova. Askiya va qiziqchilikda teatr san'atining o'rni.....	17
5. F.Qodirova. Xalq o'yinlari va masxarobozlik an'alarining zamonaviy talqini: "Boz masxaroboz" spektakli misolida	22

II. KINO

1. S.Xaymatova. Hujjatli kinoning shakllanish jarayonlari	27
2. M.Karabayev. O'zbek badiiy kinosida rejissuraning taraqqiyot bosqichlari.....	32
3. A.Гулиев. Проблема аутентичности экранного изображения в контексте цифровизации кинематографа.....	36
4. S.Umarova. Milliy televideniye tajribasi va zamonaviy yondashuvlar: bolalar teleko'rsatuvlarida badiiy mahorat	40
5. G.Xomidova. Chayonga aylangan gul taqdirining ekran talqini.....	44

III. MUSIQA

1. G'.Xudoyev. Shayboniylar davri saroy mumtoz musiqa madaniyati – ilmiy tadqiqot ishlarida.....	48
2. Sh.Muhammadiyev. Tavakkal Qodirov – milliy kuylovchilik maktabining zabardast namoyandasi....	53
3. I.Yuldashev. Xorazm mahalliy musiqa san'ati professionalizatsiyasiga islom madaniyatining ta'siri...	57
4. Sh.Qoraboyev. Milliy qo'shiqchilik va ansambl ijrochiligi: an'alar, tarixiy ildizlar va zamonaviy taraqqiyot	61
5. D.Kurbanova. Maqom yo'nalishida mohir sozanda	65

IV. SAN'AT TARIXI, FALSAFA

1. I.Abdurahmonov. Musavvirning rangin olami.....	69
2. M.Shukurlayev. Qoraqalpoq raqs san'atining shakllanish xususiyatlari.....	73
3. S.Qiyomov. Sharq olimlarining ijrochilik san'ati haqidagi risolalari.....	77
4. M.Komiljonova. Zamonaviy raqs uslublarining shakllanishi va o'zbek raqs san'ati rivojiga ta'siri.....	81
5. G.Mahmudova. O'zbekiston davlat satira teatri tarixi va uning taraqqiyot yo'nalishlari.....	84

V. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

1. D.Isroilova, W.Ping. Research on the application and teaching of chinese piano works in college classrooms	88
2. A.Yuldasheva. Bo'lajak aktyorlarning kasbiy kompetentligida vokal darslarining ahamiyati.....	93
3. D.Jumanova. Najot – ta'lim va tarbiyada.....	97
4. R.Yusupova. Yangi O'zbekistonni rivojlantirishda pedagoglarning o'rni va ahamiyati.....	100
5. N.Saidboyeva. Kinoshunos kadrlar tayyorlash masalasi.....	103

VI. MADANIYATSHUNOSLIK, NOMODDIY MADANIY MEROS

1. S.Alimov. O'zbek folklorida janrlararo muvofiqlashuv.....	107
2. M.Mavrulova. Ijtimoiy muhit va ma'naviy ehtiyoj uyg'unligi.....	111
3. M.Sayfullayev. Ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda madaniyat muassasalarining o'rni....	117
4. B.G'iyosov. Ommaviy bayramlar kontekstida tarixiylik va zamonaviylik kategoriyalarining ilmiy-nazariy asoslari	120
5. Sh.Jalilova. Madaniyatda an'anaviylik va zamonaviylik o'rtasidagi muvozanat.....	123



Nodirbek SAYFULLAYEV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti rektori,
professor

NAVOIY DAHOSI SAHNADA

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda mamlakatimizda teatr san'atiga qaratilayotgan e'tibor, amalga oshirilayotgan islohotlar hamda ularning ma'naviy hayotdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni asosida sahnalashtirilgan spektakl misolida mumtoz adabiyotning sahna talqini, uning falsafiy-estetik mohiyati hamda yosh avlod tarbiyasidagi o'rni yoritib berilgan. Shuningdek, spektaklning rejissyorlik yechimi, aktyorlik ijrosi, musiqiy va badiiy bezagi tahlil qilinib, asarning tomoshabin ruhiyatiga ta'siri ochib beriladi. Maqolada teatr san'atining milliy o'zlikni anglash, ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash va komil inson tarbiyasidagi o'rni alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: teatr san'ati, Alisher Navoiy, "Layli va Majnun", spektakl, ma'naviyat, mumtoz adabiyot, sahna talqini, rejissura, aktyorlik mahorati, tasavvuf, milliy qadriyat, ma'naviy tarbiya, o'zbek teatri, badiiy yechim, madaniyat.

Аннотация. В данной статье анализируются внимание, уделяемое театральному искусству в нашей стране на современном этапе, проводимые реформы и их значение в духовной жизни общества. В частности, на примере спектакля, поставленного по поэме Алишера Навои «Лейли и Меджнун», раскрываются сценическая интерпретация классической литературы, её философско-эстетическая сущность и роль в воспитании молодого поколения. Также рассматриваются режиссёрское решение спектакля, актёрское исполнение, музыкальное и художественное оформление, а также их воздействие на духовный мир зрителя. В статье особо подчёркивается роль театрального искусства в осознании национальной идентичности, укреплении духовно-нравственных ценностей и воспитании гармонично развитой личности.

Ключевые слова: театральное искусство, Алишер Навои, «Лейли и Меджнун», спектакль, духовность, классическая литература, сценическая интерпретация, режиссура, актёрское мастерство, суфизм, национальные ценности, духовное воспитание, узбекский театр, художественное решение, культура.

Abstract. This article analyzes the attention paid to theatrical art in our country today, the reforms being implemented, and their significance in the spiritual life of society. Specifically, using the example of a play based on Alisher Navoi's poem "Leyli and Majnun," it reveals the stage interpretation of classical literature, its philosophical and aesthetic essence, and its role in educating the younger generation. The article also examines the production's direction, acting, musical and artistic design, and their impact on the audience's spiritual world. The article particularly emphasizes the role of theatrical art in fostering national identity, strengthening spiritual and moral values, and cultivating a harmoniously developed individual.

Keywords: theatrical art, Alisher Navoi, Layli and Majnun, performance, spirituality, classical literature, stage interpretation, directing, acting skills, Sufism, national values, spiritual education, Uzbek theatre, artistic solution, culture.

Bugun mamlakatimizda Muhtaram Yurt-boshimiz rahnamoliklari ostida barcha sohalar qatori madaniyat va san'at tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish bo'yicha ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada sohaning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, kadrlar salohiyati oshib bormoqda hamda xodimlarning ijodiy mehnati munosib rag'batlantirilmoqda.

Mazkur islohotlar natijasida madaniyat va san'at sohasi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda, jamiyatda ma'naviy muhit yuksalmoqda, ijodkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda hamda milliy madaniyatning raqobatbardoshligi oshmoqda. Shu bilan birga, tarixiy merosni asrash va zamonaviy infrazuzilmani rivojlantirish orqali madaniy turizm kengayib, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga ham sezilarli hissa qo'shmoqda.

Teatr san'ati – shunchaki sahnadagi tomosha emas, balki insoniyatning o'zini anglash vositasi va yuksak ma'naviyat maskanidir. Unda hayotiy voqealar, insoniy tuyg'ular va jamiyatdagi dolzarb masalalar jonli ijro orqali tomoshabin qalbiga yetkaziladi.

Kino, televideniye yoki internetdan farqli o'laroq, teatrdan aktyor va tomoshabin o'rtasida bevosita ruhiy aloqa o'rnatiladi. Tomosha davomida yuzaga keladigan energiya almashinuvi insonni chuqur mulohaza yuritishga, yaxshilikni yomonlikdan ajratishga chorlaydi. Shu boisdan ham, teatr asrlar davomida o'z jozibasini yo'qotmay, ma'naviy poklanish va tarbiya o'chog'i bo'lib kelmoqda.

So'nggi yillarda yurtimizda teatr san'ati rivojiga qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik natijasida sohaning rivojlanish sur'ati sezilarli darajada oshdi. Yangi tashabbuslar, zamonaviy yondashuvlar va tizimli islohotlar nafaqat ichki imkoniyatlarni kengaytirmoqda, balki xalqaro maydonda ham sohaning mavqeini mustahkamlamoqda.

2024-yil 22-noyabr kuni qabul qilingan "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori soha taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi.

Ushbu hujjat asosida "Milliy qahramon" va "Inson qadri uchun" mavzularida spektakllar yaratish, dramaturg va rejissyorlar uchun maxsus mukofotlar joriy etish, ta'lim va amaliyot uyg'unligini kuchaytirish, ilmiy-tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, teatr jamoalari faoliyatini reyting asosida baholash, nodavlat teatrlarni rag'batlantirish, hududlarda gastrol va madaniy



xizmatlarni kengaytirish, shuningdek, soha xodimlarini KPI asosida moddiy rag'batlantirish va iqtidorli yoshlarni tanlash hamda tayyorlash tizimini takomillashtirish kabi ko'plab ustuvor vazifalar belgilandi.

Buning samarasini biz yurtimiz teatrlarida bir qator jiddiy mavzudagi yuksak saviyali spektakllar sahnalashtirilayotganida ko'rmoqdamiz.

2026-yilning 18–19-aprel kunlari O'zbekiston davlat drama teatrida premyerasi bo'lgan buyuk shoir va mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning bebaho adabiy merosi – "Layli va Majnun" dostoni asosida sahnalashtirilgan spektakl muhim madaniy voqelik bo'ldi.

Bugungi globallashuv davrida turli begona g'oya va madaniy ta'sirlar kuchayib borayotgan bir sharoitda, Navoiy merosi yosh avlodning ma'naviy dunyosini boyituvchi, milliy o'zlikni asrashga xizmat qiluvchi bebaho manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu meros insonni yuzaki ko'ngilochar narsalardan ko'ra, chuqurroq mushohada yuritishga va hayotning mazmuni haqida teran o'ylashga undaydi.

Mumtoz adabiyotimiz durdonalarining teatr sahnasiga olib chiqilishi nafaqat madaniy merosni saqlash, shuningdek, uni xalqchil tilda qayta jonlantirish vositasidir. Sahnadagi har bir chiqish orqali xalqimizning necha asrlik qadriyatlari, milliy o'zligi va ma'naviy ildizlari zamonaviy avlod uchun yangitdan kashf etiladi.

G'oya muallifi va adabiy maslahatchi O'zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sulton, inssenirovka muallifi – Ikrom Iskandar, sahnalashtirish badiiy rahbari – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Olimjon Salimov, sahnalashtiruvchi rejissyor – Asqar Xolmo'minov kabi professional ijodkorlar mehnatining mahsuli bo'lgan ushbu asar jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otdi.

“Layli va Majnun” dostoni shunchaki ikki yoshning fojiaiy muhabbati haqidagi qissa emas, balki inson ruhining yuksalishi va ma’naviy kamolot bosqichlarini yoritib beruvchi yuksak falsafiy asardir.

Unda Qaysning Majnunga aylanish jarayoni – insonning o‘z nafsini jilovlashi, dunyoviy manfaatlaridan voz kechib, ilohiy ishq va mutlaq haqiqatga intilishi ramziy tilda bayon etilgan. Majnunlik sahrodagi uzlatda yashashi uning ichki olamidagi hayvoniy sifatlarni yengib, komil inson darajasiga ko‘tarilganidan dalolat beradi.

Asar insonni sadoqat, hayo va qat’iyat kabi oliyjanob fazilatlar ruhida tarbiyalaydi. Layli siymosidagi iffat va sabr, Majnun obrazidagi cheksiz fidoyilik va ahdga sodiqlik har bir davr kishisi uchun o‘ziga xos axloq maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

Navoiy ushbu doston orqali insonning haqiqiy qiymati uning tashqi ko‘rinishi yoki ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki qalbining pokligi va ezgu g‘oyalar yo‘lidagi ruhiy matonati bilan o‘lchanishini uqtiradi.

Spektaklning o‘ziga xos tomoni – unda Alisher Navoiy obrazining roviy sifatida ishtirok etishidir. Bu tomoshabinlarga Navoiy bobomizning ichki kechinmalarini ko‘rsatib berish imkonini yaratilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, sahna imkoniyatlari yetmaydigan muhim nuqtalarga roviy orqali alohida e’tibor qaratilgan. Spektaklda Navoiy tilidan uning turkiy til qudrati va bu tilda yuksak asar yaratish ishtiyoqi haqidagi mashhur baytlari yangraydi.

Bu esa mutafakkir bobomizning nafaqat ishq kuychisi, shu bilan birga, milliy tilimiz va davlatchiligimiz fidoiysi bo‘lgani yana bir bor namoyon bo‘ladi. Spektaklni ko‘rgan tomoshabin uning ayni shu jihatlariga e’tibor qaratishi joiz.

Mazkur spektakl tomoshabindan muayyan ma’naviy tayyorgarlikni talab etadi. Zero, asarni Navoiy ijodidagi ramziylik hamda tasavvufiy kechinmalarni anglamay turib tomosha qilgan inson, uni Shekspir asarlari ruhida yaratilgan fojiali sevgi qissasi sifatida qabul qilishi mumkin. Aslida esa, bu asar inson ruhining yuksaklikka intilishi, ilohiy ishq va komillik ifodasi sifatida talqin etilgan.

Mazkur spektaklni Shekspirning “Romeo va Julietta” fojiasiga qiyoslash mumkin, biroq ularning mohiyati o‘rtasida ulkan tafovut mavjud. Shekspir tragediyalarida insoniy taqdiralar real hayotiy chizgilar va ehtirosalar fonida tasvirlansa, Navoiy dostonlarida falsafiy mushohada va komil inson g‘oyasi ustuvordir. Bu asarlar shunchaki sevgi qissasi emas, balki ramziy ma’nolar silsi-



lasi orqali inson ruhini poklikka, ma’naviy yuksaklikka chorlovchi bir da’vatdir.

Rejissyor ilohiy ishq haqidagi doston – “Layli va Majnun”ni sahnalashtirar ekan, bejizga uni “Romeo va Julietta” bilan qiyosan sahnalarini qurmagan. Spektakldagi qahramonlarning niqoblarda chiqishi, Romeoning Juliettaga talpingani kabi Qaysning temir konstruksiya yuqorisidagi Layliga talpinishi, ibn Salom va Tibalt kabi qahramonlarning qiyosiy olinishi kabilar Navoiy dostonining nafaqat Sharq afsonasi, shu bilan birga umuminsoniy qadriyatlar ifodasi ekanini ham anglatadi.

Navoiy dahosi va yuksak badiiyatini sahnaga ko‘chirish oson ish emas. Unga mos sahnaviy ifoda vositalarini topish ijodkorlardan katta mahorat talab etadi. Sintetik san’at bo‘lmish teatrdan har bir komponentning o‘z o‘rnida va yuksak saviyada amalga oshirilishi, o‘zaro uyg‘unlik juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sahna ochilib, uning ko‘ndalangiga har yerida narvonlari mavjud, yuqorisida ishtirokchilarning ijrolari uchun hozirlangan yuzaga ega ikki temir konstruksiya bilan ikkiga ajratilgan. Sahna ichkarisida tomoshabinga g‘ira-shira ko‘rinadigan tarzda ishq kuychilari o‘tirishibdi.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Munojot Teshaboyeva hamda artistlar Zarifa Alimqulova, Nodir Begmurodov, Yunus Asqarovlardan iborat bu guruh ijrosidagi hazin qo‘shiqlar, yuraklarni sel qilguvchi nolalar spektaklga ruh bag‘ishlagan bo‘lib, dostonning tub mohiyatini ochishga xizmat qilgan. Umuman, rejissyorning kompozitor Ayepbergen Otegenov bilan hamkorligini samarali bo‘lgan, deyish mumkin.

Spektaklda jaranglagan musiqalarda nafaqat sharqona, shuningdek, Yevropa musiqasi bilan

uyg'un kompozitsiyalar borki, tomoshabinning tasavvurini cheksizliklarga olib ketadi. Sahnaning hech narsasiz faqat g'ildirakli ikki qavatli temirlardan iborat ekani ham, go'yoki, ko'rsatilajak voqealarning bir hudud, bir davr, bir mintaqaga oid emas, bu azal-u abad afsonasi tarzda jonlantirishga imkon bergan.

Sahnalashtiruvchi rassom Mirjalol Xoliqov hamda liboslar bo'yicha rassom Ra'no Xayridinovalarning spektakl badiiy yechimi borasida ishlari ham tomoshabinni e'tiborini o'ziga jalb etadi.

Ssenografiyadagi minimalizm e'tiborni ortiqcha narsalardan saqlab, asosan voqealarga, qahramonlar ruhiyatidagi holatlarga qaratishga yordam beradi. Bunda birgina temir qurilma turli funksiyalarda namoyon bo'lib, spektaklning ramziyligini yanada oshirgan. Ayniqsa, spektakl so'ngida ushbu qurilmaning ikki sevishganning tobuti vazifasini bajargani va ularning qadrini bilmagan barchaning uning tagidan galma-galdan o'tib, go'yo ularni qabrga olib ketilayotgan holatini ifodalaganliklari juda ta'sirli va spektaklning badiiy-g'oyaviy jihatini ochuvchi nuqtadir.

Spektaklda tomoshabinlarning e'tiborini tortuvchi asosiy vosita bu aktyorlar ijrosi hisoblanadi. O'zbekiston xalq artisti Aziza Begmatova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar – Ilhom Berdiyev, Madina To'xtayeva, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Egamberdi Rahimov, shuningdek, Sirojiddin Sattorov, Nodir Muhammadjonov, Bekzod Zokirjonov, Husniya To'ramurotova, Buoysha Ibrohimova, Po'lat Normatov, Yunus Asqarov, Shukurjon So'fiyev kabi iste'dodli aktyorlar tomonidan ijro etilgan rollar spektaklning badiiy ta'sirchanligini yanada oshishishiga xizmat qilgan. Har bir aktyorning obrazga chuqur kirib borishi, sahnadagi tabiiy harakatlari va his-tuyg'ularni ishonarli ifodalashi e'tirofga loyiq.

Ushbu spektakl premyerasi o'zbek teatr san'atining kelajagiga bo'lgan yuksak umidni jonlantirdi. Zero, ushbu spektakl zabardast rejissyor Bahodir Yo'ldoshevning hammaslagi rassom Georgiy Brim bilan tandemdagi ko'plab ishlari, jumladan, Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni asosida (Shuhrat Rizayev inssenirovkasi) sahnalashtirilgan "Iskandar" spektaklini teatr muxlislari yodiga soldi. Har ikkala spektaklda ham tasavvufiy falsafa, inson umri va uning mazmuni borasidagi mushohada yorqin namoyon bo'ladi.

Shuningdek, Asqar Xolmo'minov ushbu spektakl orqali o'zbek teatrining rejissyorlik an'analari tiklaganday bo'ldi. Shu o'rinda, bunday



xulosalar tasodifiy emasligi va teatr san'atining rivoji uchun yetuk rejissyorlar yetishtirib berish muhim ekani anglab, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida rejissyorlarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratib kelinayotganini ta'kidlash joiz.

Bu borada O'zbekiston san'at arbobi Olimjon Salimov, O'zbekiston xalq artisti Valijon Umarovlarning talaba yoshlarga saboq berish uchun institutga jalb etilganligi ta'kidlangan ezgu maqsadlarning ifodasi, deyish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, teatr sahnasidagi mumtoz obrazlar jamiyatda oliyjanob fazilatlar va yuksak estetik didning tantana qilishiga xizmat qiladi. Ushbu spektakl tomoshabin uchun chinakam ma'naviy ozuqa va milliy g'urur manbai bo'lib qolgusidir.

Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi murakkab va tezkor axborot oqimlari davrida teatr san'ati insonni ichki sukunatga, tafakkur va mushohadaga chorlaydigan noyob makon sifatida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ayniqsa, mumtoz merosimizni sahna talqinida namoyish etish orqali yosh avlod ongida milliy o'zlikni mustahkamlash, ularni yuksak ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash imkoniyati kengaymoqda. "Layli va Majnun" kabi asarlar sahnada jonlanar ekan, ular nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki inson qalbida ezgulik, sadoqat va poklik kabi tuyg'ularni uyg'otib, jamiyat ma'naviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bu sahna asarini ko'rgan har bir tomoshabin, Navoiyni o'qigan bo'lsa, tasavvurlari yanada teranlashadi, bordi-yu chuqur o'rganmagan



bo'lsa, uni o'rganishga ishtiyoqi oshadi. Provardida esa ham teatr, ham adabiyotga oshno bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, teatr jamoalari zimmasiga yanada katta mas'uliyat

yuklanadi. Har bir sahna asari tomoshabinga nafaqat zavq, balki fikr, savol va ichki o'zgarish olib kelishi lozim. "Layli va Majnun" spektakli ana shunday asarlar sirasiga kirib, tomoshabinni o'z ruhiy olamiga nazar tashlashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-399-son Qarori. – Toshkent, 2024-yil 22-noyabr.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 9-jild: Layli va Majnun. – Toshkent: Fan, 1992. – 360 b.
3. Alisher Navoiy. Xamsa: Layli va Majnun (Noshir: S. Rafiddinov). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – 256 b.
4. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – 184 b.
5. Sharafiddinov O. Cho'lponni anglash. – Toshkent: Yozuvchi, 1994. – 160 b.
6. S. Tursunboyev. O'zbek teatri tarixi: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2007. – 186 b.
7. Qodirov M. Navoiy va sahna san'ati. – Toshkent, 2000.
8. O'zbekiston davlat drama teatri. "Layli va Majnun" spektakli: premyera dasturi va sahna materiallari. – Toshkent, 2026.
9. Sulton X. Qish ichra bahor // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 2022. – 1-yanvar. – B. 1–2.



Ramz KADIROV,

O'zDSMI "Sahna nutqi" kafedrası professori v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

"IMON" DRAMASINI SAHNALASHTIRISHDA REJISSYORLIK TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Izzat Sultonning "Imon" dramasi rejissyorlik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Asarning g'oyaviy-konseptual asoslari, dramatik konflikt tizimi, personajlar xarakteri va ularning nutqiy ifodasi chuqur ilmiy yondashuv asosida ochib beriladi. Sahnalashtirishda zamon va makon, mizanssena, yorug'lik va musiqa vositalarining o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: drama, rejissyorlik tahlili, sahna nutqi, dramatik konflikt, obrazlar tizimi, psixologik drama, sahnaviy talqin, mizanssena, yorug'lik yechimi, teatr san'ati.

Аннотация. В данной статье анализируется драма Иззата Султана «Имон» с точки зрения режиссуры. Идеологические и концептуальные основы произведения, система драматического конфликта, характеры персонажей и их речевая выразительность раскрываются на основе глубокого научного подхода. Подчеркивается роль времени и пространства, мизансцены, освещения и музыкальных средств в постановке.

Ключевые слова: драма, режиссёрский анализ, сценическая речь, драматический конфликт, система образов, психологическая драма, сценическая интерпретация, мизансцена, световое решение, театральное искусство.

Abstract. This article analyzes Izzat Sultan's drama "Imon" from a directing perspective. The work's ideological and conceptual foundations, the system of dramatic conflict, the characters' personalities, and their expressiveness are explored through a thorough scholarly approach. The role of time and space, staging, lighting, and musical instruments in the production is emphasized.

Keywords: drama, directing analysis, stage speech, dramatic conflict, character system, psychological drama, stage interpretation, mise-en-scene, lighting design, theatre art.

Izzat Sultonning "Imon" dramatik asari zamonaviy o'zbek dramaturgiyasida insonning ma'naviy-axloqiy olamini falsafiy teranlikda talqin etuvchi yetuk badiiy namunalar sirasiga kiradi. Mazkur asarni rejissyorlik nuqtayi nazaridan tahlil qilish, eng avvalo, uning g'oyaviy-konseptual asoslarini aniqlash va sahnaviy talqin yo'nalishini ilmiy asosda belgilab olishni taqozo etadi. Asarning markazida turgan "imon" tushunchasi insonning ichki e'tiqodi, vijdonan pokligi, hayotiy prinsiplarga sodiqligi hamda ilmiy-axloqiy mas'uliyatini ifodalovchi murakkab falsafiy kategoriya sifatida talqin qilinadi. Shu

bois, rejissyorlik yondashuvida "imon"ni faqat g'oya sifatida emas, balki sahnaviy harakatni boshqaruvchi asosiy semantik markaz, ya'ni butun spektaklning ichki energetik o'qi sifatida qabul qilish muhimdir.

Rejissyorlik talqinida ushbu tushuncha personajlar tizimi, dramatik konflikt va sahna makoni orqali izchil ochib borilishi lozim. Ya'ni, har bir obrazning ichki motivatsiyasi, qaror qabul qilish jarayoni va ruhiy holati aynan "imon" mezoni asosida baholanadigan dramatik tizimga joylashtiriladi. Natijada sahnaviy harakat tashqi voqelikdan ko'ra, ichki ruhiy-psixologik jarayonlar



rivoji asosida quriladi. Shuningdek, rejissyor spektaklni qurishda barcha ifoda vositalarini – aktyorlik ijrosi, sahna nutqi, mizanssenalar, yorug'lik va makon yechimlarini yagona g'oyaviy markazga bo'ysundirishi zarur. "Imon" tushunchasi sahnada nafaqat matn orqali, balki vizual va plastik vositalar orqali ham ifodalanishi, ya'ni obrazlarning ichki kechinmalari tashqi sahnaviy belgilar tizimi bilan uyg'unlashgan holda ochilishi kerak.

Asardagi dramatik harakat bir qarashda tashqi voqealarga boy emasdek tuyulsa-da, uning asosiy kuchi ichki, psixologik va axloqiy ziddiyatlarda mujassam. Shuning uchun rejissyorlik yechimida tashqi effektlardan ko'ra ichki dramatismni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Xususan, Orif va Aziza o'rtasidagi ishonch inqirozi, Ozodaning hissiy ikkilanishlari hamda ilmiy muhitdagi halollik va manfaat to'qnashuvi asarning asosiy konflikt qatlamlarini tashkil etadi. Bu konfliktlar sahnada, avvalo, aktyorlik ijrosi orqali – pauzalar, intonatsion o'zgarishlar, nutqiy dinamika va psixologik sukut vositasida ochib berilishi maqsadga muvofiq. Aktyorlar ham ijroda har bir so'zni maqsadli ifodalashi shart. *"Ana shu biror jumlaning gapirayotganda, ijrochi ko'ngildan o'tkazayotgan asl ruhiy holati, niyati, aytmoqchi bo'lgan, lekin boshqa so'zlar orqali ifoda etgan istagiga tub ma'no (podtekst) deyiladi"* [1]. Buni singdirish rejissyorning vazifasi. Rejissyor bu jarayonda har bir personajning ichki dunyosida kechayotgan qarama-qarshiliklarni tashqi harakatga aylantirmasdan, balki ichki kuchlanish sifatida saqlab qolishi zarur.

Asarning sahna makoni ham rejissyorlik talqinida muhim ahamiyat kasb etadi. Voqealar asosan Komilovlar bog'ida kechishi, bir qarashda realistik muhitni anglatganda, aslida chuqur

simvolik mazmunga ega. Bog' – tabiat, poklik va ma'naviy tozalik ramzi sifatida talqin qilinishi mumkin. Shu bilan birga, sahnadagi ichki makon hisoblangan uy muhiti – inson qalbi va uning ichki olamining metaforasi sifatida qaraladi. Rejissyor bu ikki makon o'rtasidagi o'zaro munosabatni yorug'lik, dekoratsiya va aktyorlarning sahnadagi joylashuvi orqali ifodalashi mumkin. Masalan, zinapoya elementi yuqori va past ma'naviy holatlar o'rtasidagi o'tish nuqtasi sifatida xizmat qilib, obrazlar rivojida muhim vizual belgiga aylanadi.

Aktyor o'z rolini u ichki va tashqi harakatlar bilan boyitsagina yaxlit va aniq xarakterlilik paydo bo'ladi. Har bir repetitsiyada kecha o'rganganlarni takrorlash emas, yangilik topish, yangidan ijro etishga o'rganish zarur. Sahnada kichik, o'rta va katta berilgan shart-sharoitlarda aniqlik va izchillikka erishish harakatlar o'zgarishi va o'sib borishi tizimini yaratishdir [2]. Obrazlar tizimida professor Komilov markaziy o'rinni egallaydi. U asarning g'oyaviy va falsafiy ustuni bo'lib, rejissyor uni ortiqcha pafossiz, lekin chuqur ichki ishonch va vazminlik bilan sahnaga ko'chirishi kerak. Uning nutqi falsafiy, mantiqiy izchil va ta'sirchan bo'lishi lozim.

Orif obrazi esa ichki ziddiyatli xarakter sifatida talqin qilinib, uning harakatlari va nutqida ikkilanish, beqarorlik va ruhiy bosim sezilib turishi zarur. Aziza obrazi axloqiy haqiqat va insoniy poklik timsoli sifatida sahnada emotsional kuchga ega bo'lishi kerak; uning ichki dardi, iztirobi va ruhiy og'rig'i aktyorlik ijrosida tabiiy va ta'sirchan chiqishi muhim. Ozoda obrazi esa romantik va ma'naviy poklik ifodasi bo'lib, uning sahnaviy harakatlari yengil, nutqi samimiy va yorqin intonatsiyada bo'lishi rejissyorlik jihatdan to'g'ri yechim hisoblanadi. Sanjarov obrazi esa manfiy kuch sifatida emas, balki ichki qo'rquv va



manfaat ta'sirida shakllangan murakkab shaxs sifatida ochib berilishi lozim. *"Ba'zan xarakter yaratishda tomoshabinni lol qoldirmoq uchun g'ayrioddiy narsalarga o'rin berilishi sahna asarining tabiiyligiga putur yetkazadi. Aktyor ijrosi asar qahramonining xarakteriga, ya'ni originaliga asoslanishi, yaratilgan xarakterni tabiiy mantiqiyli bilan tomoshabin xotirasida uzoqroq va hurmat qozongan holda saqlanishini ta'minlaydi"* [3].

Asarda sahna nutqi alohida ahamiyat kasb etadi. Dialoglar orqali personajlarning ichki dunyosi ochiladi, shuning uchun rejissyor qahramonlarning nutqiy ifodasiga katta e'tibor qaratishi shart. Komilov nutqi vazmin va falsafiy xarakterda bo'lsa, Orif nutqi keskin va o'zgaruvchan, Aziza nutqi hissiy va og'riqli, Ozoda nutqi esa poetik va samimiy tusga ega bo'lishi kerak. Ayniqsa, "imon" tushunchasiga bag'ishlangan monologlar asarning kulminatsion nuqtalari sifatida qurilib, yorug'lik, pauza va sahnaviy markazlashuv orqali kuchaytirilishi maqsadga muvofiq. *"Spektaklda aniq nutqiy xarakter yaratish – sahna asarining sahnaviy nutqini boyitadi, rang-barang bo'lishiga olib keladi. Sahnaviy nutq asarning badiiy yaxlitligini ta'minlovchi omillardan hisoblanadi. Bu borada asar nutqi ustida, personajlar nutqi ustida alohida ishlash va ansamblidagi ularning o'rnini aniq his etish talab etiladi"* [4].

Rejissyorlik ritmi va tempi asarning ta'sirchanligini belgilaydigan muhim omillardan

biridir. Dastlabki sahnalarda lirik va sekin ritm ustuvor bo'lib, tomoshabinni asar muhitiga kiritish vazifasini bajaradi. Keyinchalik konfliktlar rivojlanishi bilan ritm tezlashib, dramatik kuchlanish ortadi. Kulminatsiya nuqtalarida esa, aksincha, ritmning sekinlashuvi orqali falsafiylikka erishiladi va tomoshabinlarni qarorlar bilan yuzlashtiradi. Bu temp o'zgarishlari tomoshabinning emotsional va psixologik qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yorug'lik va musiqa rejissyorlik yechimining muhim tarkibiy qismidir. Tong sahnalarida yumshoq va tabiiy yorug'lik qo'llanilib, poklik va umid kayfiyati yaratiladi. Konfliktli vaziyatlarda kontrast yorug'lik orqali dramatik kuchlanish oshiriladi. Kulminatsiyada esa markazlashgan nur orqali asosiy g'oya va personaj ichki holati ajratib ko'rsatiladi. Musiqa jihatidan esa ortiqcha yuklamadan qochib, tabiat ovozlari, lirik musiqa va ba'zi hollarda sukutdan foydalanish orqali ichki dramatismni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, "Imon" dramasi rejissyor uchun tashqi harakatdan ko'ra ichki ruhiy jarayonlarni ifoda etishga asoslangan intellektual-psixologik asar namunasidir. Ushbu asarni muvaffaqiyatli sahnalashtirish uchun rejissyor inson qalbidagi ishonch, shubha va vijdon o'rtasidagi kurashni chuqur va ta'sirchan shaklda ochib berishi, barcha sahnaviy vositalarni yagona g'oya – "imon" tushunchasini yoritishga bo'ysundirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nosirova A. Sahna nutqi. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 220 b.
2. Qodirov R. Rejissura asoslari (O'zbekiston xalq artisti Bahodir Yo'ldoshev ijodi misolida). Monografiya. – Toshkent: O'zDSMI, 2015. – 156 b.;
3. Qodirov R. Sahna asarlarida xarakter yaratish // Teatr. – 2018. – № 5.
4. Qodirov R. Talaba-aktyorlar bilan nutqiy xarakter ustida ishlash usullari // Madaniyat chorrahalari elektron jurnali. – 2022. – 4-jild, 4-son.

Shakir YUSUPOV,

O'zDSMI "Sahna nutqi" kafedrası professori v.b.



"KUZ" SPEKTAKLIDA SHARQ VA SHIMOL ADABIY AN'ANALARINING SAHNA SINTEZI

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti O'quv teatri sahnasida namoyish etilgan "Kuz" spektakli haqida. Asar Shved dramaturgi Avgust Strindbergning hikoyasi va O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning she'riy satrlari asosida yaratilgan bo'lib, spektaklda ijodiy jamoa, asosiy rollarni ijro etgan yosh san'atkorlar mahorati va asarning g'oyaviy-badiiy ahamiyati ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: sahna san'ati, yosh aktyorlar, pedagogik mahorat, Strindberg, Usmon Azim, Shopen, teatr pedagogikasi, ijodiy jamoa.

Аннотация. В данной статье анализируется спектакль «Осень», представленный на сцене Учебного театра Узбекского государственного института искусств и культуры. Произведение создано на основе рассказа шведского драматурга Августа Стриндберга и поэтических строк народного поэта Узбекистана Усмона Азима. В статье анализируются творческий коллектив постановки, мастерство молодых исполнителей главных ролей, а также идейно-художественное значение спектакля.

Ключевые слова: сценическое искусство, молодые актёры, педагогическое мастерство, Стриндберг, Усман Азим, Шопен, театральная педагогика, творческий коллектив.

Abstract. This article analyzes the play "Autumn," performed at the Educational Theater of the Uzbek State Institute of Arts and Culture. The work is based on a story by Swedish playwright August Strindberg and poetry by Uzbek national poet Usmon Azim. The article examines the creative team, the performances of the young lead actors, and the play's ideological and artistic significance.

Keywords: stage art, young actors, pedagogical mastery, Strindberg, Usmon Azim, Chopin, theatre pedagogy, creative team.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining O'quv teatri sahnasida yaqinda "Kuz" spektakli namoyish etildi. Ushbu sahna asari – buyuk shved dramaturgi Avgust Strindbergning "Kuz" nomli hikoyasi [1] va O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning kuz mavsumiga bag'ishlangan she'riy satrlari [2] asosida yaratilgan nodir ijodiy mahsuldir. Spektakl san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor Temur Rashidov tomonidan sahnalashtirilgan bo'lib, kursning badiiy rahbari

– professor Mahmud Rashidov [3]. Spektakl GITS festivalida birinchi o'rinni egalladi, bu esa butun ijodiy jamoa – ham ustozlar, ham yosh san'atkorlarning munosib e'tirofi bo'ldi.

Spektaklning yaratilish jarayonida bir qator ta'lim fanlari bo'yicha ustozlarning birlashgan pedagogik mehnati o'z aksini topdi. «Aktyorlik mahorati» fani bo'yicha dotsent Shavkat Rasulov va O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist, dotsent Muhabbat Gulyamova



tomonidan yillar davomida shakllangan aktyorlik asoslari yosh san'atkorlarning sahna ijrosida yaqqol namoyon bo'ldi. Ayniqsa, personajlarning ichki kechinmalarini mimika va plastika orqali bera olish, har bir dialogda tirik aloqa o'rnatish mahorati Rasulov va Gulyamovaning chuqur pedagogik ta'sirini ko'rsatadi [4].

"Sahna nutqi" fani bo'yicha kafedra dotsentlari Isaktoy Jumanov va Umida Ibragimova mehnati spektaklda ayniqsa sezilarli. Ijrochilarning nutqi aniq, ifodali va sahna talablariga to'la javob beradigan darajada. So'zning vazni, pauzalar, intonatsiya – bularning barchasi tomoshabinga matn mazmunini nafaqat eshittirish, balki his ettirish imkonini bergan. Sahna nutqi – aktyorning ko'rinmas, ammo eng kuchli qurolidir; ushbu spektaklda ijrochilarning har bir jumlasida ana shu quroldan mohirona foydalanishni kuzatish mumkin [5].

"Raq's" fani bo'yicha professor Nasiba Abrayqulova rahbarligida o'zlashtirilgan plastik madaniyat spektaklning umumiy estetik qiyofasini belgilovchi muhim omilga aylandi. Harakatlarning musiqa bilan sinxronligi, tananing ifoda vositasi sifatidagi mahorati – bularning barchasi professor Abrayqulovaning chuqur mutaxassislik tayyorgarligi samarasidir.

"Vokal" fani bo'yicha dotsent Aynisa Yuldasheva rahbarligida shakllangan ovoz madaniyati ijrochilarning nutqiy va kuylovchilik qobiliyatida o'z ifodasini topgan. Spektaklda ovoz nafaqat so'z tashuvchi, balki hissiy ma'no tashuvchi vositaga aylangan. "Plastika" fani bo'yicha dotsent Olga Ostanina o'z o'quvchilariga ana shu ma'noli plastikani – harakat orqali gapirish san'atini singdirishda muvaffaq bo'lgan.

Musiqiy bezakni tayyorlagan Hilola Xolmatova Frederik Shopen asarlarining tarjimonlik talqinlaridan muvaffaqiyatli foydalandi [6]. Shopen musiqasining melanxolik va falsafiy ruhi Strindberg dramaturgiyasi va Usmon Azim she'riyatiga g'oyaviy hamohang bo'lib, sahnada yaxlit, bir-birini to'ldiruvchi emotsional muhit yaratdi. Noktyurnlar va prelyudiyalar orqali yaratilgan musiqiy fon spektaklning har bir lahzasida o'z o'rnini topgan.

Spektaklda uch avlod vakillari obrazlari markaziy o'rinni egallaydi. Kichik avlodni Sh.Hakimov va A.Nuruddinova ijro etishdi. Yosh aktyorlarning sahnaga ishonchi, obrazga kirib ketish erkinligi va partnyor bilan muloqoti alohida diqqatga sazovordir. Shohrux Hakimov o'z personajining samimiy dunyoqarashini va his-tuyg'ularining kengligini tabiiy tarzda ochib berdi. Aziza Nuruddinova esa nozik ichki kechinmalarni, ayolning sezgiriligini va yoshlik umidini mimika va nutq orqali jonli aks ettirdi.

O'rta avlodni Ramziddin Lutfullayev va Oydinoy Islomjonova ijro etdi. R.Lutfullayev sahnada psixologik holat va xarakterning keskin ziddiyatlarini ko'rsata bildi. Uning personaji hayot va muhabbat haqidagi og'riqli savollar bilan yuzlashgan, lekin hayotga nisbatan umidini yo'qotmagan inson sifatida ishonarli chiqqan. O.Islomjonova esa ayolning ichki kuchini, kechirimlilikini va oila uchun kurashini zo'r mahorat bilan ifoda etdi.

Katta avlodni Shahina Istatqulova va Sardor Azimov ijro etdi. Shahina Istatqulova umrbod yig'ilgan hayotiy tajribani, keksalik nafosatini va onalik mehrini sahnada haqiqiy inson hissiyotlari darajasida gavdalantirdi. S.Azimov esa chindan ham pishiq aktyorlik mahoratini namoyish etib, o'z personajining qariyb bir umr dardini tana tili va nutq orqali mukammal chiqardi. Uch avlodning sahnadagi o'zaro munosabati asarning bosh g'oyasini – vaqt o'tishi, avlodlar davomiyligi va insoniy yaqinlik mavzularini to'la ochib berdi.

Spektaklning asosiy badiiy xususiyati – ikki buyuk adabiy an'ananing organik birikuvidir. Avgust Strindberg (1849–1912) – shved adabiyotining buyuk vakili, uning asarlari jiddiy psixologik va kuchli dramatism bilan ajralib turadi. Usmon Azimning she'riy satrlari esa asarga Sharqona lirizm va falsafiy teranlik baxsh etadi. Shoirning kuz faslini inson ruhiyatining ko'zgusi sifatida tasvirolovchi she'rlari spektaklning emotsional qatlamini boyitadi:

*Kuz – mening sen tomon uzatgan qo'lim,
Boqqa cho'z qo'lingni... Yarashamizmi?
Osmonga qaragin, kengayib ketdi,
Qancha g'ussa bo'lsa sig'ar olamga.*



Ushbu satrlar spektaklning bosh mavzusi – kechirishni, bir-biriga yaqin bo'lishni juda aniq va teran ifodalaydi. Shoirning boshqa she'ridan olingan:

*Zamin bilan osmon – sen-u menman,
Sahar bilan oqshom – sen-u menman.
Yer-u osmon aro bir ishq bordir –
Ishqdan bunyod hijron – sen-u menman.*

satrlari spektakl vujudini to'ldirgan muhabbat va firoq falsafasini ifoda etadi. Yana bir she'rdan olingan:

*Qahraton o'tinchi – to'nmoq o'tinchi,
Bahor o'tinchidir – unmoq o'tinchi.
Yoz ham o'tinchidir – to'lmoq o'tinchi –
Faqat kuzak cheksiz – so'lmoq cheksizdir.*

satrlari asarning umumfalsafiy xulosasini ifodalab, Strindberg matnining g'oyaviy markazini yanada chuqurlashtiradi. Ikki madaniyatning – Shimol sovuqligi va Sharq issiq qalbining – bir sahnada jamlanishi spektaklni noyob hodisaga aylantirdi.

O'quv teatri direktori Nurilla Usmonov tashkiliy

masalalarni uddalashda ijodiy jamoaga muhim ko'mak ko'rsatdi. Spektaklning sahnaga qo'yilishi barcha ijodiy, pedagogik va tashkiliy kuchlarning uyg'un harakati natijasida amalga oshdi [7].

“Kuz” spektakli teatr san'atining maqsadi nima ekanini yana bir bor eslatdi. Tomoshabinni baland pardalar bilan emas, inson qalbini titratuvchi sokin savollar orqali o'yga cho'mdirgan bu asar vaqt o'tib borgan sari nima yo'qoladi? Bizdan nima qoladi? Odamlar orasidagi haqiqiy yaqinlik nima? – degan savollarga har bir tomoshabin o'zi javob topishiga imkon yaratadi. U nafaqat tomosha, balki ruhiy poklanish, qalbgga aytilgan sukut so'zidir.

Xulosa qilib aytganda, “Kuz” spektakli O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida olib borilayotgan yuksak pedagogik mehnatning samarasi, yosh avlodga berilayotgan professional ta'limning yaqqol namunasidir [8]. GITS festivalidagi birinchi o'rin esa butun ijodiy jamoaning – ustozlar va shogirdlarning birgalikdagi mehnatiga berilgan munosib bahodir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Стриндберг А. Танланган асарлар. – Москва: Искусство, 1986. – 510 с.
2. Usmon Azim. Ishq dostoni: She'rlar. – Toshkent: Sharq, 2005. – 224 b.
3. Rahimov T.R. O'zbek teatri tarixi. – Toshkent: Fan, 2010. – 312 b.
4. Станиславский К.С. Актёрлик санъатида ўзингни тайёрлаш. – Москва: Искусство, 1985. – 479 с.
5. Петрова А.Н. Сценическая реч. – Москва: Искусство, 1981. – 292 с.
6. Козлянинова И.П., Чарели Э.М. Тайны нашего голоса. – Екатеринбург: Диамант, 1992. – 320 с.
7. Normatov A.B. Pedagogik muloqot madaniyati. – Toshkent: TDPU, 2020. – 88 b.
8. Karimova M.S. Bolalar san'at maktablarida integratsiyalashgan ta'lim. – Toshkent: O'zDSMI, 2021. – 76 b.



Shahribonu IMOMOVA,
“Guliston” va “Teatr” jurnallari birlashgan
tahririyati bosh muharriri

ASKIYA VA QIZIQCHILIKDA TEATR SAN’ATINING O’RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodining muhim janrlari hisoblangan askiya va qiziqchilik san’atining milliy teatr shakllanishidagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Ularning sahnaviylik, obrazlilik, improvizatsiya, dramaturgik element va ijtimoiy tanqid kabi xususiyatlari o‘rganilib, professional teatr san’ati bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy asoslab beriladi. Ayni paytda an’anaviy ommaviy tomoshalar zamonaviy teatr estetikasiga qanday ta’sir ko‘rsatishi bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: askiya, qiziqchilik, xalq teatri, milliy teatr, improvizatsiya, dramaturgiya, aktyorlik mahorati, sahna madaniyati.

Аннотация: В данной статье представлен научно-теоретический анализ роли искусства аскии и комедии, которые считаются важными жанрами узбекского народного устного творчества, в формировании национального театра. Изучены их особенности, такие как сценичность, образность, импровизация, драматургические элементы и социальная критика, а также обоснована их тесная связь с профессиональным театральным искусством. Показано также влияние народных исполнительских традиций на современную театральную эстетику.

Ключевые слова: аския, комедия, народный театр, национальный театр, импровизация, драматургия, актерское мастерство, сценическая культура.

Abstract. This article presents a scientific and theoretical analysis of the role of askiya and comedy, considered important genres of Uzbek folklore, in the development of national theater. Their characteristics, such as theatrical performance, imagery, improvisation, dramatic elements, and social criticism, are examined, and their close connection with professional theater art is substantiated. The influence of folk performance traditions on modern theatrical aesthetics is also demonstrated.

Keywords: askiya, comedy, folk theater, national theater, improvisation, dramaturgy, acting, stage culture.

Har bir xalqning milliy teatri uning madaniy ildiz va an’analari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. O‘zbek teatri ham bevosita xalq og‘zaki ijodi namunalari, askiya va qiziqchilik san’ati negizida rivojlanib kelmoqda. Teatr san’ati daf’atan hozirgi professional shaklga kirib qolmagan. O‘tmishda u sahnaviy ko‘rinish, hajviy chiqish va tomosha shaklida mavjud bo‘lib, keyinchalik shakl-u shamoyili, mazmun-mundariyasi kengayib boravergan.

Askiya va qiziqchilik nafaqat ko‘ngilochar janr, balki ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi, axloqiy qadriyatlarni targ‘ib etuvchi va jamiyatdagi muammolarni yorituvchi badiiy vosita sifatida xizmat qilgan. Shu nuqtayi nazardan, ularni milliy teatrsan’atiningtarixiyvaestetikpoydevorisifatida baholash mumkin. Askiya – bu hozirjavoblikka asoslangan so‘zlashuv musobaqasi bo‘lib, u qiziqchining zehniyl salohiyati va nutq madaniyatini namoyon etadi. Askiyabozlar



muayyan mavzu doirasida so'z o'yini, kinoya va ramziy ifoda orqali fikr almashadilar. Masalan, manman amaldor, soddagina dehqon, ta'magir shifokor yoki ziyrak tadbirkor obrazi orqali jamiyat hayotida uchraydigan turfa xarakterlar ochib beriladi. Bu esa teatrdagi obraz yaratish jarayoni bilan uyg'unlik kasb etadi.

Askiya – faqat kulgi emas, tafakkur maktabi. Askiya ko'pincha shunchaki kuldiradigan so'z o'yini sifatida tasavvur qilinadi. Aslida u xalqning topqirligi, hozirjavoblighi, til sezgisi va ijtimoiy kuzatuvchanligini namoyon etadigan yuksak og'zaki san'atdir.

YUNESKO Askiyani 2014-yilda Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Reprezentativ ro'yxatiga kiritgan. Bu uning nafaqat milliy, balki umuminsoniy madaniy qadriyat sifatida e'tirof etilganini ko'rsatadi.

Qiziqchilik xalq tomoshalarining eng qadimiy va ommaviy shakllaridan biri hisoblanadi. Unda kulgi, hajv, sahnaviy harakat va jismoniy ifoda muhim ahamiyatga ega. Qiziqchilik san'ati quyidagi dramaturgik elementlar bilan tavsiflanadi:

- ➔ syujet mavjudligi;
- ➔ qahramon va qarshi qahramon;
- ➔ komik konflikt;
- ➔ kulminatsiya va hal etuvchi holat.

Bu elementlar professional dramaturgiya qoidalari bilan mushtarakdir. Qiziqchilar o'z chiqishida nafaqat so'z, balki imo-ishora, jest va harakatlardan ham foydalanishi mumkin. Bu aktyorlik mahoratining muhim jihati ekanligi sir emas. Qadimda qiziqchilar sayil, to'y va katta-kichik milliy bayramlarda chiqish qilganlar.

Ularning tomoshasi ommaviy xarakterda bo'lib, tomoshabin bilan yuzma-yuz muloqotga asoslangan. Bu jihat aslida, interaktiv teatr elementlariga yaqindir. Askiya va qiziqchilik san'ati aktyorlik mahoratini shakllantirishda o'ziga xos maktab vazifasini o'tagan.

Ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilganimizda, askiyachi va aktyor uchun eng muhim mezonlar borki, bularsiz ular ijodi rivojlanmaydi. Ulardan asosiylarini sanab o'tamiz:

Nutq texnikasi askiyachi uchun birinchi talab bo'lib, u ravon, aniq va ta'sirchan ruhda bo'lishi kerak. Bu esa teatr aktyori uchun ham muhim talabdir.

Psixologik tayyorgarlik – improvizatsiya jarayonida ijrochi tez fikrlash va vaziyatni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Sahna harakati – qiziqchilikda harakat va plastika muhim ahamiyatga ega. Bu jihat zamonaviy teatrd ham sahna harakati bilan uzviy bog'liq.

Improvizatsiya – bu ijodiy erkinlikning namoyon bo'lishidir. Zamonaviy teatrd, ayniqsa, komediya janrida improvizatsiya keng qo'llaniladi. Bu askiya san'ati an'analari davomiyligini ko'rsatadi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o'zbek xalq teatri shakllana boshladi. Jadidlik harakati keng quloch yoygan davrda sahnaviy asarlar tomoshabin hukmiga havola etildi. Biroq bu jarayon mutlaqo yangi hodisa, deb baholanmadi. Chunki allaqachon sahnaviy madaniyat shakllangan edi.

Askiya va qiziqchilik an'analari quyidagi jihatlar orqali teatr san'atiga ta'sir ko'rsatdi:



- ✓ sahna nutqi madaniyati;
- ✓ tomoshabin bilan muloqot;
- ✓ komik obrazlar yaratish;
- ✓ ijtimoiy tanqid.

Ko'plab aktyorlar xalq tomoshalarida qatnashib, o'zining ijodiy qirralarini o'stirgan, rivojlantirgan. Shu bois, milliy teatrni xalq ijodiyotidan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Askiya va qiziqchilik san'atida kulgi faqat ko'ngil ochish vositasi emas. U tanqidiy fikrlashni rag'batlantiruvchi ijtimoiy mexanizmga aylanib ulgurdi. Yumor orqali adolatsizlik tanqid qilinib, axloqiy me'yorlar mustahkamlanadi, ijtimoiy tenglik g'oyasi ilgari suriladi.

Masalan, "Ilm va diplom" to'g'risida bo'lgan aksiyani ko'rib chiqaylik.

(Uch nafar askiyachi gurunglashib o'tiribdi)

1-askiyachi: – Hozir odamlarimiz shunaqa bilimli bo'lib ketganki, uyidagi kitob javonida turgan kitoblarni emas, balki "Instagram"dagi mashhurlarning nechta kiyimi borligini yoddan bilishadi. Kitobning varag'ini ochishsa – uyqu keladi, telefonning ekranini ochishsa – uyqu qochadi.

2-askiyachi: – E, bu nimasi! Hozir ba'zi "madaniyatli" yoshlarimiz uchun diplom – bu bilim belgisi emas, balki to'yda qiz tomonga ko'rsatiladigan "vizitka" bo'lib qoldi. Universitetga bilim olish uchun emas, "Diplomi bor ekan" degan nom olish uchun borishadi.

3-askiyachi: – To'g'ri aytasiz. Yaqinda bittasidan so'rasam: "Nima uchun o'qiyapsan?" deb, u bo'lsa: "Otam aytdilar, diplom bo'lsa, hech bo'lmasa birorta idoraga borib konditsionerning tagida o'tirasan," deydi. Ilm olish emas, salqin joyda o'tirish – asosiy maqsad!

1-askiyachi: – Shuning uchun ham hozir madaniyatimiz "virtual" bo'lib ketyapti. Avtobusda

bitta nuroniy otaxon chiqsa, yoshlar darrov "madaniyatli" bo'lib, ko'zini yumib, musiqa eshitib, "uxlab" qolishadi. Tezroq uyg'onishlari uchun faqat "Wi-Fi" o'chib qolishi kerak.

2-askiyachi: – Eng achinarlisi, hozir kitob do'konlariga kirsangiz – odam kam, lekin "Fast-food" xonalarda navbat shunaqaki, go'yoki u yerda tekinga "aql" tarqatilyapti. Qorin to'q, lekin kalla... "quvvatlagich" kutyapti.

Xullas, madaniyat – bu faqat chiroyli kiyinish yoki qimmat telefon ko'tarib yurish emas. Haqiqiy madaniyat – bu kitobning qadrini bilish, navbatda turishni o'rganish va odamlarga chin ko'ngildan hurmat ko'rsatishdir. Bunday payrovlar orqali madaniyatli jamiyatning ichki nuqsonlari – **yuzaki bilimdonlik, kitobxonlikning pasayishi va jamoat joylaridagi odob masalalari** tanqidiy-hazil ruhida ifodalanadi.

Eski askiyalarning asosiy qoidalari:

Tezlik: Javob soniyalar ichida aytilishi kerak.

Parda: Gap ochiq aytilmaydi, qiyoslash orqali yetkaziladi.

Luqma: Boshqa askiyachining gapini "ilib" ketish

Masalan, **"Qovun" mavzusidagi askiyani ko'rib chiqsak.**

1-askiyachi: – Mana bu birodarimiz shunaqa **"oq urug"** qovunki, uzoqdan yaraqlab ko'rinadi, lekin ichiga pichoq ursangiz, hali pishmagan, "xom" chiqadi.

2-askiyachi (darrov javob qaytaradi): – Mayli, men "oq urug" bo'lsam bo'lay, lekin sizga o'xshab **"bo'rikalvak"** emasman – siringiz olabula, ko'rgan odam qo'rqib ketadi, ichingiz esa faqat suv!

3-askiyachi (birinchisiga): – Siz bu kishini qo'ying, o'zingiz **"qizil gulobi"** bo'lib qolibsiz. Rangingiz qip-qizil bo'lgani bilan, bozorda hech kim olmaydigan, ezilib ketgan "shalop" qovunning o'zginasisiz-ku!

1-askiyachi: – Ha, biz-ku "gulobi" ekanmiz, lekin siz **"qirqma"** qovunsiz. Na mazasi bor, na hidi bor. Faqat polizda yer egallab yotibsiz, xolos.

Qadimiy askiyada **shaxsiyatga tegmay**, faqat o'xshatish bilan raqibni mot qilish asosiy mahorat hisoblangan.

Xullas, askiya san'ati jamiyatdagi nuqsonlarni xalqqa yetkazishda asosiy usul vazifasini o'tagan. Yoki insondagi qusurlarni ayni yumir orqali yetkazish urf bo'lgan. Ushbu san'at turini asrab kolib, kelajak avlodga yetkazish maksadida davlatimiz rahbarining "Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, Marg'ilon shahrida Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi

Teatr

respublika askiya va qiziqchilik san'ati markazi tashkil etildi. Markazning asosiy vazifalari etib:

→ askiya va qiziqchilik ijrochiligi yo'nalishida "Ustoz-shogird" an'alarini rivojlantirish, iste'dodli yoshlarni tarbiyalash, ularning ijodiy salohiyatini qo'llab-quvvatlash, madaniyat va ta'lim muassasalarida askiya va qiziqchilik san'ati to'garaklarini tashkil etish;

→ o'zbek xalq og'zaki ijodining askiya va qiziqchilik san'atini saqlash va targ'ib etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish;

→ askiya va qiziqchilik bilan shug'ullanuvchi ijodkorlarga har tomonlama ko'maklashish, ommaviy bayramlar va madaniy tadbirlarda ularning faol ishtirokini ta'minlash, mam-lakatimizda va xorijiy davlatlarda gastrol faoliyatini amalga oshirish, festival, ko'rik-tanlov, ijodiy kechalar, askiya va qiziqchilik tomoshalarini tashkil etish;

→ askiya va qiziqchilik san'atining "payrov", "qofiya", "bahri-bayt", "afsona", "radif", "aytishuv", "rabbiya" kabi noyob shakllarini asrash va targ'ib etish, sahnaviy syujetlarini rivojlantirish hamda iste'dodli so'z ustalarining ijod fondini va maxsus adabiyotlarni yaratish.

Endilikda har yili so'z ustalari va qiziqchilar o'rtasida "Xush kayfiyat" respublika ko'rik-tanlovi hamda askiya kechalari o'tkaziladi.

Askiya va milliy qiziqchilik san'atimizni jahon miqyosida targ'ib qilish maqsadida har ikki yilda bir marta "Tabassum" xalqaro kulgi festivalini tashkil etish rejalashtirilgan.

Endilikda madaniyat markazlari, madaniyat va san'at yo'nalishidagi ta'lim tashkilotlarida askiya va qiziqchilik san'ati to'garaklari ochildi.

Ijodiy jamoalar va yozuvchi-dramaturglar tomonidan birgalikda yaratilgan hajviy asarlarni sahnalashtirish va aholiga xush kayfiyat ulashishga qaratilgan konsert-tomosha tadbirlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida:

✓ har yili kamida 3 ta ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi tanlovlar asosida shakllantiriladi;

✓ har yili kamida 5 ta sahnada namoyish etishga mo'ljallangan hajviy asar uchun davlat buyurtmasi beriladi;

✓ ijodiy tanlov asosida erkin ijodkor va jamoalar tomonidan har yili kamida 10 ta konsert-tomosha tadbiri va askiya kechalariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar qoplab beriladi;

✓ har yili kamida 25 ta yuksak badiiy saviyadagi Internet va ijtimoiy tarmoqlar uchun mo'ljallangan audiovizual asarlar yaratish uchun davlat buyurtmasi beriladi. Bunda eng keng



ommalashgan 5 ta audiovizual asar ijodkorlari Madaniyat vazirligi hay'atining qarori bilan bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanadi. Karim Zaripov nomidagi Respublika estrada va sirk kolleji hamda Farg'ona ixtisoslashtirilgan san'at maktabida "Askiya va qiziqchilik san'ati" yo'nalishi ochiladi.

Bugungi kunda markazda bir-biridan ajoyib loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, vodiy teatrlari bilan hamkorlikda ko'plab spektakllar sahnalashtirila boshlandi.

Jumladan, davlat buyurtmasi asosida tayyorlangan "Kulgu karvoni" spektaklida xalqimiz ma'naviyatini yuksaltiruvchi, milliy kulgi san'atini tarannum etuvchi ruh yaqqol seziladi. Rejissyor Fatxulla Xo'jayev tomonidan sahnalashtirilgan ushbu asar o'zining mazmun-mohiyati, sahna dekoratsiyasi, kulgi va ijtimoiy ishoralarga boy g'oyaviy yondashuvi bilan tomoshabinlarga manzur bo'ldi.

Spektaklning e'tiborga molik jihati nimada? Unda yosh askiyachilar faol ishtirok etgani e'tirofga arziydi. Ularning sahnadagi dadilligi, og'zaki ijodiyoti, improvizatsiyaga boy chiqishlarini tomoshabin olqishlab kutib oldi. Ustoz-shogirdlik an'alarining bardavomligi, yoshlarning bu san'atga mehr bilan yondashayotganlari "Kulgu karvoni" spektaklini askiyabozlik maktabining jozibador namunasiga aylantirdi.

Askiyaga boy, kulgiga to'la, mazmunga xos spektakl mutaxassislar tomonidan yuqori baholandi. Bu kulgi san'atining yana sahnaga qaytayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, spektaklda latifa va improvizatsiyaning ko'paytirilishi tomoshabinni befarq qoldirmaydi. Ekspertlar fikriga ko'ra, "Kulgu karvoni" tomoshabiniga nafaqat kulgu, balki tarbiya, hayotiy haqiqat va milliy ruh kayfiyatini tortiq qiladi.

"Tabassum" kulgi teatri 1980–1990-yillarda shakllangan bo'lib, milliy qiziqchilik va askiya an'alariga tayangan. Teatr repertuaridan maishiy-ijtimoiy mavzudagi sahna ko'rinishlari,



askiyaga asoslangan jonli bahslar, qiziqarli dialoglar o'rin olgan edi. "Tabassum" kulgi teatri – o'zbek milliy yumor va satira an'alariga asoslangan sahnaviy jamoa bo'lib, XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan. Teatr repertuarida askiya, qiziqchilik, sahna miniatyuralari va maishiy-ijtimoiy mavzudagi komedik ko'rinishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. U folklor va professional teatr o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi. Uning tomoshalarida hozirjavob dialog, mimika va plastika, milliy kolorit, xalqona obrazlarga keng o'rin berilgan.

"Tabassum" kulgi teatrining o'ziga xosliklari nimada edi, degan savol tug'iladi. U juda ham oddiy jihatlarni o'ziga jamlagan. Ya'ni, u kulgi madaniyatini saqlashga xizmat qilgan, askiya va qiziqchilikni professional sahnaga olib chiqqan, yosh ijrochilar uchun maktab vazifasini bajargan, zamonaviy o'zbek komediya teatri shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

"Tabassum" kulgi teatri – o'zbek xalq yumor an'alarini zamonaviy sahna talablari bilan uyg'unlashtirgan ijodiy jamoa hisoblanadi. U folklor va teatr san'atining sintezi sifatida madaniyatshunoslik va teatrshunoslik nuqtayi nazaridan muhim tadqiqot obyektidir. Ilmiy jihatdan qaralganda, "Tabassum" tomoshalarini xalq og'zaki ijodini professional sahna dramaturgiyasi bilan uyg'unlashtirgan namuna sifatida baholash mumkin. Bu yerda askiya janri

sahnaviy kompozitsiya, rejissyorlik yechimi va aktyorlik mahorati bilan boyitilgan.

Askiyaning YUNESKO nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga kiritilishi uning xalqaro darajadagi obro'-e'tiborini oshirib yubordi. Bu esa o'zbek xalqi teatr an'alarining jahon madaniy makonida ham e'tirof etilganini anglatadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, askiya va qiziqchilik san'ati o'zbek milliy teatrining tarixiy va estetik ildizini tashkil etadi. Ularning improvizatsiyaviylik, obrazlilik, dramaturgik element va ijtimoiy mazmun kabi xususiyatlari professional teatr san'ati bilan uzviy bog'liqdir.

Bugungi kunda askiya san'atini avloddan avlodga qoldirish maqsadida "Askiya sayllari" tashkil etilmoqda. Askiya san'ati nafaqat san'atimizning, balki milliy an'ana va qadriyatlarimizning ham ajralmas qismi. Shuning uchun ham askiya san'atini rivojlantirishimiz, yoshlarning askiyaga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirishimiz lozim. Kelgusida ham "Askiya sayllari"ni muntazam ravishda o'tkazish rejalashtirilgan.

Xalqona an'analarni chuqur o'rganish va ularni zamonaviy teatr amaliyotiga tatbiq etish milliy madaniyat rivojini belgilaydi. Shu bois, askiya va qiziqchilikni nafaqat folklor janri, balki milliy teatr estetikasining muhim tarkibiy qismi sifatida tadqiq etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san'atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida: PQ-222-son qaror, 2023-yil 11-iyul.
2. Rahmonov M. O'zbek teatri tarixi. – Toshkent: Fan, 1975.
3. Qodirov M. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1967 yil.
4. O'zbek milliy ensiklopediyasi. – Toshkent. 2000–2005 (ko'p jildli nashr).
5. Abdullayev A. Teatr nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1988.
6. Madaniyat va san'at sohasiga oid ilmiy to'plamlar. 2010–2022-yillardagi nashrlar.

Feruzaxon QODIROVA,
O'zDSMI tayanch doktoranti



XALQ O'YINLARI VA MASXAROBOZLIK AN'ANALARINING ZAMONAVIY TALQINI: "BOZ MASXAROBOZ" SPEKTAKLI MISOLIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada Olimjon Salimovning "Boz masxaraboz" spektakli misolida o'zbek xalq o'yinlari va masxarabozlik an'alarining zamonaviy sahna tiliga transformatsiyasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda pantomima, plastika, mimika, ritm va mizanssena semantikasi orqali shakllangan "plastik dramaturgiya" tamoyillari, shuningdek, "etnoteatr" paradigmasining an'ana va zamonaviylik dialektikasidagi o'rni yoritiladi. Maqola natijasida masxarabozlik an'anasining professional teatr tizimida qayta kontekstualizatsiyasi va universal sahna tili sifatidagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: etnoteatr, masxarabozlik an'analari, plastik dramaturgiya, sahna semiotikasi, pantomima, interaktiv teatr.

Аннотация. В данной статье на материале спектакля Олимжона Салимова «Боз масхарабоз» научно анализируется современная трансформация узбекских народных игр и традиций буффонады в язык современной сцены. Исследование раскрывает принципы «пластической драматургии», сформированные через пантомиму, пластику, мимику, ритм и семантику мизансцены, а также роль парадигмы «этнотеатра» в диалектике традиции и современности. В результате научно обосновывается значение реконтекстуализации традиций буффонады в профессиональном театре как универсального сценического языка.

Ключевые слова: этнотеатр, традиции буффонады, пластическая драматургия, сценическая семиотика, пантомима, интерактивный театр.

Abstract. This article, using Olimjon Salimov's production "Boz Maskharaboz," provides a scholarly analysis of the contemporary transformation of Uzbek folk games and buffoonery traditions into the language of the contemporary stage. The study explores the principles of "plastic dramaturgy" shaped by pantomime, movement, facial expressions, rhythm, and the semantics of mise-en-scène, as well as the role of the "ethno-theater" paradigm in the dialectic of tradition and modernity. As a result, the importance of recontextualizing buffoonery traditions in professional theater as a universal theatrical language is scientifically substantiated.

Keywords: ethnotheatre, buffoonery traditions, plastic dramaturgy, stage semiotics, pantomime, interactive theatre.

Zamonaviy sahna san'ati globalizatsiya jarayonlari, raqamli madaniyatning ta'siri va an'anaviy qadriyatlarning transformativ o'zgarishlari sharoitida milliy teatr identifikatsiyasini

saqlash hamda uni zamon talablariga moslashtirish dolzarb ilmiy-amaliy muammoga aylangan. O'zbek teatr san'ati tarixida xalq o'yinlari, marosimiy harakatlar va masxarabozlik

an'alari asrlar davomida estetik, ijtimoiy va falsafiy funksiyalarni bajarib kelgan. Biroq, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida ushbu an'alarining professional teatr tizimida qayta talqin qilinishi nafaqat madaniy merosni saqlash, balki zamonaviy dramaturgiya va sahna tilini boyitish manbai sifatida qaralmoqda. Aynan shu kontekstda rejissyor Olimjon Salimovning ijodiy merosi, xususan, 1999-yilda Respublika Yosh tomoshabinlar teatrida sahnalashtirilgan "Boz masxaraboz" spektakli, an'ana va zamonaviylik dialektikasini ochib beruvchi noyob ilmiy-estetik hodisa sifatida diqqatga sazovordir.

Ushbu tadqiqotning obyekti – o'zbek teatr san'atida xalq o'yinlari va masxarabozlik an'alari; predmeti – Olimjon Salimov rejissurasida ushbu an'alarining zamonaviy sahna tiliga transformatsiyasi, xususan, "Boz masxaraboz" spektakli misolida plastik, semiotik va dramaturgik mexanizmlarning ilmiy tahlili. Tadqiqotning maqsadi – masxarabozlik san'atining etnoteatral asoslarini, uning zamonaviy rejissyorlik metodologiyasidagi funksional-estetik o'rnini aniqlash va "Boz masxaraboz" misolida an'ana-zamonaviylik sintezining nazariy-amaliy modelini ishlab chiqishdir.

Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan: 1) o'zbek xalq o'yinlari va masxarabozlik san'atining tarixiy-estetik genezisini tahlil qilish; 2) masxarabozlikning teatr tizimidagi funksional-estetik rolini nazariy asoslash; 3) "etnoteatr" konsepsiyasini ilmiy izohlab, uning Salimov ijodidagi qo'llanilish mexanizmlarini ochib berish; 4) "Boz masxaraboz" spektaklini pantomima, plastika, mimika, ritm, mizanssena va sahna semantikasi kontekstida chuqur tahlil qilish; 5) spektakldagi to'rt dramaturgik epizodni mustaqil semiotik birliklar sifatida sharhlash; 6) interaktivlik va tomoshabin bilan kommunikatsiyaning nazariy-amaliy jihatlarini yoritish.

Tadqiqot metodologik jihatdan semiotik tahlil, etnografik teatr nazariyasi, qiyosiy-adabiy metod (Jerzy Grotovski[1], Antonin Arto [2], Bertolt Brext [3], Konstantin Stanislavskiy [4] konsepsiyalari bilan dialektik qiyos) va tizimli yondashuvga asoslanadi. Ushbu ilmiy ishning yangiligi shundaki, u birinchi marta Olimjon Salimovning masxarabozlik an'anasini qayta tiklashdagi metodologik yondashuvini "plastik dramaturgiya" va "arxaik semiotika" kategoriyalari orqali tahlil qilib, o'zbek etnoteatri paradigmasini zamonaviy sahna amaliyoti bilan bog'lovchi nazariy umumlashmalarni taqdim etadi.

O'zbek xalq teatr madaniyatining ildizlari

qadimiy marosimlar, tabiat hodisalari, Navro'z o'yinlari, qo'shiq-astronomik an'alar va karnaval tipidagi tomoshalar bilan uzviy bog'liq. Tarixiy manbalarga ko'ra, "qiziqchi", "masxaraboz", "askiyachi", "chimildiq o'yinchilari" kabi ijodkorlar nafaqat ko'ngilocharlik, balki jamiyatdagi ijtimoiy normativlarni tartibga soluvchi, axloqiy-estetik tarbiyaviy funksiyasini bajaruvchi shaxslar bo'lgan. Masxarabozlik an'anasini, asosan, grotesk, improvizatsiya, niqob (maska), qarama-qarshiliklar dialektikasi (yuqori/past, muqaddas/profan, komik/tragik) va ritmik harakatga asoslangan. Bu yerda matn (so'z) ikkinchi darajali, asosiy ifoda vositasi esa tana, harakat, ovoz – tembr, ritmdan iborat bo'lgan [5].

Folklor teatri nazariyasiga ko'ra, xalq o'yinlari chiziqli dramaturgiyaga emas, balki siklik (takrorlanuvchi) va marosimiy mantiqqa ega. Vaqt va makon bu yerda abstrakt emas, balki ritmik va energetik jihatdan tuzilgan. Masxarabozlikning karnaval ontologiyasi (M.Baxtin konsepsiyasi doirasida) jamiyatdagi iyerarxiyani vaqtincha bekor qilish, "past" va "yuqori" qatlamlar o'rtasidagi dialektik muvozanatni tiklash imkonini beradi [6]. Shu ma'noda, masxarabozlik – bu nafaqat komediya janri, balki ijtimoiy refleksiya, psixologik kompensatsiya va falsafiy mushohada mexanizmidir. Ushbu arxaik kodlar XX–XXI asrlarda professional teatr sahnasida qayta o'zlashtirilganda, ularning funksional yuklari o'zgaradi: marosimiylik estetiklashtiriladi, improvizatsiya dramaturgik strukturaga aylanadi, niqob esa psixologik va semiotik qatlamga ega bo'ladi.

Professional teatr tizimida masxarabozlik an'anasini quyidagi funksional-estetik rollarni bajaradi:

📌 Estetik-fiziologik rol: Aktyor tanasini asosiy semiotik tashuvchiga aylantirish. So'zga bog'liq bo'lmagan ifoda (pantomima, plastika, mimika) tomoshabinning vizual, auditiv va kinestetik idrokini bir vaqtda faollashtiradi.

📌 Ijtimoiy-satirik rol: Karnaval logikasi orqali hokimiyat, boylik, axloqiy tanazzul va insoniy o'zgarishlarni oshkor qilish. Bu yerda komediya nafaqat kulgili holat, balki tanqidiy mushohada yaratuvchi vositadir.

📌 Psixologik-falsafiy rol: Insonning ichki olami, yolg'izlik, qo'rquv, umid, ozodlik va ma'naviy izlanishlarni tashqi harakatlar orqali ifodalash. Bu yondashuv Stanislavskiyning "psixologik realizm"ini qo'llab-quvvatlab, uni "tana orqali psixologiya" darajasiga ko'taradi.

Nazariy diskursda masxarabozlik Grotovskiyning "qashshoq teatr" (Poor theater) kon-



sepsiyasi bilan yaqinlashadi: ortiqcha dekor, texnika va so'zdan voz kechib, faqat aktyor va tomoshabin o'rtasidagi jonli energiya almashinuviga e'tibor qaratish [1]. Artoning "shafqatsiz teatr" (Theater of Cruelty) g'oyasi esa masxarabozlikning visceral (ichki a'zoga ta'sir etuvchi), ritmik va tilga bog'liq bo'lmagan ta'sirini nazariy jihatdan asoslaydi [2]. Brextning epik teatr nazariyasida esa grotesk va satira orqali tomoshabinda passiv hissiyot emas, balki intellektual tahlil va ijtimoiy anglash uyg'otiladi [3]. Salimov rejissurasi ushbu uchta yo'nalishni sintez qilib, milliy masxarabozlik an'anasini zamonaviy universal sahna tiliga aylantira oldi.

"Etnoteatr" (etno-teatr, folklor-avangard sintezi) – bu mahalliy madaniy kodlar, marosimiy harakatlar, xalq musiqasi, obyekt semantikasi va an'anaviy ritmlarni zamonaviy dramaturgiya va sahna arxitekturasiga integratsiya qiluvchi teatr paradigmasi. U etnografik muzey yoki folklor rekonstruktsiyasi emas, balki an'ananing "jonli o'zgaruvchan tizim" sifatida zamon talablariga moslashuvi [7]. Etnoteatrning asosiy tamoyillari – bu an'anaviy elementlarning dekonstruktsiyasi va qayta kontekstualizatsiyasi, milliy semiotik kodlarning universal talqini, tomoshabin bilan energiya va ma'no almashinuvi hamda ritm va plastikaning dramaturgiyadagi ustunligi kabilardir.

Olimjon Salimov ijodida etnoteatr konsepsiyasi quyidagicha amalga oshadi: rejissyor xalq o'yinlarining tashqi ko'rinishini nusxalash o'rniga, ularning ichki strukturasi (ritm, harakat mantig'i, obyekt bilan munosabat, karnaval dialektikasi) ajratib oladi va zamonaviy sahna

tiliga translyatsiya qiladi. Bu yerda "an'ana" va "zamonaviylik" qarama-qarshi emas, balki dialektik birlikda namoyon bo'ladi. Salimovning yondashuvi etnometodologik emas, balki etnopoetik va etnosemiotikdir: u milliy kodlarni yangi ma'no tizimlariga aylantiradi, shu bilan birga, ularning arxaik energiyasini saqlab qoladi. "Boz masxaraboz" aynan shu dialektikaning eng yorqin ifodasidir. Spektakl nafaqat milliy teatr merosini qayta tiklaydi, balki uni zamonaviy falsafiy muammolar (yolg'izlik, hokimiyat, ozodlik, sevgi, insonning borliqqa munosabati) bilan bog'lab, universal tilga aylantiradi.

O.Salimovning "Boz masxaraboz" spektaklidagi rejissyorlik uslubi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

➔ So'zsiz ifoda dominantligi: matn ikkinchi planga o'tkaziladi, asosiy dramaturgik voqeani yorituvchi tana, harakat, mimika va ritm bo'ladi. Bu yondashuv tomoshabinda til to'sig'ini yo'qotib, bevosita hissiy-intellektual idrokni faollashtiradi. Bundan tashqari, voqea rivoji dialoglar orqali emas, balki harakatlar ketma-ketligi, mizanssena o'zgarishi va obyektlarning transformatsiyasi orqali shakllanadi. Bu "plastik dramaturgiya" deb ataladigan zamonaviy teatr yo'nalishining milliy variantidir.

➔ Mizanssena semantikasi: sahnadagi har bir element (kursi, supurgi, ip, bo'shliq, yorug'lik) nafaqat dekorativ, balki ma'noviy-semiotik funksiyaga ega. Ularning joylashuvi, harakati va o'zgarishi sujet va g'oyani ifodalaydi.

➔ Interaktiv maydon: aktyorlar tomoshabinni passiv kuzatuvchi emas, balki ijodiy jarayonning sherigiga aylantiradi. Bu yondashuv

tomoshabinning psixologik ishtirokini ta'minlab, spektaklni "yashayotgan hodisa"ga aylantiradi.

➔ Ijtimoiy-falsafiy kontekstualizatsiya: har bir sahna ko'rinishi zamonaviy hayot voqealari, insoniy qadriyatlar va ijtimoiy muammolar bilan bog'lanadi. Bu esa spektaklni yoshlar uchun ham, kattalar uchun ham tomoshabop hamda o'rganishga arziqli hodisaga aylantiradi.

Spektaklning sahna tili, rassom G.Qurbo-novanning vizual yechimlari va kompozitor A.Ergashevning musiqiy partituralari bitta semiotik maydonni shakllantiradi, unda har bir element ma'no yaratishda ishtirok etadi. Spektaklning eng asosiy yutug'i shundaki, u so'zga bog'liq bo'lmagan chuqur falsafiy fikrlarni ham tushunarli tarzda ifoda eta oladi, bu esa tomoshabinning qalbida oson anglash, ilqlik va quvonch hissini uyg'otadi.

Spektakl to'rt dramaturgik epizoddan iborat bo'lib, har biri mustaqil falsafiy va estetik birlikni tashkil etadi. Jumladan, "Farrosh" epizodi: bu qism aktyorlarning topqirligi va mim san'atidagi mahoratini namoyon etishga qaratilgan. Sahnadagi oddiy buyumlar, xususan, supurgi, aktyor qo'lida yangi ma'no va funksiyaga ega bo'ladi. Bu yerdagi semiotik jarayon "obyekt alkimyosi" deb ataladi – kundalik narsa ritual va estetik obyektga aylanadi. Epizod tomoshabinga oddiy narsalarda ham ijodiy zavq topish mumkinligini, harakatning o'zi ma'no yaratuvchi ekanligini eslatadi. Aktyorlar Zafar Asqarov, Ro'zimat Mahkamov, Egamberdi Rahimov va Baxtiyor Pozilovning plastik harakatlari an'anaviy masxarabozlikning improvizatsion tabiatini zamonaviy xoreografiya bilan uyg'unlashtiradi.

"Robinzon" epizodi: bu monodrama insonning yolg'izlikdagi kechinmalari, ichki olamidagi ziddiyatlarini pantomima vositasida ochib beradi. Muhammadiso Abdulxayirovning ijrosi beqiyos mahorat namunasi bo'lib, u inson ruhidagi quvonch, qo'rquv, umid va iztirobni so'zsiz, faqat harakat orqali ifodalaydi. Yolg'izlikning ramziy doirasi, xayoliy chumoli bilan muloqot – bular barchasi inson va borlik o'rtasidagi munosabatning ramziy ifodasidir. Bu epizod Grotovskiyning "asketik aktyorlik" tamoyillarini eslatadi: aktyor tanasini nafaqat ifoda vositasiga, balki ruhiy izlanish maydoniga aylantiradi. Artoning "visceral idrok" g'oyasi bu yerda tomoshabinda yolg'izlikning universal tabiatini his etish orqali namoyon bo'ladi.

"Sehrlil kursi" epizodi: Sarkazm va ijtimoiy tanqidga boy sahna ko'rinishi. Unda insonlarning hokimiyat va boylik ortidan quvish, insoniylikdan uzoqlashish holatlari satirik ruhda ifodalanadi.

Masxarabozlar orasidagi "taxt uchun kurash" komik holatda boshlanib, oxir-oqibat achchiq haqiqatni yuzaga chiqaradi: kuch va hokimiyat insonni ma'naviy jihatdan so'ndiradi. Bu yerda Brechtning "masofa effekti" kuzatiladi: tomoshabin kuladi, lekin ayni paytda ijtimoiy mexanizmlarning buzuvchi ta'sirini anglagan holda ich-ichidan eziladi ham. Kursi – bu nafaqat obyekt, balki hokimiyat, status va axloqiy tanazzulning ramzidir. Rejissyor bu holatni shunchalik yumor va ramziy ifoda bilan ko'rsatadiki, tomoshabin kulgu ostida ham aytilayotgan tag ma'noni aniq tushunadi.

"Sevishgan qo'g'irchoqlar" epizodi – spektaklning falsafiy kulminatsiyasi. Sahnadagi qo'g'irchoqlar iplar bilan bog'langan – bu insonlarning tashqi kuchlarga (ijtimoiy normalar, taqdirlar, tizimlar) qaramligini bildiradi. Aynan shu iplar ikki oshiq dilni birga bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Ammo ular sevgini saqlab qolish va bir-birlariga yetishish uchun iplarni uzadi va halok bo'ladi – mantiqan shu orqali ozodlikka erishadi. Spektakl shu bilan tugamaydi, finalda yoqimli musiqa sadolari ostida ikki qo'g'irchoq qayta jonlanadi va sahnani tark etadi. Bu ko'rinish inson ruhining najoti, hayot va ezgulik ustidan g'alabaning ramzi sifatida baholanadi. Bu yerda "o'lim-qayta tug'ilish" arxetipi, mifologik ozodlik g'oyalari sintez qilinadi.

Olimjon Salimovning masxarabozlik an'anasini zamonaviy sahna tiliga aylantirishdagi metodologik yondashuvi "plastik dramaturgiya", "arxaik semiotika" va "etnoteatral transformatsiya" kategoriyalari orqali tizimli tahlil qilindi. "Boz masxaroboz" spektakli nafaqat folklor rekonstruktsiyasi, balki an'anaviy kodlarning zamonaviy falsafiy muammolar bilan sintez qilingan universal sahna tili ekanligi isbotlandi. Spektakldagi to'rt epizod mustaqil dramaturgik birliklar sifatida semiotik, psixologik va ijtimoiy qatlamlarda ochib berildi.

Tadqiqot Grotovski, Arto, Brext va Stanislavskiy konsepsiyalarini o'zbek milliy teatr kontekstida qiyosiy tahlil qilish orqali etnoteatr nazariyasini boyitdi. Masxarabozlik nafaqat komik janr, balki insoniyatning arxaik xotirasi, ijtimoiy refleksiya mexanizmi va psixologik katarsis manbai sifatida nazariy jihatdan asoslandi. "Etnoteatr" tushunchasining amaliy qo'llanilishi orqali an'ana va zamonaviylik o'rtasidagi dialektik bog'liqlik ilmiy modelda ko'rsatildi.

Rejissyorlik metodologiyasi zamonaviy teatr amaliyoti, aktyorlik ta'limi va yosh tomoshabinlar teatrida qo'llanilishi mumkin bo'lgan pedagogik va ijodiy qo'llanma sifatida ahamiyatga ega.

Teatr

So'zsiz til, plastika, interaktiv maydon va obyekt semantikasidan foydalanish usullari zamonaviy rejissyorlar uchun metodologik namuna bo'lib xizmat qiladi. Spektaklning xalqaro e'tirofi esa o'zbek teatrining global madaniy muloqotga integratsiyalashish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Olimjon Salimov ijodida xalq o'yinlari va masxarabozlik an'analari nafaqat meros sifatida saqlanmoqda, balki zamonaviy sahna san'atining tirik tili sifatida qayta talqin qilinmoqda. "Boz masxaraboz" spektakli ushbu jarayonning eng yorqin namunasi bo'lib, u milliy identifikatsiyani saqlab qolish bilan birga, universal insoniy qadriyatlarni ifodalaydi. Masxarabozlik an'anasining zamonaviy talqini o'zbek teatrining kelajagi uchun strategik yo'nalish bo'lib, u an'ananing dekonstruksiyasi emas, balki uning qayta kontekstualizatsiyasi va universalizatsiyasidir.

Xalqaro miqyosdagi e'tirof "Boz masxaraboz"ning universal til va zamonaviy etno-teatral yondashuvining samaradorligini tasdiqlaydi. 2000-yilda Germaniyaning Myulxaym shahridagi "AN DE RUR" teatri badiiy rahbari

Roberto Chuli tomonidan o'tkazilgan Markaziy Osiyo mamlakatlari va Eron teatrlarining xalqaro festivali, 2001-yil Qohiradagi an'anaviy xalqaro eksperimental teatrlar festivalidagi "Sharq va G'arb teatr an'alarining hamkorligi uchun" sovrini, 2001-yil O'zbekiston teatrlari festivalidagi Muhammadiso Abdulxairovning "Eng yaxshi erkak roli ijrochisi" mukofoti, "OFARIN-2001" da O.Salimovning "Yilning eng yaxshi teatr rejissyori" va Abdulxairovning "Eng yaxshi aktyor" nominatsiyalari, shuningdek, "ANDIJON BAHORI" xalqaro teatr festivalidagi g'alaba – bularning barchasi spektaklning nafaqat milliy, balki xalqaro madaniy kontekstdagi ahamiyatini va etnoteatral sintezning muvaffaqiyatini ko'rsatadi [8; 9; 10].

"Boz masxaraboz" nafaqat o'zbek teatr tarixidagi muhim bosqich, balki zamonaviy etnoteatr paradigmasining global kontekstdagi o'ziga xos o'rni hamdir. Ushbu asar milliy madaniy kodlarni zamonaviy sahna tiliga aylantirish orqali teatrning insoniyatning ruhiy, estetik va ijtimoiy ehtiyojlariga javob beruvchi universal san'at turi ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Grotovskiy J. Qashshoq teatr sari / tarj. A.Qodirov – Toshkent: San'at, 2005. – 156 b.
2. Arto A. Shafqatsiz teatr manifesti / M.Rahimov). – Toshkent: Ma'naviyat, 2010. – 184 b.
3. Brext B. Epik teatr haqida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 240 b.
4. Stanislavskiy K.S. Aktyor o'z ustida ishlashi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. – 276 b.
5. Mirzayev M. O'zbek xalq teatri: tarix va nazariya. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1998. – 320 b.
6. Михаил Бахтин. Творчество Франсуа Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. – Москва: Издательство Академии наук СССР, 1990. – 312 с.
7. Rahimova G. Etnoteatr: nazariya va amaliyot // ToshDU ilmiy xabarları. – 2018. – №2. – B. 112–120.
8. O'zbekiston teatr arboblari uyushmasi. "OFARIN-2001" milliy teatr mukofotlari va festival hisobotlari. – Toshkent, 2001. – 96 b.
9. Respublika Yosh tomoshabinlar teatri arxivi. "Boz masxaraboz" spektakli ma'lumotnomasi (1999–2001). – Toshkent: RYTT, 2001.
10. Rejissyor Olimjon Salimov. – Toshkent: San'at jurnali nashriyoti, 2021.



Sabohat XAYTMATOVA,
O‘zDSMI “San’atshunoslik va
madaniyatshunoslik” kafedrası professori,
San’atshunoslik fanlari nomzodi

HUJJATLI KINONING SHAKLLANISH JARAYONLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon va o‘zbek hujjatli kinosining shakllanishi hamda taraqqiyot bosqichlari yoritilgan. Unda O. va A. Lyumerlar tomonidan yaratilgan ilk filmlar, R. Flaerti, D. Vertov kabi hujjatli kino asoschilarining ijodi va kino san’atiga qo‘shgan hissasi tahlil qilingan. Shuningdek, o‘zbek hujjatli kinosining rivojlanishi, Xudoybergan Devonov va Malik Qayumov kabi ijodkorlarning faoliyati ilmiy tahlil qilinadi. Hamda televideniye davrida hujjatli kino taraqqiyoti haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘lar: hujjatli kino, kino tarixi, kinematografiya, o‘zbek hujjatli kinosi, kinoxronika, montaj, televideniye, hujjatli film, milliy kinematografiya, audiovizual meros.

Аннотация. В данной статье рассматриваются этапы становления и развития мирового и узбекского документального кино. Анализируются первые фильмы, созданные О. и А. Люмьерами, а также творчество основоположников документального кино — Р. Флаэрти и Д. Вертова, их вклад в развитие киноискусства. Кроме того, исследуются процессы развития узбекского документального кино, а также творческая деятельность таких деятелей, как Худойберган Девонов и Малик Каюмов. Особое внимание уделяется развитию документального кино в эпоху телевидения.

Ключевые слова: документальное кино, история кино, кинематография, узбекское документальное кино, кинохроника, монтаж, телевидение, документальный фильм, национальная кинематография, аудиовизуальное наследие.

Abstract. This article examines the development of international and Uzbek documentary film. It analyzes the first films created by O. and A. Lumière, as well as the work of the pioneers of documentary filmmaking, R. Flaherty and D. Vertov, and their contributions to the development of cinema. It also examines the development of Uzbek documentary filmmaking, as well as the creative work of figures such as Khudoybergan Devonov and Malik Kayumov. Particular attention is paid to the development of documentary film in the era of television.

Keywords: documentary cinema, film history, cinematography, Uzbek documentary cinema, newsreel, editing, television, documentary film, national cinematography, audiovisual heritage.

Jahon hujjatli kinosi tarixi 1895-yilda aka-uka O. va A. Lyumerlar tomonidan namoyish etilgan filmlardan boshlanadi. Gap ilk hujjatli filmlar – “Ishchilarning fabrikadan chiqishi” va “Poyezdning La-Syota vokzaliga kirib kelishi” haqida bormoqda. Jahon kinematografiyasi

uchun ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan ushbu voqea 1895-yil 28-dekabrda Kapusinlar bulvarida joylashgan “Grand kafe”da bo‘lib o‘tgan.

Dastlabki filmlarni tomosha qilgan tomoshabinlar ekranda hayot harakatining barcha ko‘rinishlari aks ettirilishi va vaqt ustidan go‘yoki

Kino

hukmronlik qilishdek yangi hissiyotdan zavq olganlar. Lyumerlarning oddiy, biroq ta'sirchan filmlari beqiyos hayrat uyg'otgan va bu hayrat chuqur hamda jiddiy oqibatlariga olib kelgan.

Kinofilmlarning ilk tajribaviy namoyishi 1895-yil 22-mart kuni Parijda "Milliy sanoatni rag'batlantirish jamiyati" a'zolari uchun o'tkazilgan. Unda aka-ukalar o'zlarining birinchi filmi – "Lyumer fabrikasi ishchilarining chiqishi"ni namoyish etganlar. 1895-yil 1-iyunda bo'lib o'tgan ikkinchi namoyishda esa yana 7 ta film, jumladan "Bolaning nonushtasi" va "Sug'orilgan sug'oruvchi" taqdim etilgan. Ushbu dasturga "Poyezdning kelishi" filmi ham kiritilib, aynan shu dastur 28-dekabr kuni "Grand kafe"da namoyish qilingan. Bu seanslar kinematograf tomoshasiga bo'lgan ulkan qiziqishni yaqqol namoyon etdi va namoyishlar kun bo'yi davom etdi.

"Grand kafe"da namoyish etilgan filmlar syujet jihatidan turli-tuman emas edi. Ular asosan Lyumerlar oilasi hayotidan olingan lavhalar – "Bola baliq ovlayapti", "Tosh devorning vayron qilinishi" kabi epizodlardan iborat edi. Biroq vaqt o'tishi va tomoshabinlar talabining oshib borishi kino vakillarini filmlar sifatini takomillashtirishga majbur qildi.

Jorj Melesning original asarlari keng ko'lamda ko'chirila boshlandi, unga taqlid qilindi va turli yangi filmlar ishlab chiqarildi. Kinematografchilar ushbu uslublarni o'rganib, ommaviy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yidilar va bu esa, Meles ijodining qadrini pasaytirdi. Teatr san'atiga sodiq bo'lgan, ammo kinoning tabiiy muhitda tasvirga olish imkoniyatlarini to'liq anglab yetmagan Meles asta-sekin yetakchi mavqeini yo'qotib, jahon kino sahnasidan chiqib ketdi.

Uning o'rnini tezkor va pragmatik kinobiznes vakillari egallab, ularning asosiy maqsadi san'atni rivojlantirish emas, balki qisqa muddatda moliyaviy foyda ko'rishdan iborat bo'ldi.

Meles uslubiga taqlid qiluvchi filmlarning ko'payishiga qaramay, tomoshabinlar past sifatli, mazmunan bo'sh va sun'iy aktyorlikka asoslangan filmlardan charchab, yangi kinoinqiroz yuzaga keldi.

Kino ishlab chiqarishdagi keskin o'sish yosh san'atning zaif jihatlarini ochib berdi – texnik bazani takomillashtirish va malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj ortib bordi. Natijada, kino sohasiga bu sohadan yiroq bo'lgan insonlar ham jalb qilindi.

Masalan, Lyumerlarda rejissyor vazifasini operator Promio bajargan bo'lsa, "Pate"

kompaniyasida rejissyorlikni teatrda ishlagan Fernan Zekka, "Gomon"da esa kotiba A.Gi olib borgan [1].

Bu holatlar kino mahsulotlari sifatining pastligiga olib kelib, ssenariy zaifligi, tasviriy ifoda zaifligi kabi muammolarni keltirib chiqardi va kinematografda uzoq davom etgan ijodiy izlanishlar davrini boshlab berdi.

Kino san'atining ilk davrlaridayoq muhim bir kuzatuv qayd etilgan: tomoshabinlar badiiy filmlarni yaxshi ko'rgan bo'lsalar-da, ularga eng kuchli ta'sir aynan hujjatli kino ko'rsatgan. Bu filmlar muayyan davr voqealarini saqlovchi «vaqt kapsulasi» vazifasini bajargan.

Kinematograf tomoshabiniga siyosiy va ijtimoiy voqealarni bevosita his qilish imkonini bergan yagona san'at turi edi. Masalan, "Moskvadagi koronatsiya", "Messinadagi zilzila", "Fransuz desantining Marokashga tushirilishi" kabi syujetlar o'zining haqqoniyligi bilan katta qiziqish uyg'otgan.

Bu qiziqish natijasida Pate xodimlari "Pate-jurnal" nomli axborot kinonashrini yaratish g'oyasini ilgari surdilar. U 1908-yilda Parijda ishga tushirilib, zamonaviy televizion yangiliklar dasturlarining ilk namunasiga aylandi.

Turli mamlakatlardan yig'ilgan hujjatli materiallarni birlashtirish jarayoni montajning dastlabki usullarini shakllantirdi va bu keyinchalik montaj nazariyasining rivojlanishiga asos bo'ldi.

Shuningdek, ilk kino tarixida kadr ichida matn (yozuvlar)dan foydalanish ham muhim texnik yangiliklardan biri bo'ldi. Kinoshunoslar ta'kidlashicha, 1905-yildan boshlab filmlarda yozuvlar keng qo'llanila boshlangan. Ilgariroq ular faqat sarlavha sifatida yoki syujet talab qilgan holatlarda qo'llanilar edi.

Kinematograf, umuman olganda, Fransiyada vujudga kelgan bo'lsa-da, u o'z vatanida rivojlanishi bilan deyarli bir vaqtning o'zida dunyoning boshqa hududlarida ham jadal sur'atlarda taraqqiy eta boshladi.

G'arbda hujjatli kinoning asoschisi sifatida Robert Flaerti (1884–1951) tan olinadi. U Lyumerlar va Jorj Meles kabi mashhur shaxslar qatorida turadi. Asosiy mutaxassisligi tog' muhandisligi bo'lgan Flaerti 1910-yillarda Kanadaning Arktika hududlarini tadqiq etgan. Ana shunday ekspeditsiyalardan biriga u kamera olib borib, eskimoslar hayotidan bir nechta lavhalarni tasvirga olgan. Afsuski, mazkur xronika saqlanib qolmagan. Biroq, Flaertining o'zi ta'kidlaganidek, bu holat aksincha ijobiy natija bergan, chunki

aynan shu voqea uni eskimoslar hayoti haqida yanada mukammal va batafsil film yaratish g'oyasiga olib kelgan. Natijada, uzoq yillik izlanish va mehnat samarasi sifatida "Shimoldagi Nanuk" (1922) nomli hujjatli film yaratildi va u tomoshabinlar orasida katta qiziqish uyg'otdi.

Flaerti o'z faoliyati davomida unchalik ko'p film suratga olmagan bo'lsa-da, uning nomi hujjatli kino tarixida abadiy muhrlanib qolgan. Uning ijodida inson va uning tabiiy yashash muhiti



o'rtasidagi munosabat markaziy mavzu bo'lib xizmat qiladi. U o'z qahramonlarini ularning tabiiy sharoitida tasvirga olgan bo'lib, aynan shu jihat uning asarlariga tabiiylik baxsh etgan. Shuningdek, jahon hujjatli kinosi Flaertiga "uzoq muddatli kuzatuv asosida tasvirga olish" uslubini yaratish borasida qarzdor hisoblanadi.

"Inson va tabiat" mavzusi uning ijodida yetakchi o'rinni egallaydi. Bu ayniqsa "Aranlik odam" (1934) filmida yaqqol namoyon bo'lgan. Unda kichik orol aholisining akulalarni ovlash orqali tirikchilik qilish tarzi tasvirlangan. Flaertining so'nggi yirik asari "Luizian hikoyasi" (1948) bo'lib, u muallif tomonidan "fantaziya", kinotarixchilar tomonidan esa nostalgik elegiya sifatida baholanadi [2].

Kinoshunoslar ko'pincha Dziga Vertovni (David Kaufman) Flaertining antipodi sifatida tavsiflaydilar. Peterburg psixonevrologiya institutini tamomlagan Vertov kino sohasiga psixoterapiyaga oid bilimlar bilan kirib kelgan va bu tajribalarni kinosan'at bilan uyg'unlashtirgan. Uning ijodi kuchli ideologik xarakterga ega bo'lib, ayniqsa, 1917-yil oktabr to'ntarilishidan keyingi davr ruhi va g'oyalari bilan sug'orilgan. Shu bois, uning filmlari sovet hokimiyati g'oyalarini targ'ib qilishga xizmat qilgan.

D.Vertov uchun oddiy "reallikni qayd etish" yetarli emas edi [2]. U kinodan muayyan g'oyaviy tuzilma va mafkuraviy yo'nalish talab qilgan. U kino publitsistikasining asoschilaridan biri bo'lib, uning "Kinopravda" turkumi oddiy xronika emas, balki targ'ibot vositasi hisoblangan.

Uning mashhur asarlari qatoriga "Dunyoning oltidan bir qismi" (1926), "Kinoapparatli odam" (1929) va "Donbassa simfoniyasi" kiradi. Ushbu

asarlar kino tili, montaj va "hayotni to'satdan tasvirga olish" kabi novator g'oyalarni ilgari surgan.

Flaerti va Vertov ko'pincha qarama-qarshi qutblar sifatida ko'rsatilsa-da, bu qarash mutlaqo to'g'ri emas. Chunki hujjatli kinoda ham voqelikni muayyan darajada qayta yaratish, badiiylashtirish mavjud bo'ladi. Masalan, Flaerti "Nanuk" obrazini ma'lum darajada badiiylashtirgan. Shu bilan birga, Vertovning filmlarida ham hayotiy va insoniy obrazlar chuqur aks etgan [2].

Rossiya hujjatli kinosi taraqqiyotida Esfir Shubning o'rni ham beqiyosdir. U tarixiy hujjatlarni yangi kontekstda taqdim etish usulini ishlab chiqqan. Bu metod tomoshabinga kuchli ta'sir ko'rsatish imkonini bergan. Uning "Romanovlar sulolasining qulashi" (1927), "Nikolay II Rossiyasi" va "Lev Tolstoy" kabi filmlari mazkur uslubning yorqin namunasidir.

Hujjatli kino 1895-yilda paydo bo'lib, jahon miqyosida izchil rivojlandi. Bu jarayonda mintaqamiz ham chetda qolmadi. Bu borada Xudoybergan Devonov (1878–1940) ning xizmatlari beqiyosdir. Uni Turkistondagi ilk kinooperatorlardan biri sifatida e'tirof etish mumkin.

Xudoybergan Devonov Xo'jaylida tavallud topgan bo'lib, puxta ta'lim olgan, arab tilini mukammal bilgan, she'riyat va musiqaga qiziqqan. Uning hayotidagi burilish nuqtasi nemis kinohavaskori Vilgelm Penner bilan uchrashuv bo'lgan. Penner unda fotografiya va kino san'atiga qiziqish uyg'otgan.

O'sha davrda Turkistonda diniy an'analar ta'sirida jonli mavjudotlarni tasvirlash taqiqlangan bo'lishiga qaramay, Devonov fotograf va keyinchalik kinooperator sifatida faoliyat yuritishga muvaffaq bo'lgan. Bu yo'lda unga Xiva

Kino

xoni vaziri – islohotparvar Islom Xo'janing qo'llab-quvvatlashi katta yordam bergan [3].

1908-yilda Sankt-Peterburgga qilgan safar davomida Devonov fotografiya va kino sirlarini o'rganib, zarur jihozlarni xarid qilgan. Vatanga qaytgach, u kinotasvirga olish va namoyish qilish faoliyatini boshlagan. Shu bois, 1908-yil o'zbek kinosi tarixi boshlangan yil sifatida qabul qilinadi.

1910-yilda u Xiva xoni Asfandiyorning chiqishini tasvirga olgan. Shuningdek, uning "Mamlakatimiz me'moriy yodgorliklari" (1913) va "Turkiston manzaralari" (1916) kabi ilk filmlari ham saqlanib qolgan [4].

"Syujetlarni tanlash jarayonida u kamera obyektivini abadiy qadriyatlar belgilarini o'zida mujassam etgan obyektlarga – tarixiy yodgorliklar, minorlar, masjidlar va boshqa ko'plab madaniy meros namunalariga qaratgan. Uning fotoapparati va kinokamerasi diqqat markazida shuningdek, tarixiy o'zgarishlarga boy bo'lgan davr voqealari ham o'rin olgan.

1920-yilda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi e'lon qilindi va Xudoybergan Devonov moliya vaziri lavozimiga tayinlandi. Bu yillar davomida u bir necha bor Moskvaga borib, yangi filmlar olib keldi hamda "Sovkino" aksiyadorlik jamiyatining kinokorrespondenti sifatida faoliyat yuritdi. Uning kinosyujetlari "Soyuzkinojurnal" nashrlarida montaj qilindi. Uning say-harakatlari tufayli boshqa mamlakatlar aholisi ko'p millatli Xorazmning qadimiy va betakror madaniyati bilan ilk bor tanishish imkoniga ega bo'ldi.

1937-yilda X.Devonov repressiya qilinib, Yangiyoldagi siyosiy mahbuslar lageriga yuborildi va o'sha yerda otib tashlandi.

U o'zidan boy kino va fotomateriallar mero-sini qoldirgan. Garchi ularning katta qismi musodara qilinib yo'q qilingan bo'lsa-da, ayrim qismi saqlanib qolgan. Arxivning bir qismi Krasnogorsk shahridagi markaziy davlat kino-foto hujjatlari arxivida saqlanadi. Shuningdek, noyob materiallar Urganch shahridagi Devonovlar oilaviy arxivida ham mavjud bo'lib, ular orasida asr boshiga oid ko'plab fotosuratlar, shisha negativlar, kinoplyonkalar, fotoalbomlar va yozishmalar bor" [3].

Mahalliy kinotarixchilar va kinoshunoslar fikriga ko'ra, o'zbek hujjatli kinosi 1930-yillardan boshlanadi. Undan avvalgi havaskor kino-operatorlar tomonidan amalga oshirilgan tasvirga olish ishlari esa asosan oddiy, badiiy jihatdan sodda, ammo tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan hujjatli lavhalar sifatida baholanadi.

1930-yillar kinohujjatlari ham bugungi kinematograf darajasi bilan taqqoslaganda sodda ko'rinishga ega bo'lsa-da, ular katta qiziqish va hayajon bilan tomosha qilinadi. Chunki ularda tarixning takrorlanmas bosqichi, davr ruhi va muhiti mujassam. Buni filmlar nomlarida ham ko'rish mumkin: "1925-yil – 1-may bayrami", "Bozsuv GESi", "Qorong'ulik yo'qolsin...", "Biz qul emasmiz!" kabilar [5].

1932-yilda Toshkentdagi badiiy kinostudiya tarkibidan mustaqil ravishda Respublika xronikal-hujjatli filmlar studiyasi ajralib chiqdi. Shu davrda hujjatli kino bilan shug'ullanuvchi iqtidorli kinematografistlar soni ham ortib bordi. Ilgaridan tajribaga ega bo'lgan operatorlar F.Nazarov va N.Gasilov safiga S.Dunayev, V.Timkovskiy, V.Shevchenko, N.G'aniyev, Y.Agzamov kabi yosh ijodkorlar qo'shildi.

1930-yillar boshida yaratilgan filmlar o'z nomlari orqali nafaqat mazmunini, balki davr nafasini ham ifoda etgan: "Ishlab chiqarishda jismoniy tarbiya", "Ajoyib ish", "Pionerlar paxta uchun kurashda" kabi filmlar shular jumlasidandir.

Keyinchalik hujjatli kino sohasiga Sh.Zaxidov, A.Saidov, O.Rahimov, X.Sulaymonov kabi kinoxronikyorlar ham kirib keldi va ular bilan o'zbek hujjatli kinosi taraqqiyotining muhim bosqichi bog'liqdir [5].

O'zbek hujjatli kinosi tarixi Malik Qayumov nomi bilan chambarchas bog'liq. U respublikada yuz bergan muhim voqealar, yirik qurilishlar, sanoat obyektlari va shaharlarning barpo etilishi jarayonlarini tasvirga olgan. Uning "O'zbek paxtakorlarining g'alabasi", "O'zbek xalqi bayrami", "Katta Farg'ona kanali" kabi filmlari katta ahamiyatga ega.

"Toshkent to'qimachilik kombinati" (1938) filmi esa Nyu-Yorkdagi Jahon ko'rgazmasida oltin medal bilan taqdirlangan. Shuningdek, "Qudratli oqim" filmi ham yuqori baholangan [5].

Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan ko'plab rejissyor va operatorlar frontga yo'l oldilar va u yerda ham o'z faoliyatlarini davom ettirdilar. Urush yillarida "Frontdagi do'stlarga", "Frontga sovg'a", "Besh respublika konserti" kabi filmlar yaratildi.

Urushdan keyingi yillarda "To'rt darvoza shahri", "Farhod chiroqlari" kabi filmlar orqali mamlakat hayotining yangi bosqichi aks ettirildi. 1950-yillar oxiriga kelib esa, o'zbek hujjatli kinosi haqiqiy tan olinishga erishdi [5].

Bu davr filmlari orasida poytaxt Toshkent

haqidagi asarlar alohida o'rin tutadi. Shaharning madaniy va ijtimoiy markaz sifatida rivojlanishi Malik Qayumovning "Bizga keling, O'zbekistonga", "Insoniyatning besh qo'li", "Bahordan bahorga" kabi filmlarida yorqin ifodalangan.

1960–70-yillarda "Toshkent. Zilzila", "13 qaldirg'och" kabi filmlar yaratildi. Keyingi davrlarda "Lyuba, Roza, Abdulla", "O'qituvchi", "O'zbekistonda gaz va kimyo", "Salom, Somali" kabi asarlar yuzaga keldi.

1970–80-yillarda VGIKni tamomlagan yosh mutaxassislar hamda "O'zbekfilm"dan kelgan ijodkorlar hisobiga studiya jamoasi yanada boyidi. Ular ishtirokida "O'zbekiston ayollari", "Suv yo'li", "Aktyor", "Tramvay", "Velopoyga", "Olmaliq – metallurglar shahri", "Salom, bahor", "Toshkent jasorati" kabi filmlar yaratildi.

Hujjatli kino tabiati juda rang-barang va jozibadordir. Kinematografistlarni doimo ekzotika, etnografiya, tabiiy ofatlar, urushlar, texnik yangiliklar kabi mavzular jalb etgan. Operatorlar qiziqarli syujetlar izlab butun dunyoni kezib chiqqanlar va ba'zan hayotlarini xavf ostiga qo'yganlar [2].

Hujjatli kino turli shakllarga ega: voqeiy xronika, kinosolnoma, ilmiy tasvirga olish, mualliflik jurnalistikasi va san'at. Bu turlar esa o'z navbatida kinoocherk, kinoreportaj, kinoportret,

kinodrama, kinoshe'riyat kabi janrlarga bo'linadi [1]. Shu jihatdan hujjatli kino universal san'at turi hisoblanadi. Uning eng asosiy vazifasi esa insonga "yashab turgan dunyosi haqida hikoya qilish"dir [6].

Televideniyeining paydo bo'lishi hujjatli kino rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. U yangi estetika va yangi formatlarni talab qildi. Natijada yangi janrlar va texnik vositalar ishlab chiqildi.

Televideniyeiga munosabat turlicha bo'lgan: ba'zilar uni hujjatli kino kelajagi deb bilgan bo'lsa, boshqalar kinematograf ustunligini himoya qilgan. Biroq aniq bo'ldiki, hujjatli kino kelajagi televideniyesiz tasavvur qilib bo'lmaydi [7].

O'zbekiston televideniyesida hujjatli kino muhim o'rin tutadi. Ko'plab telekanallar bunday filmlar uchun maxsus vaqt ajratadi. Biroq hali xalqaro darajadagi ixtisoslashgan hujjatli kanallar mavjud emas.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ayniqsa, ilmiy-ommabop hujjatli filmlarga talab yuqori. Shu bois, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda bu soha davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. O'zbekistonda ham davlat hujjatli kinoning ahamiyatini inobatga olgan holda uni moliyalashtirmoqda. Bu esa milliy hujjatli kinoning kelajakda yanada rivojlanishiga umid uyg'otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Капетский А. История кинематографа Франции (1895–1928) [Электрон ресурс]. УРЛ: <http://гоодсинема.ру/?q=ноде/22>
2. Энциклопедия «Кругосвет». Документальное кино [Электрон ресурс]. УРЛ: http://www.кругосвет.ру/энс/культура_и_образование/театр_и_кино/документальное_кино.хтмл?page=0,0#парт-1236
3. Ziyonet ta'lim portali. Xudoybergan Devonov [Elektron resurs]. URL: http://people.ziyonet.uz/ru/person/view/xudoybergan_devonov
4. Vikipediya. Xudaybergen Devanov [Elektron resurs]. URL: https://ru.wikipedia.org/wiki/Devanov_Xudaybergen
5. Тешабаев Д. Немного истории: сборник статей. Документальное кино Узбекистана. – Ташкент: 2008.
6. Бедли Х. Техника документального кинофильма / Инглиз тилидан таржима: И.Л.Шер. – Москва: 1972.
7. Чекмарёв А. А. "Теледокументалистика как формат рефлексии общества" // Вестник Удмуртского университета. №2. 2011.



Muzaffar KARABAYEV,
O'zDSMI mustaqil tadqiqotchisi

O'ZBEK BADIY KINOSIDA REJISSURANING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek badiiy kinosida rejissura san'atining vujudga kelishi, shakllanish va rivojlanish tendensiyalari tadqiq etiladi. Milliy kinematografiya tarixi uch asosiy bosqich kontekstida tahlil qilinib, ilk o'zbek kinorejissurasi namoyandalari – N.G'aniyev, K.Yormatov va S.Xo'jayevlarning janriy-uslubiy izlanishlari va ekran san'ati rivojiga qo'shgan hissalarini baholanadi. Shuningdek, mafkuraviy tazyiqlar sharoitida milliy xarakter va umuminsoniy g'oyalarni badiiy ifodalash muammolari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: kino, rejissura, milliy xarakter, tarixiy bosqichlar, Nabi G'aniyev, Komil Yormatov, Sulaymon Xo'jayev, badiiy obraz, kinematograf tarixi.

Аннотация. В статье исследуются процессы возникновения, становления и развития режиссёрского искусства в узбекском художественном кино. История национальной кинематографии анализируется в контексте трёх основных этапов развития, а также оцениваются жанрово-стилевые поиски и вклад в развитие экранного искусства первых представителей узбекской кинорежиссуры — Наби Ганиева, Камиля Ярматова и Сулаймана Ходжаева. Особое внимание уделяется проблемам художественного воплощения национального характера и общечеловеческих идей в условиях идеологического давления. На основе историко-культурного и искусствоведческого подходов раскрываются особенности формирования национальной режиссёрской школы в узбекском кинематографе.

Ключевые слова: кино, режиссура, национальный характер, исторические этапы, Наби Ганиев, Камиль Ярматов, Сулайман Ходжаев, художественный образ, история кинематографа.

Abstract. This article examines the emergence, formation, and development of directing as an artistic practice in Uzbek feature cinema. The history of national cinematography is analyzed within the context of three major developmental stages, with particular attention paid to the genre and stylistic explorations of the pioneering Uzbek film directors Nabi Ganiyev, Kamil Yormatov, and Sulaymon Khojayev, as well as their contributions to the advancement of screen arts. The study also explores the challenges of artistically representing national character and universal human values under conditions of ideological pressure. Drawing upon historical, cultural, and film studies approaches, the article reveals the distinctive features of the formation of the national school of film directing in Uzbek cinema.

Keywords: cinema, film directing, national character, historical stages, Nabi Ganiyev, Kamil Yormatov, Sulaymon Khojayev, artistic image, history of cinematography.

O'zbekiston san'atida rejissyorlik kasbi kino-ning paydo bo'lishi bilan bir vaqtda rivojlandi, deyish mumkin. O'zbek kino san'atida rejissura bir tomondan teatr rejissurasi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan Rossiyadan kelgan bir qator kinoijodkorlarning faoliyati bilan uzviy bog'liqdir.

“XX asr boshlarida Toshkentdagi birinchi kino-teatr egasi va yirik namoyishlarni tashkil etuvchilar M.Visokinskiy (Rossiyalik taniqli sirk arbobi), X.Razmatov, N.Charinovlardir. Visokinskiy Farg'ona, Qo'qon kabi bir qancha aholi turar joylaridagi kinoteatrlar hamda prokat

tashkiloti filiallarining egasi edi. Rossiyalik yirik kinofabrika hamda prokat egasi Grigoriy Libken ham Toshkentda prokat tashkiloti filialiga ega bo'lgan" [1, 22-b]. Shuningdek, Rossiyadan evakuatsiya qilingan bir qator kinostudiyalar va kinoijodkorlarning Turkistonga kelib joylashishlari hamda bu yerda ham o'z faoliyatlarini davom ettirishlari o'zbek kinosini rivojlanishiga yana bir asos bo'lib xizmat qildi.

Xususan, "Sovet davrida milliy kinoning rivojlanishida N.G'aniyev, S.Xo'jayev, K.Yormatov, Y.A'zamov, L.Fayziyev, Sh.Abbosov kabi rejissyorlarning o'tgan asrdagi yuz yillik faoliyati bugungi kun kino san'atining madaniy merosi sifatida o'rganilmoqda. Ushbu rejissyorlarning filmlarini o'rganish natijasida yangi davrdagi kino ishlab chiqarish jarayonlarining, badiiy kinoning shakllanishi va rivojlanishi, janriy-uslubiy yo'nalishlari, o'zbek kinoshunosligida evolyutsiya va transformatsiya jarayonlarini o'rganishda muhim o'rin tutmoqda" [2, 15-b]. Natijada, o'zbek kinosida bir qator ijobiy o'zgarishlar yuzaga kelganligi, uning kinoshunoslar tomonidan tadqiqot obyekti sifatida o'rganilayotganligi bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbek kino san'atida ilk kinofilmlar bo'lgan "O'lim minorasi" (rej. V.Viskovskiy, 1925), "Musulmon qizi" (rej. D.Bassaligo, 1925), "Ikkinchi xotin" (rej. M.Doronin, 1927), "O'lim qudug'i" (rej. N.Klado, 1933) kabi bir qator filmlarning xorijlik rejissyorlar va kinoijodkorlar tomonidan suratga olinganligi, aktyorlar ansamblining asosan rus kinoijodkorlaridan tashkil topganligi o'zbek milliy xarakteridan biroz uzoq bo'lsa-da, bu "...filmlar Yevropa mamlakatlari qatori Janubiy Amerikada ham muvaffaqiyatli namoyish etilgan" [1, 28-b]. Ushbu filmlar tashviqiy xarakterda bo'lib, o'z davrining ma'lum bir g'oyalariga yo'naltirilganligi filmlarni o'zbek tomoshabinlariga biroz "begona" qilib qo'yganligi haqida o'zbek kinoshunos olimlari tomonidan ko'p tadqiqotlarda fikrlar keltirilgan.

Milliy kinematografning rivojida o'ziga xos ijodi va mehnatlari bilan katta hissa qo'shgan ijodkorlardan biri Nabi G'aniyev bo'ldi. O'z ijodini Toshkent bolalar teatrida "Yetim", "Axloqsiz talaba", "Yomon tabib" singari pyesalar yozib, shu teatrdan sahnalashtirishdan boshlagan ijodkor 1925-yilda yangi ochilgan "Sharq yulduzi" kinofabrikasiga ishga kiradi. Nabi G'aniyev o'z tajribasini bir qator filmlarda yordamchi rejissyor bo'lib ishlab yurgan kezlari oshirdi. Jumladan, "Ikkinchi xotin", "Soyabon arava" kabi qator filmlarda rejissyor yordamchisi, aktyor sifatida ishtirok etgan. Taniqli rejissyorlar bilan

hamkorlikda ishlash N.G'aniyev uchun, albatta, katta tajriba bo'ldi.

N.G'aniyev 1931-yilda o'zi mustaqil ravishda "Yuksalish" filmini suratga oldi. Film bir qadar sodda bo'lishiga qaramay, unda hayot haqiqatini badiiy bo'yoqlarda aks ettirishga urinilgani sezilib turardi. Bu katta asarlar yaratish usullarini egallash yo'lida tashlangan dastlabki qadamlar edi.

Rejissyorning "Nasriddin Buxoroda" (ikkinchi rejissyor, 1943), "Tohir va Zuhra" (1945), "Nasriddinning sarguzashtlari" (1946), "Farg'ona qizi" (1948) kabi filmlari o'zbek kino san'atida milliy xarakterni shakllantirganligi, milliy xususiyatlarni tomoshabinga singdirganligi bilan o'zbek kinematografiga ulkan hissa qo'shib, "Oltin fondi"dan munosib joy oldi.

O'zbek kino san'ati rivojlanishida yana bir muhim o'rin tutgan rejissyorlardan biri K.Yormatov bo'lib, u yashab o'tgan bir qator siymolarning hayoti va faoliyatini filmlari orqali qahramon darajasiga olib chiqa olganligi bilan e'tiborli bo'ldi.

1925-yilda Moskva kinoaktyorlar tayyorlash kursida Abror Hidoyatov, Mannon Uyg'ur, Obid Jalilov va boshqa ko'plab ijodkorlar bilan birga ta'lim olgan K.Yormatov o'qishni tamomlab bir guruh yosh, bo'lajak san'at ustalari bilan O'zbekistonga qaytadi. O'sha davrda yangi ish boshlagan "O'zbekgoskino" trest va uning qoshida ochilgan "Sharq yulduzi" kinofabrikasiga ishga kiradi. O'zi aktyorlikning sir-sinoatini yaxshi bilgan K.Yormatov aktyordan nima talab qilishni yaxshi bilardi. Shu boisdan ham "Alisher Navoiy" (1947) filmini suratga olar ekan, o'zbek xalqining xarakterini ochib berishga, Navoiy qahramonining hayoti va ijodini, siyosiy faoliyatini keng qamrovda ifodalashga intilgan. Keyinchalik suratga olgan "Paxtaoy" (1951), "Opa-singillar" (1954), "Abu Ali ibn Sino" (1956), "Osiyo ustida bo'ron" (1966), "Ikki dil dostoni" (1968), "Nodirabegim" singari filmlar ham o'zbek kino san'atining rivojiga katta hissa qo'shdi.

O'zbek kinosining ilk davrlarida o'zining ijodiy faoliyati bilan o'zbek kino san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shgan yana bir rejissyor Sulaymon Xo'jayev bo'lib, u 1915-yil madrasada o'qib yurgan kezlari sanoq "Turon" truppasida Munavvar qori Abdurashidxonov rahbarligida Sa'dulla Tursunxo'jayev, Nizomiddin Xo'jayev, G'ulom Zafariy, Shokirjon Rahimiy kabi jadid ma'rifatparvarlari safida faoliyat olib boradi. Shu yillardanoq Sulaymon Xo'jayevda san'atga bo'lgan muhabbat va mehr shakllanadi.

Kino

Sulaymon Xo'jayev 1932-yilda "Tong oldidan" filmini suratga oldi. Biroq ushbu film 1916-yilgi Jizzax qo'zg'oloni haqidagi "inqilob"ni yoritishga qaratilgan filmlardan biri bo'lganligi, qo'zg'olonning tub mohiyatini ochish yuzasidan berilgan hukumat topshirig'i doirasida bo'ldi. Sulaymon Xo'jayev "Tong oldidan" filmining ssenariy muallifi, rejissyori va bosh rol ijrochisi bo'ldi. U o'sha qo'zg'olonda ishtirok etganlarning ko'pchiligini topib, ular bilan suhbatlashib, hatto Jizzax, Toshkent atrofi, Qozog'iston, Qirg'izistonga chiqib ma'lumotlar to'playdi. Filmning hayotiy chiqishi uchun barcha imkoniyatdan foydalanishga harakat qiladi. 1932-yil filmning birinchi ko'rigidayoq u "фильм антирусский, нельзя показывать" degan xulosa oladi. 1933-yil rejissyor filmga bir qancha o'zgartirishlar kiritib, qayta ishlashiga qaramasdan ekran yuzini ko'rmaydi. Aksincha, 1934-yil 11-noyabrda Toshkentdagi kinofabrikada rejissyor bo'lib ishlayotgan Sulaymon Xo'jayev ishdan ketkaziladi, keyinchalik turli ayblovlar bilan hibsga olinadi. 1957-yilga kelib Sulaymon Xo'jayev oqlangan bo'lsa-da, farzandlariga 1943-yil 20-iyun kuni jazoni o'tash vaqtida vafot etgan, degan ma'lumot beriladi. Mana shunday murakkab ijod yo'lini bosib o'tgan rejissyor o'zbek kinematografiyasi tarixida muhim o'rin tutdi.

O'zbek kinosining ilk davrlarida yuqorida nomlari keltirilgan rejissyorlar o'zlarining ijodi bilan o'zbek kinosining paydo bo'lishi va shakllanishida muhim rol o'ynagan bo'lsa, keyingi (1950–1990) yillarda shiddat bilan rivojlangan rejissyorlik kasbi o'zining uslubi va yo'nalishiga ega bo'ldi. Bunda Yo'ldosh A'zamov "Maftuningman" (1958), "O'tkan kunlar" (1969), Latif Fayziyev "Qutlug' qon" (1956), "Ulug'bek yulduzi" (1964), "Ali bobo va qirq qaroqchi" (1979, U.Mehra bilan), Amo Beknazarov "Yangi yer" (1954), Zoxid Sobitov "General Rahimov" (1967), "107 qo'llanma" bo'yicha keskin burilish" (1982), Shuhrat Abbosov "Mahallada duv-duv gap" (1960), "Sen yetim emassan" (1962), "Toshkent – non shahri" (1967), "Abu Rayhon Beruniy" (1974, 2 qismli), Ravil Botirov "1941-yil olmasi" (1969), "Ajoyib hayolparast" (1977), Damir Salimov "Shum bola" (1977), "Leningradlik jigarbandlarim" (1980), Ali Hamroyev "Yor-yor" (1964), "Favqulotda komissar" (1970), "Vodillik kelin" (1984), Uchqun Nazarov "Yigit va qiz" (1968), "Esdalik daraxtzori" (1982), Albert Xachaturov "Farhodning jasorati" (1967), "Sen tomon" (1972), Eduard Xachaturov "To'ylar muborak!" (1978), "So'nggi nazorat" (1985), Habibulla Fayziyev "Koinot siri" (1966), "Yetti

orzu kamalagi" (1981), Elyor Eshmuhammedov "Nafosat" (1966), "Sevishganlar" (1969), "Dahoning yoshligi" (1982), Yuriy Stepchuk "Dilbarim" (1967), "Dorbozlar" (1979), Qamara Kamolova "Achchiq danak" (1975), "Bo'lmagan voqea" (1986), Melis Abzalov "Chinor ostidagi duel" (1978), "Suyunchi" (1982), "Kelinlar qo'g'oloni" (1984), "Maysaraning ishi" (1989), F.Davletshin "Amirning xufya sayohati" (1986), Nozim To'laxo'jayev "Veld" (1987), Sobir Nazarmuhammedov "Bo'rilar" (1987), Isamat Ergashev "Temir xotin" (1990), Jahongir Qosimov "Bechoralar" (1990) kabi rejissyorlarning faoliyati alohida o'rin tutadi. Zero, ushbu rejissyorlar suratga olgan ko'plab filmlar o'zbek kino san'atini jahonga olib chiqdi.

Rejissyorlar faoliyati tahlil qilinar ekan, har bir rejissyorning o'z uslubi, yo'nalishi va mavzu doirasi shakllanganligini ko'rish mumkin. Zero, "O'zbekiston badiiy filmlarini qiyosiy tahlil qilish asosida ulardagi qahramonlar xatti-harakatlari va fe'l-atvorlari, xarakter xususiyatlari, hayotiy asoslari, e'tiqodlarining tipologiyasidan kelib chiqib, quyidagicha tasnifiy guruhlariga bo'lish mumkin: Vatanga muhabbat, adolatga bo'lgan qattiq intilish, keksalarga bo'lgan ehtirom, an'analarga rioya qilish, mehmondo'stlik, oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash va mehnatsevarlik kabilar. O'zbekiston badiiy kinosida asosan millatga xos bo'lgan xarakterni aks ettirgan zukko, ishonuvchan, saxiy, hazil-mutoyibaga moyil hamda hislarini samimiy izhor etuvchi qahramonlar yaratildi" [1, 41-b]. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston milliy kinosining keyingi bosqichiga katta tramplin vazifasini o'tadi. Rejissyorlarning mavzular doirasida bunday yondashuvi, mustaqillik davridagi ekran san'atining shiddatli rivojiga ulkan hissa bo'ldi.

Kinematograf kashf etilgan ilk davrlaridan boshlab omma unga qiziqqa boshladi. Uni tasvirga oluvchi dastlabki namoyandalari ham tomoshabinni qiziqtiradigan syujetlar topishga intilishardi. Kinoga dastlabki rejissyorning faoliyati kirib kelmaguncha u bir tomosha vositasi, attraksion elementi edi. Rejissyor shaxsining kinoda paydo bo'lishi uni chinakam san'at turiga aylantirdi, deyish mumkin. Ilk kinorejissyor teatrdagi tajriba to'plab, bu kasbning sirlarini puxta o'zlashtirgan, teatr sahnasi uning fantaziyalari uchun torlik qilib, o'zini cheklangan his qilgan Jorj Melyes edi. U badiiy kinoga asos soldi va kinoda chinakam obraz yaratish eng muhimi ekanini ko'rsatib berdi. Shundan so'ng, kinoda rejissyorning o'rni beqiyos ahamiyat kasb eta boshladi. Aytish kerakki, dastlabki davrlarda

rejissyor kinoda hamma narsani qilar edi. U tashkilotchi, prodyuser, rejissyor, aktyor, muallif, tashviqotchi va h.k. kinoda barcha komponentlar – aktyor, rassom, ssenarist, operator, montajchi, bastakor, umuman barchalari alohida tarzda o'z ishlarini bajarishadi va birontasi ham filmning yaxlit tarzda bir butunligi haqida rejissyorchalik o'ylamaydi. Har bir komponentning o'z vazifasi bo'lib, ular alohida tarzda bu vazifalarni a'lo darajada bajarishlari mumkin. Biroq rejissyorning faoliyatisiz film dunyoga kelmaydi. Faqat rejissyorgina filmni u hali tasvirga olinmasidan turib yaxlit tasavvur eta oladi va barcha bo'laklarni birlashtirgan holda qismlardan bir butunni yasay oladi. Shu tufayli ham jahon kinosida rejissyorning paydo bo'lishi bu yosh san'at turining shiddat bilan taraqqiy etishiga sabab bo'ldi.

Yana shunday deyish mumkinki, kino tarixi bu – kinorejissura tarixidir. Zero, kino san'ati tarixining har bir taraqqiyot bosqichida rejissura sohasida biron rivojlanish, o'zgarish jarayonlari aks etganini ko'rish mumkin. Rejissyorlarning film olish jarayonidagi o'zgacha fikrlash, tafakkur etish, texnologiyalardan foydalanish, badiiy obrazlar talqini sabab kinokartinalarning turlari, janrlari, yo'nalishlari ham turlicha bo'lib, tomoshabinlarni o'ylantiradigan, hayratlantiradigan, zavqlantiradigan, hamdard qiladigan vositalar rejissyorlik ko'rimlari vositasida vujudga

kelishini ko'rish mumkin. Rejissyor kino san'atida eng muhim, hatto, eng asosiy shaxsdir. U tasvirlar va texnika vositasida yangi falsafiy-obrazli fikr aytadi. Tomoshabinni, jamiyatni o'z ortidan ergashtiradi. U buyuk g'oyani ommaga singdirmoqchi bo'lgan notiqdan farqli o'laroq, obrazlar vositasida, qiziqarli syujet yordamida tomoshabinni dunyoqarashini o'zgartiradi, qalbiga ta'sir ko'rsatadi. Birgina kino vositasida inson axloqida, dunyoqarashida, ruhiyatida turfa o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Har bir davr kinorejissyori o'z davri muammolari hamda yangi davr kinosining badiiy-estetik, ijtimoiy xususiyatlari bilan tomoshabinga o'z so'zini aytishga urindi. Ta'kidlash joizki, o'zbek kinorejissurasining haqiqiy shakllanish bosqichlari Sovet davlatining kuchli mafkuraviy siyosati davriga to'g'ri keldi. Bu paytda ba'zan davr va ustuvor hukumat talabi o'laroq sovetcha kinolar olingan bo'lsa, ba'zan chin insoniy burch, san'at talablaridan kelib chiqib mafkuraviy fon zahirida milliy xususiyatlar aks etgan umuminsoniy badiiy asarlar olishga urinishlar kuchli bo'ldi. Garchi mafkura ta'sirida olingan filmlarda ham badiiy jihatlariga katta e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, chinakam rejissura umuminsoniy g'oyalar talqin etilgan filmlarda kuchliroq aks etib, tomoshabinlarning qalbidan chuqur joy oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova N. O'zbekiston badiiy kinematografining shakllanishi va taraqqiyoti nomli doktorlik ishi (DSc) avtoreferati. – Toshkent, 2019.
2. Каримова Н. Становление и развитие игрового кинематографа Узбекистана, диссертация на соискание ученой степени доктора наук (DSc). – Тошкент, 2019.
3. Туляходжаева М. Режиссура узбекского драматического театра (тенденции развития и современные проблемы). Дисс. ... докт. искусствоведения. – Ташкент, 1995.
4. Абулкасимова Х., Тешабаев Д., Мирзамухамедова М. Кино Узбекистана. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1985.



Азер ГУЛИЕВ,
Докторант Азербайджанского
государственного университета
культуры и искусств

ПРОБЛЕМА АУТЕНТИЧНОСТИ ЭКРАННОГО ИЗОБРАЖЕНИЯ В КОНТЕКСТЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ КИНЕМАТОГРАФА

Аннотация. В статье рассматривается проблема достоверности экранного образа в условиях цифровизации кинематографа. Анализируется переход от индексальной основы аналогового изображения к цифровому и алгоритмическому производству визуальных форм. Особое внимание уделяется влиянию технологий искусственного интеллекта на референциальный статус изображения. Показано, что в цифровую эпоху достоверность экранного образа трансформируется от причинно-следственного основания к вероятностной модели. Сделан вывод о необходимости переосмысления онтологических основ кинематографа.

Ключевые слова: экранный образ, индексальность, цифровизация, искусственный интеллект, онтология кино, референциальность, документальность, симуляция, достоверность.

Annotatsiya. Ushbu maqolada kinematografning raqamlashtirish jarayonida ekran obrazining ishonchliligi muammosi tahlil qilinadi. Tadqiqot analog tasvirning indeksial asosidan raqamli va sun'iy intellekt asosidagi tasvir ishlab chiqarishga o'tish jarayonida ontologik va epistemologik o'zgarishlarni ko'rsatadi. Muallif klassik kino nazariyasidagi indeksiallik tushunchasini ko'rib chiqadi hamda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt sharoitida obrazning referensial maqomi qanday o'zgarishini aniqlaydi. Natijada ekran obrazining ishonchliligi sababiy izdan ehtimoliy modelga ko'chishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ekran obrazi, indeksiallik, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, kino ontologiyasi, referensiallik, hujjatli kino, simulyatsiya, ishonchlilik.

Abstract. This article examines the issue of screen image fidelity in the context of the digitalization of cinema. It analyzes the transition from the indexical basis of analog images to the digital and algorithmic production of visual forms. Particular attention is paid to the influence of artificial intelligence technologies on the referential status of images. It demonstrates that in the digital age, screen image fidelity is transforming from a cause-and-effect basis to a probabilistic model. It concludes that a rethinking of the ontological foundations of cinema is necessary.

Keywords: screen image, indexicality, digitalization, artificial intelligence, film ontology, referentiality, documentary, simulation, authenticity.

Стремительная цифровизация современного кинематографа существенно изменила технологические, эстетические и онтологические условия производства экранных изображений. Переход от аналогового кино к цифровым средствам массовой информации, за которым последовало появление изображе-

ний, генерируемых алгоритмически, усилил дебаты относительно подлинности и достоверности кинематографического образа. В то время как кинематограф исторически полагался на фотографический след как основу своего эпистемологического авторитета, цифровые технологии и искусственный интеллект

(ИИ) бросают вызов стабильности этого фундамента.

На протяжении всего двадцатого века подлинность экранного изображения основывалась на его индексном отношении к физической реальности. Кинематографический кадр понимался как след события, произошедшего перед камерой. Как утверждал Андре Базен, фотографическое изображение черпает свое онтологическое значение в его автоматическом формировании посредством механического процесса, который фиксирует реальность без вмешательства человека [1, с. 13]. Точно так же Зигфрид Кракауэр подчеркивал уникальную близость кинематографа к “физической реальности”, предполагая, что фильм искупает преходящие аспекты материального мира, сохраняя их визуально [7, с. 28]. В этих классических рамках подлинность экранного изображения зависела от причинно-следственной и временной преемственности между записанным событием и его репрезентацией.

Однако цифровые технологии создали новые условия для создания изображений. Лев Манович описал цифровое кино как переход от пленки как фотографического носителя к пленке как подмножеству цифровых носителей, в которых изображения становятся числовыми данными, подлежащими манипулированию [8, с. 295]. Хотя цифровые камеры по-прежнему регистрируют свет от внешних источников, изображение преобразуется в код, который может быть изменен без видимого ухудшения качества. Мэри Энн Доан отмечает, что цифровизация усложняет индексность, переводя ее в новый технический режим, а не устраняя полностью [5, с. 132]. Таким образом, онтологический статус кинематографического образа становится все более нестабильным.

Разработка изображений, генерируемых искусственным интеллектом, знаменует собой дальнейший этап в этой трансформации. В отличие от фотохимической записи или даже цифрового захвата, синтетические изображения, создаваемые системами машинного обучения, не обязательно являются результатом определенного физического события. Вместо этого они генерируются с помощью вероятностного моделирования на основе больших наборов данных. Этот сдвиг поднимает фундаментальные вопросы относительно подлинности экранного изображения: если изображение может убедительно изобразить событие, которого никогда не

было, что остается от его референциального авторитета? Как предупреждал Жан Бодрийяр в своей теории симуляции, современные изображения рискуют перейти в режим, в котором знаки циркулируют независимо от референтов [2, с. 6].

В классической теории кино аутентичность основывалась на индексальности. Андре Базен утверждал, что фотография отличается от живописи тем, что она создается автоматически с помощью механического процесса, который фиксирует реальность без вмешательства человека [1, с. 13]. Отраженный от предметов свет физически отпечатывается на светочувствительной поверхности, устанавливая объективную связь между изображением и миром [1, с. 14]. Таким образом, кинематографический кадр свидетельствует о прошлом существовании. Зигфрид Кракауэр также подчеркивал близость кинематографа к “физической реальности”, утверждая, что фильм восстанавливает преходящие аспекты материального мира, сохраняя их визуально [7, с. 28]. В этом контексте изображение функционирует не просто как репрезентация, но и как свидетельство. Семиотическую основу этой позиции можно проследить в концепции индекса Чарльза Сандерса Пирса. Пирс определяет индекс как знак, физически связанный со своим объектом [11, с. 2.281]. Фотография служит образцовым примером, поскольку она является результатом причинно-следственного взаимодействия между объектом и поверхностью съемки. Классический кинематограф унаследовал эту структуру: каждый кадр действует как след реального события. Таким образом, аутентичность в традиционном кино основывается на трех условиях: экзистенциальном присутствии, причинно-следственной связи и временном приоритете. Изображение подтверждает, что нечто когда-то существовало до появления камеры.

Переход к цифровому кино изменяет эту структуру. На аналоговой пленке изображение формируется с помощью фотохимической записи. При цифровой обработке изображений свет преобразуется в электрические сигналы, а затем в двоичный код. Изображение преобразуется в числовые данные. Лев Манович описывает этот сдвиг как переход от пленки как фотографического средства к пленке как подмножеству цифровых медиа [8, с. 295]. Цифровые изображения являются модульными и ими можно бесконечно манипулировать. Однако оцифровка не сразу устраняет

Kino

индексность. Цифровые камеры по-прежнему улавливают свет от внешних источников. Мэри Энн Доун утверждает, что цифровые МЕДИА переводят индексальность в новый технический режим, а не стирают ее [5, с. 132]. Причинно-следственная цепочка сохраняется, но материальная стабильность следа ослабевает. Изображение становится онтологически нестабильным из-за его подверженности плавному изменению. Стивен Принс вводит концепцию перцептивного реализма, предполагая, что цифровые изображения приобретают достоверность, соответствуя ожиданиям восприятия, а не сохраняя индексальную основу [12, с. 34]. Аутентичность начинает смещаться от причинно-следственной связи к визуальному правдоподобию. Таким образом, цифровизация представляет собой переходный этап: она дестабилизирует восприятие, но не уничтожает его полностью.

Искусственный интеллект знаменует собой качественный сдвиг в производстве изображений. В отличие от аналоговой записи или цифрового захвата, изображения, созданные с помощью искусственного интеллекта, не обязательно являются результатом конкретных физических событий. Они создаются с помощью вероятностного моделирования на основе обширных наборов данных. Вилем Флюссер предвосхитил запрограммированный характер технических изображений, отметив, что устройства генерируют визуальную информацию в соответствии с внутренними кодами [6, с. 26]. Системы искусственного интеллекта радикализируют эту логику: изображение генерируется, а не записывается. В этом контексте актуальна теория симуляции Жана Бодрийяра. Он утверждает, что современные изображения рискуют перейти в режим гиперреальности, в котором знаки циркулируют независимо от референтов [2, с. 6]. Изображения, сгенерированные искусственным интеллектом, иллюстрируют это условие: они могут напоминать реальность без привязки к какому-либо реальному событию. С точки зрения Пирса, такие изображения сохраняют иконическое сходство, но лишены индексальной основы [11, с. 2.281]. Изображение больше не подтверждает, что «это было»; оно выражает статистическую достоверность. Последствия этого особенно важны для документального кино. Билл Николс определяет документальный фильм как основанный на индексном отношении к историческому миру [10, с. 36]. Изображения, со-

зданные искусственным интеллектом, опровергают это предположение, создавая визуально правдоподобные сцены без ссылочной основы. Подлинность больше не может быть предположительной; ее необходимо критически оценивать.

Ослабление индексальности не влечет за собой исчезновения аутентичности. Скорее, это требует ее переосмысления. Во-первых, аутентичность может основываться на воплощенном зрительстве. Зрители, находящиеся во времени и пространстве, сталкиваются даже с синтетическими образами. Жиль Делез подчеркивает, что кино создает временные события, которые перестраивают восприятие [4, с. 17]. Кинематографический образ сохраняет эмпирическую реальность независимо от своего происхождения. Во-вторых, этическая интенциональность становится центральной. Бернард Стиглер утверждает, что технологические системы требуют активной ответственности человека за предотвращение автоматизации смысла [14, с. 102]. В контексте искусственного интеллекта аутентичность все больше зависит от прозрачности и подотчетности авторства. В-третьих, решающую роль играет контекстуальное обрамление. В цифровой культуре базы данных предшествуют повествованиям [8, с. 218]. Изображения, созданные искусственным интеллектом, основаны на агрегированных данных, а не на единичных событиях. Таким образом, их легитимность зависит от дискурсивного и институционального позиционирования, а не от механической регистрации. Аутентичность переходит от материального следа к позиционированию в отношениях. Она становится контекстуальной, этической и интерпретирующей.

Переход кинематографических технологий от фотохимической записи к цифровому кодированию и, в конечном счете, к изображениям, генерируемым искусственным интеллектом, коренным образом изменил концепцию подлинности экранного изображения. Классическая теория кино обосновывала подлинность индексной причинностью: кинематографический образ функционировал как след прошедшего события, устанавливая материальную и временную связь между репрезентацией и реальностью. Как сформулировали Базен и Кракауэр, эта причинная непрерывность придавала кинематографу как онтологическую легитимность, так и эпистемологический авторитет [1; 7].

Оцифровка ослабила эту основу, преобразовав фотохимический след в цифровой код. Хотя цифровое кино сохранило остаточную индексную связь благодаря процессам записи, оно привнесло онтологическую нестабильность из-за неограниченной манипулятивности [5; 8]. Аутентичность начала переходить от материального следа к правдоподобию восприятия.

Появление изображений, генерируемых искусственным интеллектом, знаменует собой дальнейшее и более радикальное развитие. Синтетические изображения не обязательно являются результатом конкретных физических событий; они создаются с помощью вероятностного моделирования на основе больших наборов данных. Кинематографический образ становится статистически связным, а не каузально обоснованным. В этом постиндексационном режиме традиционная

гарантия того, что “это было”, больше не может приниматься на веру. Референциальный авторитет изображения становится скорее условным, чем автоматическим.

Таким образом, онтологический сдвиг от причинности к вероятности представляет собой не конец кинематографа, а его философскую переориентацию. Экранный образ больше не черпает легитимности из онтологической невинности; вместо этого он требует критического осознания своей сконструированной природы. В цифровой среде, насыщенной синтетическими образами, задача современной теории кино состоит не в том, чтобы восстановить утраченную индексную чистоту, а в том, чтобы четко сформулировать, как сохраняются смысл и ответственность, когда материальный след больше не является самоочевидным.

Использованная литература:

1. Базен А. Что такое кино? Т. 1. Пер. с англ. Х. Грея. – Беркли: University of California Press, 2005.
2. Бодрийяр Ж. Симулякры и симуляции. Пер. с англ. Ш. Ф. Глейзер. – Энн-Арбор: University of Michigan Press, 1994.
3. Делёз Ж. Кино 1: Образ-движение. Пер. с англ. Х. Томлинсона, Б. Хабберджем. – Миннеаполис: University of Minnesota Press, 1986.
4. Делёз Ж. Кино 2: Образ-время. Пер. с англ. Х. Томлинсона, Р. Галета. – Миннеаполис: University of Minnesota Press, 1989.
5. Доун М. Энн. Индекс и концепция специфичности медиума // Differences. – 2007. – Т. 18. – № 1. – С. 128–152.
6. Флюссер В. К философии фотографии. – Лондон: Reaktion Books, 2000.
7. Кракауэр З. Теория кино: искупление физической реальности. – Принстон: Princeton University Press, 1960.
8. Манович Л. Язык новых медиа. – Кембридж (МА): MIT Press, 2001.
9. Николс Б. Введение в документальный фильм. 2-е изд. – Блумингтон: Indiana University Press, 2010.
10. Пирс Ч. С. Собрание сочинений Чарльза Сандерса Пирса. Т. 1–8 / Под ред. Ч. Хартшорна и П. Вайса. – Кембридж (МА): Harvard University Press, 1931–1958.

Sitora UMAROVA,
O'zDSMI tayanch doktoranti



MILLIY TELEVIDENIYE TAJRIBASI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: BOLALAR TELEKO'RSATUVLARIDA BADIY MAHORAT

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston televideniyesida bolalar uchun mo'ljallangan ko'rsatuvlarda badiiy mahorat masalalari tahlil qilinadi. "Bolajon" hamda "Aqlvoy" kabi bolalar telekanallaridagi ko'rsatuvlar misolida badiiy ifoda vositalarining samaradorligi, milliy qadriyatlar va zamonaviy media texnologiyalar uyg'unligi tahlil etiladi. Bolalar telejurnalistikasida kreativ yondashuv, interaktivlikning ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: bolalar ko'rsatuvlari, badiiy mahorat, milliy televideniye, media mahsulot, bolalar auditoriyasi, "Bolajon" telekanali, "Aqlvoy" telekanali.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы художественного мастерства в телевизионных программах для детей на узбекском телевидении. На примере передач детских телеканалов «Bolajon» и «Aqlvoy» исследуется эффективность художественно-выразительных средств, а также особенности сочетания национальных ценностей и современных медиатехнологий. Особое внимание уделяется роли творческого подхода, интерактивности и аудиовизуальных решений в повышении качества детского телевизионного контента. Значение художественного мастерства в развитии детской тележурналистики раскрывается на основе научно-теоретического анализа.

Ключевые слова: детские телевизионные программы, художественное мастерство, национальное телевидение, медиаконтент, детская аудитория, телеканал «Bolajon», телеканал «Aqlvoy», детская тележурналистика, интерактивность.

Abstract. This article examines the issues of artistic mastery in children's television programs on Uzbek television. Using the programs broadcast by the children's TV channels "Bolajon" and "Aqlvoy" as case studies, the research analyzes the effectiveness of artistic and expressive means, as well as the integration of national values with modern media technologies. Particular attention is paid to the role of creative approaches, interactivity, and audiovisual solutions in enhancing the quality of children's television content. The significance of artistic mastery in the development of children's television journalism is revealed through a scientific and theoretical analysis.

Keywords: children's television programs, artistic mastery, national television, media content, child audience, Bolajon TV channel, Aqlvoy TV channel, children's television journalism, interactivity.

Bolalar jurnalistikasida muallifning badiiy mahorati hamda mavzu va muammolarga yondashuvi uning ijodiy tajribasiga bevosita bog'liqdir.

Mavzuga chuqur yondashish avvalo, "badiiy mahorat" tushunchasini izohli talqin qilishni talab etadi.

Izlanishlarga ko'ra, Oydin Turdiyevaning "Adabiyotshunoslik terminlarining farscha-o'zbekcha izohli lug'ati" [1, 17-b] da keltirilishicha, "Badiiy shakl va mazmun – voqelikdagi har qanday narsa o'zining tashqi ko'rinishi (shakli) va shu shakl orqali

anglashilayotgan mohiyati (mazmun)ga ega. Shakl va mazmun kategoriyalari umumfalsafiy xarakterda bo'lib, ular voqelikni (narsani) idrok qilishda muhim ilmiy abstraksiyalardir. Zero, shakl va mazmun tarzida bo'lish shartli, negaki, ular-yaxlit bir narsaning har vaqt birlikda mavjud bo'lgan va bir-birini taqozo etadigan ikki tomoni. Aslida, badiiy shakl mazmunsiz, badiiy mazmun esa shaklsiz mavjud emas. Zero, badiiy shakl badiiy mazmunning biz qabul qilayotgan mavjudligi, badiiy mazmun esa uning uchki ma'nosi, mag'zidir.

Ilmiy adabiyotlarda "badiiylilik" tushunchasi voqelikni obrazli ifodasi bilan bog'liq holda izohlanadi. "Mahorat" esa muayyan faoliyatni yuqori darajada va professional tarzda amalga oshirish ko'nikmasini anglatadi. Mahorat tushunchasi ilmiy adabiyotlarda, odatda, quyidagicha ta'riflanadi: *"Professional mahorat – bu professional malaka darajasi, o'z kasbiga oid bilimlarni kasb faoliyatiga aloqador vazifalarni bajarishda qo'llay bilishdir. Jurnalist kasb mahorati darajasini u tarqatayotgan axborot sifatiga qarab baholash kerak"* [2, c. 167].

Bolalar ko'rsatuvlarida badiiy mahorat masalasi telejurnalistika va ekran san'ati kesishgan nuqtada shakllanadigan murakkab hodisa hisoblanadi. Mazkur tushuncha nafaqat estetik ifoda vositalarini, balki auditoriyaga axborotni samarali yetkazish usullarini ham qamrab oladi. Shu jihatdan badiiy mahorat telemahsulotning mazmuniy va shakliy yaxlitligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Media tadqiqotchisi David Buckingham bolalar mediasini "Ijtimoiylashuv va madaniy identifikatsiya vositasi" sifatida talqin qiladi [3, p. 17]. Xususan, bolalar kontentlari nafaqat ko'ngilochar, balki ma'rifiy va tarbiyaviy vazifani ham bajarishi lozim.

Badiiy ifodaga nazariy jihatdan razm solinsa, uning asosiy vazifasi voqelikni obrazli, biroq ishonchli shaklda aks ettirishdan iborat deb qaraladi. Ayniqsa, bolalar auditoriyasi bilan ishlashda matnning soddaligi, tasvirning aniqligi va emotsional ta'sirchanlik muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bolalar axborotni ko'proq vizual va hissiy qabul qiladi.

Televideniya badiiy mahorat ssenariy, tasvir, ovoz, montaj va boshlovchi nutqining o'zaro uyg'unligi orqali yuzaga chiqadi. Agar ushbu komponentlar o'rtasida muvozanat buzilsa, ko'rsatuvning estetik va kommunikativ ta'siri ham kamayadi. Shu bois bolalar ko'rsatuvlarida ekran tilining psixologik va pedagogik jihatlar bilan

uyg'unlashuvi muhim metodologik talab sifatida qaraladi.

Bolalar uchun tayyorlanadigan audiovizual mahsulotlarda shakl, mazmun va taqdim etish formati ijodkor mahoratini ko'rsatuvchi asosiy mezonlardir. Biroq, sohada professional darajaga erishgan mutaxassislar bilan bir qatorda, havaskorlik darajasidagi materiallar hamon uchrab turishi sir emas. Ayrim ko'rsatuvlarda uslubiy g'alizliklar, tahrirtalab o'rinlar va bolalar psixologiyasiga nomunosib jihatlarining mavjudligi ushbu sohani tizimli va ilmiy asosda tadqiq etish zaruratini yanada oshirmoqda.

Bolalar auditoriyasiga mo'ljallangan media-mahsulotlar yaratuvchi telekanallarning funksional vazifasi – ko'rsatuvlar orqali yosh avlodning idrok etish va anglash tizimiga ta'sir ko'rsatish, ularni umuminsoniy g'oyalar negizida tarbiyalashdan iborat. Shuningdek, xalqimizning tarixiy an'analari hamda milliy madaniyatimiz to'g'risidagi boshlang'ich tushunchalarni bolaning yosh xususiyatlariga mos, sodda tilda bayon etish vositasida, ma'naviy-axloqiy yetuk avlodni kamol topshirishga yo'naltirilgan dasturlarni efirga uzatishdir.

Rus olimi L.Shesterkinaning ta'kidlashicha, bolalar dasturi – bu maktabgacha, boshlang'ich maktab, o'smirlik va yosh tomoshabinlarga qaratilgan maqsadli auditoriyadir. Ularni har tomonlama tarbiyalash, ta'lim berish, ijtimoiylashtirish mutaxassislarning badiiylilik yuzasidan mahoratini talab etadi. Bu mavzuda tadqiqot olib borgan olimlarning barchasi bolalar jurnalistikasining tarbiyaviy funksiyasi zarurligini ta'kidlaydi [4, c. 211].

Teleko'rsatuv yoki multfilm bo'lsin, bola dunyoqarashini shakllantirishda muhim transformatsion kuchga ega. Mediamahsulotning ta'sirchanlik tabiati kichik yoshdagi tomoshabin ongida ijobiy yoki salbiy qarashlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Xususan, media kontent yaratuvchi mutaxassis bolalar jurnalistikasining o'ziga xos va alohida mahorat talab etadigan soha ekanligini tushunib yetishi zarur.

Televizion mahsulotlarning dastlabki o'ziga xosligi- vizual tasvir, montaj texnikasi hamda musiqiy bezak usullaridan mahorat bilan foydalanish orqali yosh auditoriyada unutilmas ijobiy taassurot uyg'otish imkoniyatidir. Teleko'rsatuvning ikkinchi mediapedagogik jihatida esa voqelikning aynan tomoshabin ko'z o'ngida jonlanishi (interaktivlik hissi) bilan belgilanadi.

Bolalarga mo'ljallangan ko'rsatuvlar ularni tevarak-atrofni anglash orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish, ijtimoiy ko'nikmalarni hayotiy

Kino

malakaga aylantirish hamda ma'naviy jihatdan yuksaltirish xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Media mahsulotning intellektual va tarbiyaviy xususiyatlarni o'zida mujassam etishi, qolaversa milliy mentalitetimiz mezonlariga mos kelishi fundamental ahamiyat kasb etadi. Milliy axborot makonida bolalar jurnalistikasining ma'rifiy-tarbiyaviy funksiyasi to'laqonli bajarilishi aynan mana shu omillarga bog'liq hisoblanadi.

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar auditoriyasiga mo'ljallangan teledasturlarda, asosan, madaniy-ma'rifiy, rekreativ hamda ta'limiy-tarbiyaviy funksiyalarni faollashtirish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Bolalar telekanallarida verbal (nutqiy) va vizual (tasviriy) komponentlarning o'zaro mutanosibligi yosh tomoshabinlarda tasavvur va bilimlarni shakllantirishning muhim omilidir. Denis McQuailning: "Media mahsulot auditoriya ongiga kuchli ta'sir qilishi uchun unda estetik va kommunikativ vositalar uyg'unlashgan bo'lishi kerak" [5, p. 84] deya aytgan fikrlari ayni o'rinlidir.

Xususan, bolalar jurnalistikasining o'ziga xosligi doimo aniq yoshga yo'naltirilgan auditoriya bilan aniqlanadi. Shu nuqtayi nazardan, voqelikni aks ettirish uchun maxsus, o'ziga xos usullardan, ifodaviy vositalardan, tinglovchilarga murojaat qilish usullaridan foydalaniladi [6, 28-b].

Ommaviy axborot vositalarida bolalar mavzusini yoritishda media nazariyasining fundamental qoidalari va yetakchi prinsiplariga rioya qilish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bolalarga bag'ishlangan har qanday media mahsulotga, avvalo professional ijod namunasi sifatida qarash lozim.

Bolalarga mo'ljallangan media mahsulotlarni ekranga olib chiqishda, faqatgina ularning haququqlari yoki faktlar bilan cheklanish kerak emas. Bu jarayonda ijodkor bola shaxsining yosh xususiyatlari, ruhiy holati va ijtimoiy muhitini ham chuqur tahlil qilishi va e'tiborga olishi lozim. Mazkur talablar bevosita OAV xodimining kasbiy mahoratini, etik qoidalarga amal qilish darajasini belgilaydi. Shunday ekan, bolalar mavzusi bilan ishlaydigan har bir jurnalist eng avvalo, axloqiy me'yorlar va kasbiy prinsiplarni anglashi maqsadga muvofiq.

O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimida kichik yoshdagi auditoriyaga ixtisoslashgan telekanallarning faoliyat boshlashi respublikamizda bolalar media makonini institutsional shakllantirishning fundamental bosqichi bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda "Bolajon" va "Aqlvoy" telekanallari yosh avlod uchun ma'rifiy va rekreativ

(ko'ngilochar) kontent ishlab chiqaruvchi asosiy media subyektlar hisoblanadi.

"Bolajon" telekanali – milliy bolalar televideniyesining ilk ixtisoslashgan namunasidir. Dastlabki bosqichda asosan 3 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan maqsadli auditoriyaga yo'naltirilgan ko'rsatuvlarni translyatsiya qilgan. "Bolajon" telekanalidagi ko'rsatuvlarning saviyasi, til va tasvir uyg'unligi mushtarak. Faqat animatsion va tarjima filmlar kontentidan iborat emas. Bu holatni deyarli har kuni ko'radigan tomoshabinlarga sezishi mumkin. Ayniqsa, bolalar ishtirokidagi ko'rsatuvlarning interaktiv tarzda olib borilishi hammaga birdek qiziq [7, 94-b].

Misol uchun, "Bolajon" telekanalining "Bilimlar mamlakati" intellektual o'yini 20-30 daqiqa davomida efirga uzatiladigan ta'limiy formatdagi ko'rsatuv hisoblanib, ko'rsatuvning asosiy maqsadi bolalarga bilimlarni o'yin va suhbat shaklida yetkazishdan iborat. Ko'rsatuv aniq ketma-ketlikda qurilgan bo'lib, ko'proq yirik va o'rta plan tasvirlaridan foydalaniladi. Kadrlar tez-tez almashmaydi, bu bolalarning diqqatini jamlashga yordam beradi. Sahnada yorqin, lekin ko'zni charchatmaydigan ranglar ishlatiladi: sariq, ko'k, yashil. Bu ranglar bolalarda ijobiy kayfiyat va qiziqish uyg'otadi. Ko'rsatuvda yumshoq fon musiqasi ishlatiladi. To'g'ri javoblar paytida qisqa, quvnoq ovozlari beriladi. Bu bolalarni rag'batlantiradi. "Bilimlar mamlakati"da badiiy mahorat asosan: o'yin shakli, ranglar uyg'unligi, sodda va aniq tuzilma orqali namoyon bo'ladi.

"Aqlvoy" telekanali esa zamonaviy jahon tendensiyasi sanalgan "edutainment" (intellektual-ko'ngilochar ta'lim) konsepsiyasiga tayyanadi. Uning efir siyosati zamonaviy bolalar mediasiga xos dinamik montaj, ekpressiv vizual yechimlar va yuqori animatsion jozibadorlik bilan xarakterlanadi. Ushbu telekanalda efirga uzatiladigan "Shum bolaning sarguzashtlari" animatsion ko'rsatuv bo'lib, u bolalarga hayotiy vaziyatlarni sarguzasht shaklida o'rgatadi. Epizodlar 10-15 daqiqadan iborat. Har bir efirda muammo paydo bo'ladi, qahramon noto'g'ri qaror qabul qiladi, muammo yuzaga keladi va yechim topiladi. Bu bolalarga xatolar orqali o'rganish g'oyasini beradi. Ko'rsatuv animatsion bo'lgani uchun ranglar juda yorqin, harakatlar tez, fon doim o'zgarib turadi. Bu bolalarda zerikishni kamaytiradi. Ya'ni, kadrlar juda tez almashadi (2-5 soniyada). Bu zamonaviy bolalarning tez axborot qabul qilishiga moslashtirilgan. Asosiy qahramon – "shum bola". U qiziqish bilan harakat qiladi, ba'zan xato qiladi va keyin

to'g'ri yo'lni topadi. Ko'rsatuvda tez ritmli musiqa, kulgili ovoz effektlari, emotsional fon ishlatiladi. Bu ko'rsatuvni jonli va qiziqarli qiladi. "Shum bolaning sarguzashtlari"da badiiy mahorat animatsiya, tezkor montaj, sarguzashtli hikoya orqali namoyon bo'ladi. Bu ko'rsatuv bolani passiv tomoshabin emas, voqeani his qiluvchi ishtirokchiga aylantiradi.

Bunday mahoratli yondashuvlar telekanallarning bolalar ko'rsatuvlari uchun manfaatli hisoblanadi. Ammo ushbu telekanalda efirga uzatiladigan "Sirli o'rmoncha" ta'limiy-tarbiyaviy ko'rsatuvida bolalar uchun qiziqarli va ertaknamo muhit yaratilib, dekoratsiya va vizual elementlar ko'rsatuvning umumiy g'oyasiga mos bo'lsada, obrazlar xarakterining chuqur ochilmasligi ko'rsatuvning zaif jihatlaridan biri sanaladi. Qahramonlarning aksariyati ijobiy yoki salbiy sifatlar bilan chegaralanib, ularning individual xarakter xususiyatlari yetarli darajada rivojlantirilmagan. Natijada obrazlarning badiiy ta'sir kuchi biroz susayadi.

Umuman olganda, "Sirli o'rmoncha" ko'rsatuvi bolalar telemahsulotlari orasida badiiy jihatdan muvaffaqiyatli loyihalardan biri hisoblanadi. Uning asosiy afzalliklari ertaknamo muhit, qiziqarli syujet, estetik vizual yechimlarda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, syujetning ayrim hollarda soddalashib ketishi, obrazlar xarakterining yetarli darajada chuqurlashtirilmaganligi hamda didaktik elementlarning kuchayib ketishi ko'rsatuvning badiiy ta'sirchanligini cheklovchi omil sifatida baholanadi.

"Bolajon" telekanali o'z ko'rsatuvlarida milliy-madaniy o'zlikni saqlab qolishga e'tibor qaratadi:

Ekran uchun milliy mentalitetga xos bo'lgan dekoratsiya va atributlardan foydalanish;



Xalq og'zaki ijodi (folklor) namunalari hamda milliy bolalar musiqasini keng targ'ib qilish;

Ertak janri orqali psixologik qulay muhit yaratish.

"Aqlvoy" telekanal faoliyatida bolalar psixologiyasi hamda zamonaviy pedagogika metodologiyasiga tayangan kontent formatlari ustunlik qiladi.


Milliy bolalar televideniyesining istiqbolli strategiyasi – "Bolajon" telekanali tajribasidagi fundamental ma'naviy-tarbiyaviy, entomadaniy qadriyatlarni "Aqlvoy" telekanali namoyish etayotgan ilg'or texnologik va vizual yechimlar bilan sintez qilishdan iborat.

Xulosa o'rinda aytish kerakki, bolalar uchun ko'rsatuvlar qaysi davlat telekanali yoki qaysiki tilda efirga uzatilishidan qat'i nazar ularning yo'nalishi, oldiga qo'ygan maqsadlari bir-biridan farq qilmaydi. Bolalar telekanallarining ommaviy axborot vositalari ichida o'z o'rni va jamiyatni axborot bilan ta'minlashdek vazifani ado etishda o'ziga yarasha munosib hissasi bor. Bolalar ko'rsatuvlari bolalarni bilimdon, dunyoqarashi keng, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lib voyaga yetishlarida muhim vositalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turdiyeva O. Adabiyotshunoslik terminlarining forschasi o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2023.
2. Elmurodova G. Audiovizual mediada milliy kontentni rivojlantirish tendensiyalari: monografiya. – Toshkent: Yoqutxon Media, 2025.
3. Mirzayeva N. Bolalar jurnalistikasining kommunikativ va kontekstual xususiyatlari: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023.
4. Доренков А. Как смотреть телевизор // Журналистика: материалы Всероссийской научно-практической конференции. – Москва, 2008.
5. Свик В. Телевизионная служба новостей. – Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2008.
6. Buckingham D. Children and Media. – Cambridge: Polity Press, 2001.
7. McQuail D. McQuail's Mass Communication Theory. – London: Sage Publications, 2010.

Gulyuz XOMIDOVA,
O'zDSMI tayanch doktoranti



CHAYONGA AYLANGAN GUL TAQDIRINING EKTRAN TALQINI

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek kinosi namunalaridan biri bo'lgan "Chayongul" badiiy filmi misolida ayol obrazining talqini tahlil qilinadi. Filmida ayol taqdirining jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy muhit, ijtimoiy bosim va stereotip qarashlar ta'sirida qanday o'zgarishi yoritiladi. Film syujeti asosida qahramonlarning ruhiy kechinmalari, ichki ziddiyatlari va evrilishi ilmiy-nazariy jihatdan tahlilga tortilib, ayol obrazining "gul"dan "chayon"ga aylanishi adolatsizlik va befarqlik oqibati sifatida asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ayol obrazi, o'zbek badiiy kinosi, ijtimoiy muammo, jamiyat, axloqiy qarash, ma'naviy muhit, ruhiy kechinma, dramaturgiya, psixologik tahlil, operatorlik san'ati, film musiqasi, badiiy talqin.

Аннотация. В данной статье анализируется интерпретация образа женщины на примере художественного фильма «Чайонгуль», одного из образцов современного узбекского кинематографа. Фильм показывает, как судьба женщины стирается под влиянием духовно-нравственной среды общества, социального стресса и стереотипных взглядов. Опираясь на духовный опыт, внутренние конфликты и научно-теоретический анализ главных героев фильма, образ женщины оправдывается как следствие несправедливости и безразличия, превращаясь из «цветка» в «скорпиона».

Ключевые слова: женский образ, узбекское художественное кино, социальная проблема, общество, моральное мировоззрение, духовная среда, духовный опыт, драматургия, психологический анализ, операторская работа, киномузыка, художественная интерпретация.

Abstract. This article analyzes the interpretation of the image of a woman using the example of the feature film "Chayongul", one of the examples of modern Uzbek cinema. The film highlights how the fate of a woman is erased under the influence of the spiritual and moral environment in society, social stress and stereotyped views. Drawing on the spiritual experiences, internal conflicts and scientific and theoretical analysis of the main characters of the film, the image of a woman is justified as a consequence of injustice and indifference from "flower" to "scorpion".

Keywords: female image, Uzbek art cinema, social problem, society, moral outlook, spiritual environment, spiritual experience, dramaturgy, psychological analysis, cinematography, film music, artistic interpretation.

O'zbek badiiy kinosida ayol obrazi har doim jamiyatning ma'naviy-axloqiy holatini aks ettiruvchi fenomen sifatida namoyon bo'lib kelgan. Xususan, 2000-yilda suratga olingan "Chayongul" filmi bu borada alohida e'tiborga loyiq kinokartinalardan biridir. Mazkur film orqali ayol taqdiri, uning ruhiy kechinmalari, jamiyatdagi

o'rni va unga bo'lgan munosabat masalalari badiiy talqin etiladi.

Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad qalamiga mansub bo'lgan, dastlab "Sof o'zbekcha qotillik" nomi bilan, keyinchalik turli nomlar ostida bir necha bor nashr etilgan qissa asosida rejissyor Sobir Nazarmuhammedov tomonidan

“Chayongul” badiiy filmi suratga olingan. Qissaning syujet va g’oyaviy asoslari kinofilm ssenariysi uchun manba vazifasini o’tagan. Asarda va uning ekran talqinida jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy-axloqiy muammolar, xususan, ayol sha’ni hamda qadr-qimmatining poymol etilishi masalasi markaziy o’rinni egallaydi. Syujet rivojida yosh qizning nomusiga tajovuz qilinishi, ushbu jinoyatning jazolanmasdan qolishi orqali adolatsizlik va huquqiy tizimdagi sustkashlik keskin tanqid ostiga olinadi. Bunday muhitda jabrlanuvchining nafaqat jismoniy, balki ruhiy iztiroblari chuqurlashib, uning bosim va badnomlikka bardosh bera olmasligi fojiali yakun – o’z joniga qasd qilish bilan tugaydi. “Chayongul” nafaqat individual fojea tasviri, balki kengroq ijtimoiy muammolarni yorituvchi, tomoshabinni ogohlantiruvchi va muhokamaga undovchi film sifatida namoyon bo’ladi.

“Chayongul” filmi voqealari Quyi qishloq hududida yashovchi Chaman momo oilasi misolida hikoya qilinadi. “Chayongul” filmida ayol taqdiri bir oilaga mansub uch avlod vakillari – Chaman momo, Gulgun va Asal obrazlari orqali ochib beriladi. Kartinaning badiiy konsepsiyasi ham aynan shu ayollarning hayotiy kechinmalari va ruhiy holatlari o’rtasidagi uzviy bog’liqlik asosida qurilgan.

Film voqealarining markazida Chaman momo obrazi turadi. U oila birligini saqlashga intiluvchi, farzandlari taqdiri uchun qayg’uruvchi ona sifatida gavdalanadi. Chaman momo hayotida uchraydigan sinovlar uning nafaqat ona, balki oilaning ma’naviy tayanchi ekanligini ko’rsatadi. Ayniqsa, qizlari bilan bog’liq voqealar rivoji davomida uning ichki kechinmalari, xavotiri va iztiroblari yanada chuqurroq ochiladi. Aktrisa Gulchehra Sa’dullayeva obrazning hissiy qatlamlarini tabiiy aktyorlik vositalari orqali ifodalab, tomoshabinni qahramon ruhiyati bilan hamnafas bo’lishga undaydi.

Filmda Chaman momoning katta qizi Gulgun obrazi alohida ahamiyat kasb etadi. Turmushidagi kelishmovchiliklar sabab ota uyiga qaytgan Gulgun hayotning murakkab sinovlariga duch kelgan ayol sifatida tasvirlanadi. U boshidan kechirgan ko’ngilsizliklar natijasida insonlarga bo’lgan ishonchi susaygan, ammo oilasiga mehr-muhabbatini saqlab qolgan qahramondir. Rejissyor ushbu obraz orqali ayol ruhiyatidagi nozik o’zgarishlarni bosqichma-bosqich ochib beradi. Singlisi Asal bilan bog’liq voqealardan keyin Gulgunning ichki dunyosida yuz beradigan keskin o’zgarishlar film dramatismining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Das-

tlab qayg’u va iztirob hukm surgan bo’lsa, ke-yinchalik bu holat qat’iyat va keskin qarorlar qabul qilish darajasigacha yetib boradi. Aktrisa Ilmira Rahimjonova qahramonning mazkur ruhiy evolyutsiyasini mimika, nigoh va harakatlar vositasida ishonarli talqin etgan.

Asal obrazi esa filmning eng ta’sirchan qahramonlaridan biri sifatida namoyon bo’ladi. U sodda, samimiy va hayotga ishonch bilan qaraydigan qiz sifatida tasvirlanadi. Film syujetining keskin burilish nuqtasi Asal (aktrisa Nigora Rahimova)ning kimsasiz so’qmoq orqali harakatlanishi jarayonida yuzaga keladi. Mazkur epizodda qahramonning beg’uborligi, ishonuvchanligi namoyon bo’lsa, qishloq yigiti Ashur (aktyor Samandar Hamroqulov)ning zo’ravonlikka asoslangan harakati nafaqat individual axloqiy inqiroz, balki jamiyatdagi tarbiyaviy va ma’naviy muammolarning natijasi sifatida talqin qilinadi. Asalning bu voqeadan so’ng uyiga iztirob va dahshat ichida qaytishi nafaqat individual ruhiy zarba, balki butun oila uchun keskin burilish nuqtasiga aylanadi. Chaman momo (aktrisa Gulchehra Sa’dullayeva)ning bu holatdan larzaga kelishi – onalik instinkti, himoya hissining ifodasi bo’lib, aktrisa bu jihatlarni ochib berishda ruhiy holat va jismoniy harakatni uyg’un tarzda amalga oshirgan. Voqea joyida masalani “yumshatish”ga urinish, xususan, aybdor tomon vakili – yigitining otasi Adham muallim (aktyor Obid Yunusov)ning muammoni nikoh orqali “hal etish” taklifini ilgari surishi jamiyatdagi stereotip qarashlarga asoslangan. Farzandiga yaxshi tarbiya bera olmagan, endi afsusda qolgan muallim obrazini aktyor chuqur dard bilan, ko’zda yosh va alamli o’kinch holatida ifodalagan. Natijada tomoshabin ham qahramon bilan birga voqelikni kechinadi. Bir tomondan o’zini oqlasa, ikkinchi tomondan ayblaydi. Bo’lib o’tgan vaziyat ayol sha’ni va qadr-qimmatini ko’pincha ijtimoiy kelishuvlar darajasida baholanib, haqiqiy adolat tamoyillari ikkinchi darajaga tushib qolishini ko’rsatadi.

Syujet davomida maktabda Ashurning ukasi Akbar (aktyor Dilshod Umarov) Asalga uyidagilar sovchi yubormasligini, to’yga oyisi qarshi ekanligini aytib qo’yadi. Bu so’zlar Asalning ruhiy holatini yanada izdan chiqaradi. Qahramonning atrofdagilar bilan munosabati, o’ziga bo’lgan ishonchi va kelajak haqidagi tasavvurlari o’zgarib boradi. Ayniqsa, va’da qilingan to’yning amalga oshmasligi va yolg’izlik hissining kuchayishi Asalning ichki dunyosida og’ir kechinmalarni yuzaga keltiradi. Qahramon ruhiyatini ochib berishda “Tush” epizodi muhim

Kino

badiiy vosita vazifasini bajaradi. Ushbu sahnada Asalning qo'rquvi, hadigi va ruhiy bosimi ramziy tasvirlar orqali ifodalanadi. Sinfdoshlari va mahalladoshlari tomonidan loy otib masxara qilinishi qahramon ongida shakllangan xavotir va iztiroblarning badiiy ifodasidir. Mazkur epizodda rejissyorlik yechimi, operatorlik mahorati va musiqiy bezak uyg'unlashib, qahramonning ichki holatini chuqurroq ochishga xizmat qilgan.

Film davomida Chaman momo, Gulgun va Asal obrazlari o'zaro bog'liq holda rivojlantiriladi. Har bir qahramonning kechinmalari keyingi voqealarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Natijada kartinada ayol ruhiyatining turli qirralari – onalik mas'uliyati, ayolning oiladagi o'rni, ishonchning yo'qolishi, ruhiy iztirob va insoniy qadr-qimmat uchun kurash masalalari badiiy jihatdan yoritiladi. Shu jihatdan "Chayongul" filmi ayol obrazining murakkab tabiatini ochib berishga xizmat qiluvchi muhim ekran asarlaridan biri sifatida e'tiborga loyiqdir.

Filmda operator Hamidulla Hasanov mahorati voqealar rivojidagi psixologik keskinlik, ichki ziddiyat va fojeaviylikda namoyon bo'lib, aniq va ta'sirchan ifodalanadi. Xususan, Asal obrazi bilan bog'liq sahnalarda yaqin planlarning ustun qo'llanilishi qahramonning ruhiy holatini, uning qo'rquv, iztirob va yolg'izlik hissini vizual jihatdan ochib bergan. Kamera harakatining sokin va ehtiyotkorligi ushbu sahnalarga dramaturgiya va hissiy ma'no bag'ishlagan. Shuningdek, filmda tabiiy muhit – qishloq manzaralari, tor so'qmoqlar, yopiq makonlar orqali yaratilgan vizual kontrastlar muhim semantik yukni o'z zimmasiga olgan. Ya'ni, operator Hamidulla Hasanov ochiq va keng makonlardan tor hamda siqilgan fazolarga o'tish orqali qahramonning ijtimoiy-ruhiy "qamal" holatini ramziy tarzda ifodalagan. Ayniqsa, Asalning fojeaviy voqeaga duch kelgan epizodida makon va kamera rakurslari orqali xavf, bexavotirlikning yo'qolishi va himoyasizlik hissi kuchaytirilgan tarzda tasvirlangan.

Filmda Asal fojeasidan so'ng masalani huquqiy yo'l bilan hal etishga urinishlar samarasiz yakun topadi: tergov jarayonida kechikkan murojaat, dalillarning o'z vaqtida rasmiylashtirilmaganligi kabi omillar sabab jinoyatni isbotlash imkonsiz deb baholanadi. Natijada, adolat o'rnatilishi o'rniga qonuniy mexanizmlarning zaifligi yuzaga chiqadi. Gulgunning tergov idoralari-dan olgan sovuqqon va bepisand munosabati ruhiy portlash uchun turtki vazifasini bajaradi. Aktrisa Ilmira Rahimjonova Gulgun obrazini qayg'u va alamga botgan holatda ma'yus nigoh, sokin harakatlar bilan ifodalaydi. Ijtimoiy adolatsizlik bi-

lan yuzlashgan holatini esa dastlab dard va o'ch olish alangasi ko'zlarida lovullagan, keyinchalik isyonga aylangan tajovuzkor holatda talqin etadi. Filmda Gulgunning psixologik transformatsiyasi alohida e'tiborga loyiq: u asta-sekin sabr-toqat chegarasidan chiqib, nafrat va intiqom hissi ta'sirida harakat qiluvchi shaxsga aylanadi. Bu jarayon ayol ruhiyatining izdan chiqishi, uning atrofdagilarga bo'lgan ishonchining butunlay yemirilganini ko'rsatadi. Natijada, u zo'ravonlikka zo'ravonlik bilan javob berishga urinadi. Biroq syujetning kulminatsion nuqtasida yuzaga kelgan tragik xato – ya'ni Ashur o'rniga uning ukasi Akbarning qurbon bo'lishi asardagi fojeaviylikni yanada kuchaytiradi. Bu epizod adolatsizlik zanjiri yangi begunoh qurbonlar paydo bo'lishiga olib kelishini ham anglatadi. Filmda Gulgun obrazi orqali nafaqat fojea, balki jamiyatni ogohlantiruvchi, axloqiy xulosa chiqarishga undovchi kuchli ijtimoiy holat tasvirlanadi.

Voqealar rivojini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur fojea birgina subyektiv harakat natijasi emas, balki bir-biriga ulanib ketgan tasodifiy vaziyatlar yig'indisi mahsulidir. Dastlabki omil sifatida Gulgunning singlisiga nisbatan noto'g'ri axborot berishi, ya'ni uyda qolmasligini aytishi – Asalning manzil tomon harakat trayektoriyasini o'zgartiradi. Natijada, u odatiy yo'ldan manzilga o'tlanmay, masofani qisqartirish uchun kimsasiz so'qmoqdan yuradi. Keyingi bosqichda Ashurning ham mazkur hududda bo'lishi rejalashtirilmagani, balki tasodifiy zarurat – yo'qolgan buzoqni izlash jarayoni bilan izohlanadi. Shu tariqa, ikki subyektning bir makon va vaqt kesishmasida to'qnashuvi dramatik vaziyatni yuzaga keltiradi. Demak, mazkur epizodda tasodifiylik elementi sabab va oqibat bilan uyg'unlashib, voqealar rivojini boshqaruvchi muhim dramaturgik vositaga aylanadi. Ushbu holat "tasodiflar zanjiri" konsepsiyasi asosida izohlanib, inson taqdiri va voqelik o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni ochib beradi. Film mualliflari mazkur usul orqali fojeaning kelib chiqishida nafaqat individual xatti-harakatlar, balki muhit, vaziyat va kutilmagan omillar ham muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

"Chayongul" filmi tahlilida fojeaning markazida individual jinoyat turgan bo'lsa-da, uning oqibatlari kengroq doiraga tarqalishi kuzatiladi. Bevosita ayb egasi bo'lgan Ashurning xatti-harakati natijasida nafaqat jabrlanuvchi Asal, balki voqealar rivoji davomida Gulgun va Akbar kabi begunoh shaxslar ham halokatga uchraydi. Shu tariqa, asarda birgina noto'g'ri qaror va nazoratsiz ehtiros oqibatida yuzaga kelgan holat ko'p qirrali darajasiga ko'tariladi. Mazkur



holatni tahlil qilganda, muammoning ildizi faqat individual xatti-harakatlarda emas, balki jamiyat ongida mustahkam oʻrnashib qolgan stereotip qarashlarda ekanligi ayon boʻladi. Xususan, “odamlar nima deydi”, “sharmanda boʻlamiz” kabi ijtimoiy bosimga asoslangan tushunchalar jabrlanuvchini himoya qilish oʻrniga uni sukut saqlashga majbur etuvchi omil sifatida namoyon boʻladi. Asar mualliflari ushbu badiiy talqin orqali muhim savollarni kun tartibiga olib chiqadi: nega jabrlanuvchi emas, balki aybdor javobgarlikka tortiladi? Nima sababdan ayol shaʼni poymol etilgan vaziyatda ham ayb yukini aynan ayolning oʻzi koʻtarishga majbur boʻladi? Bu kabi savollar orqali film adolat, axloqiy meʼyorlar kabi masalalarini keskin tanqid ostiga oladi.

“Chayongul” filmi tahlilida Gulgunning pichoq koʻtarishi nafaqat konkret aybdorga, balki jamiyatda ildiz otgan adolatsiz qarashlarga, ayol shaʼnini mensimaslikka asoslangan stereotiplarga qarshi ichki isyonini namoyon etadi. Shu jihatdan, uning xatti-harakati isyonkor boʻlishiga qaramay, muayyan maʼnoda norozilikning keskin koʻrinishi sifatida talqin etiladi. Filmda ayol obrazi kuch va zaiflikning murakkab uygʻunligi sifatida gavdalanadi. Gulgun timsolida ayolning ichki salohiyati, ruhiy bardoshi

va keskin qaror qabul qilish qobiliyati ochib beriladi. Biroq ayni paytda, ushbu kuch notoʻgʻri ijtimoiy muhit taʼsirida vayronkor yoʻnalishga burilishi mumkinligi koʻrsatiladi. Badiiy talqinda “gul” va “chayon” obrazlari oʻzaro qarama-qarshi ramzlar sifatida qoʻllanilib, ayol tabiatining ikki xil holatini ifodalaydi: mehr, goʻzallik va hayotbaxshlik timsoli boʻlgan “gul” – adolatsizlik, befarqlik va zoʻravonlik taʼsirida “chayon”ga, yaʼni himoya va qarshilikning keskin, hatto xavfli shakliga aylanishi mumkin. Shu orqali film ayol ruhiyatining nozikligi bilan birga uning ulkan ichki kuchini ham ochib beradi.

“Chayongul” kartinasining dramatik tuzilmasi va psixologik qatlamlarini chuqurlashtirishda bastakor Dmitriy Yanov-Yanovskiy tomonidan yaratilgan musiqiy yechim alohida ahamiyat kasb etadi. Bastakor film voqealaridagi ichki ziddiyatlar, ruhiy iztiroblar va keskin dramatik burilishlarni musiqiy ohanglar orqali nozik ifodalaydi. Xususan, Asal obrazi bilan bogʻliq sahnalarda musiqaning lirizmga yoʻgʻrilgan, sokin va iztirobli temblari uning ichki dunyosidagi qoʻrquv, iztirob hamda umidsizlikni yanada kuchaytirgani koʻrinadi. Gulgunning psixologik transformatsiyasi, yaʼni uning iztirobli ayoldan isyonkor ayolga aylanish jarayoni ham musiqiy vositalar orqali taʼsirchan ochib beriladi. Bu esa tomoshabinning qahramon ruhiy holatiga chuqurroq kirib borishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ayol obrazi orqali jamiyatdagi ijtimoiy ong, maʼnaviy muhit hamda stereotip qarashlarni yoritib beruvchi va tomoshabinni tanqidiy mushohadaga undovchi bunday filmlar oʻzbek badiiy kinosida alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, “Chayongul” singari asarlar milliy kinematografiyaning asl vazifasini ado etib, nafaqat muammolarni ochib beradi, balki jamiyatning maʼnaviy rivojiga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abulqosimova X. Kino sanʼati asoslari / Masʼul muharrir H.Ikromov. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2009. – 240 b.
2. Karimova N. Oʻzbekiston kino sanʼati. – Turkiya: Mega Basim, 2022. – 496 b.
3. Teshaboyev J. Oʻzbek kinoekrani afsonasi. – Toshkent: Fan, 2023. – 112 b.
4. Yakubov B. Oʻzbek badiiy kinosida ilk tarixiy-biografik film // Markaziy Osiyo filmlarida anʼanalar va yangilikka intilish tendensiyalari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya toʻplami. – Toshkent: Donishmand ziyosi nashriyoti, 2024. – 304 b.

III BO‘LIM MUSIQA

G‘anijon XUDOYEV,

O‘zDSMI “San’atshunoslik va
madaniyatshunoslik” kafedrası professori v.b.,
san’atshunoslik fanlari bo’yicha
falsafa doktori (PhD)



SHAYBONIYLAR DAVRI SAROY MUMTOZ MUSIQA MADANIYATI – ILMIY TADQIQOT ISHLARIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada Shayboniylar sulolasi hukmdorlarining Movarounnahrda*gi* ijtimoiy madaniy boshqaruvida mumtoz musiqa madaniyatining ahamiyati, saroy madaniyatida maqom san’atining takomillashuv jarayonlari turli soha olimlarining ilmiy tadqiqot ishlari kesimida ilmiy tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: Shayboniylar, saroy madaniyati, maqom san’ati, O‘n ikki maqom, mumtoz musiqa.

Аннотация. В данной статье научно исследуется значение классической музыкальной культуры в социально-культурном управлении правителей династии Шейбанидов в Мавераннахре, процессы совершенствования искусства макама в дворцовой культуре в контексте научно-исследовательских работ ученых различных областей.

Ключевые слова: Шейбаниды, дворцовая культура, искусство макама, двенадцать макамов, классическая музыка.

Abstract. This article scientifically examines the significance of classical musical culture in the socio-cultural governance of the rulers of the Shaybanid dynasty in Maverannahr, the processes of improving the art of maqam in palace culture in the context of research work by scientists in various fields.

Keywords: Shaybanids, palace culture, maqom art, twelve maqoms, classical music.

Temuriy shahzodalardan so‘ng XVI asr boshlarida siyosiy sahna – Movarounnahr taxtiga kelgan Shayboniy hukmdorlar ham, nafaqat san’at va madaniyatning, xususan, musiqa san’atining saqlab qolinishi, balki o‘ziga xos ravishda rivojlanishiga xizmat qildi.

Shayboniylar davri (XVI) Markaziy Osiyo madaniy hayotida, xususan, saroy musiqa san’atida o‘ziga xos “oltin davr”ning davomi hisoblanadi. Temuriylar an’alarini saqlab qolgan holda, bu davr musiqasi ham ilmiy, ham

ijrochilik jihatidan yuksak cho‘qqiga chiqqan edi.

Biz bu kichik tadqiqotimizda Shayboniylar saroyidagi musiqa madaniyatining asosiy jihatlarini quyidagi besh omilda ko‘rib chiqishga urinish qilamiz:

- 1) Shayboniy hukmdorlarning temuriylardan meros qolgan musiqa an’analari bilan uzviyligi,
- 2) Musiqa ilmi va nazariyasi,
- 3) Saroy bayramlari va “Bazmi xos”,
- 4) Musiqa cholg‘ulari hamda ijrochilik madaniyati hamda
- 5) Maqom san’atining o‘ziga xos shakllanish jarayonlari.

1. Shayboniy hukmdorlarning temuriylardan meros qolgan musiqa an'analari bilan uzviyligi – Shayboniylar (xususan, Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxon II) Hirot va Samarqandning boy madaniy merosini davom ettirdilar. Ko'plab mashhur san'atkorlar Hirotidan Buxoroga ko'chib o'tdilar, bu esa Buxoro musiqa maktabining shakllanishiga kuchli turtki berdi.

2. Musiqa ilmi va nazariyasi. Bu davrda musiqa nafaqat ko'ngilochar vosita, balki jiddiy ilm sifatida qaralgan. Saroyda yashab ijod qilgan olimlar musiqaning nazariy asoslarini rivojlantirdilar:

Darvish Ali Changiy: XVI asrning eng yirik musiqa nazariyotchisi. Uning "Tuhfat us-surur" (Shodlik tuhfasi) asari o'sha davr musiqa cholg'ulari, kuylari va mashhur xonandalari haqida eng qimmatli manba hisoblanadi.

Najmiddin Kavkabi Buxoriy: Musiqa ilmining bilimdoni va shoir. U "O'n ikki maqom" tizimini nazariy jihatdan asoslab bergan va musiqiy risolalar yozgan.

3. Saroy bayramlari va "Bazmi xos". Saroyda musiqiy tadbirlar ikki xil ko'rinishda o'tkazilgan:

Rasmiy qabullar: Chet ellik elchilarni kutib olishda harbiy va tantanali musiqalar (nog'ora, karnay, surnay) yangragan.

Xos bazmlar: Hukmdor va uning yaqinlari uchun tashkil etilgan ma'rifiy kechalarda g'azalxonlik va maqom ijrochiligi markaziy o'rinda bo'lgan.

4. Musiqa cholg'ulari hamda ijrochilik madaniyati.

Shayboniylar davri saroyida musiqa cholg'ulari nihoyatda mashhur bo'lib, bunda torli cholg'ulardan – tanbur, ud, rubob, qonun va chang cozlari, damli cholg'ulardan – nay, qo'shnay; zarbli cholg'ulardan – doira va nog'ora kabi musiqa sozlari urfda bo'lganligini ko'rish mumkin. Ayniqsa, chang cholg'usi saroy musiqasida yetakchi o'rin tutganligini, bevosita o'sha davr musiqa ilmi bilimdoni, saroy musiqachisi Changiy taxallusi bilan ijod qilgan Darvish Alining ilmiy ijodiy merosidan anglash mumkin bo'ladi.

5. Maqom san'atining takomilida hozirgi "Buxoro Shashmaqomi"ning ilk poydevori aynan shu davrda mustahkamlandi. Najmiddin Kavkabi, Darvish Ali Changiy kabi saroy san'atkorlari maqom yo'llarini tartibga solib, ularni saroyning yuksak badiiy talablariga moslashtirdilar. Musiqa va she'riyat (asosan fors va turkiy tillardagi g'azallar) uyg'unligi saroy

madaniyatining oliy namunasi hisoblandi.

Bundan anglanadiki, Shayboniylar davri saroy musiqasida Temuriylar renessansini saqlab qolgan va uni keyingi davr – Buxoro amirligi mumtoz musiqa madaniyati "Shashmaqom" bilan bog'lagan muhim ko'priq vazifasini o'tab bergan edi.

Yuqoridagi faktlarni ilmiy o'rganish maqsadida, turli davrlarda yaratilgan ilmiy asarlar, qo'lyozmalar hamda artefaktlarga murojaat qilamiz.

XVI asr Buxoroda yashab ijod etgan mutafakkir shoir, riyoziyot, tibbiyot, handasa, musiqa sohasi hamda aruz ilmini mukammal egallagan Hasanxo'ja Nisoriy (1516–1597) o'zining "Muzakkiri ahhob" (Do'stlar yodnomasi) [2] asarini 1566-yilda yozib tugatgan bo'lib, bu asar Afg'oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, Sharqiy Turkiston va Movarounnahrning XVI asrdagi madaniy hayoti, xususan, adabiy muhitini keng yoritgan qomusiy asar hisoblanadi. Bunda jami 288 shoir va ulamolarning hayoti va ijodiy faoliyatiga bog'liq ma'lumotlar bayon etiladi [3].

"Muzakkiri ahhob" tazkirasida sulton Muhammad Shayboniyxon (1451–1510) xususida shunday ma'lumotlar keltiriladi. "*Shayboniyxonning bolalik va yoshligi doimo quvg'in, ta'qib ostida va jang maydonida kechgan bo'lsa ham, u yaxshi ta'lim tarbiya olishga ulgurgan, keyinchalik iste'dodli shoir, musavvir, musiqachi, xushovozli qiroatxon bo'lib yetishgan*" [3, 289-b] ligi qayd etiladi.

Shuningdek, "*Shayboniy hukmdorlardan bo'lgan Buxoro xoni Ubaydullaxonning xizmatlari ham alohida tahsinga sazovor. Uch tilda ijod qilgan iste'dodli shoir Buxoro shahriga poytaxt maqomini bergan, ulug' Najmiddin Kavkabi salohiyatiga tayanib, saroy madaniyatiga O'n ikki maqomning yangi ko'rinishini joriy etgan. Ilmu fan va san'at homiysi bo'lgan hukmdor Amir Sohibqironga ergashib, shaharsozlik madaniyatini rivojlantirgan. Millatimizning ulug'laridan bo'lgan Ubaydullaxon haqida ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirish, u haqida hujjatli va badiiy filmlar ishlash bilan birga, ularning ijodini turli ta'lim bosqichlarida faol o'rganish joiz. Shuningdek, Shayboniyxon, Abdullaxon, Imomqulixon kabi hukmdorlarimizning ham ijodiy merosi e'tiborlidir*"¹.

"Muzakkiri ahhob" tazkirasida sulton Ubaydullaxon (1487–1540) xususida shunday bitiladi: "*musiqa nag'malari barcha nag'malar ichida Olloh taolo sirlaridan bir sinoatdir*" (kitobning

¹ San'atshunoslik fanlari doktori O.A.Ibrohimov bilan bo'lgan suhbatdan. Toshkent, 2022-yil, fevral.

Musiq

“izohlar” bandida hadis deb beriladi – X.G'.) mazmuniga ko'ra musiqa ilmiga ko'p e'tibor berardi va chalishi, aytishi, jonfizo nag'malar, ruhafzo tovushlarga muvofiq kelardi. Ajoyib-g'aroyib naqsh (usul)larda diltarib tarkibotlarni shunday ijro etardiki, iqo' qonunlarni chaluvchi sozandalar va turli vaznlarda kuylovchi navozandalar hamda bastakor mashshoqlar barchasi ul amallarga tahsin aytib kelardilar” [3,24-b]. “Muzakkiri ahhob”ning izohlar bandida shoh va shoir, ilm ahlining rahnamosi bo'lgan sulton Ubaydulloxonning adabiy merosi xususida quyidagilar keltiriladi: “Ubaydulloxonning lirik merosidan bitta qulliyot devon bizgacha yetib kelgan bo'lib, O'zR FASHI qo'lyozmalar fondida 8931-raqami ostida saqlanadi” [3, 297-b] deb yozib qo'yilgan.

Nisoriyning “Muzakkiri ahhob” tazkirasida Najmiddin Kavkabiyning yuksak iste'dod sohibi, musiqa ilmi nazariy va ilmi amaliyda peshqadamlardan ekanligi, jumladan Ubaydulloxonga atab “Musiq risolasi”ni bitganligi hamda ko'hna Samarqand saroyida ta'rif etilgan O'n ikki maqomning poytaxt Buxoroda qayta jonlantirganini quyida keluvchi iqtibosda ko'rish mumkin: “Mullo Kavkabi musiqa sohasida Ubaydulloxon nomiga bir risola tasnif etib, unda ta'rif va iy'qo haqida so'z yuritgan, hajm, jinslar bahsini ham keltirib, yettita bo'lgan birinchi tabaqa zarbidan va o'n uchta bo'lgan ikkinchi tabaqa zarbidan hosil bo'luvchi 12 maqomni 6 ovozda nazm qilib manzumaga qulliyot bog'lagankim, musanniflar bir ovozdan bu diltash amalga tahsinlar aytib kelmoqdalar” [3, 140-b].

“XVI asrda badiiy madaniyat sohalari temuriylar davridagi boy madaniy merosga tayangan holda, yarim ko'chmanchi shayboniylar turmush tarzi an'analari mujassamligida rivoj topdi. Movarounnahrning madaniy markazi bu asrda asta-sekin Samarqand shahridan shayboniylarning yangi markazi Buxoroga ko'chdi. Bu yerga davrning allomalari, yetuk olimlari, shoirlari, musiqachilari, naqqosh-xattolari, me'morlari, rassomlari va boshqa soha bilimdonlari to'planib, zamonasini ilg'or ijodiy va ilmiy salohiyatini ko'rsatib turdi va badiiy madaniyat rivojiga muhim hissa qo'shdi” [4, 28-b].

“Bu davrda san'atning boshqa sohalari kabi musiqa va musiqashunoslar ham Movarounnahrning turli shaharlari, ayniqsa Samarqand va Buxoroda ancha jonlandi. Musiq cholg'ularidan rubob, nay, g'ijjak ud, qo'biz, surnay, karnay, nog'ora, dutor, setor, chang,

kamoncha, chiltor, tanbur kabilar keng tarqalgan. Mazkur davrda xushovoz hofiz, bastakor, musiqashunos va iste'dodli mashshoqlardan Mavlono Muhammad Amin Mug'anniy, Mavlono Najmiddin Kavkabi, Mavlono Noi, Mavlono Hasan Kavkabi, Mavlono Hoji Muhammad, Mavlono Rizo Samarqandiy, Mavlono Boqiy, Mavlono Nisoriy, Mavlono Kamoliddin Mir Mahmud, Mirzo Sabriy kabi ajoyib san'atkorlar yetishib chiqdi” [4, 28-b]. “Bu san'atkorlar orasida nujum ilmining bilimdoni, shoir va iste'dodli musiqashunos mavlono Najmiddin Kavkabi (1473-1533) musiqa ilmining amaliyotchisi sifatidagina emas, uning nazariyotchisi sifatida ham tanilgan. U musiqa bobida yangi-yangi kuylar bastalash bilan cheklanib qolmay, “Rost”, “Buzurg”, “Hijoz”, “Iroq” kabi maqomlarga bag'ishlangan kulliyotlar va ko'plab boshqa asarlar muallifidir” [4, 28-b].

Ko'rinib turibdiki, XVI asrga kelib musiqa ilmi, xususan, O'n ikki maqom ijrochiligi Temuriylar poytaxti sanalgan Samarqanddan Shayboniylar poytaxti hisoblangan Buxoro saroyiga ko'chishi har ikkala ko'hna shaharlarning o'z vaqtida barcha sohalarda ilm-fan va ma'rifat tarqatuvchi markaziy manzilgothlar ekanligidan dalolat beradi.

Turkiyalik Abdulqodir Majidning “Shayboniylar davlati” [1] asari 1500–1599-yillarni qamragan Shayboniy hukmdorlar tarixidan so'zlaydi. To'qqiz bobdan iborat mazkur monografiyada Buxorodagi Shayboniyzodalar davrida ilmiy-ijodiy faoliyat olib borgan bir qator tarixshunos, ilm-fan, madaniyat va san'at darg'alari, ular tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar, risolalar xususida ma'lumotlar keltiriladi. Asarda bir qancha xattot, shoir va musavvirlar Mavlono Mashhadiy, Mavlono Mirali Hiraviy, Banoiy Hiraviy, Xoja Mahmud Siyovushoniy, Hofiz Sulton Avbahiy, Mavlono Mirali, Mirak Sayyid G'iyoslarning ijodiy faoliyatini yoritish asnosida Shayboniylardan bo'lgan “Ubaydulloxon temuriylar davridagidek, ilm-fan, madaniyat va san'at an'alarini davom ettirish maqsadida Hirotdan Buxoro va Samarqandga ko'plab san'atkor va olimlar olib kelgan” [1, 551-b] ligi xususida so'z boradi. Shuningdek, Mirak Munshiy, Xoja Yodigor, Og'o Rizo Isfahoniy, Abdulg'oz Abdulloh Bahodirxon, Haloliy Chig'atoiy, Zayniddin Vosifiy Hiraviy, al-Xoj Ali al-Kotib al-Hiraviy (Kotiblar podshohi), Yusuf Naqqosh, Abdulloh Buxoriy, Saykom ibn Mullo Yusuf Hiraviy kabi san'atkorlarni tilga olinadi [1,

553-b]. *Shuningdek, islom dini va madaniyati, falsafasi, qiroat, tafsir, fiqh ilmi, muhaddis olimlari va shayxlaridan Shamsiddin Muhammad Ko'histoniy, Amir Ohu, Mavlono Yormuhammad Qori, Mavlono Muhammadamin Zohid, Xoja Nizomiddin Abdulxodiy Porso, Mavlono Isomiddin Ibrohim, Xoja Abulvalid Ahmad ibn Anna ar-Rajo, Mavlono Solih Muftiy, Mavlono Savtiy, Safiuddin Mustafo Rumiy, Kamoliddin Xoja Muhammad Tohir kabi olimlarning ilmiy faoliyatiga to'xtalib o'tadi. Shuningdek, muarrix olimlardan Binoiy, Muhammad Solih Xorazmiy, Fazlulloh ibn Ro'zbehon Xunjiy Isfaxoniy, Badriddin Husayniy Kashmiriy, Zayniddin Vosifiy, Hofiz Tanish Buxoriy, O'tamish Hoji va boshqa bir qator muarrix-tarixchi olimlarni qayd etish asnosida "asli ismi Sher Ali bo'lgan Binoiyning musiqa va tasavvuf ilmi bilan shug'ullanganligi, musiqa chiroyli kuylari borligini, ulardan biri Nuh-Rang deb atalishini yozadi"* [1, 537-b].

Mazkur tadqiqotning "Musiqa" [1, 553-b] bandida o'z davridagi mavjud musiqa cholg'ularida ijro etilgan maqom sho'balarning nomlarini keltirishda quyidagicha ma'lumot beradi. *"Shayboniy xonlar o'zlariga meros bo'lib qolgan musiqa sohasidagi an'analarni o'z saroylarida ko'plab sozandalar tayyorlab, ularni qo'llab quvvatlagan holda davom ettirishga harakat qilishdi. Masalan, Abdullaxonning o'g'li Abdulmo'minning sunnat to'yida xonandalar cholg'u sozlari jo'rligida har xil kuylar chalishadi. Bu yerdagi cholg'u sozlaridan nog'ora, ud, nay va barbat kabi musiqa sozlarini sanash mumkin. Mazkur musiqa cholg'ularining ohangidan hosil bo'lgan tovush uyg'unligi sakkiz maqomdan biri bo'lgan Dovudiy maqomi jo'rligida chalinar edi"* [1, 553–554-bb.]. Bundan anglanadiki, Temuriylar davridan meros qolgan O'n ikki maqom izlaridan bo'lgan "Sakkiz maqom" haqidagi qarashlar, shuningdek, hali maqom ilmida bizga ma'lum bo'lmagan "Dovudiy" maqomi haqidagi ma'lumotlar, mazkur maqomlarning turkum jihatlar (Sakkiz maqom) hamda ularning nomlanishdagi (Dovudiy) mavhumliklar, mazkur maqomlarning Shayboniylar davri ijtimoiy-madaniy hayotda tutgan o'rni kabi masalalar biroz ilmiy mushohada yuritishni talab etadi.

Shu o'rinda, dovudiy maqomi haqida ikki og'iz to'xtalib o'tamiz: avstriyalik folklorshunos olim Avgust Eyxgornning XIX asr ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo bo'ylab olib borgan musiqiy ekspeditsiyalari jarayonida, buxorolik mahalliy san'atkorlardan yozib olgan maqom namunalari

xususida to'xtalar ekan, "Karimboy ismli o'zbek hofizidan bir qancha "tarixiy ashula"lar yozib olganligini, ular: "Ushshoq", "Rost", "Navo", "Buzruk" kabi qadimiy 12 ta "tarixiy ashula"lardan iborat ekanligi, shuningdek, "Rohaviy", "Ajam" kabi asarlarni Dovud alayhissalom ijod va ijro etgani xususida hofizlardan eshitganlarini bayon etadi" [9, 140–141-bb.]. Bu Shayboniylar hukmronligi davridan meros bo'lib kelgan Dovudiy maqomining izlari bo'lishi mumkinligidan dalolat beradi.

Endi maqomlarning turkumlanish jihatidan "sakkizta" tarzida qo'llanilishi xususida, quyidagilarni keltirish mumkin. XIX asrda Buxoro Shashmaqomi ta'sirida tartiblashgan Xorazm maqomlari, keyinchalik Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari ham bizga Dovudiy maqom yohud "sakkizta" maqom turkumlanishi haqidagi qiziq ma'lumotlarni ochiqalaydi. Musiqashunos Oqilxon Ibrohimov o'zining "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari" [8] nomzodlik dissertatsiyasida Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarining "sakkizta maqom" (Ushshoq, Navo, Rost, Husayniy, Hijoz, Zangula, Iroq, Buzruk) tarzida turkumlanishi xususidagi xulosalarini ilgari suradi [8, 73–77-bb.]. Keyinchilik, yuqorida qayd etilgan Ajam kabi asarlarni Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarida "Navo" turkumi tarkibida berilishi, Buxoro Shashmaqomida esa Navro'zi Ajam nomlanishdagi sho'ba "Segoh" turkumida berilishi mazkur maqomlarning zamonlar osha o'ziga xos ijodiy va ijroviy talqinlarida namoyon bo'lishida ko'rish mumkin. Dovudiy maqom haqida so'z borar ekan, Oqilxon Ibrohimov maqomlarning qadimiy ildizlari xususida o'zining "Maqomlar tarixi va nazariyasi" kitobida O'n ikki maqomga qadar payg'ambarlar nomlari bilan bog'lanuvchi "Yetti maqom" (Rost, Ushshoq, Navo, Hijoz, Iroq, Husayniy, Rohaviy) xususida ham XVI–XVII asrda Shayboniy hukmdorlar davrida yashab ijod etgan buxorolik musiqashunos Darvish Ali Changiyning asarlariga tayanib o'ziga xos nazariyani ilgari suradi. Bunda Changiyga ishora qilib, aynan Navo maqomi Dovud alayhissalomdan meros qolganligi haqidagi rivoyatni iqtibos keltiradi [5, 6-b].

Mutribiy Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" asari Muvarounnahr, xususan, XVI–XVII asrlar Samarqand adabiy muhiti haqida ma'lumot beruvchi muhim manba. Unda muallifga zamondosh 343 nafar shoir haqida so'z yuritilgan. Muqaddima va ikki asosiy bobdan iborat tazkiraning "Tasmiya" bobida

17 nafar she'r va shoirlikka mayl ko'rsatgan Movarounnahr hukmdorlarining badiiy ijodidan namunalar keltirilishi, ularning davr adabiy muhitiga rahnamolik va homiylik qilishi bilan aloqador ma'rifatparvarligiga alohida e'tibor qaratilishi tazkiraning noyob ma'lumotlarga egaligidan dalolat beradi [6, 153-b].

“XVI asr boshida Buxoro quvvatli ijod markaziga – shoirlar, tazkiranavislar, xattotlar, musavviru naqqoshlar, hofizlaru roviylar, musanniflar, navozandalar hamda sohibhunarlar jamlangan, ijodning barcha sohalari jo'sh urgan poytaxtga aylandi” [7, 7-b].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Shayboniylar davrida mumtoz musiqa san'atining ijtimoiy

madaniy hayotga o'ziga xos jilolarda kirib kelishi, o'z davrining yetuk navozandalari Xoja Mirak Majruh Buxoriy, Xoja Navro'z Tanburiy, Mullo Muhammad Zangboz, Hofiz Mirak Buxoriy, Hofiz Avaz Navjavon Buxoriy, Hofiz Hasanali, Ustod Muharram Changiy, Ustod Qosimali Qonuniy, Ustod Husayn Naynavoz kabi saroy musiqachilarining ilmiy ijodiy merosida ko'rish mumkin. Bu san'atkorlarning yuksak xizmatlari o'laroq, mumtoz maqom san'ati rivojining keyingi bosqichlarda, Ashtarxoniylar, keyinchalik Mang'itlar hukmronligi davriga kelib XVIII asr ikkinchi yarmiga kelib Buxoro Shashmaqomining tasnif etilishiga olib kelganligini haqli ravishda tafakkur qilish mumkin.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Abdulqodir M. Shayboniylar davlati (1500–1599) /Abdulqodir Majidning turk tilidagi “Özbek şeybaniler devleti” monografiyasidan Iqboljon Usmon tarjimasi/. – Toshkent: Nasim Kutub nashriyoti, 2024. – B. 656.
2. Nisoriy Hasanxo'ja. Muzakkiri ahhob. Qo'lyozma. – Toshkent: O'zRFA SHI qo'lyozmalar fondi. 56-, 1438-, 4282-, 4374-, 7760-raqamli qo'lyozmalar.
3. Nisoriy Hasanxo'ja. Muzakkiri ahhob (Do'stlar yodnomasi). Tazkira [tarjimon, so'z boshi va izohlar muallifi Ismoil Bekjon]. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 344 b.
4. G'oziyev S., Lapasova M. Shayboniylar davri madaniyati rivojining ayrim jihatlar. “O'zbekistondagi ilmiy amaliy tadqiqotlar” mavzusidagi respublika onlayn konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent, 2020. 3-soni. – B.28.
5. Ibrohimov O. Maqomlar tarixi va nazariyasi. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. – B.6
6. “Mutribiy Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asari xususida. <https://oefen.uz/uz/documents>
7. Rajabov A. Nag'mai niyogon. – Dushanbe: Adib nashriyoti, 1988.
8. Ибрагимов А. Фергано-Ташкентские макомы. Монография. – Ташкент: Медиа ланд, 2006.
9. Эйхгорн А. Музыкальная фолклористика в Узбекистане (первые записи). Музыкально-этнографические материалы [Под редакцией В.М.Беляева]. – Ташкент: изд-во Академии наук РУз, 1963.



Sherzod MUHAMMADIYEV,
O'zDSMI "Musiqali teatr san'ati" kafedrası
dotsenti

TAVAKKAL QODIROV – MILLIY KUYLOVCHILIK MAKTABINING ZABARDAST NAMOYANDASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek milliy musiqa san'atining yirik namoyandalaridan biri – Tavakkal Qodirov ijodi va ijrochilik mahorati yoritiladi. Shuningdek, hofizning ovoz diapazoni, ayniqsa yuqori avj pardalardagi barqaror va ta'sirchan ijrosi, so'z va ohang uyg'unligi, sahna madaniyati kabi jihatlar ilmiy va badiiy jihatdan yoritiladi. Maqolada san'atkorning milliy musiqa an'analarini saqlash va rivojlantirishdagi o'rni hamda uning ijodi bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Tavakkal Qodirov, o'zbek milliy musiqasi, vokal san'ati, ijrochilik mahorati, avj pardalar, ustoz-shogird an'anasi, an'anaviy qo'shiqchilik, sahna madaniyati.

Аннотация. В данной статье рассматривается творчество и исполнительское мастерство одного из великих представителей узбекского национального музыкального искусства – Таваккала Кадилова. Также научно и художественно освещены такие аспекты, как вокальный диапазон хафиза, особенно его устойчивое и впечатляющее исполнение на высоких нотах, гармония слов и мелодии, а также сценическая культура. В статье обосновывается роль артиста в сохранении и развитии национальных музыкальных традиций и тот факт, что его творчество не утратило своей актуальности и сегодня.

Ключевые слова: Таваккал Кадилов, узбекская национальная музыка, вокальное искусство, исполнительское мастерство, высота звука, учительско-ученическая традиция, традиционное пение, сценическая культура.

Abstract. This article examines the work and performance skills of one of the great exponents of Uzbek national music, Tavakkal Kadirov. It also provides a scholarly and artistic overview of aspects such as the hafiz's vocal range, particularly his sustained and impressive high-note performance, the harmony of lyrics and melody, and his stage presence. The article explores the artist's role in preserving and developing national musical traditions and the fact that his work remains relevant today.

Keywords: Tavakkal Kadyrov, Uzbek national music, vocal art, performance skills, pitch, teacher-student tradition, traditional singing, stage culture

**Umrlar bor tiriklikda o'likdir,
Umrlar bor o'lganda ham tirikdir.**

(Maqsud Shayxzoda)

Darhaqiqat, bu hayotda insonni qancha yashashi emas, qanday yashashi muhim sanaladi. Ba'zilar qisqa umr ko'rsa-da, asrlarga tatigulik ijodiy va ijtimoiy faoliyati hamda namunali bosib o'tilgan hayot yo'li sabab insonlar yodidan hech qachon o'chmaydi. Ana shunday katta harflar bilan yoziladigan insonlar

sirasiga "O'zbekiston bulbuli" deya e'tirof etilgan xalqimizning suyukli farzandi, O'zbekiston xalq artisti, professor Tavakkal Qodirovni ham kiritish mumkin. Chunki, uning nomi nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham katta hurmat va ehtirom bilan tilga olinadi.

Farzandning dunyoga kelishi ota-ona uchun baxt, Tavakkalning tug'ilishi esa quvalik Mulla Qodir va To'tibibi aya uchun chinakamiga mo'jiza bo'lgan edi. Boisi, ular birin-ketin tug'ilgan sakkiz farzandini tuproqqa qo'yib, qalblari farzand

Musiq

dog'ida o'rtanardi. To'tibibi aya yana homilador bo'ldi, bundan ko'nglining bir cheti quvonsa, bir uchi mulzam tortardi. Oy-kuni yaqinlashib qolganda qo'shni juvonlardan biri To'tibibining qulog'iga: "To'lg'og'ingiz tutganini hech kimga bildirmang, doyasiz ko'zingiz yorisa, bolangiz nobud bo'lmasmish. Shu irimini ham qiling, zora farzandingiz omon qolsa", – deydi. Chorasiz qolgan ayol "emiga tushsin" deya qo'shni juvonning aytganlarini qiladi. "Allohim, o'zingga takavval qildim, bu bola yo meniki, yo tuproqniki bo'lsin. Ismi ham Tavakkal bo'lsin!" deya nola qiladi. Shunday qilib Tavakkal Qodirov 1926-yil 24-aprelda hovli chetidagi bedapoya bag'rida dunyoga keladi. Er-xotin ko'nglidan quvonch va hadik hukmron edi. Kerakli marosimlarni bajargach, ota o'g'lini qishloqdagi bolalari ko'p ayolga beradi. Beshinchi va to'qqizinchi, eng xavfli kunlardan so'ng, uning tirikligini bilib, er-xotin bolaning sog'lig'i uchun ibodat qilishni boshladilar. 41-kuni ular uni "sotib olish" uchun borishadi. Ota bolani bir taroziga, dala donini ikkinchisiga qo'yadi. Va shu don bilan u bolani "sotib oladi". Yosh Tavakkal shu tariqa ulg'aya boshlaydi.

Uning yaqinlarini eslashicha, bola shu qadar baland ovozda qichqirishi mumkin ediki, hatto mahalladan ancha uzoqda bo'lgan odam ham uni bemalol eshitardi. Ovozi kuchli bo'lishi bilan birga shirali va chiroyli edi. Otasi aqlli odam bo'lib, o'g'lidagi iste'dodni payqab to'g'ri olib borib musiqa maktabiga beradi. Bola kunduzi ham, kechasi ham o'zining eng yaqin hamrohi bo'lgan g'ijjagidan hech qachon ayrilmasdi. U uxlab qolgandagina onasi devorga osib qo'yish uchun undan ehtiyotkorlik bilan sozini olardi.

Shu tariqa yosh Tavakkal Farg'ona vodiysining boy musiqiy an'analari ichida ulg'ayib, aynan shu muhitda kamol topdi. Vodiy madaniy muhiti yosh iste'dodning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Xalq qo'shiqlari, maqom yo'llari, lirik va falsafiy mazmundagi kuylar bilan yosh san'atkorning dunyoqarashi o'sa boshladi. Avvaliga maktabdagi havaskorlik to'garagiga qatnab, birinchi ustozi G'ofir Hoshimovdan musiqiy saboq oldi.

Sultonobod qishlog'iga radio karnayi o'rnatilganda esa yosh Tavakkalning quvonchi olamni tutgandi. U kun bo'yi karnay tagida o'tirib, To'ychi hofiz, Mamatbuva, Erka qori, Yunus Rajabiy, Bolta hofiz, Hojixon Boltayev, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Boborahim Mirzayev kabi ko'zga ko'ringan hofizlarning qo'shiqlarini sel bo'lib tinglardi. "Chorgox", "Ushshoq", "Aylag'och", "Segoh", "So'lim", "Ishq seli", "Ey, ko'ngil", "Abdurahmonbegi", "Hanuz", "Feruz",

"Gul uzorim", "Gul-Chapandozi" kabi qo'shiq va maqomlarni tinglab kuylashni o'rganadi. Shuning uchun uning ijodida ustozlar ijodiga xos bo'lgan milliylik va xalqchillik ustuvor o'rin egallaydi.

Tavakkalning ovozi keng qamrovli bo'lgani bois, G'ofir Hoshimov ashulalarning avjini unga aytirardi. Urush yillarida u ham hamma kabi kolxoz dalasida ishlaydi, kechqurunlari esa jismoniy mehnatdan beqaror barmoqlari bilan g'ijjaklarini sozlab, qishloq aholisi va yurtdoshlariga diltortar qo'shiqlar kuylaydi. Sekin-asta uning qo'shiqlari havaskorlik to'garagidan tuman radiosiga ko'chdi. Uning shinavandalari ham kun sayin ortib boraverdi.

1947-yilda armiyaga chaqirildi. U Ashxobodda uch yil xizmat qildi, dahshatli zilziladan omon qoldi va hamma qatori Turkmaniston poytaxtini tikladi. Shu vaqt ichida uning 54 yoshli onasi vafot etdi. Ammo uning orzusi amalga oshdi. Farzandi el sevgan san'atkor bo'lib xalqqa tanildi. Navoiy, Fuzuliy, Mashrab, Mahtimquli, Muqimiy, Furqat, Uvaysiy, Nodira, Chustiy, Hamza, Habibiy, Sobir Abdulla g'azallari asosida ko'plab qo'shiqlar yozdi. Akbarobod qishlog'idan bo'lgan go'zal Risolatxon bilan turmush qurdi.

1961-yilda Farg'ona musiqa bilim yurtini, keyin Farg'ona pedagogika institutini tugatdi. Ayni paytda u respublikadagi taniqli va sevimli xonanda edi. Uzoq izlanishlar natijasida Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov singari ulug' hofizlar maktabining davomchisi sifatida o'ziga xos uslub yaratdi. Hofiz yuzlab qo'shiqlar ijro etdi. U kuylagan "Bizni tashlab", "O'xshaydi-ku", "Toshkent irog'i", "Naylaram", "Qo'qon ushshog'i", "Tanovar", "Fasli navbahor o'ldi", "Farg'ona tong otguncha" va boshqa qo'shiqlarni hanuz xalqimiz sevib tinglaydi. Ayniqsa, uning Hamza so'zlari asosida yaratilgan "O'xshaydi-ku?" qo'shig'i uning o'ziga xos tashrif qog'oziga aylandi. Odamlar undan oddiy o'zbeklarning to'ylaridan tortib, ko'plab festivallar, konsertlar, hurmatli mehmonlar uchun ziyofatlargacha borgan hamma joyda kuylashni so'rashdi. Uning ovozi shirin, shaffof va baland, diapazoni keng edi. Uning repertuarida 700 dan ortiq o'zbek, tojik, arab, hind, uyg'ur va afg'on qo'shiqlari mavjud bo'lib, 20 ta plastinka yozib olingan.

Ammo 1980-yillarga kelib uni radio va televideniye chiqishini ta'qiqlashadi, konsertlardan chetlashtiriladi va yolg'on bo'htonlar bilan ayblashadi. Buning sababi, oddiy va kulguli edi: u qudratli va boy bir amaldorning to'yiga borishdan bosh tortgandi. Ammo oradan vaqt o'tib haqiqat qaror topdi. U yana sahnaga, televizor va



radioga qaytadi. Filarmoniyada ko'p yillar direktor bo'lib, ko'plab yosh san'atkorlar, xonandalar, cholg'uchilar, raqqosalarga yordam berdi. O'zi esa 1989-yilda "O'zbekiston Respublikasi xalq artisti" unvonini oldi.

Mutaxassislar Tavakkal Qodirov ijrosini tahlil qilganda, unda an'anaviy vokal maktabi elementlari bilan bir qatorda, individual uslub ham o'ziga xos ko'rinishda bo'lganligiga alohida e'tibor qaratishadi. Uning ovoz diapazoni keng, nafasni to'g'ri taqsimlash mahorati va intonatsion aniqligi yuqori professional darajani ko'rsatadi. Ayniqsa, uning ovozdagi avj pardalarning yuqoriligi va shiraliligi alohida e'tiborga molik: u yuqori registrlarda ham ovoz barqarorligini saqlab, tiniq va jarangdor sado hosil qila olgan. Bu xususiyat esa uning ijrosini boshqa xonandalardan ajratib turadigan muhim belgilardan biri bo'lgan.

Shu o'rinda, san'atkorga berilgan "O'zbekiston bulbuli" ta'rif ham bejiz emas. Bulbul timsoli sharq adabiyoti va musiqasida go'zal ovoz, nafasat va yuksak his-tuyg'u ifodasi sifatida talqin qilinadi. Qodirov ijrosidagi samimiyat, tabiiylik va yurakdan kuylash xususiyati uni aynan shu obraz bilan uyg'unlashtiradi. Uning qo'shiqlarida inson qalbi, muhabbat, vafo, hayot mazmuni kabi mavzular chuqur lirizm bilan ifodalanadi. Bu esa tinglovchini befarq qoldirmaydi, aksincha, uning ichki olamiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, uning o'zigagina xos bo'lgan yuqori avj pardalarda ijro etilgan taronalari uning hissiy ta'sirchanligi yanada kuchayib, musiqaning dramatik va estetik qimmatini oshiradi.

O'zbek musiqa san'atida ustoz-shogird an'analari va ijodiy ta'sir masalasi alohida ahamiyatga ega. Bu borada Tavakkal Qodirov ijodida Komiljon Otaniyozov repertuari bilan bog'liq bir muhim voqea tilga olinadi. Biz bilamizki, Farg'onaga ijodiy tashrif buyurgan Komiljon Otaniyozov "Dog'man" qo'shig'ini Tavakkal Qodirov ijrosida eshitib ushbu taronani Tavakkal Qodirovga sovg'a qilgan. Sababi – mashhur "Dog'man" qo'shig'i Tavakkal Qodirov tomonidan kuylanganda o'ziga xos ijrosi bilan tinglovchi muxlislarni rom etgan. O'z o'rnida Tavakkal Qodirov ushbu asarni ijro etishda uning asl ruhi va uslubiy xususiyatlarini saqlab qolishga alohida e'tibor qaratgan. U qo'shiqni shunchaki takrorlamasdan, balki o'z ovoz imkoniyatlari – ayniqsa yuqori avj pardalardagi barqaror va ta'sirchan ijrosi orqali unga yangi badiiy nafas bag'ishlagan. Bu voqea san'atkorning ikki muhim, hech kimnikiga o'xshamagan jihatini ochib beradi: birinchidan, u ustozlar merosiga chuqur hurmat bilan yondashgan; ikkinchidan esa, har qanday asarni shaxsiy ijodiy talqini orqali boyita olgan.

Tavakkal Qodirov nafaqat buyuk ijrochi, balki o'z maktabini yaratgan ustoz sifatida ham qadrlanadi. Uning shogirdlari orqali milliy vokal an'analari izchil davom ettirildi. Ustoz san'atkor yosh ijrochilarga nafaqat qo'shiq aytish sirlarini, balki sahna madaniyati, so'zga hurmat va tinglovchiga sadoqat kabi qadriyatlarini ham o'rgatgan. Sherarali Jo'rayev, Sultonali Mannopov, Nuriddina Hamrokulov, Yorqinoy Xotamova, Qobiljon Yusupov, Nuriddin Haydarov,

Jo'raxon Rahimov, Rustama Abdullayev, Abdulxay Karimov, Oxunjon Madaliyev, Otabek Muhammadzoxid o'zlarini ustozning shogirdlari sanashadi. Shu o'rinda uning shogirdlari ijodi ustoz merosining amaliy davomi sifatida qaraladi. O'zbekiston xalq artisti, professor Sultonali Mannopov ustozini shunday eslaydi.

"Bu voqea haqida o'qib, uning sodir bo'lganiga shubha qilishingiz mumkin. Ammo o'zim bunga guvoh bo'lganim bois, u haqida so'zlamay ilojim yo'q."

Ustoz bilan bir kuni Andijonda bo'lgan to'yning saharlik dasturxonini atrofida o'tirgan edik. Ustozning shinavandalari davra qurib, tori sas chiqarishini intiqlik bilan kutishardi. Ustoz qo'liga torni oldi, uni chertib qo'shiq kuylay boshladi.

Ey tan, bas ayla, g'amli qish o'tsa, bahor bo'lar, Sahro yuzi binafsha bilan lolazor bo'lar, Bulbul chamanda nola qilur, besabab emas, Gul ochilguncha qancha tikonga duchor bo'lar.

Shu payt ustimizga soya tashlab turgan olma shoxiga bulbul kelib qo'ndi, hamma jim, hayrat ichra unga boqib turardik. Qo'shiqning avj nuqtasiga kelganda bulbul torning dastasiga qo'ndi va bir muddat xonish aylab, pirr etib uchib ketdi. Hayratdan yoqa ushlab qolgan davradoshlarning tili aylanmay qolgandi."

Ustoz repertuarida xalq qo'shiqlari bilan birga, zamonaviy kompozitorlar asarlari ham muhim o'rin egallagan. U har bir qo'shiqni o'zining badiiy talqini bilan boyitib, unga yangi hayot bag'ishlay olgan.

Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, uning ijrosida quyidagi jihatlar ustun:

- ✓ milliy kuylarning asl ruhini saqlab qolish;
- ✓ vokal texnika va hissiy ifoda uyg'unligi;
- ✓ so'z va ohang birligiga alohida e'tibor;
- ✓ yuqori avj pardalarni erkin va tabiiy ijro etish mahorati;
- ✓ sahna madaniyati va tinglovchi bilan ruhiy aloqa.

Bugungi globallashuv davrida milliy musiqa an'analarni asrash va rivojlantirish dolzarb

masala hisoblanadi. Tavakkal Qodirov ijodi bu borada muhim namuna bo'lib xizmat qiladi. Uning ijrosi yosh xonandalar uchun maktab, musiqashunoslar uchun tadqiqot manbai sifatida ahamiyatlidir. Ayniqsa, uning yuqori pardalardagi barqaror va tiniq ijrosi vokal san'atida texnik va estetik ideal sifatida baholanadi. Bu jihat zamonaviy ijrochilar uchun o'rnak bo'lib xizmat qiladi. Uning shogirdlari orqali esa bu an'analar yangi davrda ham yashab kelmoqda.

Ustoz san'atkor ijodi respublika miqyosida hanuzgacha katta hurmat bilan e'tirof etib kelinmoqda. Quvonarli jihati, Tavakkal Qodirov tavalludining 100 yilligini 2026–2027-yillarda YUNESKO doirasida nishonlanadigan xalqaro yubileyarga ro'yxatiga qo'shish bo'yicha O'zbekistonning (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkiya va Turkmaniston qo'llab-quvvatlovi bilan) taklifi Samarqand shahrida o'tkazilgan YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasida ma'qullangan edi. YUNESKOning mazkur qarori atoqli o'zbek qo'shiqchisi Tavakkal Qodirovning musiqa, qo'shiqchilik san'ati va madaniyat sohalarining rivoji hamda shu orqali YUNESKO maqsad-vazifalarini ilgari surishga qo'shgan beqiyos hissasiga xalqaro hamjamiyat tomonidan berilgan yuqori bahoning yorqin namunasi bo'ldi.

So'zimiz oxirida shuni aytishimiz kerakki, "O'zbekiston bulbuli 100 yoshda" degan ramziy ibora – bu nafaqat bir sananing ifodasi, balki butun bir musiqiy merosga bo'lgan ehtirom belgisidir. Tavakkal Qodirov o'zining betakror ovozi, yuksak ijrochilik mahorati va xalqchil ijodi bilan o'zbek san'ati tarixida abadiy qoladi. Uning qo'shiqlari hanuzgacha qalblarda yangraydi, uning maktabi esa shogirdlar ijrosi orqali davom etmoqda. Demak, "O'zbekiston bulbuli"ning sadosi va an'analari hali uzoq yillar davomida yashayveradi. Xalq orasida "O'zbekiston bulbuli" degan sharaflil nom bilan mashhur bo'lgan san'atkorning 100 yillik xotirasi o'laroq uning ijodiy merosiga qayta va qayta murojaat qilishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mannopov S. Tavakkal Qodirov. – Farg'ona: Farg'ona nashriyoti, 1994.
2. Mannopov S. An'anaviy qo'shiq ijrosi. – Toshkent: Ijod dunyosi, 2003.
3. Davlatov T. O'zbek xalq musiqa ijodi. – Namangan: NamDU, 2023.
4. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.



Izzat YULDASHEV,
O'zDSMI "Folklor va etnografiya" kafedrası
katta o'qituvchisi,
san'atshunoslik fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

XORAZM MAHALLIY MUSIQA SAN'ATI PROFESSIONALIZATSIYASIGA ISLOM MADANIYATINING TA'SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom madaniyatining Markaziy Osiyo xalqlari mahalliy musiqa madaniyatiga, shu jumladan, Xorazm mahalliy musiqa san'atiga uyg'unlashuvi ochib berilgan holda, Xorazm hududiga xos musiqiy kasbiylik va an'anaviylik xususiyatlari ko'payishiga, musiqiy janrlararo integratsiyasi kengayishiga, mahalliy-musiqiy uslub va janrlar tasniflanishiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, Islom madaniyati, ijrochilik, maqom, suvora, doston.

Аннотация. В данной статье раскрывается интеграция исламской культуры в местную музыкальную культуру народов Центральной Азии, включая местное музыкальное искусство Хорезма, и научно обосновывается её влияние на развитие музыкального профессионализма и традиционных особенностей, характерных для Хорезмского региона, расширение межжанровой интеграции в музыке, а также классификацию местных музыкальных стилей и жанров.

Ключевые слова: музыка, исламская культура, исполнение, маком, сувора, дoston.

Abstract. This article reveals the integration of Islamic culture into the local musical culture of the peoples of Central Asia, including the local musical art of Khorezm, and scientifically substantiates its influence on the development of musical professionalism and traditional features characteristic of the Khorezm region, the expansion of inter-genre integration in music, as well as the classification of local musical styles and genres.

Keywords: music, Islamic culture, performance, maqom, suvora, epic.

Ayrim tadqiqotchilar Eron va turkiy xalqlar musiqasi va qo'shiqchilik san'atining vujudga kelishiga diniy qo'shiq ijrochiligi ta'sir etganini urg'u berishadi [6; 11]. Ammo Yaqin Sharq va Markaziy Osiyodagi turkiy xalqlarning mahalliy musiqa an'analari eramizdan avvalgi davrlarda dastlab otashparastlik, tangrichilik va shamanizm, buddizm, zardushtiylik, moniylik va nasroniylik kabi dinlarga mansub shaxslar faoliyatida kuzatilgan edi. Aytish kerakki, Xorazm hududi qadimdan Markaziy Osiyoda madaniy integratsiya markazlaridan biri bo'lgani sababli, u yerda xalqning o'zi tushuna oladigan

otashparastligi, tangrichiligi va zardushtiyiligi e'tiqodi amal qilingan. Xorazmda islom madaniyati yoyilgandan so'ng, "xalq islomchiligi" (islom ulamolari madaniyati va bilimlaridan farqlanadigan) maishiy hayotida, shu jumladan, mahalliy musiqa an'analari namoyon bo'ladi. Keyinchalik, Xorazmda islomni ilmiy o'rganish, ilohiyot tariqatini egallash ko'payishi sababli, mahalliy musiqa madaniyatida musiqiy janrlararo integratsiya kuchayishi bilan birga, ilohiyot ilmi namoyondalari tomonidan musiqiy uslublar va janrlarning tasniflanishi ortadi. Biroq, aytish kerakki, islom zuhuri ushbu mintaqalarga keng

Musiq

yoyilgach, islomiy sivilizatsiya turli dinlarga mansub musiqiy ijodkor va ijrochilarning musiqiy merosini rad etmadi, balki butun mahalliy musiq merosi va an'analari ilm-fan va islomiy g'oya bilan boyitilishi yuzaga keldi.

Shu o'rinda, Musiqashunos R.Yunusov: *"O'z vaqtida "O'n ikki maqom" tizimi musiq ilm-fanida islom tamadduni ko'rinishlaridan biri bo'lgan deyishimiz mumkin"*, deya ta'kidlaydi [10, 19-b]. Ma'lumki, eramizning I–III asrlar davomida Markaziy Osiyoda mahalliy musiq an'analari kasbiy (professional) amaliyot darajasiga chiqadi, ammo ushbu musiqiy kasbiylik xuddi shu davrdan boshlab, bir shakldan boshqa shaklga rivojlanishning dastlabki bosqichi sifatida namoyon bo'lgan edi. Keyingi bosqichda kechadigan musiqiy kasbiylik rivojlanish (professionalizatsiya) bosqichlari aynan islom zuhuri Markaziy Osiyoga kirib kelgandan so'ng amal qiladi. Qayd etish lozimki, Markaziy Osiyo va musulmon Sharqi miqyosida kechgan islom sivilizatsiyasi turkiy xalqlar mahalliy musiq an'analari, shu jumladan, Xorazm mahalliy musiq uslublari, hududiy ijro yo'llari va janrlarini professional-kompetensial darajada rivojlantiradi, tasnifiy jihatdan tartiblashtiradi.

Ta'kidlash lozimki, tasavvufiy hamda diniy-falsafiy qarashlarning musiq bilan butunlashuvi sababli, musulmon Sharqida mahalliy musiq amaliyotining badiiy-estetik tartiblashuvini kuchaytiradi. Sharq badiiy-estetik va falsafiy tafakkuri ham tasavvufning musiq bilan yaxlitlashuvini ifodalaydi [1, 21–23-bb.]. Xorazm mahalliy musiq an'analari islom g'oyalari, diniy-estetik didi semantik ifodalashning yangicha uslublari sifatida rivojlantiriladi. O'lmas Rasulov maqomlardagi "O" (Xorazmda asosan "O" va "A" xarflari cho'ziqligi amal qiladi), "U", "I" harflari bilan ovoyni ishlatish keng tarqalganini ishora etgan holda, "o" (yozuvda alif maqsur) Alloh so'zining bosh harfi bo'lgani sababli, ushbu harfi cho'zimni o'z mahrajiga yetkazib aytish professional ijro sifatida e'tibor qaratilishini ta'kidlaydi [7, 101–103-bb.].

Yaqin Sharq va musulmon Sharqida antik davr yunon ilm-fani va madaniyati merosi islom sivilizatsiyasi va musulmon renessansi ta'sirida saqlab qolinadi. Shu jumladan, yunonlarning musiq ilmiga oid merosi musulmon sharqi mahalliy musiq an'analari va ilmiga uyg'unlashuvi yuzaga keladi. San'atshunos I. Rajabov Yahyo bin Ali Yahyo Mansurning (v. 912-y.) musiqaga doir asarini tahlil etishiga

qaraganda, arab va boshqa musulmon Sharqi xalqlarida yunon musiq nazariyasi ta'sir ko'rsatmasidan ilgari yerli xalqlarning o'z musiqiy nazazriyalari ham bo'lgan ekan [13, 20-b]. Yuqoridagi mulohazalarni tahlil etishdan oldin san'atshunos Is'hoq Rajabovning quyidagi ta'kidlarini qayd etish muhim: *"Maqom so'zi kuylarning lad hamda tonallik tushunchalari bilan bog'liq ekan, ularning yuzaga kelish tarixi qadim zamonlarga, kasbiy musiq paydo bo'lgan davrlarga borib taqaladi. Maqomlarning kuy-ohanglari har bir xalqning o'ziga xos musiq boyliklari zaminida, san'atchi sozanda, xonanda va bastakorlar tomonidan uzoq tarixiy-madaniy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan"* [13, 20-b]. Ammo islom sivilizatsiyasi keng yoyilgach, maqomlarni rivojlantirib kelgan sozanda, xonanda va bastakorlar asosan ilohiyot tariqatlarini qabul qilgan so'fiylar va tasavvuf ilmiga aloqador shaxslar bo'lganga o'xshaydi.

Ilmi advorda doira usulining doimiy takroriyliqi, aylanib kelishi tasavvufiy qarashlaridagi Haqiqatga yetishish uchun vaqt va samoning uzluksizligi edi. Advor – doiraning ko'pligi [4, 39-b]. Ilmi advor Markaziy Osiyo xalqlari mahalliy maqomlarini tartiblashtirishda, kasbiy rivojlantirishda muhim rol o'ynagan edi. Shu o'rinda, Musiqashunos O. Ibrohimov: *"... musiqaning, shu jumladan, maqomlarning ilmu amali bilan asosan tariqat doirasida bo'lgan so'fiylar yoki har holda tasavvufga aloqador (tasavvuf g'oyalarini "qabul etgan" mutasavvuf) shaxslar shug'ullanib kelganlar"* – deya ta'kidlagan edi [2, 18-b]. Raxmatjon Qurbonov esa: *"Soz san'atining Suvora janri, tasavvuf, ya'ni so'fiylik oqimining musiq san'atidagi ko'rinishidir"* – degan edi [9, 44-b].

Islom madaniyatidan yetishib chiqqan mashhur insonlar, ma'naviy-axloqiy ideallar turkiy xalqlarning mahalliy musiq aytim matnlarida tilga olinishi kuchayadi. Markaziy Osiyo xalqlari mahalliy musiq an'analari, shu jumladan, Xorazm baxshichilik san'atida axloqiy va tarbiyaviy g'oyalar payg'ambar va sahobalar hayoti bilan bog'liq voqeliklar va ba'zida ma'naviy-axloqiy ideallashtirilgan fenomenlar (mashhur shaxslar) badiiy obrazlar sifatida talqin etiladi. Professor B. Matyoqubov: *"Me'rojomadagi Muhammad payg'ambarning oti al Buroq, Hazrat Alining oti Duldul, Rustami dostonning oti Raxsh, "Alpomish" dostonidagi Boychibor, Go'ro'g'lining oti G'irotlarning timsolida o'z aksini topgan. Buning natijasida "Rakba'ni"*

(*Rakb-otlik*) va "*Suvora*" (*Suvoriy-chavandoz*) nomli ashula turkumlarining kelib chiqishiga zamin yaratilganini ehtimol qilish mumkin" – deya ta'kidlaydi [3, 9-b]. Xorazm doston ijrochiligidagi Islom dunyosida yetishib chiqqan shaxslarning oti obrazi musiqiy estetizatsiya sifatida kuy-ohanglarba'zida o'rta temp-ritmda, ba'zida temp-ritmi yuqorilatishi asosida ifoda etiladi. Musiqashunos B. Matyoqubov shunday degan edi: "*Islom dini, xususan Qur'oni Karim negizida shariat asoslarini targ'ibot qiluvchi har xil qissalar, doston va doston sifat nomalardan: "Me'rojnom", "Sultonboboning me'roji", "Bobo Ravshan", "Payg'ambar hikoyati", "Yusuf va Zulayxo", "Kiyiknom" kabi musiqiy jihatdan boy dostonlar yaratilib keng tarqalgan*" [3, 9-b]. Xorazm doston ijrochiligidagi baxshilarning islom madaniyatiga xos axloqiy-didaktik mazmun va nasihatomuz so'z matnlari yaxlitlashuvi musiqiy-estetik va badiiy-ijodiy tarzda tizimlashtiriladi.

Xorazm mahalliy musiqa an'analarida maqom va suvoralar asosan tasavvufiy g'oyalarga asoslangan she'r va aytim uslublarga ega. Aytish kerakki, Xorazm baxshichilik san'atida doston va aytimlar tasavvufning ayrim xususiyatlari bilan boyitilgan edi. Ammo tasavvufiy g'oyalarning musiqa matnini tartiblashtirish funksiyasi ko'proq Xorazm mahalliy maqomlarining doston ijrochiligiga integratsiyasi bo'lgani sababli, musiqiy jumlar tartiblanishi ko'proq boshqa musiqiy janrlar asosida bilvosita ta'sir etgani doston kuy-ohanglarida seziladi.

Qayd etish kerakki, islomiy tamaddunlashuvning Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va elitar madaniyatiga, shu jumladan, mahalliy musiqa madaniyatiga (tub sifatli darajada) ta'siri ikkita davrni o'z ichiga oladi: birinchisi, IX–XII asrlar; ikkinchisi esa, XIV–XVI asrlar renessans davrlaridir.

Xorazmda islom sivilizatsiyasining ilk ta'siri Afrig'iylar sulolasi hukmron bo'lgan davrda amal qilgan edi. Ayniqsa, afrig'iylar sulola vakili shoh Ma'mun Xorazmda ilm va madaniyatni rivojlantirish uchun akademiya tashkil etgani muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu akademiya butun musulmon Sharqi va Markaziy Osiyo ilm-fani va madaniyatining muhim markazlardan biri edi. XIV–XVI asrlar (ya'ni keyingi davr) Xorazm ilm-fani va madaniyati rivojlanishi ko'proq Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Hindiston va boshqa sivilizatsion hududlar miqyosidagi fanniy va madaniy integratsiya ta'sirida (dominantligida) kechdi. Islom zuhuri Markaziy

Osiyoga yoyilgandan so'ng, u yerdagi mahalliy musiqa amaliyoti va an'analarida qo'llaniladigan atamalar arab tilida qo'llanilishiga muhim omillardan biri edi.

Musiqiy manbahunos Z. Oripov Sharq musiqashunosligida arabcha atamalarning tanlanish tamoyillari va ularning turlari bo'yicha tadqiq etgan edi [12, 151–174-bb.]. Arab tilida kiritilgan atamalar bilan bir shakldan boshqa shakllga murakkablashayotgan musiqa amaliyoti uchun kiritilishi sababli, ilmiy ratsional qarashlarning mahalliy musiqa madaniyatiga uyg'unlashuvi rivojlanish sifatida namoyon bo'ldi.

Ta'kidlash kerakki, O'rta asrlar Yaqin Sharq va Markaziy Osiyoda islom madaniyatining etnomadaniy qadriyatlar bilan uyg'unlashuvi mahalliy musiqiy madaniyatlarga badiiy-estetik va maishiy-madaniy ta'sirini kuchaytirgan edi. Musiqashunos Sh. Matyoqubov Markaziy Osiyo musiqa ilmi rivojlanishini uch uslubiy yo'nalishlar asosida kechganini ta'kidlaydi: birinchisi, Antik davr Yunon olimlari va ularning o'rta asr peripatetik izdoshlari tomonidan davom ettirilgan ilmiy ratsionalistik yo'nalish; ikkinchisi, muayyan bir ijodiy uslublarga asoslanadigan amaliy-empirik yo'nalish; keyingisi esa, Qur'oni Karim, hadislar, shariat arkonlari va tasavvuf g'oyalari bilan bog'liq diniy-ma'naviy yo'nalish [5, 16-b]. Shuni ta'kidlash lozimki, O'rta asrlarda Yaqin Sharq va Markaziy Osiyoda iste'molda bo'lgan yunon faylasuflarining musiqa ilmiga oid qarashlari va Sharq peripatetiklari ilmiy ratsionalizmining musiqa uslublarga, amaliy-empirik yo'nalishlarga, islomiy madaniyat va tasavvufiy g'oyalarga yaxlitlashuvi, tizimlashuvi amal qiladi. Bunday tizimlashuv keyinchalik XIV–XVI asrlar Markaziy Osiyo va Xuroson hududlariga xoslangan musiqiy ilm va musiqiy-amaliy jarayonlarning klassifikatsion darajada professionalizatsiyasini ta'minlaydi. Natijada, Markaziy Osiyo va Xurosondagi mahalliy musiqiy uslublari, turli janr va cholg'u san'atlari bilan bog'liq ijrochilik amaliyotlari xilma-xillashuvi va uning kasbiylik (professionallik) xususiyatlari ortib boradi.

Xorazmda baxshichilik va suvora ijrochilik an'analariga islomiy g'oya va qarashlar uyg'unlashuvi sababli, ushbu har ikkala musiqiy janr uslublari Dutor maqomlari ijrochilik an'analariga ta'sir etadi. Xorazm maishiy-madaniy hayotida xalq islomchiligi ham mahalliy musiqa madaniyatiga, shu jumladan, Dutor maqomlari ijrochilik an'analariga ham ta'sir etgan.

Musiqashunos Rustam Boltayev Xorazmdagi “Dutor maqomlari”ni boshqa maqomlar bilan farqli va o‘xshash tomonlarini qayd etib, “Dutor maqomlari”dagi “Zihiy Nazzora” qismiga alohida to‘xtalib o‘tadi: “Zihiy Nazzora so‘zlarining lug‘aviy ma‘nosi ham Alloh Taologa hamdu sanolar deydigan ma‘nolarga yaqin turadi (Zihiy-ofarin, Nazzora-nazar qiluvchi Allohning sifati)” [8, 141-b].

Muxtasar qilib aytgan, Islom madaniyati Xorazm mahalliy musiqa san‘ati ijrochilari va ustalariga diniy-axloqiy va didaktik tarzda ta‘sir etgani sababli, xalq orasida ijtimoiy-axloqiy, ma‘naviy-tarbiyaviy mas‘uliyat hissi mahalliy musiqiy professionalizatsiyasi

bilan yaxlitlashadi. Shu bilan birga, Xorazm mahalliy musiqa san‘ati ilmining nazariy va ilmiy o‘rganish uslublari yuzaga kelishini, ijro uslublari jihatidan xilma-xillashtirishini, musiqiy-ijroviy yo‘nalishlar tasniflanishini, bosh g‘oyaviy mazmun-mohiyatning badiiy-estetik tomonlama boyitilishini islom sivilizatsiyasi va musulmon renessansi ta‘siridagi tasavvur etib bo‘lmaydi. Qolaversa, Xorazm mahalliy musiqa uslublari va janrlarining kuy-ohang matni va jumla tartiblanishi va usul jihatidan muayyan maqsad va vazifalar qo‘llash tartibi, rejalanihi aks etishi bilan birga, aytim so‘zlarining kuy-ohanglarga maqsadli joylashuvi ham amal qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqar F. Musiq va inson ma‘naviyati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000. – 96 b.
2. Ibrohimov O. Maqomlar semantikasi. Monografiya. – Toshkent: Elnur-print, 2023. – 226 b.
3. Matyoqubov B. Xorazm doston ijrochiligining zarxat sahifalari. Risola. – Toshkent: Xorazm, 1999. – 52 b.
4. Matyoqubov O. Maqomot. Monografiya. – Toshkent: Musiq, 2004. – 400 b.
5. Matyoqubov Sh. An‘naviy ijrochilik san‘ati tarixi. Qo‘llanma. – Toshkent: Musiq, 2015. – 112 b.
6. Mahmudov T. “Avesto” haqida. Risola. – Toshkent: Sharq, 2000. – 64 b.
7. Shashmaqom saboqlari. Maqolalar va ma‘ruzalar to‘plami (1-kitob). – Toshkent: 2005. – 136 b.
8. Shashmaqom saboqlari. Maqola va ma‘ruzalarning ikkinchi to‘plami. – Toshkent: 2005. – 224 b.
9. Qurbonov R. San‘atning sirli olami. San‘atnoma. Risola. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 260 b.
10. Yunusov R. O‘zbek maqomlari. – Узбекские макомы. – Uzbek makoms. Risola. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 160 b.
11. Jo‘rayev N. “Avesto” mo‘jizasi. Risola. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 84 b.
12. Oripov Z. Arabcha musiqa atamallari tizimining shakllanishi va taraqqiyoti (X-XV asrlar Markaziy Osiyo olimlarining musiqashunoslikka oid asarlari asosida). Monografiya. – Toshkent: Zamin nashr, 2020. – 340 b.
13. Rajabov I. Maqom asoslari. Qo‘llanma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 156 b.

Shuxrat QORABOYEV,
O'zDSMI "Milliy qo'shiqchilik" kafedrası
dotsenti v.b.



MILLIY QO'SHIQCHILIK VA ANSAMBL IJROCHILIGI: AN'ANALAR, TARIXIY ILDIZLAR VA ZAMONAVIY TARAQQIYOT

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek milliy qo'shiqchiligi va ansambl ijrochiligi musiqasining mohiyati, tarixiy shakllanish bosqichlari hamda hozirgi holati ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. Xalq qo'shiqlari, an'anaviy professional xonandalik, maqom va Shashmaqom san'ati, jamoaviy ijrochilikning rivojlanishi, shuningdek sohani asrash bo'yicha davlat siyosati masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: milliy qo'shiqchilik, xalq qo'shiqlari, an'anaviy xonandalik, maqom, Shashmaqom, ansambl ijrochiligi, hofizlik san'ati, nomoddiy madaniy meros.

Аннотация. В данной статье на основе научной литературы анализируются сущность, этапы исторического формирования и современное состояние узбекского национального пения и ансамблевой музыки. Рассматриваются вопросы народных песен, традиционного профессионального пения, искусства макома и шашмакома, развития коллективного исполнения, а также вопросы государственной политики по сохранению данной области.

Ключевые слова: национальное пение, народные песни, традиционное пение, маком, шашмаком, ансамблевое исполнение, искусство заучивания наизусть, нематериальное культурное наследие.

Abstract. This article, drawing on scientific literature, analyzes the essence, stages of historical development, and current state of Uzbek national singing and ensemble music. It examines folk songs, traditional professional singing, the art of maqom and shashmaqom, the development of collective performance, and public policy for preserving this field.

Keywords: national singing, folk songs, traditional singing, maqom, Shashmaqom, ensemble performance, art of memorization, intangible cultural heritage.

Milliy qo'shiqchilik va ansambl ijrochiligi o'zbek xalqi ma'naviy madaniyatining eng qadimiy va eng teran qatlamlaridan biri hisoblanadi. Xalqning orzu-umidlari, quvonch-u iztiroblari, urf-odatlar va dunyoqarashi asrlar davomida aynan kuy va qo'shiqlarda mujassamlashib, avloddan avlodga o'tib kelgan. Bu san'at oddiy mehnat jarayonida tug'ilgan sodda ohanglardan tortib, murakkab tuzilishga ega bo'lgan mumtoz maqom turkumlarigacha bo'lgan keng yo'nalishni qamrab oladi [2, 24-b].

Mazkur maqolada milliy qo'shiqchilikning asosiy janrlari, an'anaviy professional xonandalik bilan ansambl ijrochiligi o'rtasidagi bog'liqlik, hamda ushbu sohaning tarixiy taraqqiyot bosqichlari ilmiy manbalar asosida ko'rib chiqiladi.

Milliy qo'shiqchilik tushunchasi va xalq qo'shiqlarining tabiati. Milliy qo'shiqlar har bir hududning geografik joylashuvi, iqlimi, urf-odatlar va o'tkaziladigan marosimlariga mos ravishda o'sha yurt vakillari tomonidan yaratiladi hamda ijro etiladi. Ular dastlab mehnat jarayonida vujudga kelgan bo'lib, o'zida ko'pchilikning his-tuyg'ularini yakka shaxs kechinmalari orqali umumlashtirgan holda aks ettiradi [3].

Tuzilishi va ijro vaziyatiga ko'ra xalq ashula hamda cholg'u kuylari ikki katta guruhga ajratiladi: muayyan vaqt va vaziyatda ijro etiladigan (urf-odat, mehnat jarayoni, marosim va o'yinlarga oid) hamda istalgan paytda kuylanadigan namunalar. Janr jihatdan qo'shiq, lapar, yalla, terma kabi shakllar keng tarqalgan bo'lib, ularning she'riy

Musiq

matnlari ko'pincha xalq og'zaki ijodi va Sharq mumtoz she'riyatidan olinadi [4].

An'anaviy professional xonandalik va maqom san'ati. Xalq qo'shiqchiligidan farqli o'laroq, an'anaviy xonandalik og'zaki professional musiqa darajasiga ko'tarilgan, murakkab nazariy asoslarga va puxta ijrochilik maktabiga ega sohadir. Otanazar Matyoqubov bu yo'nalishni "og'zaki an'anadagi professional musiqa" atamasi bilan izohlab, uning yozma notaga emas, ustozdan shogirdga bevosita o'tkaziladigan amaliy bilimga tayanishini ta'kidlaydi [4, 12-b].

An'anaviy professional xonandalik – hofizlik san'atining negizini tashkil etadi. Hofiz nafaqat ovoz, balki keng diapazon, nafas texnikasi, she'riy matnni teran his etish va improvizatsion ijro ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etiladi. Mohir hofiz bo'lib yetishish uchun yosh ijrochi tajribali ustoz qo'lida ko'p yillik mashqlardan o'tgan, asarlarni yoddan o'zlashtirib, el-yurt oldida sinovdan o'tgan [5, 33-b].

An'anaviy xonandalikning eng yuksak shakli – maqom san'atidir. Maqom Sharq xalqlari mumtoz musiqasining murakkab, ko'p qismli turkumiy janri bo'lib, o'zida lad tizimi, doira usullari, kuy va she'riyatning uyg'unligini mujassam etadi [6, 45-b].

Shashmaqom – mumtoz musiqaning gultoji. O'rta Osiyo maqom an'anasining eng yetuk ko'rinishi Shashmaqom hisoblanadi. U XVIII asrning o'rtalarida Buxoro shahrida saroy sozanda, xonanda va bastakorlarining ijodiy-ijrochilik faoliyatida uzil-kesil shakllanib, keyinchalik Buxoro maqomlari nomi bilan ham yuritilgan. Shashmaqom ta'sirida Xorazm maqomlari, Farg'ona–Toshkent maqom yo'llari hamda yakka cholg'u yo'llari rivojlangan [7, 11-b].

Shashmaqom nomi "olti maqom" degan ma'noni anglatadi: Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq. Har bir maqom yirik cholg'u (mushkilot) va ashula (nasr) bo'limlaridan iborat bo'lib, turkumda jami o'nlab shaklan tugal kuy namunalari mavjud [7, 150-b].

Shashmaqom uzoq vaqt og'zaki tarzda yashab kelgan. U ilk bor 1923-yilda Buxoroda kompozitor Viktor Uspenskiy tomonidan, o'sha davrning mashhur ustalari ijrosidan notaga olinib, 1924-yilda nashr etildi. XX asr davomida bu xazina turli to'plamlar ko'rinishida qayta yozib olindi, ilmiy o'rganildi va musiqiy ta'lim tizimiga integratsiya qilindi [8].

Ansambl ijrochiligining tarixiy ildizlari. Ansamb – bir necha ijrochining yagona badiiy maqsad yo'lida hamohang ijro etishini anglatadi. Garchi

"ansambl" atamasi keyinroq o'zlashtirilgan bo'lsa-da, jamoa bo'lib ijro etish amaliyoti o'zbek musiqasida juda qadimiy ildizlarga ega. Tarixiy manbalarda xonanda yoki yakka sozandaga milliy cholg'ularda jo'rnavoz bo'lish an'anasi qayd etilgan [9].

Alisher Navoiy davrida nay, ud, g'ijjak, qonun, karnay, surnay, nog'ora, doira va chang ijrochiligi keng tarqalgan bo'lib, bu cholg'ular ham yakka, ham jamoaviy ijroda qo'llanilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida o'sha davr mashhur sozandalarining nomlari zikr etiladi. XVII asrda yaratilgan Darvesh Ali Changiyning musiqa risolasi esa ijrochilik an'analari va sozandalar faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlarni saqlab qolgan.


An'anaviy ansambl odatda tanbur, dutor, g'ijjak, chang, doira kabi milliy cholg'ularning uyg'un tarkibidan tashkil topadi; doira esa usul (ritm) negizini yuritib, butun jamoani yagona maromga bog'laydi. Fattohxon Mamadaliev milliy ijrochilik masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarida ana shu jo'rnavozlik va jamoaviy ijro madaniyatining o'ziga xos qoidalarini tahlil qiladi [10, 18-b].

Professional maqom ansamblining shakllanishi. O'zbekistonda ilk professional maqom ansambli 1959-yilda taniqli folklorshunos, bastakor va akademik Yunus Rajabiy tashabbusi bilan O'zbekiston radiosi qoshida tashkil etildi. Ansambl maqom san'atining targ'ibotchisi hamda yangi avlod xonanda va sozandalarni tarbiyalovchi o'ziga xos maktabga aylandi. Aynan shu jamoa ijrosida Shashmaqom va Toshkent–Farg'ona maqom yo'llari ilk bor grammofon plastinkalariga yozib olindi. Yunus Rajabiy rahbarligida 1966–1975-yillarda Shashmaqomning olti jildlik mukammal to'plami nashr etildi; bu nashr maqomshunoslik ilmidagi muhim manbaga aylandi. Akademik vafotidan so'ng ansamblga uning nomi berildi va u bugungi kungacha faoliyatini davom ettirmoqda.

Maqom san'atining xalqaro e'tirofi va davlat siyosati. Shashmaqom 2003-yilda YUNESKO tomonidan "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi durdonasi" sifatida e'tirof etilib, keyinchalik tashkilotning Reprerentativ ro'yxatiga kiritildi. Bu e'tirof o'zbek mumtoz musiqasiga jahon miqyosidagi ilmiy va ijodiy qiziqishni yanada oshirdi.


Mustaqillik yillarida sohani asrash va rivojlantirishga davlat darajasida e'tibor kuchaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrda qabul qilingan qarori bilan maqom san'atini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ilmiy-nazariy tadqiqotlarni kuchaytirish, yosh

avlodga maqom an'analarini o'rgatish hamda xalqaro maqom anjumanlarini o'tkazish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar belgilab berildi [1].



1-rasm. Xalq qo'shiqlari va an'anaviy professional xonandalikning qiyosiy tavsifi

Zamonaviy holat va xulosa. Bugungi kunda milliy qo'shiqchilik va ansambl ijrochiligi an'anasi konservatoriya, san'at va madaniyat institutlari hamda ixtisoslashtirilgan maktablardagi an'anaviy xonandalik va cholg'u ijrochiligi yo'nalishlari orqali tizimli ravishda davom ettirilmoqda. Katta ashula, yalla, lapar singari hududiy janrlar, shuningdek maqom ansambllari respublika va xalqaro ko'rik-tanlovlari orqali targ'ib etilmoqda [5, 41-b].



2-rasm. Hofiz egallashi zarur bo'lgan asosiy ijrochilik mahoratlari

Xulosa qilib aytganda, milliy qo'shiqchilik va ansambl ijrochiligi o'zbek xalqining ko'p asrlik ma'naviy-madaniy tajribasi, tarixiy xotirasi, estetik qarashlari va badiiy tafakkurini o'zida mujassam etgan murakkab hamda serqirra san'at tizimidir. Ushbu san'at turi xalqning kundalik turmushi, mehnat jarayoni, urf-odatlar, marosimlari, bayramlari va hayotiy kechinmalari bilan bevosita bog'liq holda shakllangan. Shu bois milliy qo'shiqchilikni faqat musiqiy ijro shakli sifatida emas, balki xalq ruhiyati, ijtimoiy hayoti,

axloqiy qadriyatlari va milliy o'zligini ifodalovchi muhim madaniy hodisa sifatida baholash lozim.

Maqolada ko'rib chiqilganidek, milliy qo'shiqchilik xalq qo'shiqlari va an'anaviy professional xonandalik kabi asosiy yo'nalishlar orqali rivojlanib kelgan. Xalq qo'shiqlari o'zining soddaligi, ommaviyligi, turmush va marosimlar bilan chambarchas bog'liqligi bilan ajralib tursa, an'anaviy professional xonandalik yuksak ijrochilik mahorati, nazariy bilim, ovoz imkoniyati, nafas texnikasi, she'riy matnni chuqur anglash va ustoz-shogird maktabi asosida shakllanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, hofizlik san'ati milliy xonandalik maktabining eng nozik va mas'uliyatli ko'rinishlaridan biri bo'lib, unda ijrochi nafaqat kuy va ohangni, balki matn mazmuni, ruhiy holat va badiiy ifodani ham tinglovchiga yetkazishi talab etiladi.

An'anaviy professional xonandalikning eng yuksak shakli bo'lgan maqom san'ati esa o'zbek mumtoz musiqasining nazariy va amaliy jihatdan mukammal tizimini tashkil etadi. Maqom va Shashmaqom san'ati lad, usul, kuy, she'riyat, falsafiy mazmun va ijro madaniyatining uyg'unlashgan namunasi sifatida milliy musiqa merosimizning eng qadimiy va eng yuksak qatlamlaridan biridir. Shashmaqomning Buxoro muhitida shakllanishi, keyinchalik Xorazm maqomlari hamda Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga ta'sir ko'rsatishi o'zbek musiqa madaniyatining hududiy rang-barangligi va ijodiy davomiyligini tasdiqlaydi.

Ansambl ijrochiligi esa milliy musiqa san'atining jamoaviy ijro madaniyatiga asoslangan muhim yo'nalishidir. Unda xonanda, sozanda va ritmik jo'rlik bir butun badiiy tizim sifatida namoyon bo'ladi. Tanbur, dutor, g'ijjak, chang, nay, doira kabi milliy cholg'ularning o'zaro uyg'unligi ansambl ijrosining badiiy ta'sirchanligini oshiradi. Ayniqsa, doira usulning asosiy tayanchi sifatida ijrochilarni yagona ritmik maromga birlashtiradi. Bu jihatdan ansambl ijrochiligi milliy musiqaning nafaqat ijro shakli, balki jamoaviy hamohanglik, sahna madaniyati va ijodiy muloqot maktabi sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Milliy qo'shiqchilik va ansambl ijrochiligi taraqqiyotida ustoz-shogird an'anasi alohida o'rin tutadi. Chunki mazkur san'at turlari uzoq vaqt davomida asosan og'zaki an'ana asosida avloddan avlodga yetkazilgan. Ustoz nafaqat kuy yoki ashulani o'rgatgan, balki ijro odobi, sahna madaniyati, she'riy matnga munosabat, tinglovchi bilan ruhiy aloqa o'rnatish kabi murakkab ijodiy ko'nikmalarni ham shakllantirgan. Shu sababli bugungi kunda ham milliy musiqa ta'limida ustoz-shogird an'anasini zamonaviy pedagogik

Musiq

yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Maqom va ansambl ijrochiligining xalqaro miqyosda e'tirof etilishi, xususan Shashmaqomning YUNESKO tomonidan nomoddiy madaniy meros sifatida tan olinishi o'zbek milliy musiqa san'atining jahon madaniyati rivojida munosib o'rnini ko'rsatadi. Bu e'tirof nafaqat tarixiy merosimizga berilgan yuksak baho, balki uni ilmiy o'rganish, saqlash, targ'ib qilish va kelajak avlodga yetkazish mas'uliyatini ham kuchaytiradi. Mustaqillik yillarida maqom san'atini rivojlantirish, xalqaro maqom anjumanlarini tashkil etish, yosh ijrochilarni qo'llab-quvvatlash va milliy musiqa merosini ta'lim tizimiga keng joriy etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ushbu sohaning zamonaviy taraqqiyotida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi globallashuv va ommaviy madaniyat ta'siri kuchayib borayotgan sharoitda milliy qo'shiqchilik va ansambl ijrochiligini asrash masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy musiqa xalqning o'zligini, tarixiy xotirasini, estetik didini va ma'naviy qadriyatlarini saqlab qoluvchi muhim vositadir. Shu bois xalq qo'shiqlari, maqom, katta ashula, lapar, yalla, terma va boshqa janrlarni ilmiy asosda o'rganish, ularni zamonaviy sahna talqinlari bilan uyg'unlashtirish, yosh avlod orasida keng targ'ib etish hamda raqamli platformalarda sifatli shaklda ommalashtirish zarur.

Shuningdek, milliy qo'shiqchilik va ansambl ijrochiligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish, hududiy ijro maktablarini qiyosiy o'rganish, unutilib borayotgan xalq qo'shiqlarini to'plash va notaga olish, arxiv materiallarini raqamlashtirish, yosh ijrochilar uchun metodik qo'llanmalar yaratish muhim vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, san'at va madaniyat ta'lim muassasalarida milliy qo'shiqchilikni faqat ijro amaliyoti sifatida emas,



3-rasm. O'zbek maqom va ansambl ijrochiligi tarixiy taraqqiyotining asosiy bosqichlari

balki tarixiy, nazariy, estetik va pedagogik jihatdan kompleks o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, milliy qo'shiqchilik va ansambl ijrochiligi o'zbek xalqining ma'naviy hayoti, badiiy tafakkuri va milliy o'zligini ifodalovchi bebaho madaniy merosdir. Bu meros xalq qo'shiqlarining sodda va samimiy ohanglaridan tortib, maqom san'atining murakkab va falsafiy mazmunigacha bo'lgan keng ijodiy maydonni qamrab oladi. Uning bugungi kundagi barqaror rivoji ustoz-shogird an'anasi, ilmiy tadqiqotlar, ta'lim tizimi, davlat siyosati va zamonaviy targ'ibot vositalarining o'zaro uyg'unligiga bog'liq. Shu jihatdan milliy qo'shiqchilik va ansambl ijrochiligini asrab-avaylash, ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganish hamda yosh avlod ongiga singdirish milliy madaniyatimiz taraqqiyoti va ma'naviy merosimiz davomiyligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2017-yil 17-noyabr, PQ-3391-son [Elektron resurs] // Lex.uz. – URL: <https://lex.uz/docs/-3581613>
2. Jabborov A., Begmatov S., Azamova M. O'zbek musiqasi tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 216 b.
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. "Musiq san'ati" maqolasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
4. Matyoqubov O. Og'zaki professional musiqa asoslariga kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.
5. Begmatov S. Hofizlik san'ati. – Toshkent, 2007.
6. Matyoqubov O. Maqomot. – Toshkent: Musiq, 2004. – 45 b.
7. Rajabiy I. Maqomlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2006. – 400 b.
8. Shashmaqom // O'zbekistonning nomoddiy madaniy merosi. [Elektron resurs] – URL: <http://ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan>
9. Ansambl ijrochiligi faoliyatining tarixi va taraqqiyot bosqichlari [Elektron resurs] // CyberLeninka. – URL: <https://cyberleninka.ru>
10. Mamadaliev F. Milliy musiqa ijrochiligi masalalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.

Dilnoza KURBANOVA,
O'zDSMI mustaqil izlanuvchisi



MAQOM YO'NALISHIDA MOHIR SOZANDA

Annotatsiya. Ushbu maqola Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy maqom markazining oliy toifali sozandasi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, "Do'stlik" ordeni sohibi Tohirjon Turg'unovning hayoti va ijodiga bag'ishlangan. Maqolada Tohirjon Turg'unovning o'zbek milliy musiqasi rivojiga qo'shgan hissasi, sozandalik mahorati va san'atga bo'lgan sadoqati haqida so'z boradi. Shuningdek, uning milliy va xalqaro sahnalaridagi ijodiy faoliyati, yosh avlodga musiqa o'rgatishdagi faoliyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: maqom, jamiyat, san'atkor, milliy, madaniyat, ijod, ustozlik, musiqa, ma'naviyat.

Аннотация. Данная статья посвящена жизни и творчеству Тохирджона Тургунова, музыканта высшей категории Узбекского национального маком-центра имени Юнуса Раджабия, заслуженного артиста Узбекистана, кавалера ордена «Достлик». В статье рассматривается вклад Тохирджона Тургунова в развитие узбекской национальной музыки, его музыкальное мастерство и преданность искусству. Также освещается его творческая деятельность на национальной и международной сценах, а также его работа по обучению музыке молодого поколения.

Ключевые слова: маком, общество, артист, национальный, культура, творчество, наставничество, музыка, духовность.

Abstract. This article is dedicated to the life and work of Tokhirjon Turgunov, a top-class musician at the Yunus Rajabii Uzbek National Makom Center, Honored Artist of Uzbekistan, and recipient of the Dostlik Order. The article examines Tokhirjon Turgunov's contribution to the development of Uzbek national music, his musical mastery, and his dedication to art. It also highlights his creative work on the national and international stages, as well as his work in educating the younger generation about music.

Keywords: maqom, society, artist, national, culture, creativity, mentoring, music, spirituality.

Barchamizga ma'lumki, maqom san'ati o'zining ko'p asrlik tarixiga ega. Zotan, mumtoz musiqiy merosimizning eng ulkan qismini aynan maqom ijodiyoti tashkil etadi. Mumtoz maqomlarning asrlar osha hayoti va rivoji, bir qator omillar qatorida, shubhasiz, ustoz-hofiz va sozandalarning yuksak ijrochilik mahorati bilan uzviy bog'liqdir. Bu jarayonlarning yorqin ifodasini yetuk bir qancha san'atkorlar, xalq hofizlari hamda taniqli xonanda va sozandalar faoliyatida kuzatish mumkin.

Maqom bu falsafa, ilm, obraz, shakl, ovoz hosil bo'ladigan mukammal musiqiy asar.

Maqom o'zbek mumtoz musiqa merosining yetakchi janri. Eng muhimi millatimizning ohanglarda aks etgan musiqiy qomusidir [3].

Sharq mumtoz adabiyoti, tasviriy san'ati, ilmu ma'rifat, islomiy qadriyatlardan oziqlangan maqom san'atiga – ana shunday buyuk madaniy meros rivojiga o'zbek xalqi ham munosib hissa qo'shgani bilan biz haqli ravishda faxrlanamiz. Bu noyob boylikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, undan dunyo ahlini bahramand qilish, kelgusi nasllarga bezavol yetkazish, ijodkorlarning muqaddas burchidir.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 3391-son Qarorida quyidagi masalalar o'z ifodasini topdi:

- O'zbekistonda maqom san'atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablar va an'analarni, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o'rganish va qayta tiklash;
- O'zbek maqom san'ati mumtoz va zamonaviy ijro namunalarining "oltin fondi"ni yaratish;
- xalqimiz, xususan, yosh avlodni maqom san'ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'usi yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish;
- maqom san'ati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish va targ'ib qilish bo'yicha xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish [1].

Biz har gal maqom kuy-qo'shiqlarini tinglaganimizda, qalbimizga jo qilganimizda ruhiyatimiz taskin topadi. Ilohiy kuch qalbimizni nurga to'ldiradi. Bu nur – ma'naviyatdir. San'at va madaniyat har bir xalqning ma'naviy boyligi va milliy o'zligini ifoda etuvchi muhim sohalardan biri hisoblanadi. Zero, o'zbek milliy maqomining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: *"Agar biz asl, haqiqiy san'atni bilmoqchi, o'rganmoqchi bo'lsak, avvalo mumtoz maqom san'atini bilishimiz, o'rganishimiz kerak. Agar biz san'atni, madaniyatni ko'tar-*

moqchi bo'lsak, avvalo mumtoz maqom san'atini ko'tarishimiz kerak. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur" [2].

Milliy maqom san'ati juda qadimiy va falsafiy ma'noda nazariy va amaliy jihatdan mukammal shakl, asos va an'anaga egaligi bilan ajralib turadi. Bu juda uzoq sinovli va ijodiy muddatdir. Xalqimizning milliy ma'naviy negizi, qadriyatlari shakllanishi, rivojlanishi jarayonida betakror va o'ziga xos an'analarning davrlar o'sha mukammallashib, go'zallashib kamol topgan. Ana shu qadriyatlar bilan sug'orilgan an'analarning ohangida shakllangan musiqiy namunalar qadrlanib, rivojlanib kelgan.

San'at va madaniyat sohasida uzoq yillar mobaynida faoliyat yuritib kelayotgan, "Maqomchilar" ansablining oliy toifali sozandasi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Tohirjon Turg'unovning ijod yo'li e'tirofga sazovordir.

Tohirjon Turg'unov 1954-yil Toshkent viloyati Chirchiq shahrida dunyoga kelgan. Bolalik chog'idan rubob soziga qiziqish uyg'ongan va maktabda o'qib yurgan davrida to'garakka qatnashib, rubob sozini chalish sirlarini o'rgangan. 1966–1971-yillarda Chirchiq shahridagi 1-musiqi maktabida ilk bor qo'lga qashqar rubobini tutib, ustozlik qilgan Mahamadjon Irisqulovdan sozni chalishni o'rgandi.

1971-yil Hamza nomidagi Toshkent davlat Musiqi bilim yurtiga afg'on rubobi mutaxassisligi bo'yicha o'qishga qabul qilindi. Mazkur bilim yurtidagi ustoz Sotivoldi Karimovdan afg'on rubobini chalish sirlarini mukammal o'rganib, a'lo baholar bilan tamomladi.

1972-yil armiya safiga chaqirilib, Ikromjon Bo'ronov rahbarligidagi ansamblda xizmat qildi. O'sha davrning mashhur, zabardast sozanda va san'atkorlari bilan bir safda xizmat qilgan. Jumladan, Abduhoshim Ismoilov, Ismoiljon va Isroiljon Vaxobovlar, Ahmadjon Dadayev, Farruxjon Sodiqov, Xusan Nabiyeu kabi O'zbekiston xalq artisti hamda taniqli hofizlari bilan birgalikda harbiy ansanbl tarkibida hamnafas bo'lib ijod qilganlar. Ansamblda musiqi rahbari lavozimida faoliyat yuritgan Abduhoshim Ismoilov uning kasbiy shakllanishi va ijodiy mahoratining takomillashuvida muhim o'rin tutgan. San'atkor mazkur ustozdan musiqiy ijrochilik va ijodiy faoliyatga oid boy tajriba hamda bilimlarni o'zlashtirgan.

Tohirjon Turg'unov nafaqat mahoratli ijrochi, balki milliy maqom san'atini yosh



avlodga o'rgatish orqali, uning umrboqiyligini ta'minlashda fidoyilik ko'rsatgan ustoz sifatida ham ibratli inson ekanligi e'tirofga loyiq. Uning ilk faoliyati 1974-yil Respublika kasb-hunar ta'limi madaniyat uyida tashkil etilgan ansamblda sozandalik lavozimida boshlangan bo'lib, 1976-1980-yillar mobaynida Chirchiq shahridagi 2-sonli musiqa maktabida qashqar rubobi ixtisosligi bo'yicha o'quvchilarga dars berdi. 1980-yildan O'zteleradio kompaniyasi Doni Zokirov rahbarligidagi xalq cholg'u asboblari orkestrida qashqar rubobi, rubob soprana, afg'on rubobi sozlarida faoliyat yuritdi.

1992-1996-yillar mobaynida O'zteleradio kompaniyasi qoshida tuzilgan "Tanovar" ansamblida ijodini davom ettiradi. 1996-yildan hozirgi kunga qadar Abduhoshim Ismoilov rahbarligidagi Yunus Rajabiy nomli "Maqom" ansamblida oliy toifali sozanda sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

San'at va madaniyat sohasida fidoyi xizmatlari natijasida, 2009-yil Tohirjon Turg'unov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist unvoniga sazovor bo'ldi. Zotan, ustoz san'atkor milliy maqomchilik maktabining ustoz-shogird an'alarini izchil davom ettirish, yosh iste'dodlarni kashf etish va ularning ijodiy kamolotiga ko'maklashish orqali milliy musiqa madaniyatining uzviy rivojlanishiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Ustoz san'atkor 2012-2014-yillarda "Diydor" teatr studiyasida oliy toifali o'qituvchi lavozimida faoliyat yuri-

tib, talabalarning kasbiy mahoratini shakllantirish, sahna madaniyati va ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirish borasida samarali pedagogik faoliyat olib borgan. Mazkur davr mobaynida u yosh ijodkorlarga milliy musiqa asoslarini chuqur o'rgatish, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan. Natijada ustoz san'atkorning pedagogik faoliyati nafaqat malakali mutaxassislar tayyorlashga, balki milliy madaniy merosni asrab-avaylash va kelgusi avlodlarga yetkazish jarayonining uzluksizligini ta'minlashga ham xizmat qildi. Shu jihatdan, uning ta'lim va tarbiya sohasidagi faoliyati maqom san'ati va milliy ijrochilik maktabi taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Tohirjon Turg'unov yillar mobaynida ko'plab davlat tadbirlarida faol ishtirok etib kelmoqda. Xususan, "Sharq taronalari", "Xalqaro maqom san'ati" "Baxshichilik san'ati", "Xalqaro hunarmandchilik san'ati" kabi xalqaro festivallar shuningdek, Konstitutsiya qabul qilingan kun, Mustaqillik bayrami, Vatan himoyachilari kuni hamda turli konsertlarda faol ishtirok etib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligi bayrami arafasida ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. U chet davlatlarida bo'lib o'tadigan ko'plab tadbirlarda milliy maqom san'ati durdonalarini targ'ib qilib, dunyoga tanitishda o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

San'at sohasining fidoyi sozandasi Tohirjon Turg'unov O'zbekiston radiosining oltin fondiga o'nlab musiqiy asarlarni yozib taqdim etdi. Uning ijrochilik merosi milliy cholg'u san'atining turli yo'nalishlarini qamrab oladi. Jumladan, qashqar rubobida ijro etilgan "Dilkusho", "Rubobim tori", "Shirin hayollar", ud sozida ijro qilingan "Ko'rishgandan beri", "Gullar raqsi", "Afg'on xalq kuyi", shuningdek, soz kuylari turkumiga mansub "Garduni navo" va "Farg'onacha" kabi asarlari O'zbekiston radiosining oltin fondiga kiritilgan. Mazkur musiqiy asarlar ijrochining yuksak mahorati hamda milliy musiqa merosini targ'ib etishdagi munosib hissasini namoyon etadi.

Yurtimizda ijod sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga kamarbasta bo'lgan, ma'naviy qadriyat va an'alarimizni asrab-avaylashga qo'shgan munosib hissasi uchun madaniyat va san'at ahlining mehnati doimo yuksak baholanib kelingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Farmoniga muvofiq, davlatimiz mustaqilligining 34 yillik yubileyi munosabati bilan yuzlab hamyurtlarimiz qatorida madaniyat va san'at vakillari ham unvon, orden va ko'krak nishoni bilan taqdirlandilar. "Do'stlik" unvoniga sazovor bo'lganlar orasida samarali ijodi bilan milliy musiqa san'atini dunyo xalqlari o'rtasida keng targ'ib qilgan, oliy toifali sozanda Turg'unov Tohir Mirxasimovichning xizmatlari ham e'tirof etildi.

Maqom san'ati namunalarini yuksak mahorat bilan ijro etish – bu nafaqat san'atkorlik mahorati, balki ajdodlar ruhi va millatning boy ma'naviyatini yurakda his etib, jonlantirish mas'uliyatidir. Bu yo'lda san'atkor har bir navoni yangrayotgan ohangga nafas kabi kirita olishi, kuyga o'z qalbini baxshida etishi lozim. Zero, maqom o'zida o'tmishdan kelajak sari uzviy bog'langan musiqiy tarix va ma'naviy merosni asrab-avaylay-

digan ijoddir. Bu borada, ulug' ajdodlarimizning yuksak intellektual va ijodiy salohiyati ila yaralgan maqom san'ati mustaqil diyorimizda oliy darajada qadr-qimmat topayotganligining guvohi bo'lib turibmiz.

Ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbarining musiqa san'atini rivojlantirishga doir bir qator farmon va qarorlari e'lon qilindi. 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2018-yil 6-apreldagi "Xalqaro maqom san'ati anjumanni o'tkazish to'g'risida"gi Qarorlari xalqimiz madaniy hayotini yanada yuksaltirishga xizmat qilishi barobarida jahon hamjamiyatining bu mumtoz san'atga bo'lgan e'tiborini yanada o'ttirdi. Xususan, Toshkentda "O'zbek milliy maqom san'ati markazi" tashkil etildi.

Yuqorida qayd etilgan qarorlar, ijodkor va san'atkorlarni ko'p asrlik ijodiy-ijrochilik an'alarini yangi zamon ruhi ila uyg'un holda sahnalarda keng targ'ibot qilishga undaydi. *"Ko'p asrlik milliy musiqa san'ati – xalqimiz ma'naviy dunyosida qadriyat sifatida ardoqlanib, inson ruhiyatiga ilohiy zavq bag'ishlovchi go'zal san'at turidir. Shu bois, maqom san'ati avloddan-avlodga o'tib, abadiy yashaydi"*, – deydi mohir sozanda Tohirjon Turg'unov.

Darhaqiqat, "Ulug' ajdodlar boy ma'naviyati va barkamol ruhiyatining sadolaridagi jonli ifodasi bo'lgan bu musiqiy meros bugungi ijtimoiy-madaniy hayotimizni yuksaltirish va milliy o'zligimizni anglash jarayonlarida benihoya muhim ahamiyat kasb etmoqda" [4].

Ulug' ajdodlarimizning bergan ta'riflariga ko'ra, musiqa – inson ruhining ozuqasidir. Binobarin, ko'p asrlar davomida xalqimiz boy ma'naviyatining, teran tafakkurining, barkamol ruhiyatining sadolardagi jonli ifodasi bo'lgan milliy musiqa bugungi kunda buyuk davlat bunyodkori bo'lmish jamiyatimizning ruh quvvati va jon ozig'i bo'lmog'i ayni muddaodir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ–3391-son Qarori. – Toshkent, 2017.
2. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 102 b.
3. Begmatov S. Maqom – mumtoz musiqamizning yetakchi janri// jur.Guliston № 4. – Toshkent: Silver star print. 2020. 48 b.
4. Ibrohimov O. Maqomlar tarixi va nazariyasi. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. – 135 b.

IV BO'LIM SAN'AT TARIXI, FALSAFA



Ibrohim ABDURAHMONOV,
San'atshunoslik fanlari nomzodi,
dotsent

MUSAVVIRNING RANGIN OLAMI

Annotatsiya. Maqola O'zbekiston rangtasvir san'atining yirik vakili, taniqli pedagog, mohir ijodkor, O'zbekiston xalq rassomi, professor Rustam Xudayberganovning sakson yillik ibratli hayoti, manzara, portret va tarixiy janrlarda yaratgan betakror asarlari tahliliga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: mahobatli rangtasvir, rassom, ijodkor, pedagog, manzara, portret, tarixiy janr, me'moriy obidalar, devoriy suratlar.

Аннотация. Статья посвящена анализу восьмидесятилетней жизни выдающегося представителя узбекской живописи, известного педагога, искусного художника, народного артиста Узбекистана, профессора Рустама Худайберганава, и его уникального творчества в пейзажном, портретном и историческом жанрах.

Ключевые понятия: эпическая живопись, художник, творец, педагог, пейзаж, портрет, исторический жанр, архитектурные памятники, фрески.

Abstract. This article analyzes the eighty-year life of an outstanding representative of Uzbek painting, a renowned teacher, a skilled artist, People's Artist of Uzbekistan, Professor Rustam Khudaiberganov, and his unique work in the landscape, portrait, and historical genres.

Keywords: epic painting, artist, teacher, landscape, portrait, historical genre, architectural monuments, frescoes.

Benazir inson, mohir pedagog, O'zbekiston xalq rassomi, professor Rustam Xudayberganov bu yil roppa rosa 80 bohorni qarshiladi. Ijodkor ikkinchi jahon urushi tugaganidan bir yil keyin 1946-yili Xorazm viloyati Urganch tumanining en chekkasida joylashgan Yuqori Do'rmon qishlog'idagi oddiy dehqon oilasida dunyoga kelgan. Qishlog'i so'lim Amudaryoga yaqin bo'lgani uchun qirg'oq atroflarida zilol suvning shovillashi unga olam olam zavq bag'ishlardi. U yoshligidan adabiyotga, badiiy ijodga qiziqishi baland edi. Avvaliga qishlog'idagi kichikroq maktabning boshlang'ich sinfida, keyinchalik uzoqroqda bo'lgan maktabda yuqori sinflarda tahsilni davom ettiradi. 12 yoshidan

rasm chizishga qiziq boshlaydi. Dastlabki qoralamalari ham maktab partasida oddiy qog'ozlarda yaratiladi.

1964-yilda maktabni bitirgach, badiiy ijodga bo'lgan qiziqishi tufayli Poytaxt tomon yo'l oladi. Biroq, ilk urinishi besamar yakunlanadi. Xorazmga qaytib, kemachilik tashkilotida ishlash bilan birga rasm chizishni davom ettiradi. O'z davrida tanilgan rassom To'ra Kuryazovdan tasviriy san'at sirlarini so'rab o'rgana boshlaydi. Oradan bir yil o'tgach, 1965-yilda yana Toshkentga tashrif buyuradi. Uzoq o'ylab Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining yangi ochilgan badiiy grafika bo'limiga hujjatlarini topshiradi.

Jiddiy tayyorgarlik, tinimsiz ijodiy izlanishlar samarasini berib, bu safar talabalik baxtiga muyassar bo'ladi.

Rassomning ilk etyudlari aynan talabalik davrida yaratiladi. 1966-yilda birinchi mustaqil yaratgan asari natyurmort janrida "Gul" deb nomlanadi. Unda safsar gulining nozik va mayin yaproqlari erta bahorda olamni go'zallikka burkayotganday taassurot qoldiradi. Ammo bu quvonchi uzoqqa cho'zilmaydi. Shu yilning 26-aprelida poytaxtda yuz bergan zilzila tufayli talabalar qatorida u ham shaharni qayta tiklash ishlariga jalb etiladi. Bu jarayon yangi o'quv yili boshlangunga qadar davom etadi.

1967-yilning yozida Farg'onaning so'lim Shohimardoniga amaliyot o'tash uchun borganligi bir umr yodida qoladi. Bu go'zal maskanda bir oy davomida tog' manzaralaridan ilhomlanib, ajoyib etyudlar ishlaydi. Talabalik yillarida Y.Yelizarov, M.Nabiyev, N.Ten kabi ustoz rassomlardan tasviriy san'at sirlarini o'rganadi.

Nihoyat talabalik davri poyoniga yetadi. 1970-yili "Lola sayli" kartinasi bilan diplom himoyasiga chiqadi. Shu kundan boshlab "tasviriy san'at o'qituvchisi" sifatida Xorazmga viloyati Urganch qurilish texnikumiga yo'l oladi. Oradan bir yil o'tgach, 1971-yilda Armiya safiga safarbar qilinadi. Bir yillik xarbiy xizmatdan so'ng Xarkov shahridagi rassomlik badiiy sanoat instituti talabasiga aylanadi. Akademik realistik maktabni an'analarini o'zlashtirib, o'z uslubini topish uchun tinimsiz izlanadi. Institutda professor A.Shaposhnikov, Ukraina xalq rassomi A.Shevchenko, dotsent Karas va boshqa ustozlari bergan saboqlar bir umr uning yodida qolgan. Ammo 1976-yili moddiy qiyinchiliklar sabab uchinchi kursdan Toshkent teatr va rassomlik (hozirgi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn) institutiga ko'chirishga majbur bo'ladi. Tahsil davomida O'zbekiston xalq rassomlari Ch.Axmarov, V.Jmakin, Y.Chernishov, N.Shin, B.Jalolovlardan saboq olish baxtiga muyassar bo'ladi. 1979-yili "Mahobatli dekorativ bezak" ixtisosligi bo'yicha professional rassom maqomiga erishadi.

R.Xudayberganov ijodini bir necha qirralarga bo'lib o'rganish lozim. Kamina birinchi galda rassomning manzara janrida yaratgan asarlarini tilga olgan bo'lardim. Turli fasllarda ona tabiatning turfa ranglari, tog'lar, adirlar, vodiylar, dalalar, qishloqlar, shahar qiyofalari va ularning betakror manzaralari rassomga ilhom bag'ishlaydi. Yurtimizning go'zalligi, maftunkorligi his qilish uchun doimo safarga chiqib, atrofni kuzatadi, ashyoviy dalillar to'playdi, etyudlar



ishlaydi. Rassomning ilk manzara asari "Qish" (1981) deb nomlanadi. Unda poytaxtimizning eski shahar qismidagi paxsa devorli uylar qishning sovuq qorli ko'rinishi ifodalangan. Garchi, izg'irinli, hammayoqni qoplangan oppoq qor, odamlarning hayot tashvishlari, tirikchilik ilinjida yelib-yugurishi bir zum ham to'xtamaydi. Mahallada hayot qaynaydi. Eshak aravada tandir ortgan aravakash o'z manzili tomon odimlashi bevosita rizq-u ro'zi, oila barakasi timsoli sifatida ifodalanadi.

Rassom ishlagan manzaralar nihoyatda xilma xil. Zero, inson umri tabiatdagi fasllarga qiyoslanadi. Bahorda borliq dunyoga keladi, tabiat qish uyqusidan uyg'onadi, atrof muhit yashil rangga burkanadi. Bu fasl rassomlar uchun ham o'ziga hos ijod fasli sifatida baholanadi. O'zbekistonning turli hududlari ayniqsa, Toshkent viloyatining Chorvoq atroflaridagi qishloqlar – Xumson, G'azalkent, Oqtosh tabiati bahorda rassom uchun ijod makoniga aylanadi. "Afrosiyobda bahor" (1996), "Bog'da bahor" (2001), "Bahor qo'shig'i" (2006), "Qishloqda bahor", "Tog'da bahor", "Bahor mazarasi" (2010), "Chimiyonda bahor" (2012), "Bog' aro bahor" (2013) asarlari ijodkorning uzoq yillar davomidagi kuzatishlari natijasidir.

Har faslning o'z gashti bor. Ammo, yoz azaldan tasviriy san'atda o'sish, ulg'ayish, ilqlik va quyosh ramzlarini ifodalab kelgan. "Yozda" (1987), "Jazirama kun" (1991), "Quyoshli kun" (1993), "Yozda Xiva" (1995), "Daraxtlar. Yoz" (1998), "Yoz oxirida" (2000), "Tog'da yoz" (2001), "Serquyosh lchan qal'a" (2002), "Yoz

kuni” (2008), “Jazirama kun” (2013) va boshqa asarlarida ilqlik, tafti, atrof muhit haroratiga mos ranglar o'zgacha bir mahorat bilan ifodalangan.

Kuz yetuklik, to'kin sochinlik donishmandona hosil berish fasli. Ustoz san'atkor kuz manzaralari tasvirida o'tkir ranglarga boy, tilladek tovlanuvchi daraxt barglari, mevalar va poliz maxsulotlarining o'zgacha ko'rinishi rassomning o'ziga hos uslubini belgilab beradi. “Dala” (1988), “Surxondaryo motivi” (1991), “Quyoshli kun” (1993), “Kuzga yaqin” (1995), “Amudaryo” (1997), “Tog'da kuz” (2000) va boshqa qator asarlarida tabiat manzaralari shoirona kuylash, kompozitsiyalarning tabiiyligi, oddiyligi uzoq yillar davomida o'ttirgan tajribalari va rangshunoslik sirlarining mohirona qo'llanilishidagi ustaligining amaliy natijasidir.

Qish umrning poyoniga qiyoslanadi, butun borliq abadiy uyquga ketish fasli. Rassom ijodida ana shu abadiy falsafa mohiyati bo'y ko'rsatadi. Asarlarida har bir fasldagi tabiiy o'zgarishlarning o'ziga hos sinoatlarini topa olgan. Zumrad qishning borliqqa oppoq sepini yoyishi, tinchlik, xotirjamlik, insonlar qalbining g'uborlardan forig' bo'lishiga qiyoslanadi. “Bolaligimiz ko'chalari” (1985), “Birinchi qor” (1987), Deraza ortida (1998), “Shahar chekkasida” (1990), Qorli kun (2003), “Qish manzarasi” (2004), “Qorli kuz manzarasi” (2008) kabi asarlarida inson va tabiatni o'zaro uyg'unligi, oppoq qorning betakror tovlanishlari badiiy jonlantirilgan.

Musavvirning xalqimiz milliy qadriyatlariga, qadimiy shaharlarimiz me'moriy obidalari manzaralariga mehri yuqori. Bu turkumdagi asarlarida binolar tabiiy ranglarining yaxlitligi, soylarning uyg'unligi bir birini mazmunan to'ldirishga xizmat qilgan. Mahalliy qal'alar, masjidlar, minoralar tasviri tomoshabinni go'yo uzoq moziy sari sayohatga chorlayotganday. “Chor Minor” (1993), “Juma machit minorasi” (1994), “Somoniylar mavzoley” (1995), “Shohi zinda” (1996), “Oq machit” (1997), “Kalta minor oqshomi” (1998), “Ichon qal'a” (2000), “Samarqand” (2001), “Minora” (2002), “Oq Xiva” (2003), “Sherdor” (2004), “Oq masjid” (2008), “Chor minor yozda” (2009), “Buxoro oqshomi” (2012) va boshqa qator asarlarida tarix zarvaraqlarini o'z uslubida badiiy idrok qililib, barcha rang va shakllardan falsafiy ma'no chiqara olgan.

Rassomning ikkinchi ijodiy qirrasini yaratgan portretlarida ko'zga tashlanadi. Tanlangan qahramonlar tashqi va ichki olamini ochish ancha mashaqqatli ish. Negaki har bir inson o'zicha bir tilsim. Biri boshqasiga mutlaqo o'xshamaydi.

Ziyolilar, shoirlar, yozuvchilar, san'atkorlar, tarixiy shaxslar, zamondosh ayollar qiyofasini ishlar ekan, ularning qiyofasidagi har bir detalni chuqur idrok qilgan holda, hech qanday ortiqcha bezaklarsiz badiiy tafakkurini hayotiy haqiqatga uyg'unlashtirishga erisha olgan. “Keksa dehqon” (1982), “H.Olimjon portreti” (1990), “Bobur portreti” (1994), “Kompozitor I.Akbarov portreti” (1994), “Amir Temur portreti” (1997), “Feruz” (1997), “Xorazmshox J.Manguberdi” (1998), “Spitamen” (1999), “Sulton Abusaid Mirzo” (1999), “Kompozitor R.Abdullayev portreti” (2001) “Otam portreti” (2003) kabi asarlarining har biriga alohida yondoshilgan.

R.Xudayberganov munis ayollar qiyofalarini ishlashda ularning nozikligini, go'zalligini, o'zgacha nafosatini va eng avvalo muqaddas zot ekanligini birinchi o'ringa olib chiqadi. Ular orasida oddiy zahmatkash juvonlardan tortib, mashhur ayollargacha borligi rassomning tafakkur doirasi naqadar cheksizligini asoslaydi. “Ayol portreti” (1985), “Sukunatni tinglab” (1987), “Hamshira” (1990), “Talaba qiz” (1991) “O'razbika momo” (1992), “Kashtachi ayol” (1993), “Chol” (1996), “Zuxra opa” (1997), “Sharlot Rishar xonim portreti” (1998), “Xojar xola” (1999), “Jurnalist Navbahor” (1999), “Maktub”, “Gul pari” (2000), “Muyassar Razzoqova” (2001) kabi portretlarida har doim nozik xilqat, jumboq hisoblanmish noziktab qizlar, mehridaryo onalar va donishmand momolarning jamiyatdagi o'rni naqadar yuksakligini ko'rsata olgan.

Kamina ustozning “Malika Tumaris” (2001) portretiga alohida to'xtalmoqchiman. Kompozitsiya markazida afsonaviy malika Tumarisning jang oldidan holatiga e'tibor qaratgan. Massagetlar malikasining o'ng qo'lida qilich, chap qo'lida qalqon. Boshidagi malikalar tilla rangli toji o'rtasida sher boshi tasvirlangan. Rassom bu bilan ramziy ma'noda Tumarisni hayvonlar shohi sherga tenglashtirgan. Go'yoki bir vaqtni o'zda sher tumor vazifasini ham bajargan, ya'ni massagetlar malikasini balo qazolardan asragan. Ayni paytda malikani aql-u zakovati, kuch-qudrati jasurligini shu sher obrazi orqali ifodalagan. Uning yuziga e'tibor bersak, biroz tepaga ko'tarilgan, ko'zlari esa cheksizlikka qadalgan. Tumarisning xayolida turfa fikrlar g'ujg'on o'ynamoqda: nafaqat, alamzadalik, qasos o'tida yonayotgan sarkardaning haqiqiy vatanparvarlik hislatlarini ifodalashga erisha olgan. Dushmani Kir bilan bo'ladigan jang oldidan go'yo nimadir aytmoqchi. Massagetlar malikasining jang oldidan kiygan kiyimlari unga yanada salobat, ulug'vorlik bag'ishlangan. Shamolda ohista

San'at tarixi, falsafa

tebranib turgan ko'ylagining drapirovkalari ham nur soya o'yinida mohirona tasvirlangan. Orqa fonda behisob jangchilar. Ularning aksariyati piyoda, ayrimlari esa oq qora otlarda ifodalangan. Askarlar jangga shay holatda qilichlarini baland ko'tarib turibdi. Qoramtir daraxt, tog'lar, to'q ko'k, qizil rangdagi osmon tasviridan kun botayotgan mahal ekanligini anglash mumkin. Asarda ko'p, qizil, sariq kabi issiq ranglardan foydalanilgan.

San'atkorning yana bir muhim qirrasi bevosita mahobatli devoriy suratlarida namoyon bo'ladi. 1979-yili tashkil etilgan haykaltaroshlik va mahobatli san'at kombinatida ishlab, o'z mahoratini oshirganligi keyinchalik ham unga ko'p bora asqotadi. Yaratgan mahobatli devoriy suratlari hozirda turli shaharlardagi maishiy binolar va davlat tashkilotlarini bezab turibdi. Turli yillarda Rossiyaning Xonti-Mans avtonom okrugidagi Nyagan shahrida, Permda, Ukrainaning Harkov shahrida, Turkmanistonning Tashauz, Tojikistonning Isfara, Vatanimiz poytaxtidagi sobiq kinochilar uyida, Xalqlar do'stligi saroyida, Konservatoriya binosida, To'ytepa, Termiz va Urganch shaharlaridagi restoran va kafelarda, Qo'qon teatrini bezashda mozaika, rospis va vitraj kabi ko'plab mahobatli kompozitsiyalar ishlagan.

Muhtaram professorimizning vatanimiz badiiy ta'lim rivojiga qo'shgan hissalarini ham alohida ta'kidlash lozim. Uzoq yillardan buyon Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti "Mahobatli rangtasvir" kafedrasida yosh ijodkorlarga saboq berib keladi.

O'zi dars berayotgan fanlardan bir necha o'quv qo'llanmalar, darsliklar yozib, nashr ettirgan. "Rangshunoslik" (2002), "Vitraj" (2002), "Tasviriy san'atda rang" (2004), "Kompozitsiya" (2004), "Rangshunoslik asoslari" (2006), "Kompozitsiya" (2007) va boshqa o'quv adabiyotlari bugungi kunda mazkur fanlar uchun asosiy manba sifatida foydalanilib kelinadi. Tajribali mutaxassis sifatida institut uslubiy Kengashining raisi sifatida ham barakali faoliyat yuritib keladi.

Sakson bahorni qarshilagan ijodkor hech qachon tinib tinchimaydi. Turli ko'rgazmalarda yangi ijodiy ishlarini taqdim etib, yoshlarga o'rnak bo'lib keladi. Shogirdlari A.Aliqulov ham ustoz yo'lidan borib, bugungi kunda davlatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo'lish baxtiga muvassar bo'lgan.

Rassomning bosib o'tgan hayot yo'li, erishgan ijodiy yutuqlari, qo'llanilgan ranglarning tiniqligi, oddiyligi, o'z yurtiga sodiqligi, vatanimiz manzaralarining faqatgina o'zigagina hos bo'lgan shoirona lirik ohanglarda kuylashi tufayli san'at ixlosmandlari orasidagi shuhratini oshirib kelmoqda. Marhum san'atshunos yozuvchi Nodir Normatovning "Ranglar yurtiga yo'l" nomli kitobida rassomning ijodiy portreti xronologik tarzda 2013-yilga qadar bo'lgan har bir qirrasi qamrab olingan. Ishonchim komilki, Rustam Xudoyberganov o'z malakasi, hayotiy tajribasi va tasviriyot olamida erishgan yutuqlari bilan chegaralanib qolmasdan, bundan keyin ham yangi-yangi asarlari bilan ijod ahlini ko'p bora hayratga soladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Normatov N. Ranglar yurtiga yo'l: rassom Rustam Xudayberganov portretiga chizgilar. – Toshkent, 2013. – 140 b.
2. Tojiboyeva D. O'zbekiston xalq rassomi Rustam Xudoyberganov xayoti va ijodi: Bitiruv malakaviy ishi. – Toshkent, 2016.
3. Ijodimiz haqida gapirsak: to'plam. 5 jildli. – Toshkent: O'zBA, 2006–2009.

Mansur SHUKURLAYEV,

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi,
O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i o'rinbosari



QORAQALPOQ RAQS SAN'ATINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada qoraqalpoq raqs san'atining shakllanish xususiyatlari, uning tarixiy ildizlari, etnografik manbalari va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Qoraqalpoq xalqining ko'chmanchi turmush tarzi, urf-odatlar, marosimlari hamda diniy-e'tiqodiy qarashlarining milliy raqs san'ati taraqqiyotiga ta'siri yoritilgan. Arxeologik va folklor manbalari asosida marosimiy raqslarning kelib chiqishi, ularning xalq va sahnaviy raqslarga aylanish jarayonlari o'rganilgan. Shuningdek, XX asrda professional qoraqalpoq raqs san'atining shakllanishi, milliy sahna raqslarining yaratilishi va xalq merosining ushbu jarayondagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari qoraqalpoq raqslari xalqning tarixiy xotirasi, estetik qarashlari va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim san'at turi ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: qoraqalpoq raqsi, milliy madaniyat, marosimlar, folklor, sahnaviy raqs, xalq san'ati, an'analar.

Аннотация. В данной статье исследуются особенности формирования каракалпакского танцевального искусства, его исторические корни, этнографические источники и этапы развития. Рассматривается влияние кочевого образа жизни, народных традиций, обрядов и религиозных представлений каракалпакского народа на становление национальной танцевальной культуры. На основе археологических и фольклорных материалов изучены истоки обрядовых танцев и процессы их трансформации в народные и сценические формы. Особое внимание уделено развитию профессионального каракалпакского танца в XX веке, созданию национальных сценических постановок и роли народного наследия в этом процессе. Результаты исследования подтверждают, что каракалпакский танец является важной частью культурного наследия народа, отражая его историческую память, эстетические взгляды и духовные ценности.

Ключевые слова: каракалпакский танец, национальная культура, обряды, фольклор, сценический танец, народное искусство, традиции.

Abstract. This article explores the development of Karakalpak dance, its historical roots, ethnographic sources, and stages of development. It examines the influence of the nomadic lifestyle, folk traditions, rituals, and religious beliefs of the Karakalpak people on the formation of national dance culture. Using archaeological and folklore materials, the origins of ritual dances and the processes of their transformation into folk and stage forms are examined. Particular attention is paid to the development of professional Karakalpak dance in the 20th century, the creation of national stage productions, and the role of folk heritage in this process. The results of the study confirm that Karakalpak dance is an important part of the people's cultural heritage, reflecting their historical memory, aesthetic views, and spiritual values.

Keywords: Karakalpak dance, national culture, rituals, folklore, stage dance, folk art, traditions.

Milliy raqslar orqali xalqning tarixiy kechmishlari, qadimiy marosimlari va turmush tarzining o'ziga xos jihatlari aks ettiriladi. Raqslar qadimgi diniy-e'tiqodiy qarashlar natijasida shakllanib, ilohiy mavjudotlar va insonlar o'rtasidagi o'zaro ruhiy aloqadorlikni ta'svirlashga qaratilgan harakatlar natijasi hisoblanadi. Shuningdek, raqs insonning ruhiy holatini, quvonch va g'amlarini ham yaqqol ifodalovchi san'at turi sifatida harakatlar ifodasiga aylandi. Shu ma'noda raqslar xalqlarning dunyoqarashi va qadriyatlarini aks ettiruvchi bebaho san'at turi sifatida shakllanib kelgan.

Qoraqalpoq raqs san'ati xalq milliy madaniyatning ajralmas qismi hisoblanib uzoq asrlik tarixga ega. Qoraqalpog'iston hududi turli bosqinlar ta'sirida bo'lgan bo'lsada, xalqning milliy madaniyati o'ziga xos tarzda rivojlandi. Xalqning ko'chmanchilik bilan bog'liq hayoti, Orol dengizi xavzasi va Amudaryo xalqning turmush tarzi, madaniyatining asosiga aylandi. Folklor, xalq o'yinlari, og'zaki ijodi ham "Orol madaniyati"ning shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi. Shu o'rinda raqs san'ati ham xalqning boshqa xalqlardan farq qiladi. Qadimgi Qoraqalpoq (qadimgi Xorazm) madaniyatiga oid qadimgi yodgorliklar, II asrga oid Xorazmshohlar saroyi devorlariga ishlangan suratlar o'lkada qadimda san'at benihoya ravnaq topganidan dalolat beradi [1, 51-b]. Tuproqqal'a qadimgi Xorazm davlatining noyob me'moriy obidasi sanaladi. Bu joydan topilgan sopol buyumlarda turli jonzoqlar va odamlar qiyofasi nozik mahorat bilan tasvirlangan. Arxeologik yodgorliklar qoraqalpoq madaniyati haqida, raqs san'ati shakllanishini haqida muhim ma'lumotlarni aks ettirgan.

Markaziy Osiyo cho'llarida qoraqalpoqlarni "birinchi shoir va qo'shiqchilar" deb e'zozlaganlar. Qoraqalpoqlarning yorqin, ko'p janrli an'anaviy xalq san'ati, xalq teatri, milliy raqs san'ati murakkab va mashaqqatli bosqichlarni bosib o'tgan yarim ko'chmanchi hayot tarzi boshqa xalqlar bilan doimiy to'qnashuvlar, ommaviy ko'chishlar, qabilalarning o'zaro dushmanligi, tabiat bilan, qudratli va dahshatli Amudaryo bilan uzoq kurashish kabi holatlar xalq madaniyatida raqsning o'ziga xos uslublari rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Qoraqalpoqlarda ham ilk raqslar – qadimgi ovchi, chorvador, dehqon mehnati usullarini ifodalovchi ritmik pantomima, tabiat hodisalari, qushlar va hayvonlarning hatti-harakatlarini aks ettirish bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlar natijasida shakllandi. Hududiy jihatdan alohida raqs maktablari rivojlanmadi. Tadqiqotlarda ularning uzoq vaqt ko'chmanchi tarzda hayot kechirishi



bilan bog'lanadi. Sh.Usnatdinovning yaqin vaqtga qadar yarim ko'chmanchi hayot kechirgan qozoq xalqi orasida raqsning shakllanishiga bag'ishlangan tadqiqotida raqsning yo'qolish sabablari to'g'risida taxminlar ilgari surilgan va asoslab berilgan. Yarim ko'chmanchi hayot tarzi, ko'chib yurishlar, bir joyda tug'ilgan kishilar guruhining doimiy muloqotda bo'lmagani, natijada ommaviy bayramlarning o'tkazilmagani va boshqalar raqs san'ati rivojiga to'sqinlik qilgan [2, 25-b]. Bu jihat qoraqalpoq raqs san'atida alohida maktablarni shakllanishiga to'sqinlik qilgan bo'lsada, lekin alohida raqs turining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Ikkinchidan, qoraqalpoqlarga xos xarakter, mardlik, jasorat, jo'shqin hayot o'z aksini topadi.

Kayfiyat va hissiyotlarni plastik ifodalashga moyillik, gapning ko'chma ma'noda ishlatilishi, dialog, ashula va qissaxonlikni imo-ishora, tananing turli harakatlari bilan to'ldirishi, hissiyot va fikrlarni plastik ifodalashning murakkab tizimi qoraqalpoq jamoasi etiketining muhim qismi hisoblanadi. Qoraqalpoqlarning turmush tarzini qamrab oluvchi maishiy marosimlar o'zida ko'plab imo-ishora va tana harakatlarini, ulug'vorlik va nafislikni qamrab oladi. Tana harakatlarining majmuasi mavjudligi, xalqning o'z fikr va tuyg'ularini plastik ifodalashga moyilligi shuni ko'rsatadiki, qoraqalpoqlarning raqs san'atiga juda oshuftaligi, qoraqalpoq raqsini tez shakllantirish, sahnada jonlantirish, xalq turmushiga tatbiq etish mumkinligi bilan ajralib turadi. Shu xususiyatlari bilan qoraqalpoq raqsini nihoyatda qisqa muddatda yuzaga keldi va rasmiylashdi – uning tug'ilish jarayoni uch yildan kamroq muddatni – 1956-yil yozidan 1959-yil qishigacha bo'lgan davrni qamrab oladi desak andashmagan bo'lamiz [2, 26-b].

XX asrning 20-yillarida Qoraqalpog'istonda teatr to'garaklari, musiqiy havaskorlik to'garaklari

tashkil etiladi. 1920-yillarning oxirida professional teatr paydo bo'ladi. 1930-yillarning oxirida mahalliy radio eshittirish komitetida birinchi musiqiy, ashula va raqs ansambli tashkil topdi. Ammo, o'sha paytda raqsni yaratishga urinishlar muvaffaqiyatsiz bo'lar edi. 1940-yillarda ham raqsni yaratish ustidagi ishlar muvaffaqiyatga erishmadi. Lekin, barcha harakatlar qoraqalpoq milliy professional raqs san'atining vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatdi.

Qoraqalpoqlarning marosimlar va urf-odatlarini xalq turmushiga chuqur singib ketgan. Hozirgi kunga qadar marosimlarning aksariyati xalqning hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ayrimlari raqslar ko'rinishida xalqning marosimlarida ijro etilib kelinmoqda. Uzoq asrlar davomida xalqning ko'chmanchilikda kechgan turmush tarzi xalq hayotida mustahkam o'rin egallashiga ta'sir ko'rsatgan. Shu sababdan milliy raqslar, kuylar ijro etilganda qoraqalpoqlar shunchaki tomoshabin emas, balki bevosita ishtirokchiga aylanadi. "Avvalo, marosimlarning ijro etilishi teatrlashgan tomosha xarakterini anglatadi. To'y marosimida bajariladigan barcha urf-odatlar ana'aviy tartibda amalga oshirilib, maxsus uyushtirilgan tomoshalarni yodga soladi. To'y marosimida ishtirok etadigan barcha "tomoshaning ishtirokchisi" sanaladi" [3, c. 11].

Marosimlarning xalq orasida uzoq vaqt saqlanib qolishining o'ziga yarasha sabablari mavjud. Zamonaviy jarayonda an'analar o'zgarsada, xalqning an'alarga sodiqligi, uning kuchli e'tiqodiy kuchga ega ekanligini ham bildiradi. "Shuni aytish kerak, marosimlar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan. Ularda yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash, insonni ezgu amallarga tayanib yashashi lozim ekanligi ifodalangan" [3, c. 14]. Boshqa xalqlar og'zaki ijodi kabi qoraqalpoq xalqida ham ezgu g'oyalarga tayanish, uni keng targ'ib qilishga qaratilgan ijod namunalari shakllandi. Bu xususiyatlar milliy raqs san'atida ham nomoyon bo'ldi.

Qoraqalpoq sahnaviy milliy raqslarni yaratish, uni alohida san'at turi sifatida rivojlanish ilk marotaba o'zbek baletmeysteri Ali Ardobus Ibragimov faoliyati bilan bog'liq. Ali Ardobusning Nukusga qilgan 1939-yilgi ijodiy safari shu yo'nalishdagi ilk qadamlardan bo'ldi. "Taniqli o'zbek raqqosi Ali Ardobus Ibragimov "Ayqulash" qoraqalpoq milliy o'yini asosida qoraqalpoqlarning ko'nglidan joy topa oladigan raqs sahnalashtirishni niyat qildi. Raqsga o'yinning o'ziga xos tabiatini singdirishga harakat qildi. Lekin, milliy o'yin va unga mos

ishlangan raqs syujeti xalq dilidan joy ololmadi. Raqsga o'zida xalqqa xos xarakter va plastikani uyg'unlashtira olmagan edi. Raqsga milliy raqs harakatlari va yevropa klassik raqs maktabi an'analaridan uyg'un foydalanilishi natijasida "milliy qoraqalpoq raqsi" bo'la olmadi [4, c. 18].

Tadqiqotlarda qoraqalpoq raqsi haqida manbaalarda ma'lumotlar uchramasligi, mavjud ma'lumotlar raqs san'atining qoraqalpoqlarga xos milliy urf-odatlar, marosimlar sinkretikligi asosida raqs san'ati rivojlanganligini ko'rsatsada, aksar tadqiqotlarda qoraqalpoqlarda alohida raqs san'ati mavjud bo'lganligi asoslanadi [4, c. 27]. Shu o'rinda, qoraqalpoq raqsida xalqqa xos merosning yetakchilik qilishi milliy raqs san'atining rivojlanishida muhim o'rin egalladi. Marosimlarning aksariyati voqealar va tugallangan dramatik yechimga ega ekanligi raqs san'atining o'ziga xos tarzda rivojlanishiga yordam berdi.

Raqs san'atining vujudga kelishida millatning urf-odat va marosimlari o'ziga xos o'rin egallaganligi manbaalarda o'z isbotini topgan. Qoraqalpoq raqslari plastikaga boyligi, harakatlarning kuchli hissiyot bilan ijro etilishi, aniq maqsadlarga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Xalqning har bir marosimi va urf-odatlarida voqealar raqs orqali ijro etiladi. Ishtirokchilarning barcha harakatlari bir ritmga munosib holda yagona maqsadga birlashtiriladi. "Beshik to'y" marosimi, "Tortishmoq", "Angalak", "Durra" o'yinlari va boshqalarda aynan shu xususiyatlar ko'zga tashlanadi. "Beshik to'y" marosimini bunga misol qilib keltirish mumkin. Asosan ayollar tomonidan ijro etiladigan marosimlarda bolaga erkakcha kiyingan raqs tomonidan eng yaxshi ezgu tilaklar bildiriladi. Uning har bir harakati nafaqat marosimda vazifani ijro etish, shu bilan birga har bir ishtirokchi harakatlari orqali marosim mazmunni aks ettirishga xizmat qiladi. Bir qarashda guruhli raqsni esalatadi" [4, c. 30].

Qoraqalpoq xalqining ilk raqslari paydo bo'lishida asosan diniy marosimlar va ana'aviy urf-odatlar bilan bog'liq bo'lganligini qayd etish lozim. Arxeologik va etnografik tadqiqotlarga ko'ra, Markaziy Osiyo hududida, jumladan, Qoraqalpog'istonda ilk marosimiy raqslar miloddan avvalgi III–II ming yilliklarga borib taqalishini ko'rsatadi. Qoraqalpoqlarning ibtidoiy raqslari hosildorlikka erishish uchun amal qilingan marosimlar, ovchilik marosimlari, yomg'ir chaqirish bilan bog'liq marosimlardan iborat bo'lganligini kuzatish mumkin [5, c. 48].

Miloddanavvalgi VI asrga kelib zardushtiylikning rivojlanishi natijasida olov va quyoshga sig'inish



bilan bog'liq raqslar keng tarqalgan. Milodiy VII–XI asrlarda qoraqalpoq ajdodlari orasida shamanlar muhim rol o'ynagan. Ular maxsus kiyim kiyib, qo'ng'iroq va baraban sadolari ostida yovuz ruhlarni quvish, kasalliklardan xalos bo'lish uchun raqsga tushgan. Milodiy XII–XVI asrlarda qoraqalpoqlarda to'y va chaqaloq tug'ilishi bilan bog'liq raqslar ommalashgan. Qoraqalpoqlarda e'tiqodiy qarashlarning turli davrlarda shakllanganligi etnik an'analar xaritasining rang barang shakllanishiga olib keldi. Arxeologik topilmalar zardushtiylik, shomanizm qarashlarining marosimlar va o'yinlardagi ta'siri raqs san'atining ham paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatdi.

Qoraqalpoq hududida o'tkazilgan arxeologik qazishmalar, qadimgi qoyatosh suratlarida odamlarning raqsga tushayotgan tasvirlari uchraydi. 1840-yillarda Yevropa sayyohlari qoraqalpoqlarning marosimiy raqslari haqida yozib qoldirishgan. Jumladan, rus tadqiqotchisi Aleksey Levshin qoraqalpoqlar orasida hosil bayramlari va to'y marosimlarida ijro etiladigan raqslarni tasvirlab bergan. 1930–40-yillarda etnograf olimlar qoraqalpoq xalq raqslari haqida ilmiy ishlar yozgan. Masalan, qoraqalpoq folkloristi N.Baskakov qoraqalpoq raqslarining ibtidoiy ildizlari haqida tadqiqotlar olib borgan [6, 15-b]. Tadqiqotlarda qoraqalpoq raqslari

marosimlarda ijro etiladigan o'yinlar tarzida paydo bo'lib, keyinchalik alohida san'at turiga aylanganligi, ayrim marosimlar davr o'tishi bilan raqsga aylanganligini ko'rsatadi.

Qoraqalpoq xalq raqslari uzoq tarixiy jarayon davomida shakllangan bo'lib, ibtidoiy marosimiy raqslardan boshlab, kundalik hayotga moslashgan jamoaviy va yakka ijrodagi san'at shakliga aylangan. Raqslar xalqning turmush tarzi, e'tiqodi va madaniy an'analarini aks ettirgan. Bu xulosalar qoraqalpoq raqslarining shakllanish manbalarini quyidagicha tasniflash imkonini beradi:

1. Marosimiy raqslar (Miloddan avvalgi III–I asrlar). Bu davrda raqslar diniy va ibtidoiy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan. Hosil tantanalari, ovchilik va chorvachilik bilan bog'liq harakatlar orqali kishilar tabiat kuchlariga e'tiqod bildirgan.

2. An'anaviy xalq raqslari (Milodiy V–XII asrlar). Bu bosqichda raqs san'ati asta-sekin diniy marosimlardan ajralib, xalqning kundalik hayotini aks ettira boshlagan. To'y, tug'ilish va boshqa quvonchli tadbirlarda ijro etiladigan raqslar rivojlangan.

3. Sahnaviy xalq raqslari (XIV–XVIII asrlar). Xalq raqslari an'anaviy milliy bayramlar va tantanalarda muhim o'rin egallay boshlagan. Erkaklar va ayollar raqslari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan.

4. Professional xalq raqslari (XIX–XX asrlar). Qoraqalpoq xalq raqslari bu davrga kelib, sahnaviy san'at shakliga kirgan. Xalq raqslari sahnalashtirilib, professional ijrochilar tomonidan ijro etilgan [7].

Qoraqalpoq raqslari xalqning turmush tarzi, madaniy qadriyatlari va tarixiy jarayonlarini aks ettirib, turli janrlarga bo'linadi. Ushbu janrlar ming yilliklar davomida shakllanib, ibtidoiy marosimlardan tortib, professional sahnaviy san'at darajasiga yetib kelgan. Har bir janr o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, xalqning estetik qarashlari va urf-odatlarini o'zida mujassam etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matyoqubova G. Ofatijon "Lazgi". – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.
2. Usnatdinov Sh. Polat Madreymov birinshi qoraqalpoq baletmeysteri. – Nukus: Qoraqalpoqstap, 2011. – 244 b.
3. Алланазаров Т. Истоки формирования каракалпакской советской драматургии и театра: авторефер. дис. ... канд. искусствоведения. – Нукус: 1964.
4. Литвинова Т. Формирование каракалпакского народно-сценического танца: . дис. ... канд. искусствоведения – Ташкент: 1987 г.
5. Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2019. – 180 b.
6. Баскаков Н. А. Қорақалпоқ халқ фольклори ва маданияти. – Москва: Фан, 1949.
7. Qoraqalpoq raqs san'ati tarixi // O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.



Samariddin QIYOMOV,
O'zDSMI Xalq ijodiyoti:
ashula va raqs mutaxassisligi magistranti

SHARQ OLIMLARINING IJROCHILIK SAN'ATI HAQIDAGI RISOLALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sharq mutafakkirlari va musiqashunos olimlarining ijrochilik san'ati hamda xalq cholg'ulari haqidagi ilmiy qarashlari tadqiq etilgan. Xususan, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Sayfiuddin Urmaviy, Abduqodir Marog'iy, Darvish Ali kabi allomalarning musiqa nazariyasiga oid risolalari tahlil qilinib, ularda cholg'u asboblarning tuzilishi, ijrochilikdagi ahamiyati va musiqa madaniyatidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, o'zbek xalq cholg'ularining tarixiy taraqqiyoti, ansambl va yakkanavoz ijrochilik an'analari hamda Sharq musiqa madaniyatining rivojlanishidagi o'rni haqida ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Sharq musiqasi, ijrochilik san'ati, xalq cholg'ulari, musiqashunoslik, maqom, Farobiy, Ibn Sino, Sayfiuddin Urmaviy, Darvish Ali, ud, tanbur, nay, rubob, chang, cholg'ushunoslik, musiqa madaniyati.

Аннотация. В данной статье исследуются научные взгляды восточных мыслителей и музыковедов на исполнительское искусство и народные музыкальные инструменты. В частности, проанализированы музыкальные трактаты Абу Насра Фараби, Ибн Сины, Сафиуддина Урмави, Абдулкадира Мароги и Дарвиша Али, в которых раскрываются строение музыкальных инструментов, их значение в исполнительстве и роль в музыкальной культуре. Также представлены научные выводы об историческом развитии узбекских народных инструментов, традициях ансамблевого и сольного исполнительства, а также о значении восточной музыкальной культуры.

Ключевые слова: Восточная музыка, исполнительское искусство, народные музыкальные инструменты, музыковедение, маком, Фараби, Ибн Сина, Сафиуддин Урмави, Дарвиш Али, уд, танбур, най, рубаб, чанг, инструментоведение, музыкальная культура.

Abstract. This article explores the scholarly views of Eastern thinkers and musicologists on performance art and folk musical instruments. Specifically, it analyzes the musical treatises of Abu Nasr Farabi, Ibn Sina, Safiuddin Urmavi, Abdulkadir Marogi, and Darwish Ali, which explore the structure of musical instruments, their significance in performance, and their role in musical culture. It also presents scholarly conclusions on the historical development of Uzbek folk instruments, the traditions of ensemble and solo performance, and the significance of Eastern musical culture.

Keywords: Eastern music, performing arts, folk musical instruments, musicology, maqom, Farabi, Ibn Sina, Safiuddin Urmavi, Darwish Ali, oud, tanbur, nay, rubab, chang, instrumentation, musical culture.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari mavjud ijrochilik san'ati tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ular o'z risolalarida musiqaning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot berganlar.

Farobiyning (873–950) “Katta musiqa kitobi” (“Kitob al-musiqa al-kabr”), ibn Sinoning (980–1037) “Davolash kitobi” (“Kitobi ush-shifo”) qomusidagi “Musiqa haqidagi risola”, al-Xorazmiyning (X asr) “Bilimlar kaliti”, Sayfiuddin

San'at tarixi, falsafa

Urmoviyning (1216–1294) “Olijanoblik haqida kitobi” yoki “Sharofiya kitobi”, Jomiyning (1414–1492) “Musika haqidagi risola” kitoblarida musiqa ijrochiligi va xalq cholg'ulari haqida muhim ma'lumotlar bayon etilgan. Sayfiuddin Urmaviy iste'dodli ud cholg'uchisi, xonanda, mashhur sozanda sifatida tanilgan. U Ozarbayjonning Urmaviya shahrida tug'ilgan. Sayfiuddinning eng katta yutug'i lad (modius)larning mukammal sistemasini ishlab chiqqanligidir.

Ibn Zaylining (1044-yilda vafot etgan) “Musika haqidagi to'liq kitob”i (“Kitob ul-kabir fil-musiqiy”) uning musiqa ilmidagi yagona va bebaho kitobidir. U yangi usulni – musiqada ladlarni xarflar bilan ifodalash usulini ishlab chiqdi. Abduqodir Marog'iy (XV asr), Abduqodir ibn-Royibiy (Marog'iy) Ozarbayjonning Marog' shahrida tug'ilgan, lekin hayotining ikkinchi yarmi Temur saroyida-Samarqandda o'tgan va Hirotda vafot etgan.

“Musika ilmida ohanglar to'plami” (“Jami al-alhan fi-ilm al-musiqiy”) risolasida musiqa haqidagi ta'limotni-kamoncha, yetti torli g'ijjak kabi bir turdagi musiqa cholg'usi borligi haqidagi ma'lumotlar bilan boyitdi. Al-Xusaynning (XV asr) “Musiqiy kanonlar” risolasida asosan O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan ikki torli musiqa cholg'usi-dutor haqida ma'lumot berilgan.

Qutbiddin ash-Sheroziy (1236–1310) Eronlik musiqa nazariyotchisi sifatida tanilgan bo'lib, o'z risolasida kamonchali tanbur haqida ibratli mulohazalar bildirgan hamda inson ovozi musiqa asboblari ichida eng yoqimlisi deb hisoblagan. XVII asrda yashagan buxorolik musiqashunos Darvish Ali o'z risolasida tanbur, chang, qonun, rubob, qo'biz, g'ijjak kabi musiqa cholg'ulari haqida batafsil ma'lumotlar bergan.

Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi xalq cholg'ularini o'rganish sohasida ham tarixiy qiymatga ega. Abu Nasr Muhammad Farobiyning mashhur asari “Kitob al – musiqa al-kabir” (“Musika haqida katta kitob”) ulkan ahamiyatga ega. O'rta asr olimi bu kitobida ikki xil musiqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo'shiq san'ati) va cholg'ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi. Farobiy mohir ijrochi sifatida musiqa cholg'ularining jamiyat hayotidagi rolini o'rganishga ahamiyat beradi va u: “... Jang-u jadallarda, raqlarda, to'y-tomoshalarda, ko'ngil ochar bazmlarda hamda ishq - muhabbat qo'shiqlarini kuylashda chalinadigan o'ziga xos cholg'ular bor” deb yozgan edi.

Farobiyning yuqoridagi fikri cholg'ularning nafaqat saroy ayonlari, balki shahar va qishloq aholisi, hunurmandlar orasida shuningdek,



Farobiy musiqasi.

Zayniddin Fahridinov

Mato, moybo'yoq (150x160) 2018-yil

musika madaniyatida yetakchi rol o'ynaganligini isbotlaydi.

Kitobning ikkinchi qismi boshdan-oxir o'sha davr musiqa cholg'ulariga bag'ishlangan. Unda lyutnya, tanbur, nay, rubob, chang, qonun va boshqa musiqa cholg'ulari izchil va batafsil ta'riflanadi. Farobiy torli, mizrobli lyutnyani o'sha davrda eng keng tarqalgan cholg'u hisoblagan. Lyutnya o'ziga xos mizrob (chertma) vositasida chalingan, dastasida esa ligatura (lado)lar joylashgan.

IX–X asrlarda lyutnya arabcha ud nomini oladi. Bu cholg'u ko'pgina Sharq mamlakatlarida, Kavkaz orti xalqlari orasida hozirgi kungacha saqlanib kelyapti [1, 31-b]. Zamonaviy ud namunalari Toshkent Davlat konservatoriyasining sohaviy-tajribaviy sinovxonasida mavjud.

“Musika haqidagi katta kitob”da Farobiy yana bir cholg'u asbobi-tanburni ham ta'riflaydi. Olimning fikricha, tanbur (dilni tirnash) udga eng yaqin turdagi cholg'ulardan biridir [2, 58-b].

Tanburda torlar noxun (metaldan yasalgan maxsus chertmak-tirnoq) yordamida chertiladi. Tanbur xuddi ud kabi keng tarqalgan va xalq sevgan cholg'udir. Tanburning ikki yoki uch jez tori bo'lgan. Uning ikki turi ma'lum: Xuroson va Bag'dod tanburlari. Bag'dod tanburlarining maqomlari kamroq (beshta), cholg'u dastasi kaltaroq bo'lgan. Xuroson tanburining maqomlari ko'p bo'lgan, dastasida cholg'u bo'g'zidan to dastaning yarmigacha oraliqida pardalar joylashgan. Tanburning bu turi shu kungacha o'z shaklini yo'qotmay, musiqa ijrochiligi amaliyotida yakkanavoz hamda ansambl cholg'usi sifatida amaliyotda foydalanib kelinyapti.

Farobiy, shuningdek, nayni ham ta'riflaydi. U turli xil damli cholg'ularini ovoz hosil qilishi prinsipiga ko'ra paysimon guruhga kiritadi.

Ulardan biri oddiy nay yoki bir yo'nalishda joylashgan ko'p teshikli nay. Bu turdagi naylar yoki turlicha ataluvchi naylar hozirgi kunda xam Sharq xalqlari orasida mavjud. Uni vyetnamliklar sao, tojiklar tutek, tatarlar kaval, qozoqlar sibizga, ozarbayjonlar ney (juda kam uchraydi), qirg'izlar uoo, choor (cho'ponlarning cholg'u asbobi), o'zbeklar nay deb ataydi. Olim ko'pincha tut daraxtidan ishlanadigan keng tarqalgan surnay haqida ham to'xtaladi [3, 44-b].

Farobiy, shuningdek, dunay (mizmar)ni ham tilga oladi. Dunay hozirgi qo'shnay yoki turkman xalq cholg'usi gosha-dilli tyuy dyuk (qo'sh qamish naychalardan tuzilgan cholg'u)ga o'xshaydi.

Farobiy risolasida o'zi yashagan davrda mavjud bo'lgan rubobni ham batafsil ta'riflaydi. O'sha davrdagi rubob ham hozirgi Qashqar rubobiga o'xshab, rezanator va ancha uzun dastadan tuzilgan. Ikki xil chertma torli rubob mavjud bo'lgan. 1 yog'och dekali va asosiy qismi yog'ochdan, 2 pastki qismi charmdan ishlangan dekali.

Farobiyning shahodat berishicha, chang ochiq torlarning tebranishi orqali ohang hosil qiluvchi musiqa cholg'ulari turkumiga kiradi. O'sha davrdagi changning 15 tori bo'lgan, ular diatonik sozlangan va ikki oktava oralig'iga teng tovushqatorga ega bo'lgan. Risolada ta'riflangan barcha cholg'ular ashula, raqs, yakkanavoz va ansambl ijrochiligiga jo'r bo'lishda foydalanilgan. Farobiyning guvohlik berishicha, ud cholg'usi ansambl ijrochiligida yetakchi rol o'ynagan.

"Cholg'u asboblari haqida kitob" da olim tanbur, rubob, chang kabi cholg'ularini udda chalinayotgan kuyga yoki yakkanavoz xonandaga uyg'un jo'r bo'lish uchun sozlash usullarini tushuntiradi. Shunday qilib, Sharqning ulug' allomasi musiqa ilmining bir bo'limi sifatida cholg'ularni o'rganuvchi cholg'ushunoslik sohasiga asos soldi. Bu soha keyinchalik boshqa olimlarning asarlarida ham keng boyitildi va rivojlantirildi [4, 37-b].

Yashagan davriga ko'ra buyuk olim ibn Sino Farobiyga juda yaqin. Uning "Davolash kitobi" deb nomlangan yirik qomusning "Musiqa haqida risola" bobida o'sha davrning musiqachiligiga oid ilmiy-falsafiy bilimlari bayon etilgan. Bu risolalarda cholg'ular ta'rifiga anchagina o'rin ajratilgan. Ibn Sino o'z davri musiqalarini ikki guruhga bo'ladi: mizrobli, noxunli (barbod, tanbur, rubob) va butun rezanator qopqog'i bo'ylab tortilgan ochiq torli cholg'ulari (shohruh, chiltor, lira, chang, arfa).

O'sha davrda Sharqning taniqli mutafakkiri Sayfiuddin Urmaviy musiqailmitizimi (sistemasini) rivojlantirdi. U usta cholg'uchi, xonanda va mohir bastakor sifatida mashhur edi. Ud cholg'usida olib borgan tajribalariga tayanib, olim o'z nazariy qoidalarini bayon etdi. Urmaviyning "Taqvadorlik kitobi" da cholg'u asboblari ichida ud eng mashhur va eng zamonaviyidir deb ta'kidlaganlar. Udning besh juft tori kvarta tartibidagi 7 ta maqomi (ladi) bo'lgan. Torlari bam, masnas, masna, zir va eng yuqorisi hadd deb atalgan. Besh qo'sh torli takomillashgan ud keyingi paytlarda ham o'z tuzilishini saqlab qolgan [5, 91-b].

Udning kvartaga sozlangan besh qo'sh tori va yetti maqomi ladi haqida Sheroziy (1236–1311), Jomiy (XV asr), al-Husayniy, Marog'iy, ibn Sinolar ham yozishgan. Jomiyning "Musiqa haqidagi risola" sida keltirilgan ud dastasining to'la chizmasi uni sozlash haqida to'liq tasavvur beradi. Olimning tasdiqlashicha mavjud 12 maqom qadimiy yetuk musiqaning asosidir. Jomiy musiqaning tinglovchilariga ta'siri haqida to'xtalib, uning chuqur ruhiy va ma'naviy axamiyati bor, deb hisoblaydi.

XIII–XVII asrlarda yaratilgan risolalarda chang, qonun, nuzxa, rubob, tanbur kabi torli cholg'ular, shuningdek, damli cholg'u nayning ta'riflari berilgan.

Darvish Alining (XVII asrda) Buxoroda yaratilgan musiqaga doir risolasi an'anaviy cholg'ular haqidagi ma'lumot manbai sifatida xizmat qilishi mumkin. Unda musiqa madaniyati, chunonchi, O'rta Osiyoning yirik shaharlarida mavjud bo'lgan cholg'ular hamda mohir ijrochilar haqida nodir ma'lumotlar mavjud.

Darvish Alining risolasi XVI–XVII asrlar O'rta Osiyo musiqasini o'rganish uchun qimmatbaho manbadir. Mazkur asarda mashhur xonanda va cholg'uchilar, bastakorlarning ijodiy tarjimai hollari bayon etilgan. Darvish Ali o'tmishdoshlari singari, torli mizrobli cholg'ular orasida tebranish ohangiga ko'ra eng yaxshisi sanalgan udni cholg'ular "shohi" deb atadi. Risolada yozilishicha, chang cholg'uchilar homiysi Zuhraga bag'ishlangan.

Ta'riflangan changning yetti maqom ijrosi uchun yigirma olti torli va yetti pardasi bo'lgan. Bulardan tashqari, risolada qonun, rubob, qo'biz, g'ijjak, musiqa, ekbon-nay, (damli, charmli), Xitoyda tarqalgan ruxavza (olti tordan iborat noxunli) kabi cholg'ular ham tilga olingan.

Darvish Ali ta'rif bergan cholg'ulardan yettitasi, tanbur, chang, qonun, ud, rubob, qo'biz, g'ijjak o'sha davrda keng tarqalgan cholg'ular edi. Darvish Alining ma'lumotlari musiqa amaliyotida

San'at tarixi, falsafa

dastlab ansamblda uyg'un kalorit hosil qiladigan torli-noxunli va torli -kamonchali cholg'ular qo'llanilganligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi. Risolada changchi Dilorom, naychilar Abduqodir va Xo'ja Abudullohlar, Mavlono Qosimi-Rabboniy, Sulton-Ahmadiy – "devona" rubobchilar, aka-uka Shayx Abu-Bakri Rabboniy va Shayx Behduchi, dono qonunchi shayx Shamsi Rabboniy va ko'pgina boshqa mashhur ustalarning nomlari tilga olingan.

Darvish Alining guvohligi yana shunisi bilan qimmatliki, u qayd etgan cholg'ularning kattagina qismi (nay, surnay, chang, qonun, rubob, tanbur, g'ijjak, qo'biz, doira, nog'ora, ud) O'rta Osiyoning hozirgi O'zbekiston, Tojikiston va boshqa respublikalarida, shuningdek, Ozarbayjonda bizning kunlarga saqlanib keldi va u takomillashmoqda. Ushbu musiqa cholg'ulari uzoq vaqt mobaynida o'zbek xalqining madaniy turmushidan mustahkam o'rin olib, uning madaniy xayotida keng qo'llanib kelingan. Shunday ekan, bu cholg'ularni o'zbek xalq cholg'ulari, deb atash o'rinlidir. Abdul Fazl Boyhaqiy (XIV asr) asarlarida torli mizrobli (rud, barbad, tanbur), damli va urma zarbli cholg'ular (karnay, litavra va baraban) singarilarning nomlari keltirilgan.

Ma'lumki, Sharq adabiyotida o'tmishda shoirlar asarlariga javob yozish ("nazira") sistemasi keng qo'llanilgan. Ko'plab "Xamsa" lar ham shu yo'sinda yaratilgan. Navoiy o'zining "Sab'ai sayyor" ("Xamsa" dostonlarining biri) dostonida Bahrom Go'r haqidagi qadimiy afsonani, yangicha talqin etdi. Asar qahramoni – chang cholg'uchisi Dilorom deb atalgan. Shoir uning cholg'usini musiqa timsoli sifatida gavdalantirgan.

Zahriddin Muhammad Boburning (1483–1530) e'tirof etishicha, Alisher Navoiy o'z davrida ko'plab ud cholg'uchilarning o'z iste'dodlarini namoyon

etishiga ko'maklashgan. "Boburnoma"da o'zbek xalq cholg'ulari ijrochilarining nomlari zikr etilgan. Bobur, shuningdek, Shoh Kulmiy-G'ijjakiy, Husayn Udiy, Xo'ja Abdulloh Marvarid Qonuniy kabi mohir ijrochilarni ham tilga oladi [1, 42-b].

Navoiy davrida nay, ud, g'ijjak, qonun, karnay, surnay, nog'ora, doira, chang ijrochiligi keng tarqalgan edi. Ularning hammasi ansambl ijrosida ham, yakka ijroda ham birdek qo'llanilgan. Chang yakka cholg'u sifatida alohida ajralib turgan.

XV–XVII asr yozma yodgorliklari ma'lumotlarini qiyoslab shunday xulosaga kelish mumkinki, bu davrga kelib, O'rta Osiyoda xalq cholg'ularida ijrolik madaniyati o'z kamolotiga yetdi. O'zbek xalq cholg'ulari ijrochilari ayni chog'da o'zlari ham musiqa asarlari yaratganlar. O'sha paytdayoq mohir chang, ud, g'ijjak, qonun, nay, tanbur, bulaman ijrochilari va yetuk xonandalari bo'lgan, ular o'ziga xos ansambllar tuzishgan. Shuningdek, yakkanavoz ijrochilik ham rivojlangan.

Vosifiy o'z "estaliklar"ida treldek ajoyib uslub o'ylab topgan qonun cholg'uchisi Hoji Abdullo Marvarid nomini keltiradi. U bastalagan kuy va qo'shiqlar xalq orasida keng tarqalgan. Shunday qilib, XIV–XVII asr tasviriy san'atida va adabiy merosida ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaluvchi musiqa cholg'ulari asosiy tiplarining barqarorligini tasdiqlovchi boy material bo'lgan [4, 28-b].

O'rta Osiyo olimlarining musiqa haqidagi risolalari, badiiy adabiyot, rassomchilik bizning kunlarga yetib kelgan o'zbek xalq cholg'ulari tarixiy taraqqiyotining uzun zanjirdagi ayrim uzilgan halqalarini qaysidir darajada tiklash imkonini beradi. Necha yuz yillar o'tdi, musiqa cholg'ulari esa yakka, ansambl va orkestr ijrochiligida o'z o'rnini egallab, bugungi kungacha yashab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov R. Ud. – Toshkent: O'qituvchi, 2002. – 156 b.
2. Abdukarimov M. Tanbur navolari. – Toshkent: Nasaf, 2000. – 58 b.
3. Ал-Фаробий. Научное наследие: Сборник. – Москва: Наука, 1975. – 44 с.
4. Ал-Фаробий. Философские трактаты. – Алма-Ата: Наука, 1972. – 37 б.
5. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. – Toshkent: O'zAdabiynashr, 1963. – 300 b.

Mashxura KOMILJONOVA,
O'zDSMI Estrada aktyorligi san'ati
mutaxassisligi magistranti



ZAMONAVIY RAQS USLUBLARINING SHAKLLANISHI VA O'ZBEK RAQS SAN'ATI RIVOJIGA TA'SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy raqs uslublarning shakllanish jarayoni, ularning tarixiy ildizlari hamda ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy raqsning klassik va an'anaviy raqs turlaridan farqli jihatlari, estetik tamoyillari hamda badiiy ifoda imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy raqsning jamiyat hayotidagi o'rni, shaxsiy va ijtimoiy fikrni ifodalashdagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy raqs, modern raqs, raqs san'ati, tarixiy rivojlanish, raqs madaniyati, estetik tamoyillar.

Аннотация. В статье рассматриваются процессы формирования современных танцевальных стилей и их исторические основы. Анализируется влияние социально-культурных изменений XX–XXI веков на развитие современного танца, его отличие от классических и традиционных танцевальных форм. Особое внимание уделяется художественно-эстетическим принципам, свободе пластического выражения и роли индивидуальности в современном танце.

Ключевые слова: современный танец, модерн-танец, хореография, история танца, танцевальная культура, эстетика.

Abstract. This article examines the development of modern dance styles and their historical foundations. It analyzes the influence of socio-cultural changes of the 20th and 21st centuries on the development of modern dance and its differences from classical and traditional dance forms. Particular attention is paid to artistic and aesthetic principles, freedom of expression, and the role of individuality in modern dance.

Keywords: contemporary dance, modern dance, choreography, dance history, dance culture, aesthetics.

Raqs san'ati insoniyat madaniyatining eng qadimiy va muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlar hamda estetik qarashlar bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib kelgan [1]. Qadim davrlarda raqs marosimiy va diniy maqsadlarda qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik u badiiy ifoda vositasi sifatida shakllanib, turli tarixiy bosqichlarda o'ziga xos uslub va yo'nalishlarga ega bo'ldi [2]. Vaqt o'tishi bilan san'atda yangicha fikrlash, erkinlik, individual yondashuvga intilish kuchayib, raqs ham jamiyat singari o'zgarib, yangilanib bordi. Ana shu jarayon

natijasida XX asr boshlarida zamonaviy raqs (modern dance) va undan kelib chiqqan ko'plab yangi raqs uslublari shakllandi.

Zamonaviy raqs uslublarning shakllanishi – akademik baletning qat'iy qoidalaridan voz kechgan holda, erkinlik, tabiiy harakat va shaxsiy ifodani asosiy mezon sifatida qabul qildi [3]. Bu davrda inson shaxsiyatini, uning ichki kechinmalari va ruhiy holatini harakat orqali ifodalashga bo'lgan ehtiyoj ortdi. Natijada raqs san'atining nafaqat estetik zavq bag'ishlovchi vosita, balki shaxsiy va ijtimoiy fikrni ifodalash

shakliga aylandi. Zamonaviy raqs uslublari tana imkoniyatlaridan erkin foydalanish, improvizatsiya va tabiiy harakatlarga asoslanishi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy raqsning rivojlanishida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, urbanizatsiya, texnologik taraqqiyot hamda madaniyatlararo aloqalarning kengayishi muhim rol o'ynadi [4]. Jamiyatdagi o'zgarishlar san'atda ham aks etib, raqs shakllari mazmunan boyidi va mavzu jihatidan kengaydi. Zamonaviy raqs sahnada insonning ichki ziddiyatlari, erkinlikka intilishi va hayotiy tajribasini badiiy talqin etish imkonini berdi.

Zamonaviy raqsning paydo bo'lishi XX asrning boshlarida Yevropa va AQShda ko'plab xoreograf va raqqos(a)lar tomonidan: baletda har bir harakat oldindan belgilangan, tana esa sun'iy shaklga solingan va bu holatni san'at erkinligiga zid deb hisobladilar. Natijada zamonaviy raqs – baletning qat'iy me'yorlariga qarshi harakat sifatida vujudga keldi.

Zamonaviy raqsning ilk namoyondalari Isadora Duncan, Ruth St. Denis, Ted Shawn, Martha Graham kabi ijodkorlar ham ushbu yo'nalishning shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutganlar [5]. Isadora Duncan – tabiiy harakat, erkinlik va ichki hissiyotlarni ifodalashni raqs san'atining markaziga qo'ydi. Ruth St. Denis, Ted Shawn - sharqona falsafa va diniy motivlarni raqsga olib kirdi. Martha Graham – zamonaviy raqs texnikasini ilmiy asosda rivojlantirib, “contraction and release” tizimini yaratdi.

Tadqiqot jarayonida tarixiylik metodi asosiy metodlardan biri sifatida qo'llanildi. Ushbu metod orqali zamonaviy raqs uslublarning paydo bo'lishi, ularning klassik balet va an'anaviy raqs shakllaridan ajralib chiqish sabablari tarixiy jarayonlar bilan bog'liq holda tahlil qilindi. Xususan, XX asr boshlarida Yevropa va AQShda yuz bergan madaniy va ijtimoiy o'zgarishlar, shaxs erkinligi g'oyalarining kuchayishi zamonaviy raqsning shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatgani ochib berildi. Bu borada A.Y.Vaganova, Y.Grigorovich, V.Nikitin kabi san'atshunoslarning raqs tarixiga oid ilmiy qarashlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qildi [6].

Zamonaviy raqs vaqt o'tishi bilan bir necha yo'nalish va uslublarga bo'lindi: Modern dance klassik baletga qarshi yaratilgan ilk zamonaviy yo'nalish bo'lib, unda yer bilan aloqa, og'irlik va nafas muhim ahamiyatga ega. Bu uslubda dramatik ifoda va psixologik holat kuchli aks etadi. Jazz raqsi afro-amerikalik madaniyat asosida shakllangan bo'lib, ritm, energiya va tezkor harakatlarga boy. Keyinchalik u zamonaviy sahna raqslariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Contemporary dance – zamonaviy

raqsning hozirgi bosqichi bo'lib, unda modern dance, jazz, balet va improvizatsiya elementlari uyg'unlashgan. Bu uslub sahna va ommaviy chiqishlarda keng qo'llaniladi. XX asrning ikkinchi yarmida shahar madaniyati asosida hip-hop, breakdance, popping, locking kabi ko'cha raqslari paydo bo'ldi [7]. Bu raqslar yoshlar orasida tez tarqalib, zamonaviy raqs madaniyatining ajralmas qismiga aylandi.

Jazzning kelib chiqishi XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida Amerikadan Afrikaga qul qilib olib kelingan afrikaliklarning (afroamerikaliklar) ish qo'shiqlari, spiritual (diniy qo'shiqlar) va shu qo'shiqlarga ijro etgan raqslari asosida yaratilgan. Aynan shu sabablar orqali jazzning tug'ilgan joyi ya'ni vatani, AQShning janubi bo'lgan Yangi Orlean shahridir. XX asr boshlarida jazz raqsining sahnaviy ko'rinishi shakllandi. Shakllanish jarayonida jazz raqsini sahnaga olib chiqib tanilgan yorqin namoyandasi sifatida Jozefina Bekker tarixda qoldi.

Zamonaviy raqs uslublarning shakllanishi murakkab va ko'p bosqichli jarayon ekanini ko'rsatdi. Tarixiy ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, zamonaviy raqs faqat yangi harakatlar majmui emas, balki muayyan davr ijtimoiy-madaniy ehtiyojlariga javob sifatida vujudga kelgan san'at hodisasidir [8]. Natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy raqs an'anaviy raqs turlariga nisbatan mazmunan kengroq, ifoda imkoniyatlari jihatidan esa erkinroq bo'lib, unda shaxsiy tajriba va ichki kechinmalar ustuvor o'rin egallaydi.

Zamonaviy raqs uslublarning shakllanishida XX asr boshlarida yuz bergan madaniy va estetik o'zgarishlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Klassik baletning qat'iy qoidalari va standartlashtirilgan texnikasi ijodkor shaxs ehtiyojlarini to'liq qondira olmaganligi sababli, raqs san'atida yangi ifoda shakllariga ehtiyoj yuzaga kelgan. Bu jarayonda modern raqs yo'nalishi muhim o'rin tutib, u zamonaviy raqsning estetik va falsafiy poydevorini shakllantirdi. Modern raqs orqali raqs san'atida tabiiy harakat, tana plastikasining erkinligi va individual ifoda asosiy tamoyilga aylandi.

Zamonaviy raqs uslublari o'z rivojida bir necha asosiy yo'nalishlarni bosib o'tgan. Dastlab, u klassik baletga qarshi yo'nalgan norozilik shakli sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa, keyinchalik mustaqil san'at turi sifatida shakllandi. Keyingi bosqichda esa zamonaviy raqs turli madaniy va musiqiy oqimlar bilan boyib, o'z tarkibiga jazz, folklor va ommaviy madaniyat unsurlarini singdirdi. Bu holat zamonaviy raqsning moslashuvchan va ochiq tizim ekanini ko'rsatadi [9].

Zamonaviy raqs sahnada faqat estetik obraz

yaratish bilan cheklanmay, balki jamiyatdagi muammolar, shaxs erkinligi, identitet masalalari va insonning ichki ziddiyatlarini ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Tahlil qilingan xoreografik asarlarda inson ruhiy holati, ijtimoiy bosim va zamonaviy hayot sur'ati bilan bog'liq mavzular ustuvor ekanini aniqlandi. Bu natijalar zamonaviy raqsni faol ijtimoiy muloqot shakli sifatida baholashga asos bo'ladi. Zamonaviy raqs global jarayonlar ta'sirida shakllangan bo'lsa-da, har bir hududda u mahalliy madaniyat unsurlari bilan uyg'unlashgan holda rivojlanadi. O'zbekiston misolida olib borilgan tahlillar zamonaviy raqsning milliy raqs an'analari bilan sintezga kirishib, yangi badiiy shakllarni yaratganini ko'rsatadi. Bu jarayon zamonaviy raqsning universalligi bilan birga, milliy xususiyatlarni saqlab qolish imkoniyatiga ega ekanini tasdiqlaydi.

Zamonaviy raqs ijrochisi uchun texnik mukammallik bilan bir qatorda, ichki emotsional holat va ma'naviy tayyorgarlik muhim ahamiyat kasb etadi. Klassik raqsda texnika ustuvor bo'lsa, zamonaviy raqsda mazmun va ifoda birinchi o'ringa chiqadi. Bu esa raqs ijrochisidan mustaqil fikrlash, improvizatsiya qobiliyati va sahnaviy obraz bilan chuqur ishlashni talab etadi. Zamonaviy raqsning ta'lim tizimidagi o'rni, uning yoshlar ijodiy tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati aniqlandi. Zamonaviy raqs mashg'ulotlari orqali talabalar jismoniy tayyorgarlik bilan birga, o'zini erkin ifodalash, jamoa bilan ishlash va sahna madaniyatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishini ko'rsatdi. Bu jihat zamonaviy raqsni san'at ta'limining muhim tarkibiy qismi sifatida baholashga asos yaratadi. Zamonaviy raqsning terapevtik va psixologik jihatlari ham ko'rib chiqilib, zamonaviy raqs insonning ichki holatini ifodalash va emotsional bo'shanishga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida hisoblanadi. Bu holat zamonaviy raqsning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi va uning qo'llanilish sohalarini kengaytiradi. Zamonaviy raqs doimiy rivojlanish

jarayonida bo'lgan ochiq tizimdir. U jamiyatdagi o'zgarishlarga tezkor moslashadi va yangi estetik izlanishlar uchun imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, zamonaviy raqs tarixiy tajribaga tayangan holda rivojlanib, o'z ildizlarini inkor etmaydi, balki ularni yangicha talqinda davom ettiradi.

Maqola zamonaviy raqs uslublarning shakllanishi va tarixiy asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilishga qaratildi. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy raqs an'anaviy va klassik raqs turlarining mantiqiy davomi bo'lishi bilan birga, XX asr ijtimoiy-madaniy jarayonlari ta'sirida yuzaga kelgan mustaqil san'at hodisasidir [10]. Uning vujudga kelishi jamiyatda shaxs erkinligi, individual ifoda va yangi estetik qarashlarga bo'lgan ehtiyoj bilan chambarchas bog'liqdir.

Tadqiqot natijalari zamonaviy raqs uslublarning asosiy xususiyatlari sifatida erkin harakat, improvizatsiya, tana plastikasining tabiiyligi va mazmunning ustuvorligini ko'rsatdi. Klassik baletda texnik mukammallik yetakchi o'rin tutgan bo'lsa, zamonaviy raqsda harakat orqali g'oya va hissiy holatni ifodalash birlamchi ahamiyat kasb etadi. Bu jihat zamonaviy raqsni insonning ichki dunyosini ochib beruvchi samarali badiiy vositaga aylantiradi. Tahlillar zamonaviy raqsning global va mahalliy omillar ta'sirida rivojlanishini tasdiqlaydi. Bir tomondan, u jahon madaniy jarayonlari bilan uyg'unlashgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, milliy raqs an'analari bilan sintezga kirishib, o'ziga xos badiiy shakllarni yuzaga keltiradi. O'zbekiston misolida zamonaviy raqs milliy raqs madaniyatini boyituvchi va uni yangi bosqichga olib chiquvchi vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, zamonaviy raqsning ta'limiy va ijtimoiy ahamiyati ham muhim xulosa sifatida qayd etildi. U yoshlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, jismoniy va ma'naviy barkamolligini ta'minlashda samarali vosita hisoblanadi. Zamonaviy raqs mashg'ulotlari orqali shaxsning o'zini erkin ifodalashi va sahna madaniyatini shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova R. O'zbek raqs san'ati tarixi. – Toshkent: San'at, 2008. – 256 b.
2. Saidova M. Xoreografiya asoslari. – Toshkent: O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi, 2016. – 198 b.
3. Ubaydullayeva D. Milliy raqs va zamonaviy sahna talqini. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 172 b.
4. Qodirova N. Raqs san'ati va estetik tafakkur. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 184 b.
5. O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi. Zamonaviy raqs texnikalari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2021. – 134 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. Raqs san'atini rivojlantirishga oid metodik tavsiyalar. – Toshkent, 2020. – 96 b.
7. Ваганова А.И. Основы классического танса. – Ленинград: Искусство, 1980. – 240 с.
8. Тарасов Н.И. Теория и методика хореографии. – Москва: Просвещение, 2004. – 276 с.
9. Никитин В.И. Модерн-танец: истоки и развитие. – Санкт-Петербург: Лан, 2011. – 220 с.
10. Григорович И.Н. Хореография и время. – Москва: Советский композитор, 1987. – 198 с.

Gulhayo MAHMUDOVA,
O'zDSMI Estrada aktyorligi san'ati
mutaxassisligi magistranti



O'ZBEKISTON DAVLAT SATIRA TEATRI TARIXI VA UNING TARAQQIYOT YO'NALISHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Davlat Satira teatrining shakllanish tarixi, ijodiy faoliyati, repertuar siyosati hamda taraqqiyot yo'nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, satirik teatrning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni, uning tarbiyaviy va estetik ahamiyati yoritilgan. Maqolada teatr repertuaridagi spektakllarning mazmun-mohiyati, aktyorlik va rejissyorlik san'atining o'ziga xos jihatlari hamda zamonaviy teatr jarayonlaridagi rivojlanish tendensiyalari haqida fikr yuritiladi. O'zbekiston Davlat Satira teatrining milliy madaniyat rivojiga qo'shayotgan hissassi va xalqaro madaniy aloqalardagi o'rni ham ochib berilgan.

Kalit so'zlar: satira, teatr san'ati, sahna madaniyati, dramaturgiya, aktyorlik mahorati, rejissyorlik san'ati, milliy teatr, repertuar, hajv, sahna talqini, teatr taraqqiyoti, madaniy meros, zamonaviy teatr, tomoshabin, badiiy obraz.

Аннотация. В данной статье научно анализируются история становления, творческая деятельность, репертуарная политика и направления развития Государственного театра сатиры Узбекистана. Также освещается роль сатирического театра в духовной жизни общества, его воспитательное и эстетическое значение. В статье рассматриваются содержание и художественная сущность спектаклей театрального репертуара, особенности актёрского и режиссёрского мастерства, а также тенденции развития современного театрального процесса. Кроме того, раскрывается вклад Государственного театра сатиры Узбекистана в развитие национальной культуры и его место в международных культурных связях.

Ключевые слова: сатира, театральное искусство, сценическая культура, драматургия, актёрское мастерство, режиссёрское искусство, национальный театр, репертуар, юмор, сценическая интерпретация, развитие театра, культурное наследие, современный театр, зритель, художественный образ.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the history, creative work, repertoire policy, and development trends of the State Satire Theater of Uzbekistan. It also highlights the role of satirical theater in the spiritual life of society, as well as its educational and aesthetic value. The article examines the content and artistic essence of the theater's repertoire, the specifics of acting and directing, and trends in the development of contemporary theater. Furthermore, it explores the contribution of the State Satire Theater of Uzbekistan to the development of national culture and its place in international cultural relations.

Keywords: satire, theatrical art, stage culture, dramaturgy, acting skills, directing art, national theatre, repertoire, humor, stage interpretation, theatre development, cultural heritage, modern theatre, audience, artistic image.

O'zbekiston madaniy hayotida teatr san'ati alohida o'rin egallaydi. Teatr insonlarning ma'naviy dunyosini boyitish, ularning estetik didini shakllantirish hamda jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy muammolarni yoritishda muhim vosita hisoblanadi [2]. Ayniqsa, satirik teatr jamiyatdagi kamchiliklarni kulgi orqali ochib berish, insonlarni o'ylantirish va ularda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu jihatdan O'zbekiston Davlat Satira teatri o'zbek teatr san'ati tarixida muhim o'rin egallaydi. Satira san'ati qadimdan xalq og'zaki ijodi bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan [4]. Xalq orasida mavjud bo'lgan kulgi madaniyati, qiziqchilik, masxarabozlik, hajviy latifalar va turli sahna ko'rinishlari satirik teatrning shakllanishiga asos bo'lgan [5]. Xalq ijodida kulgi orqali jamiyatdagi turli illatlar tanqid qilingan, insonlarning salbiy xatti-harakatlari hajv ostiga olingan. Bu jarayon keyinchalik professional teatr san'atida ham o'z aksini topdi. O'zbekiston Davlat Satira teatri ana shu milliy an'analar asosida shakllanib, zamonaviy teatr san'ati talablari bilan uyg'unlashgan holda rivojlanib kelmoqda.

Mazkur teatr nafaqat kulgi orqali tomoshabinlarni xursand qilish, balki ularni o'ylantirish, jamiyatdagi muammolar haqida fikr yuritishga undash vazifasini ham bajaradi.

O'zbekiston Davlat Satira teatri tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning faoliyatida bir necha muhim bosqichlarni ko'rish mumkin. 1987-yil 22-sentyabrda teatrga O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor nomi berilgan. Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotida satirik ruhdagi asarlari bilan mashhur bo'lgan ijodkorlardan biri hisoblanadi. Shu sababli teatrga uning nomi berilishi ma'lum ma'noda teatrning ijodiy yo'nalishini belgilab berdi.

Abdulla Qahhor o'z ijodida ijtimoiy illatlarni fosh etishda "jarrohlik" uslubini qo'llagan adibdir [1]. Uning "adabiyot atomdan kuchli, uning kuchini o'tin yorishga sarf qilmaslik kerak" degan o'giti teatr jamoasining ijodiy manifestiga aylandi. Teatr ochilgan ilk yillardanoq o'z repertuarini aynan Qahhor asarlari asosida qurgani bejiz emas. Adibning "Tobutdan tovush", "Ayajonlarim", "Gap egasini topadi" kabi komediyalari teatr sahnasida yangicha talqin topdi. Bu asarlardagi byurokratiya, loqaydlik va ma'naviy qashshoqlik kabi mavzular teatrning janr xususiyatlarini – o'tkir ijtimoiy satira yo'nalishini belgilab berdi.

Keyinchalik, 2016-yil 26-iyulda teatrga O'zbekiston Davlat Satira teatri nomi berildi. Bu esa teatrning satirik va yumoristik yo'nalishga ixtisoslashgan professional san'at maskani sifatida

rivojlanishiga yangi imkoniyatlar yaratdi. Teatr o'z nomi bilan jamiyatdagi voqea va hodisalarni satirik va yumoristik kulgi ostiga olishni o'zining asosiy ijodiy vazifalaridan biri sifatida belgiladi. Teatr faoliyatining asosiy jihatlaridan biri uning repertuari bilan bog'liq.

O'zbekiston Davlat Satira teatrining 39 yillik faoliyati davomida turli mavzulardagi ko'plab spektakllar sahnaga qo'yilgan. Bu spektakllar orqali jamiyatdagi turli muammolar, inson xarakteridagi kamchiliklar va ijtimoiy illatlar kulgi vositasida ochib berilgan.

Teatr repertuarida "Tobutdan tovush", "Gap egasini topadi", musiqali satirik dastur "Xandamiz sizga, do'stlar", "Afandi va Azroil", "Afandi yo shoh", "Adashganlar", "Qaroqchi va kulol", "Besh kunlik kuyov", "Temir xotin", "Boylik talvasasi", "Revizor", "Shum bola", "Chig'iriq", "Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi", "Ikki boyga bir malay", "Sehrli kursi", "Soqov xotin", "Besh xotinning afandisi", "Jamila", "Qalbm sohili", "Maysaraning ishi", "Til afsonasi", "Qo'sh arava yuki", "Erginangni berib tur", "97 – xona", "Uylanish", "Yarim tundagi o'g'rilik", "Xalala", "Quicha", "Arshin Mal – Alan", "Falsafa doktori", "Julqunboy", "Qarsak chaling", "Mehribonlar", kabi spektakllar alohida o'rin tutadi [3]. Mazkur spektakllar turli mavzularni qamrab olgan bo'lib, ularda jamiyatdagi byurokratiya, loqaydlik, ochko'zlik, mansabparastlik kabi illatlar satirik ruhda yoritilgan. Satirik teatrning asosiy xususiyati shundaki, u muammolarni kulgi orqali ko'rsatadi, ammo shu bilan birga, tomoshabinni o'ylantiradi. Shu sababli, satira san'ati nafaqat ko'ngilochar, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

Teatr ijodiy faoliyatida aktyorlik mahorati ham muhim rol o'ynaydi. Satirik janrda aktyor nafaqat kulgi uyg'otishi, balki obrazning ichki mohiyatini ham ochib berishi kerak [5]. O'zbekiston Davlat Satira teatri sahnasida faoliyat olib borayotgan san'atkorlar ana shu jihatdan o'zining yuqori mahorati bilan ajralib turadi.

Teatr sahnasida faoliyat yuritayotgan tajribali san'atkorlar orasida O'zbekiston xalq artisti Xayrulla Sa'diyev alohida o'rin tutadi. Shuningdek, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Habibulla Abdullayev va Zarifa Ismoilova ham teatr sahnasida yorqin obrazlar yaratib kelmoqdalar. Bundan tashqari, ustoz san'atkorlar Hayitali Nizomiddinov, Sayyora Mirkhodiyeva, Amina Ibatulina va Zuxriddin Rejаметov kabi aktyorlar ham teatr rivojiga katta hissa qo'shgan. Ularning sahnadagi tajribasi yosh aktyorlar uchun muhim maktab vazifasini o'taydi. Teatr ijodiy jamoasida yosh san'atkorlarning ham o'rni

San'at tarixi, falsafa

katta. Ilhom Yusupov, Zohid Shomurodov, Orif Rajabqulov, Bobur Aytmagambetov, Bekzod Shaymatov, Axror Sharipov, Dilafruz Mameshova, Azamat Qurbonboyev, Sevara Hamraqulova, Yusuf Fayziyev, Oygul Egamberdiyeva, Nargiza Niyozova, Adham Farmonov, Nodir Uzoqov, Ra'no Mirzayeva, Nargiza Eltoyeva, Jumagul O'sarova, Jo'rabek Obidov, Nargiza Nodirova, Muslim Nuraliyev, Jahongir Qo'chqarov va Fazliddin Ochilov kabi yosh aktyor va aktrisalarning teatr sahnasida ancha yillardan beri o'z iste'dodini namoyon etib kelmoqdalar. So'nggi o'n yil mobaynida esa yangi yangi yosh aktyorlar, yosh chehralar ham teatr sahnalarida o'z iste'dodlarini namoyon etib kelmoqdalar.

Teatr faoliyatida rejissyorlik san'ati ham muhim o'rin tutadi. Rejissyor spektaklning badiiy g'oyasini sahnada to'liq ifodalash, aktyorlarning ijodini bir butun kompozitsiyaga birlashtirish vazifasini bajaradi [3]. O'zbekiston Davlat Satira teatrida Jo'rabek Ro'zmetov, Mansur Xoliqov, Xayrullo Soliyev va Jo'rabek Arziyev kabi rejissyorlar faoliyat yuritib, sahna asarlarini zamonaviy talablarga mos tarzda sahnalashtirishga katta hissa qo'shib kelmoqdalar.

2026-yil yanvar oyida O'zbekiston Davlat Satira teatri ijodiy faoliyatida muhim madaniy voqealardan biri sifatida teatr jamoasi hamda uning rahbari Mirzabek Xolmedov boshchiligidagi "G'aroyib tomosha" nomli katta konsert dasturining tashkil etilishi alohida ahamiyat kasb etdi. Mazkur konsert dasturining poytaxtdagi yirik madaniyat maskani bo'lgan Xalqlar do'stligi san'at saroyida o'tkazilgani ushbu ijodiy loyiha uchun ko'lamli va madaniy ahamiyatini yanada oshirdi. Ushbu tadbir nafaqat teatrlashtirilgan tomosha sifatida, balki zamonaviy sahna san'ati, estrada va satirik ijodning o'zaro integratsiyasini namoyon etuvchi yirik madaniy loyiha sifatida ham e'tiborga loyiqdir.

Bugungi globallashtirish jarayonida teatr san'ati oldida yangi vazifalar va talablar yuzaga kelmoqda. An'anaviy teatr shakllari bilan bir qatorda konsert-tomosha janrining rivojlanishi ham tomoshabinlar estetik ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, "G'aroyib tomosha" konsert dasturi zamonaviy teatr va ommaviy sahna san'ati elementlarining uyg'unlashgan shakli sifatida baholanishi mumkin. Unda satirik chiqishlar, musiqiy sahna ko'rinishlari, aktyorlik ijrosi va tomoshabin bilan bevosita muloqot elementlari bir butun badiiy kompozitsiya sifatida namoyon bo'lganligi bilan ajralib turadi.

Mazkur konsert dasturi orqali teatr jamoasi

jamiyat hayotidagi dolzarb mavzularni badiiy ifodalash, insonlar kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish va ularda estetik tafakkurni shakllantirish vazifalarini amalga oshirishga intilgan. Satira san'atining asosiy xususiyati shundan iboratki, u kulgi orqali inson tafakkuriga ta'sir qiladi, ijtimoiy voqelikni badiiy talqin etadi hamda tomoshabinni mushohada yuritishga undaydi [2]. Konsert davomida namoyish etilgan sahna ko'rinishlari va ijro etilgan badiiy chiqishlar ham ana shu tamoyillarga asoslangan holda tashkil etilganligini kuzatish mumkin.

Shuningdek, Xalqlar do'stligi saroyi kabi katta sahnada mazkur konsertning tashkil etilishi O'zbekiston Davlat Satira teatri ijodiy imkoniyatlari tobora kengayib borayotganini ko'rsatadi. Bunday yirik madaniy loyihalar teatr jamoasining professional mahoratini namoyon etish bilan bir qatorda, milliy sahna san'ati rivojiga ham muhim hissa qo'shadi. Shu bilan birga, bunday tadbirlar yosh avlodning san'atga bo'lgan qiziqishini oshirish, milliy madaniy qadriyatlarni targ'ib qilish hamda zamonaviy teatr san'atining yangi yo'nalishlarini shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

O'zbekiston Davlat Satira teatri faoliyatining yana bir muhim jihati uning xalqaro madaniy aloqalaridir. Teatr turli yillarda Tatariston, Dog'iston, Qozog'iston, Turkmaniston va boshqa davlatlarda gastrol safarlarida bo'lib, o'z san'ati bilan tomoshabinlar e'tiborini qozongan. Bu esa o'zbek teatr san'atining xalqaro miqyosda tanilishiga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy davrda satirik teatr oldida yangi vazifalar turibdi.

Jamiyat hayotida yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar teatr repertuarida ham o'z aksini topishi zarur [2]. Shu sababli, teatr yangi dramaturgik asarlarni sahnalashtirish, zamonaviy mavzularni yoritish hamda sahna texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali o'z faoliyatini yanada rivojlantirib bormoqda. Shuningdek, teatr taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri yosh dramaturglarni qo'llab-quvvatlash va milliy dramaturgiyani rivojlantirish hisoblanadi. Bu esa o'zbek satirik teatri yanada boyishi va yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Davlat Satira teatri o'zbek milliy teatr san'ati rivojida muhim o'rin tutadi. U jamiyatdagi turli muammolarni kulgi orqali yoritib, tomoshabinlarni o'ylantirish va ularning ma'naviy dunyosini boyitishda muhim vazifani bajaradi. Teatrning boy repertuari, tajribali san'atkorlari va yosh iste'dodli aktyorlari uning kelajakdagi

rivojlanishiga mustahkam zamin yaratadi. Shu sababli O'zbekiston Davlat Satira teatri milliy madaniyatimizning muhim qismi sifatida o'z faoliyatini davom ettirib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Davlat Satira teatri milliy teatr san'ati tizimida o'ziga xos o'rin egallovchi muhim madaniy muassasalardan biri hisoblanadi. Teatrning uzoq yillik ijodiy faoliyati shuni ko'rsatadiki, satira san'ati nafaqat kulgi vositasi sifatida, balki jamiyatdagi dolzarb muammolarni yoritish, ijtimoiy munosabatlarni tahlil qilish va inson tafakkuriga ta'sir ko'rsatishning samarali badiiy vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Satirik teatrning asosiy vazifasi inson xarakteridagi salbiy jihatlarni, jamiyatdagi turli ijtimoiy illatlarni va ma'naviy muammolarni badiiy umumlashtirish orqali tomoshabinda estetik hamda tanqidiy tafakkurni shakllantirishdan iboratdir.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, O'zbekiston Davlat Satira teatri o'z faoliyatini milliy teatr an'analari, xalq og'zaki ijodi, hajviy va qiziqchilik san'ati asosida shakllantirib, zamonaviy teatr san'ati tamoyillari bilan uyg'unlashtirgan holda rivojlantirib kelmoqda [4]. Teatr repertuarining mazmunan boyligi, undagi mavzular ko'lamining kengligi va sahna talqinlarining rang-barangligi uning ijodiy salohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Repertuarda o'rin olgan asarlar orqali byurokratiya, loqaydlik, manfaatparastlik, ma'naviy inqiroz, oilaviy munosabatlar va ijtimoiy hayotdagi boshqa dolzarb masalalar satirik usulda yoritilgan.

Shuningdek, teatrning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida aktyorlik va rejissyorlik maktabining o'zni alohida ahamiyatga ega ekanligi kuzatildi [5]. Satirik janr aktyordan yuqori darajadagi ijodiy mahorat, sahna madaniyati va psixologik talqinni talab qiladi. Rejissyorlik esa spektaklning g'oyaviy-badiiy yechimini shakllantirishda hamda asarning tomoshabinga ta'sir kuchini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi [3]. Tajribali ustoz san'atkorlar bilan bir qatorda yosh ijodkorlarning teatr faoliyatiga jalb qilinishi esa ijodiy davomiylikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlanayotgan davrda O'zbekiston Davlat Satira teatri oldida yangi vazifalar paydo bo'lmoqda. Xususan, zamonaviy dramaturgik asarlar yaratish, innovatsion sahna texnologiyalaridan foydalanish, yosh dramaturglar va ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash hamda xalqaro madaniy aloqalarni kengaytirish teatr taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa kelgusida satirik teatrning badiiy imkoniyatlarini yanada kengaytirishga va uning milliy hamda xalqaro miqyosdagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Demak, O'zbekiston Davlat Satira teatri milliy madaniyatimizning ajralmas qismi sifatida nafaqat kulgi va estetik zavq manbai, balki jamiyat ma'naviy hayotini boyituvchi, ijtimoiy ongni rivojlantiruvchi hamda yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalovchi muhim san'at maskani sifatida o'z faoliyatini davom ettirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qahhor A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1987.
2. Rahmonov M. O'zbek teatri tarixi. – Toshkent: San'at, 2008.
3. Ahmedov B. Teatr va dramaturgiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
5. Karimov N. Milliy teatr va sahna madaniyati. – Toshkent: Fan, 2012.



**Dildoraxon
ISROILOVA,**
Professor of the
Uzbekistan State
University of World
Languages Doctor
of Pedagogical
Sciences (DSc)



Wang PING,
Independent
researcher of
Andijan State
Pedagogical
Institute, Suqian
University, Suqian
223800, China

RESEARCH ON THE APPLICATION AND TEACHING OF CHINESE PIANO WORKS IN COLLEGE CLASSROOMS

Abstract. *This article examines the use and methodological research of Chinese piano works in the educational process, drawing on the teaching of piano in colleges and universities. Chinese piano works not only reflect the musical and aesthetic concepts and historical and cultural heritage of the Chinese nation but also contribute to the development of students' musical expression and aesthetic culture through their unique melody and harmony. Research shows that the introduction of Chinese piano works into education not only promotes traditional culture but also invigorates piano education in universities, enhancing the overall level of students' artistic preparation.*

Keywords: *Chinese piano works, college piano classes, application and teaching, teaching methods, teaching efficiency.*

Annatsiya. *Mazkur maqolada kollej va oliy ta'lim muassasalarida fortepiano ta'limi misolida xitoy fortepiano asarlarining dars jarayonida qo'llanilishi va ularni o'qitish bo'yicha tadqiqotlar ko'rib chiqiladi. Xitoy fortepiano asarlari nafaqat xitoy xalqining musiqiy-estetik qarashlari hamda tarixiy-madaniy merosini o'zida aks ettiradi, balki o'ziga xos melodiya va garmoniya orqali talabalarning musiqiy ifodaviyligi va estetik didini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xitoy fortepiano asarlarini o'qitish jarayoniga joriy etish nafaqat milliy an'anaviy madaniyatni targ'ib etadi, balki oliy ta'limda fortepiano ta'limiga yangi ruh bag'ishlab, talabalarning umumiy badiiy saviyasini oshiradi.*

Kalit so'zlar: *xitoy fortepiano asarlari, oliy ta'limda fortepiano darslari, qo'llash va o'qitish, o'qitish metodlari, ta'lim samaradorligi.*

Аннотация. *В данной статье на основе преподавания фортепиано в колледжах и университетах рассматривается применение и методические исследования китайских фортепианных произведений в учебном процессе. Китайские фортепианные произведения не только отражают музыкально-эстетические концепции и историко-культурное наследие китайской нации, но и способствуют развитию музыкальной выразительности и эстетической культуры студентов благодаря уникальной мелодике и гармонии. Исследования показывают, что внедрение китайских фортепианных произведений в обучение не только способствует популяризации традиционной культуры, но и придаёт новое развитие фортепианному образованию в вузах, повышая общий уровень художественной подготовки студентов.*

Ключевые слова: *китайские фортепианные произведения, занятия по фортепиано в вузах, применение и преподавание, методы обучения, эффективность обучения.*

INTRODUCTION

Chinese piano music has experienced more than a hundred years of development. While absorbing the essence of Western piano art, it has deeply integrated Chinese traditional music elements to form an artistic style with unique national characteristics. In recent years, with the enhancement of cultural confidence, the status of Chinese piano works in piano teaching in colleges and universities has become increasingly prominent, and its unique cultural connotation and aesthetic value have injected new vitality into piano education. This paper aims to explore the application value and practical path of Chinese piano works in piano teaching in colleges and universities. By analyzing its cultural inheritance, aesthetic expansion and teaching functions, and combining task-driven, situational creation, singing guidance and other teaching methods, this paper explores how to more effectively integrate Chinese piano works into classroom teaching to improve students' national music literacy and artistic expression. This study not only helps to promote the inheritance and innovation of Chinese traditional music culture, but also provides theoretical reference and practical guidance for the diversified development of piano teaching in colleges and universities.

RESULTS AND DISCUSSION

A basic overview of the development of Chinese piano

The piano is a keyboard instrument that belongs to the traditional Western classical musical instruments. It is known as the "king of musical instruments". Since it was introduced to China in the late 19th century, it has experienced a development process from imitation to integration, from reference to innovation. In the soil of Chinese music culture, the piano has not only become an important carrier of Western classical music, but also formed a unique Chinese piano music style through the combination with national music elements. This process not only reflects the changes in China's modern and contemporary music culture, but also shows the artistic charm of the fusion of Chinese and Western music [1, p. 74].

The early introduction and initial development of piano in China (late 19th century - first half of 20th century)

Western missionaries and merchants first brought the piano to China. It appeared in churches and concessions in trading ports such as Shanghai and Guangzhou in the late 19th century. In the early 20th century, with the rise of new-style schools, piano education gradually took root in China. From the 1920s to the 1940s, Chinese piano music creation entered the initial exploration stage. Composers began to try to incorporate Chinese folk music elements into piano works. For example, He Luting's *Shepherd's Flute* (1934) adopted the melody and pentatonic scale of Jiangnan folk songs, becoming one of the

representative works of the nationalization of Chinese piano music.

Nationalization Exploration after the Founding of New China (1950s-1970s)

After the founding of the People's Republic of China, the nationalization process of Chinese piano music accelerated. Many composers went deep into the folk customs and integrated traditional music elements such as folk songs, operas, guzheng, and pipa into piano creation. In the 1950s and 1960s, a number of classic Chinese piano works emerged, such as "Colorful Clouds Chasing the Moon" adapted by Wang Jianzhong, which used pentatonic scales and ornaments to imitate the charm of national instruments; "Hundred Birds Paying Homage to the Phoenix" (adapted by Wang Jianzhong from a suona piece) simulated the timbre and rhythm of folk instruments through piano techniques.

Diversified development after reform and opening up (1980s-early 21st century)

After the reform and opening up, Chinese piano music entered a period of prosperity. With the increase of international cultural exchanges, composers have inherited national traditions while widely absorbing modern composition techniques, making Chinese piano music present a more diverse style. In the 1980s and 1990s, traditional-style piano works were still developing, such as Li Yinghai's "Sunset Xiaogu" and Chu Wanhua's "The Day of Turning Over", which further expanded the expressiveness of national piano music. Since the 21st century, Chinese piano music has emerged on the international stage. Composers such as Zhang Chao's "Pihuang" and Wang Xiaohan's "Chinese Painting" continue to explore the integration of national music and modern piano language.

The necessity of applying Chinese piano works in college piano classes

Cultural Value – Inheriting Chinese Traditional Culture

Chinese music culture is a precious spiritual wealth created by the working people in their long-term historical life and production practice. The Chinese piano works created based on this have inherited and developed these ancient cultures in a brand-new way. Through these works, contemporary people can have a more comprehensive experience and a deeper understanding of Chinese music culture, making the excellent traditional culture more widely recognized in the contemporary era. On the one hand, Chinese piano works embody the unique musical aesthetic concept of the Chinese nation. Chinese piano works focus on imitating the melody of national instrumental music and pursue the harmonious unity of music and nature, music and people. This to a certain extent reflects the profound influence of Chinese cultural thoughts on Chinese music culture for thousands of years. This aesthetic concept is fully reflected in Chinese piano works.

pedagogika, psixologiya

For example, Wang Jianzhong's "Three Variations on Plum Blossoms" and Wang Zhenya's adaptation of "Yangguan Sandie" have won people's love with their unique national style melody and profound artistic conception. On the other hand, Chinese piano works contain rich historical and cultural connotations. Many works are based on historical events, traditional culture and folk stories, such as the Yellow River Piano Concerto, which is based on the Yellow River Cantata, a national salvation song during the Anti-Japanese War, and the Shepherd's Flute composed by He Luting. These works show the Chinese people's spirit of struggle and national sentiment in a specific historical period.

Aesthetic value – expand students' aesthetic vision

Traditional Chinese music pays attention to the charm and rhyme of sound. "Qi" refers to the inherent connotation of Chinese music style. "Rhyme" refers to rhythm, single tone, strength, length and pitch of sound, etc. The various elements in music modify each other and are artistically processed and embellished to make it full of charm. [2.39] For example, in the Chinese piano works of ancient music style, such as "Three Variations on Plum Blossoms" and "Autumn Moon over Calm Lake", the music still maintains a coherent breath when it is "silent" and "blank", achieving the unity and combination of qi, rhyme and rhyme. For example, the piano piece "Three Variations on Plum Blossoms" composed and adapted by Wang Jianzhong and "Zheng Xiao Yin" composed by Chu Wanghua are also unique in imitating the timbre of traditional Chinese folk instruments. The music focuses on virtuality and reality, movement and stillness, reflecting the traditional national charm of Chinese piano works. The aesthetic concepts of "Qiyun" and "neutrality" in traditional Chinese music are reflected in piano music, so that the music works can express natural scenes while conveying an inner spiritual realm. For example, Chu Wanghua's piano work "The Rippling Stream in the Valley" creates a quiet and spacious valley mood through soft melodies and coherent musical figures. When playing, the performer needs to enter a state of contemplation and use soft and coherent touches to complete the phrases in one go, making the audience feel as if they are in the valley and feel the natural beauty of the rippling stream. When appreciating and playing these pieces, you can gain multiple unique aesthetic experiences such as the unity of man and nature, the fusion of scenes, and the ethereal flying, which expands the audience's aesthetic vision and improves their aesthetic quality.

Teaching value – Cultivating students' core literacy

First, the unique melody and harmony of Chinese piano works help improve students' musical comprehension and expression. The teaching process constructs a three-dimensional aesthetic edu-

cation system, which gradually cultivates students' national music aesthetic judgment and appreciation through multi-dimensional and multi-level music experience, thereby improving their overall aesthetic literacy. Secondly, the ideological and political connotations contained in Chinese piano works help cultivate students' sense of social responsibility and historical mission. Many modern Chinese piano works reflect the heroic spirit of the Chinese people during the revolutionary and construction periods, which plays an important role in inspiring students' patriotic feelings and national pride. Third, the introduction of Chinese piano works not only broadens students' artistic horizons, but also diversifies their playing skills. Through training in timbre, rhythm and musical expression, students can better master the performance essentials of Chinese piano works and improve their artistic literacy and professional ability. Studying representative Chinese piano works from different periods can enable students to have a deep understanding of the cultural traditions and aesthetic concepts of the Chinese nation. Students also gain improvement in core literacy such as aesthetic perception, cultural understanding, and musical expression during the learning process. [3, p. 177].

The application of Chinese piano works in teaching methods

Task-driven teaching method. Task-driven teaching method is a teaching model that is student-centered and emphasizes practice and collaboration. By setting real-life situational tasks, it stimulates students' autonomous learning ability and enables them to naturally acquire knowledge and skills in the process of completing the project. First, clarify the task objectives. Teachers should set clear and specific learning tasks based on the teaching content and the actual situation of the students, ensure that the tasks are operational and interesting, and stimulate students' interest and initiative in learning. Second, reasonably design the teaching content. The teaching content should be student-centered, combined with students' needs and understanding ability, and design diversified and well-structured teaching tasks to promote students to improve their practical and innovative abilities in the process of completing tasks. Third, pay attention to the diversity and challenge of tasks. By setting challenging and innovative learning tasks, students are encouraged to complete tasks in cooperation and interaction, thereby improving their musical imagination and artistic accomplishment. Fourth, strengthen the subject status of students. In task-based teaching, the leading role of students should be highlighted, and through task-driven methods, students should be encouraged to actively learn in perception, experience, practice and cooperation to improve classroom efficiency. Fifth, pay attention to teaching evaluation and feedback. After the task is completed,

the teacher should review and evaluate the task to help students summarize their experience and improve their learning effect [4, p. 104]. Taking the work "Hundred Birds Paying Homage to the Phoenix" as an example, the teacher can design the following task chain: Before the task, listen to the original suona music and analyze its musical characteristics (such as glissando, vibrato, rhythmic pattern). During the task, the groups explore how to imitate the "bird singing" effect of suona on the piano (such as ornaments, pedal use, etc.). After the task, each group performs and evaluates each other, and the teacher summarizes the differences in performance thinking between "instrumentalization" and "vocalization" of Chinese piano music.

Singing guidance method. Singing guidance method is a teaching method that helps students experience the elements of musical expression through singing or humming the melody. In music teaching, vocal singing can vividly convey rich emotional experiences and artistic inspiration. This method pays special attention to guiding students to grasp the speed changes, intensity contrast and rhythm processing of the music, to deepen their understanding of the emotional connotation and style characteristics of the music works. Taking the teaching of Chinese folk song piano adaptations as an example, its melody line itself has distinct language rhythm characteristics. Teachers can guide students to recite the lyrics with emotion, then transition to singing with lyrics, and finally transfer the skills of breath control and phrase processing during singing to piano performance. Through such training, students can transform musical elements such as the direction of the melody, the breathing of the phrases, and the speed changes into inner artistic feelings, and achieve more natural and smooth emotional expression. This teaching method has a significant effect on improving the expressiveness of music works. For example, in the well-known piano piece "Nanniwang", teachers can lead students to sing the rhythm and score first, and then bring the lyrics into the singing during the teaching process to enhance students' understanding of national style piano music, so as to better express the style of the work.

Situation creation method. Situation creation method is a teaching method that stimulates students' emotions and cognition and promotes their active learning by creating a teaching environment with specific situations. Its core is to enable students to understand and master knowledge in specific and vivid scenes through the creation of situations, thereby improving their interest and effectiveness in learning. In piano teaching, teachers can combine the texture characteristics, speed changes and dynamics of the music to construct corresponding emotional images, which plays an important role in guiding students to accurately express emotions and shape timbre. [5.50] For example, in "Jasmine

Fantasy", the theme music of the work is presented four times, and each time the performer needs to enhance the expressiveness of the music through emotional progression. However, due to the interspersed connecting paragraphs or supplementary phrases of different textures between the theme music, students are prone to interruptions in emotional expression. To solve this problem, teachers can use folk song background introduction, storytelling or multimedia audio-visual means to construct a coherent situation to help students understand the narrative logic of the music, so as to better reflect the continuity, sense of expression and level progression of the theme in the performance [6, p. 25].

Dialogue teaching method. Dialogue teaching method emphasizes that teachers and students promote cognitive development through two-way communication in an equal and interactive teaching environment. Unlike the traditional one-way indoctrination teaching model, this method gives students space to fully express their personal opinions. In piano classroom teaching, teachers can guide students to have in-depth discussions on the musical understanding and performance processing of Chinese piano works, such as asking students to share their personalized interpretation of the works and jointly explore the expressive effects of different performance plans. This interactive learning model can not only enhance students' sense of classroom participation, but also stimulate their learning initiative. When students feel that their opinions are respected and valued, their learning enthusiasm will be significantly improved, thereby effectively improving teaching efficiency. Compared with traditional teaching methods, dialogue teaching method shows obvious advantages in cultivating students' independent thinking ability and musical expression.

Group cooperative inquiry teaching method. Group cooperative inquiry teaching method is a student-centered teaching model that emphasizes that under the guidance of teachers, students work in groups to explore knowledge and solve problems through cooperation, discussion, practice, etc. This teaching method combines the concepts of cooperative learning and inquiry learning, and aims to cultivate students' teamwork ability, critical thinking and autonomous learning ability. In the process of teaching implementation, a multi-level group learning mechanism can be constructed, adopting the principle of "backbone leadership", that is, students with outstanding professional skills serve as core guides, and the composition of group members focuses on gradient matching to ensure that each group contains learners at different levels of development. In this way, on the one hand, students with strong learning ability can lead students with weak foundations in the form of assistance and help, and on the other hand, it can also enhance students' sense of cooperation, improve students' interpersonal skills,

self-study ability, organizational ability, collaboration ability, etc., so that students can achieve a change in learning methods from "passive acceptance" to "active construction", and effectively improve students' classroom participation and learning motivation [7, p. 123].

CONCLUSION

As the artistic crystallization of the fusion of Chinese and Western music culture, Chinese piano works carry the unique aesthetic concepts and profound historical and cultural connotations of the Chinese nation. From the perspective of piano teaching in colleges and universities, this study explores the application and teaching practice of Chinese piano works in the classroom, revealing its important value in cultural inheritance, aesthetic education and core literacy cultivation.

First, the teaching application of Chinese piano works is an important way to inherit and develop China's excellent traditional culture. From "Shepherd's Flute" to "Yellow River Piano Concerto", these works not only show the unique charm of national music, but also record the social outlook and national spirit of a specific historical period. By learning and playing these works, students can deeply understand the essence of Chinese music culture and enhance their cultural identity and national pride. At the same time, the national innovation of Chinese piano works in melody, harmony, rhythm, etc. also provides rich materials for the diversified development of piano art. Secondly, the teaching of Chinese piano works can effectively expand students' aesthetic horizons and enhance their artistic expression. Chinese traditional music focuses on the aesthetic concepts of "lively spirit" and "virtual and real coexistence", and these characteristics are fully reflected in Chinese piano works. [8.163] For example, works such as "Three Variations on Plum Blossoms" and "Autumn Moon over the Calm Lake" guide students to experience the unique subtlety and depth of Chinese music through the imitation of timbre and the creation

of artistic conception. This kind of aesthetic training not only enriches students' musical perception ability, but also injects a new dimension of expression into their piano performance.

In terms of teaching practice, this study proposed a variety of teaching methods such as task-driven teaching method, singing guidance method, and situation creation method, and conducted in-depth analysis in combination with specific work cases. These methods emphasize the subjectivity and practicality of students, and stimulate students' learning interest and creativity through task design, situation simulation, cooperative exploration and other methods. For example, in the teaching of "Hundred Birds Paying Homage to the Phoenix", by imitating the timbre of suona, students can more intuitively understand the expression techniques of national music; in the teaching of "Jasmine Fantasy", situation creation helps students better grasp the emotional progression and narrative logic of music. The use of these methods not only improves teaching efficiency, but also cultivates students' comprehensive artistic literacy.

The application of Chinese piano works in piano teaching in colleges and universities is not only an inevitable requirement for cultural inheritance, but also an important direction for innovation in art education. Through scientific teaching design and diversified method practice, the teaching of Chinese piano works will play an irreplaceable role in cultivating music talents with national feelings and international vision. The teaching research of Chinese piano works still needs to be further deepened. In the future, we can combine modern educational technology to develop more interactive and immersive teaching models; at the same time, we can strengthen interdisciplinary research and explore the relationship between Chinese piano works and literature, history, philosophy and other fields, so as to more comprehensively explore their cultural value and educational significance.

References:

1. Liu Yifan. Artistic interpretation of national cultural connotations in Chinese piano works. *Artist*, 2023, (01): 74-76.
2. Chen Hua. Performance concepts and technical characteristics of Chinese piano works. Northwest Normal University 2005, 39-40.
3. Luan Xiling. Application and teaching research of Chinese piano works in the cultivation of piano professionals in colleges and universities. *Drama Home*, 2024, (13): 175-177.
4. Park Ying. Teaching and practice of Chinese national pentatonic mode harmony J. *Chinese Artist*, 2022, (06): 102-105.
5. Zhang Xinhua. On the creation of situations in the classroom multimedia network environment. *Audio-visual Education Research*, 2001, (05): 48-52.
6. Fan Wenduo. On the form analysis and harmonic characteristics of Chu Wanghua's "Jasmine Fantasy". *Yellow River Voice*, 2021, (13): 24-26
7. Fu Long. Analysis of methods and paths based on the reform of piano teaching in colleges and universities. *Music Time and Space*, 2019 (23): 123.
8. Sun Xiao. Research on the aesthetic implications and characteristics of Chinese piano music creation. *Journal of Heihe University*. 2024, 15 (03): 163-166.

Aynisa YULDASHEVA,
O'zDSMI "Vokal" kafedrası dotsenti



BO'LAJAK AKTYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGIDA VOKAL DARSLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak aktyorlarni tayyorlash jarayonida vokal darslarining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Vokal nafaqat musiqiy qobiliyatni rivojlantirish, balki bo'lajak aktyorning nutqi, nafas tizimi va emotsional ifodaviyligini shakllantiruvchi muhim omilidir. Maqolada qo'g'irchoq teatri, dramatik teatr va kino, hamda estrada aktyorlik san'ati talabalarining kasbiy kompetentligida vokal fanining o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, vokal, aktyorlik mahorati, nafas madaniyati, sahna nutqi, san'atlar sintezi.

Аннотация. В данной статье освещаются роль и значение вокальных занятий в процессе подготовки будущих актёров. Вокал анализируется не только как средство развития музыкальных способностей, но и как важный фактор, формирующий речь, дыхательную систему и эмоциональную выразительности будущего актёра. В статье проведен сравнительный анализ специфических особенностей вокала в профессиональной компетентности студентов отделений кукольного театра, драматического театра и кино, а также эстрадного искусства.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, вокал, актёрское мастерство, культура дыхания, сценическая речь, синтез искусств.

Abstract. This article explores the role and importance of vocal training in the training of future actors. Vocals are analyzed not only as a means of developing musical abilities, but also as a key factor in shaping the speech, respiratory system, and emotional expressiveness of future actors. The article provides a comparative analysis of the specific vocal characteristics in the professional competence of students in the puppet theater, drama theater, film, and variety arts departments.

Keywords: professional competence, vocal, acting skills, breathing culture, stage speech, synthesis of arts.

Bugungi kunda zamonaviy teatr va kino san'ati aktyordan serqirralikni talab etmoqda. Ya'ni, aktyor nafaqat sahnada harakatlanishi, matnini ifodali o'qishi, balki o'z ovozi mukammal boshqara olishi, musiqiy asarlarni ijro qilish mahoratiga ega bo'lishi zarur. Bu esa kasbiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismidir. "Competence" inglizcha so'z bo'lib, lug'aviy jihatdan "qobiliyat", ya'ni, amaliyotda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni anglatadi. Kasbiy kompetentlik muta-

xassis tomonidan har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirishni nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarni doimo boyitib borishni, yangi axborotlardan boxabar bo'lishni va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqazo etadi. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilishdir.

Aktyorning kasbiy kompetentligini bir necha asosiy tarkibiy qismlar bilan tasvirlash mumkin.

U nafaqat iste'dodni, balki doimiy mehnat, bilim va ko'nikmalar majmuini o'z ichiga oladi. Ijrochilik mahorati aktyorning asosiy quroli bo'lib, o'z rolini ta'sirli, personajning turli his-tuyg'ularini chuqur va ishonarli tarzda yaratish, ifodalay olish qobiliyatini belgilaydi. Shu bilan birga, dramatik obraz yaratish, turli janr va qahramonlarning ovoz tembrini, uslubini o'zgartira bilish ham aktyorlik mahorati belgisidir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi qarorlarida madaniyat va san'at yo'nalishidagi ta'lim muassasalarining malakali kadrlar va mutaxassislariga bo'lgan talab va ehtiyojlarini o'rganish, bu borada kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish, zamonaviy, ilg'or tajribalardan foydalanish, dunyoning mashhur musiqachilari, bastakorlari ishtirokida ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari tashkil etish, madaniyat va san'at yo'nalishidagi ta'lim muassasalarini o'quv dasturlari va notalar, o'quv qo'llanma va darsliklar, ilmiy-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash"ga e'tibor qaratganlari – madaniyat va san'at ta'limi sifatini yangi bosqichga olib chiqishning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi, sohada raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi [1]. Bu borada, teatr san'atining jamiyat hayotidagi o'rnini oshirish, sahna asarlari orqali yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirish va professional aktyorlik maktabini yaratish muhim kasb etadi. Zero, zamon talablariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlash tizimi teatr jamoalarining ijodiy salohiyatini boyitish, an'analarni yangi bosqichda davom ettirish asosiy omildir.

Teatrda kollektivlik asosida turli san'atlar majmuasi yotadi, ya'ni adabiyot, rassomlik, arxitektura, musiqa, raqs san'atlarining yig'indisidan bir spektakl bunyodga keladi. Yuqorida sanab o'tilgan san'at turlarining har biri teatrda alohida san'at emas, balki sahna talabiga binoan har biri aniq vazifani bajaradi. Bu vazifalarning barchasi bir maqsad – teatrni rivojlantirish, spektakl sifatini oshirish uchun qaratilgan. Shuning uchun ham teatr sintez san'at hisoblanadi [2].

Raqs, plastika san'at turlari qatorida vokal san'ati ham teatr va kino aktyori uchun katta ahamiyatga ega. Vokal – bu shunchaki chiroyli qo'shiq kuylash emas, balki kasbiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi universal vositadir. Vokal mashg'ulotlarida aktyorning nutq apparati

mustahkamlanadi. To'g'ri vokal nafasi (diafragma bilan ishlash) sahnada baqirmasdan, jarangdor ovozda gapirish imkonini beradi va bu o'z o'rnida ovoz paychalari tez charchab qolishining oldini oladi. Aktyor uzoq davom etadigan spektakllarda, katta sahnalarda ovozni mikrofonisiz zalning eng oxirigi qatorlarigacha yetkazib berishi, qo'shiq kuylaganda, raqs tushayotgan holatda ham nafasni nazorat qila oladigan ko'nikmalarni aynan vokal darslarida puxta egallaydi. Har qanday spektakl yoki rolning o'ziga xos ichki ritmi bor va bu yerda vokal mashg'ulotlari albatta yordam beradi. Qo'shiq kuylay oladigan aktyor musiqiy pauzalarni va sahna dinamikasini yaxshiroq his qiladi. Ba'zida so'z ojizlik qilganda musiqa va qo'shiq yordamga keladi va aktyor qahramonning ichki dramatzimini, iztirobini yoki quvonchini qo'shiq orqali, ovozning tembri va ichki holati yordamiga tomoshabinga yetqizib beradi.

Temp va ritmning aktyorlik san'atida tutgan o'rnini, ahamiyati, vazifasiga to'xtalishdan avval ana shu ikki termin haqida ma'lumot berish o'rinli bo'ladi. Ma'lumki, temp (tezlik) va ritm (usul) tushunchasi musiqa olamida paydo bo'lgan. Keyinchalik esa sahna san'ati ijodiyotida ham ularning har ikkisi omadli qo'llanib kelinadi [2]. Musiqiy asarda tezlik (temp) va usul (ritm) asarning xarakteri, kayfiyati va badiiy mazmunini belgilab beruvchi asosiy omillardir. Ularning har biri alohida vazifani bajaradi. Tezlik musiqaning hissiy kuchini belgilaydi, ya'ni, sho'x, hayajonli, jo'shqin, xotirjam, yoki vazminlikni ifodalaydi. Usul esa musiqaning harakat asosi bo'lib, asarning janrini va ichki tuzilishini shakllantiradi. Musiqa yo'nalishlari aynan o'ziga xos usul va tezlik bilan ajralib turadi.

Aktyorning kasbiy kompetentligi uning usulni (ritmni) his qilishi bilan belgilanadi. Buni esa ritmika, sahna harakati va vokal darslarida turli harakat va ovoz mashqlari yordamida hosil qilish mumkin. Tabiiyki, har bir inson musiqani eshitish qobiliyatiga ega. Shunchaki, bu qobiliyatning namoyon bo'lish darajasi har bir insonda o'ziga xoslik bilan farq qiladi. Bo'lajak teatr va kino aktyorlarida kuylash mahoratini shakllantirish uchun avvalo musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirish zarur. Keyingi bosqich – aktyor uchun eng zarur bo'lgan jarayon – to'g'ri vokal nafasini shakllantirish. To'g'ri qo'yilgan nafas bilangina to'g'ri sahnaviy ovoz hosil qilish mumkin. Kuylash jarayonida shakllangan to'g'ri nafas, ovoz postanovkasi aktyorga katta sahnalarda ovozni zo'riqtirmasdan, jarangdor va uzoqqa yetkazib berish imkonini beradi. Muntazam

ravishda bajariladigan vokal mashqlari nutq a'zolarining ishlashini faollashtiradi, sahnada har bir so'zning aniq va ravon bo'lishini ta'minlaydi, ovoz paychalarining chidamliligini oshiradi va bu aktyorga uzoq vaqt davomida turli tembrlarda, ovozga zarar yetkazmasdan ishlash imkonini beradi. Bundan tashqari mashg'ulotlar davomida talaba musiqiy o'lchovni aniqlashni o'rganadi va bu kabi ko'nikmalar kelajakda spektakllardagi plastik harakatlar, jang sahnalari yoki raqs nomerlarini ijro etishda yordam beradi.

Ma'lumki, vokal darslari aktyorlik mahorati, sahna nutqi darslari bilan uzviy bog'liq va albatta, har bir pedagog tayanchli nafas, nafasni to'g'ri taqsimlash, ovoz diapazonini kengaytirish, tovush kuchini va uchishini hosil qilish kabi maqsadlarni o'z oldiga qo'yadi. Darslar jarayonida pedagogdan talabalardagi jismoniy zo'riqish, tana mushaklarining aynan qaysi nuqtasida taranglik, siqqlik yuz berayotganini aniq bilish va uni nazoratga olish, siqqlikni bartaraf etishga ko'maklashish talab etiladi [2]. Talabaning iste'dodi, bilimi, shaxsiy intizomi bo'lajak aktyorga har qanday murakkablikdagi rolni muvaffaqiyatli ijro etish imkonini beradi. Bu fazilatlar esa aktyorning kasbiy kompetentligidan dalolat beradi.

Albatta, teatr san'atining har bir yo'nalishi uchun qo'shiq ijrosining vazifasi, aktyordan talab etiladigan ko'nikmalari mavjud. Har bir yo'nalishning o'ziga xos maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, vokal repertuari tanlanadi.

O'zbek milliy qo'g'irchoq teatri repertuaridan joy olgan spektakllar musiqa, raqs va qo'shiqlarga boy bo'lib, musiqiy yechim mazkur spektakl uslubi yoki janridan, rejissyor va kompozitorning dunyoqarashidan kelib chiqib tanlanadi. Albatta, tanlangan musiqiy material spektakldagi tasviriy yechim bilan bog'langan bo'lishi kerak. Fantastik va lirik kuylar, ovozlari, shovqinlar o'z navbatida sahnadagi ranglar jilosi bilan uyg'unlashishi lozim [3]. Qo'g'irchoq teatrida qo'g'irchoqlarni qo'g'irchoqboz aktyorlar boshqaradilar va ular uchun ovoz – bu yagona quroldir. Odatda qo'g'irchoqni boshqarayotgan aktyorlarni tomoshabin ko'rmaydi. Chunki ular shirma ortida turadilar.

Qo'g'irchoq teatri aktyorligi san'ati yo'nalishi bo'limi talabalari uchun vokal darslari nafaqat tabiiy vokal tovush hosil qilish, balki ovozni o'zgartirib kuylashni ham o'rganishdan iborat. Chunki, spektaklda aktyor bir vaqtning o'zida ham ingichka, ham yo'g'on ovozlarda xarakterli obrazlar yaratishi, ovozni turli tembrlarda o'zgartirib kuylay olishi kerak. Shuning uchun

repertuar tanlashda ovozning moslanuvchanligi va turli obrazlarga kira olish qobiliyatini rivojlantiruvchi asarlar tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu yo'nalishda asosiy urg'u ovoz imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan bo'lib, turli hayvonlar, ertak qahramonlari va fantastik mavjudotlarning ovozlari ifodalovchi, taqlid, keskin tembr o'zgarishlari bo'lgan asarlar muhim o'rin tutadi. Bolalar uchun qo'shiqlar, xarakterli vokal asarlari ham shu jumladan.

Dramatik teatr va kino aktyori uchun vokal birinchi navbatda nafas va nutq uyg'unligi, emotsional va psixologik holatni ovoz orqali boshqarish vositasidir. Vokal asarlari aktyorlik mahorati va dramatik vaziyat bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu yerda qo'shiqning musiqiy murakkabligidan ko'ra, uning dramatik matni va ichki kechinmalarni ifodalash muhimroqdir. Ya'ni, qo'shiq kuylash emas, balki kuylayotgan holatda yashashni talab qiladi. Dramatik teatr va kino aktyori repertuaridan joy olgan asarlar - klassik romanslar, dramatik ariyalar, kinofilmlardan qo'shiqlardan iborat bo'lib, ular qaxramonning ichki kechinmalarini ovoz diapazoni orqali badiiy ifodalashga xizmat qilishi lozim.

Estrada aktyorligi san'ati pantomima, nutq janrlari, qo'shiq, raqs, sirk san'ati kabilarning barchasini o'zida jamlaydi. So'z, harakat, plastika, vokal san'atini egallash estrada aktyori mahorati, uning kasbining asosiy sharti bo'lib qoladi [4]. Qolaversa, ovoz – bu asosiy mahsulot bo'lib, vokal aktyorlik mahoratining markazida turadi. Asosiy urg'u vokal texnikasiga qaratilgan. Vokal darslarining maqsadi talabada ijro mahoratini oshirish, ovoz diapazonini kengaytirish, turli vokal janrlarida qo'shiq kuylay olish (milliy va jahon estrada qo'shiqlari, xalq qo'shiqlari, jaz, blyuz, myuziklardan qo'shiqlar), sahnadagi harakat bilan kuylashni birlashtirishni o'rgatish, nafasni qismasdan, ham faol raqsga tushish, ham qo'shiq kuylay olishdir. Estrada aktyori uchun repertuar tanlashda talabaning (bo'lajak aktyorning) individual imkoniyatlari zamonaviy ohanglarni his qilishi va sahnaviy harakat bilan qo'shiq kuylashning sintezi asosiy mezon hisoblanadi. Ushbu san'at turi aktyorlari boshqa teatr aktyorlaridan farqli o'laroq vokal texnikasi, vokal bezaklarini (nolalar, melizmlar) mukammal ijro qilishlari va sahnada harakatlanish madaniyatini namoyish etish xususiyatiga ega bo'lishlari lozim.

Bo'lajak aktyorlarni tayyorlashda folklor qo'shiqlari alohida ahamiyatga ega. Xalq qo'shiqlaridagi betakror ohanglar va xalqona iboralar aktyorning nutqini rivojlantirishga, obrazda milliy

Pedagogika, psixologiya

xarakter yaratishga yordam beradi, madaniy va ma'naviy boyitadi.

Agar raqs aktyorning tanasini sozlasa, vokal uning ruhiyati va ovozi mukammal sozlangan cholg'u asbobiga aylantiradi. Ovoz hosil qilish va uni boshqarish, nafasdan to'g'ri foydalanish aktyorni professional darajaga olib chiquvchi asosiy vositalardan biri desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shunday ekan, vokal darslari aktyorlik san'atining ikkinchi darajali qismi emas, balki uning kasbiy poydevoridir. Qo'g'irchoq aktyori uchun vokal xarakter yaratish vositasi bo'lsa, dramatik teatr va kino aktyori uchun nutqning kuchidir. Estrada aktyorligi san'ati yo'nalishi uchun esa vokal asosiy mahorat hisoblanadi. Repertuarining to'g'ri tanlanishi bo'lajak aktyorning nafaqat ovozi, balki uning kasbiy yo'nalishiga xos bo'lgan individual uslubini shakllantiradi.

Qo'shiqchilik san'atining yana bir turi, vokal ansambl haqida bir oz to'xtalib o'tsak. Vokal ansamblni nafaqat jamoaviy ijro, balki aktyor yoki xonandaning o'zaro muloqot maktabi sifatida tasvirlash mumkin. Aktyor uchun ansamblda kuylash – bu o'z ovozi boshqalar bilan sozlash, ya'ni sherigini eshitish va unga moslashish, o'z ovozi emas, balki umumiy garmoniyani (ko'p ovozlik) his qilish demakdir. Bu mas'uliyatni bo'lishish va jamoaviy obraz yaratishni, vokal

va emotsional dalda berish ijro sifatini oshiradi. Spektaklda ansambl voqea rivojini tezlashtiruvchi muhim dramaturgik vosita vazifasini ham bajaradi.

Aktyorning kasbiy kompetentligini bir necha asosiy komponentlar bilan tavsiflash mumkin. Ular nafaqat iste'dodni, balki uzluksiz mehnat, bilim va ko'nikmalar majmuasini ham o'z ichiga oladi. Zamonaviy teatr va kino san'atida kuylay oladigan aktyorlar yuksak qadrlanadi. Ular musiqali spektakllarda bosh ro'llar, dublyaj va multfilmlarga ovoz berish, qo'shiq kuylaydigan qahramonlarni ishonarli gavdalantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xulosa qilib aytganda, vokal darslari bo'lajak aktyorlarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Bu jarayon shunchaki musiqiy ko'nikmalarni egallash emas, balki aktyorning ichki psixologik holatini tashqi ifoda vositalari (ovoz, nafas, diksiya) bilan uyg'unlashtiradi, sahnaviy madaniyati va badiiy ifodaviyligini yangi bosqichga olib chiqadi. Vokal san'atini mukammal egallagan aktyor o'z mahoratini turli janrlardagi asarlarda samarali qo'llay oladi. Bu esa aktyorning professional o'sishiga, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga va sahnada haqiqiy hayotiy obraz yaratishga, shuningdek, serqirra ijrochi sifatida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori. 31.05.2017 y.
2. M.Abdullayeva. Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati. O'quv qo'llanma. T.: 2011 y.
3. A.A.Abduxalilov. Qo'g'irchoq teatri rejissyorligi. O'quv qo'llanma. T.: "Innovatsiya-Ziyo". 2020 y.
4. M.Yusupova. Maxsus fanlarni o'qitish uslubiyati. Darslik. T.: 2015 y.
5. Internet saytlar.

Dilrabo JUMANOVA,
O'zDSMi "Sahna nutqi" kafedrasida dotsenti



NAJOT – TA'LIM VA TARBIYADA

Annotatsiya. Ushbu maqolada san'at va madaniyat sohasining "Teatr san'ati" yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga "Sahna nutqi" fanidan yakka dars mashg'ulotlari asosida ta'lim va tarbiya berishning ahamiyati to'g'risida so'z boradi. Talabalarga individual ta'lim berish bilan birga, ma'naviy yuksalishi va kamol topishida ijodkorona yondashuv muhim hisoblanadi. Yakka dars mashg'ulotlarining ta'limiy-tarbiyaviy xususiyatlari, talabalarning mutaxassis bo'lib shakllanishidagi tutgan o'rni maqola mazmunida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, teatr, sahna nutqi, ta'lim, individual yondashuv, yakka dars, soha, san'at, madaniyat, ustoz-shogird.

Аннотация. В данной статье рассматривается важность обучения и воспитания студентов, изучающих «Театральное искусство», в сфере искусства и культуры на основе индивидуальных занятий по «Сценической речи». Наряду с индивидуальным обучением, творческий подход важен для духовного роста и развития учащихся. В статье раскрываются образовательные и воспитательные особенности индивидуальных занятий и их роль в формировании учащихся как специалистов.

Ключевые слова: Образование, обучение, театр, сценическая речь, образование, индивидуальный подход, один на один, промышленность, искусство, культура, наставник-ученик.

Abstract. This article examines the importance of teaching and developing students studying Theatre Arts in the arts and culture through individual lessons in Stage Speech. Along with individual instruction, a creative approach is essential for students' spiritual growth and development. The article explores the educational and developmental aspects of individual lessons and their role in developing students as professionals.

Keywords: Education, training, theater, stage speech, education, individual approach, individual lesson, field, art, culture, teacher-student.

"Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi" [1]

Teatr san'ati ta'limiga asos solingan yillardan buyon "Sahna nutqi" dars mashg'ulotlarida talabalarning layoqati, intellektual salohiyati, ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun yakka dars mashg'ulotlari olib boriladi. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuniga [2] muvofiq ishlab chiqilgan o'quv dasturlarida va Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarining o'quv yuklamasi hajmini hisoblashning vaqt me'yorlarida ham yakka dars mashg'ulotlariga alohida to'xtalib o'tilgan.

O'quv mashg'ulotlari odatda, ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya, yakka dars va mustaqil ta'lim kabi shakllarda olib boriladi. Bularning barida o'qituvchining talabalarga o'ziga xos yondashuvi, pedagogik ta'sirini va talabalarda ixtisosligi

bo'yicha yetarlicha bilim va malakalarni o'rgatishni maqsad qiladi. Ayniqsa, yakka dars mashg'ulotlari talabalarning individual layoqatini, qobiliyatini, ma'naviy salohiyatini ochishda va soha bo'yicha malakali mutaxassis bo'lib shakllanishida asosiy metodik yo'l sifatida qarab kelingan. Yakka dars deganda jamoa, guruhdan tashqarida olib boriladigan o'qituvchining talaba bilan yakka shug'ullanishi tushuniladi. Yakka tartibda talabalar bilan ishlash yillar davomida o'zining samarali natijalarini taqdim qilgan, shu bois, har bir davrda yakka dars mashg'ulotlariga talab va ehtiyoj yuqori bo'lgan.

San'at va madaniyat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, shu bilan birgalikda, bu sohalarini o'rganishni maqsad qilgan qiziquvchilar borki, "ustoz-shogird" tizimi asosida o'z kasbiy faoliyatini o'rganib borishadi. San'atning barcha turlarida ustoz-shogird tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, shogirdlar ustozlarining yonlarida yurib, o'rgatgan tavsiyalarini va ko'nikmalarini o'zlashtirib,

soha bo'yicha tajriba orttirib boradi. Ustozning shogirdiga kasbning sir-sinoatlarini o'rgatish jarayoni ham yakka mashg'ulotlardan biri bo'lib, shogirdning ustozni o'rgatgan saboqlarini amalda qo'llashi va shu soha bo'yicha katta yutuqlarga erishishida ustozning har bir shogirdiga individual yondashuv asosida bergan ta'lim-tarbiyasining mahsulidir. Ustoz-shogirdlik tizimida, qolaversa, yakka mashg'ulotlar asosida tahsil olgan shogirdlar nafaqat kasbning sir-sinoatlarini, balki yuksak madaniyat, axloq, ma'naviy tarbiyani o'zida jamlagan holda tarbiya topadi. Bu sinalgan uslub. Shu bois ham, jamoat orasida axloqi, ma'naviyati va ijodiy mahsulining go'zalligiga qoyil qolgan kishilar "ustoz ko'rgan shogird-da..." deb e'tirof etib, ustoziga minnatdorchilik bildiradi.

Xuddi shuningdek, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "Teatr san'ati", "Tv, radio va televideniye san'ati", "Xalq ijodiyoti" fakultetining deyarli barcha ta'lim yo'nalishlarida ustoz-shogirdlik an'anasi asosida yakka dars mashg'ulotlari maqsadli yo'lga qo'yilgan. "Teatr san'ati" fakultetining aktyorlik va rejissyorlik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ham "Sahna nutqi"idan 3 yil davomida yakka dars mashg'ulotlari bilan muntazam shug'ullanib, ustozlaridan kasbiy va axloqiy bilimlarni o'zlashtirib boradi.

Yakka dars mashg'ulotlarida talabalar tanlangan she'riy, nasriy va dramatik asarlarning tahlili va talqini ustida haftalab, oylab ish olib boradi. Tahlil jarayonida asarni adabiy tur va janrlarga ajratib chiqadi, kompozitsion va syujet qurilmalarini aniqlab, mantiqiy tahlil asosida ijroda muhim bo'lgan jihatlarni belgilab oladi. Bu kabi tahlillar uzoq vaqt oladi, shu bois ustozlar talabalarga asarni o'rganishda muhim bo'lgan ijro qonuniyatlarini aniqlashda maslahat berib, yo'l-yo'riq ko'rsatib boradi. Talaba bilan birgalikda adabiy asarning tahlilini aniqlashtiradi. Bu jarayonlarning barchasi o'qituvchining talaba bilan yakka ishlashida ko'rinadi. Ijro qonuniyatlarining tahlilidan so'ng, talaba o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida amaliy jarayonni bosqichma-bosqich amalga oshiradi.

Tasavvur qilish, his qilish, baholash, munosabat bildirish kabi omillar asosida tasavvurida jonlangan voqelikni hikoyalash jarayoni boshlanadi. Birinchi urinishning o'zidayoq kutilgan ijroga erishilmagan va buning imkoni ham yo'q. Qayta-qayta urinishlar, ijroda haqiqat tuyg'usini topishga bo'lgan harakatlar, asar ijrosining samimiyligi va haqqoniyligini yaratishga bo'lgan intilishlar oliy kechinma san'atining yorqin namunasining paydo bo'lishini ta'minlaydi. Ijro borasidagi urinishlarni doimo o'qituvchi kuzatib, talabaning yutuq va kamchiliklarini muhokama qilib tushuntirib o'tadi. Talaba aytilgan fikrlarni inobatga olgan holda ijrosini yangi topilmalar bilan boyitib borishga intiladi.

Yakka darslarning afzalligi shundaki, o'qituvchi talaba bilan hammaslak, fikran do'st bo'lib ishlaydi. Bu esa talabaning sahnada erkin, fikri teran bo'lishida yordam beradi. Yakka darslar asosida nazariy bilim va amaliy tajribaga ega bo'lgan talaba jamoat oldida fikr siqiligi, hayajon, o'z qobig'iga bekinib olish kabi noqulay holatlardan xolos bo'lgan holda, sahnada yorqin asar ijrosini taqdim qiladi. Chunki yakka darslar va amaliy mashg'ulotlarda talaba ijodiy siqqlikdan holi bo'lish texnikalarini o'zlashtirib bo'lgan hisoblanadi. Shu bois bo'lsa kerak, talabalar yakka dars mashg'ulotlarini katta qiziqish bilan olib boradi, ustozidan mahorat sirlarini qunt bilan o'rganadi.

Oliy ta'lim va innovatsion vazirlik tomonidan tasdiqlangan o'quv rejalarda yakka darslar to'liq va o'z o'rnida ko'rsatilgan. Talabalar yakka darslardan unumli foydalanish maqsadida 45 minutdan, ya'ni bir akademik soatdan vaqt ajratilganki, talaba shu vaqt davomida o'qituvchi bilan she'riy, nasriy va dramatik asari ustida ishlab, kutilgan natijaga erishish uchun me'riy vaqt ishlab chiqilgan. Bu albatta to'g'ri yechim bo'lgan, lekin shu soatlarning qisqarishi yoxud talabalardan olib tashlanishi esa talabaning mutaxassislik bilimlarni o'zlashtirishida to'sqinliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu degani o'qituvchining va talabaning fikrlari tarqoqlashishiga, bo'linishiga va albatta ijro to'laqonligiga erishishda vaqt yetishmovchiligiga olib keladi. Natijada yarim chala asarning paydo bo'lish holatlari kuzatiladi. Yakka dars mashg'ulotlarining qisqarishi va ayrim guruhlardan olib tashlanishi esa zamonaviy o'qitish tizimining yemirilishiga va ta'lim sifatining tushib ketishiga olib kelishidan saqlanish lozim. Yakka dars degani faqat bilim va tajriba olish emas, balki tarbiya yuksalishi yo'lidagi zamonaviy pedagogik yondashudir.

Bugun yurtboshimiz o'qituvchi-murabbiylar oldiga juda katta maqsadlar qo'ygan, Yangi O'zbekistonni qurish yo'lida yelkama-yelka turib, ilmiy, bilimli, intellektual salohiyatga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashda barcha imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Ochiq va sifatli ta'lim mamlakat taraqqiyotini belgilovchi omildir. Shu bois deydi Prezident Sh.M.Mirziyoyev: *"Men Yangi O'zbekistonni – obod va farovon, demokratik mamlakatni, Uchinchi Renesansni barpo etishda pedagoglar, professor-o'qituvchilar, ijodkor ziyolilarni eng katta kuch, tayanch va suyanch, deb bilaman. Ularning hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib mehnat va turmush sharoiti yaratib berishni prezident sifatida o'z burchim, deb hisoblayman"* [3, 236-b], – degan so'zlaridan ham shuni anglash mumkinki, sifatli ta'lim va tarbiya mamlakat miqyosidagi dolzarb masaladir.

Oliy ta'lim va innovatsion vazirlik tomonidan sifatli ta'lim va tarbiya berish uchun o'qituvchilar

va talabalarga juda keng imkoniyatlar berilgan. O'qituvchi va talabalarning o'z kasbiy faoliyatini yuksaltirish, soha bo'yicha muvaffaqiyatlarga erishish yo'lida qilingan say-harakatlari hatto rag'batlantirishi, e'tirof etilishi aytib o'tiladi. Bu kabi ishlarga faqat yakka mashg'ulotlar tizimining to'g'ri ishlaganidagina erishiladi.

Qolaversa, yakka darslarga, ya'ni individul ta'lim shakliga davlat va xususiy ta'lim maskanlarida talab va takliflar ortib bormoqda. Bu ta'lim shaklining sifati va natijasini anglagan tashkilotlar ota-onalarga farzandi individual ta'lim asosida o'qishi va mutaxassislikni professional darajada o'zlashtirishini aytib, ularning ishonchini va mehrini qozonishmoqda. San'at va madaniyat ta'lim yo'nalishlarida avvaldan bu ta'lim shakli muvaffaqiyatli ishlab, jamiyat uchun muhim bo'lgan kadrlarni tarbiyalashda asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Ota-onalar ham farzandlari tajribali ustozlardan malakali bilim va tarbiya olayotganidan, ustozlarini yuksak ehtirom bilan hurmat qilayotganidan doimo minnatdor bo'lib kelishgan.

Mamlakat rahbarining ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi yuksak maqsadlarini har bir soha kishisi shior qilib olishi va shu maqsad sari intilishini muqaddas burch sifatida anglamoq lozim, negaki yurtboshimiz: *"Men doimo ta'lim, ta'lim, muallim, muallim, deb ta'kidlashim bejiz emas. Chunki ta'limni rivojlantirmasdan turib yuksak taraqqiyotga erisha olmaymiz. Har qanday muammoning yechimi ham, ertangi kunimizni hal qiluvchi omil ham, shubhasiz, ta'limdir. Agar uch ming yillik tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, ota-bobolarimiz asrlar mobaynida dunyo tamadduniga nafaqat jismoniy, balki intellektual mehnati bilan ulkan hissa qo'shganiga guvoh bo'lamiz. Biz jahonga faqat xomashyo emas, avvalo ilm-ma'rifat, ma'naviy boylik yetkazib bergan ne-ne ulug' zotlarning avlodimiz. Hech shubhasiz, ularga xos bo'lgan buyuk fazilatlar, ular yaratgan shonli an'analar bugun ham bizning qalbimizda, ongimizda, hayotimizda yashamoqda. Men ishonaman, biz bu tarixiy yo'lni munosib davom ettirishga har tomonlama qodirmiz. Bugungi kunda dunyo xaritasida tutgan o'rnimiz, o'z oldimizga qo'yayotgan juda ulkan maqsad va marralarimiz ham aynan shuni taqozo etmoqda"*, – deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev [4].

Yurtboshimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilish, jamiyat ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlash, ayniqsa kambag'allikni qisqartirish borasida ham ta'limning o'rni va ahamiyatini anglagan holda yoshlarni bilimli va kasb-hunarli qilish borasida bir qancha tashabbuslarni ilgari surib, ochiq va sifatli ta'lim uchun juda katta miqdorda ta'limga investitsiyalar ajratib, soha rivoji uchun fidoyilik ko'rsatmoqda.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ham Prezidentimiz ilgari surgan g'oyalarga ergashib, sohada ochiq va sifatli ta'limni tashkil etish, malakali va tajribali professor-o'qituvchilarni jalb qilgan holda talabalarga mutaxassislik bo'yicha professional ta'lim va tarbiya berish jarayonlarini maqsadli tashkil etgan. "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!" [3, 24-b], – degan fikrlar bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining shioriga aylangan. Va eng katta qashshoqlik bo'lgan bilimsizlikka qarshi kurash har jabhada o'z aksini ko'rsatmoqda. Oliyohning eng asosiy vazifasi ham yangi avlodni bilimli, ma'rifatli, ilm-fan va o'z ixtisosligi bo'yicha bilim va ko'nikmalarni mustahkam egallagan layoqatli yoshlarni tarbiyalashni maqsad qilgan. Bu maqsadga erishishning yagona yo'li sifatli ta'lim va yuksak ma'naviyatdir. Shunday ekan, an'anaviy o'qitish tizimi asosida rivoj topib, zamonaviy ta'lim shakliga aylanib ulgurgan yakka dars mashg'ulotlarining obro'si va o'rnini saqlab qolish har birimizning maqsad-muddaomizga aylanishi kerak.

"Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim" [5] – degan prezidentimizning yuksak g'oyasida ta'limning har bir sohasi qamrab olganligini ko'rish mumkin. Bu yo'lida ustozlar tinimsiz mehnat qilishmoqda. Mamlakat rivoji va taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan yoshlarni tarbiyalash va ularga munosib ta'lim va tarbiya berish soha mutaxassislarining oliy burchiga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2022. – 20-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni: O'RBQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – 2020. – 24-sentabr. – № 03/20/637/1313.
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 236 b.
4. Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. – 2024. – 31-avgust.
5. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2020. – 29-dekabr.

Rahima YUSUPOVA,
O'zDSMI "Madaniyat va san'at menejmenti"
kafedrası dotsenti



YANGI O'ZBEKISTONNI RIVOJLATIRISHDA PEDAGOGLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonni rivojlantirishda pedagoglarning ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati, bugungi kunda dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan ta'lim sohasidagi dasturlarni tizimli qo'llash borasidagi tavsiyalar tahliliy bayon etilgan. Shuningdek maqolada mamlakatimizda pedagoglarga berilgan e'tibor va bugungi kunda barcha ta'lim sohasida qilinayotgan ishlar hamda muallifning takliflari bilan tanishasiz.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, Yangi O'zbekiston, pedagog, oliy o'quv yurtlar, faollik, o'qitish, texnologiya, ustoz, usul, shogird, kelajak, zamonaviy, mukammal, konsepsiya.

Аннотация. В статье анализируются роль и значение учителей в системе образования в становлении нового Узбекистана, даны рекомендации по систематическому использованию образовательных программ, признанные сегодня мировым сообществом. Также в статье вы познакомитесь с вниманием, уделяемым учителям в нашей стране, и продельанной сегодня работой по всем направлениям образования, а также с предложениями автора.

Ключевые слова: образование, воспитание, Новый Узбекистан, педагог, университеты, активизм, обучение, технология, учитель, метод, студент, будущее, современное, совершенное, концепция.

Abstract. This article analyzes the role and importance of teachers in the education system in the development of the new Uzbekistan, the recommendations for the systematic use of educational programs recognized by the world community today. Also in the article you will get acquainted with the attention paid to teachers in our country and the work being done today in all areas of education, as well as the author's proposals.

Keywords: education, upbringing, New Uzbekistan, pedagogue, universities, activism, teaching, technology, teacher, method, student, future, modern, perfect, concept.

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham misli ko'ril-magan o'zgarishlar bo'lmoqda. Yangi professional ta'lim muassasalarida ta'lim mazmuni, soni va sifati, ta'lim dasturlari, texnologiyalarining isloh qilinishi oqibatida bir qancha o'zgarishlar amalga oshiriladi. Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi pedagoglarning qadr qimmatini o'n chandon oshirdi va bu islohot bosqichma-bosqich davom etmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan sohada tub islohotlarni amalga oshirish va zamonaviy professional ta'lim tizimini barpo etishning maqsad va ustuvor vazifalari, bir so'z bilan aytganda, pedagoglarning bugungi kundagi o'rne hamda ahamiyatini mustahkamlash

bo'yicha qator ishlar qilinmoqda.

Jumladan, 2020-yil 7-avgustda "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi hukumat qarori e'lon qilindi. Qaror bilan uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim to'g'risidagi nizom, boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kasb-hunar maktablarining namunaviy ustavi, o'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kollejlarning namunaviy ustavi hamda o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan texnikumlarning namunaviy ustavi tasdiqlandi.

Joriy etilayotgan yangi tizim xalqaro andozlarga to'la mos bo'lishi uchun 14 ta xalqaro tashkilot bilan hamkorlikda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari o'rganildi. Germaniya, Shveysariya, Koreya, Turkiya va Xitoy hamda YUNESKO, Britaniya Kengashi, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa ta'lim fondi, Turkiya hamkorlik agentligi, Xitoyning Universitetlar uyushmasi kabi qator xorijiy davlat va tashkilotlardan 200 dan ortiq nufuzli xalqaro ekspertlar jalb etildi va ulardan salmoqli xulosalar olindi.

Yangi O'zbekistonni rivojlantirishda pedagoglarning o'rni va ahamiyati kundan-kun professional ta'limning sifat va samaradorligini ta'minlash maqsadida o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo'llashga o'rgatadigan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim dasturlari yaratildi va yangi o'quv yilidan tadbiiq etish orqali yangi bosqichga ko'tarildi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning *"Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi"*, degan so'zlaridan kelib chiqib, ta'limi tizimini innovatsion rivojlantirish, pedagoglarning innovatsion texnologiyalarni qo'llab darslar tashkil etish borasida qator mexanizmlar ishlab chiqilmoqda.

Yangi O'zbekistonni rivojlantirishda pedagoglarni islohotlar ijrosiga shay holatga keltirish, bilim, ong va tafakkurni rivojlantirish maqsadida innovatsion yondashuv asosida o'quv kurslari tashkil etilmoqda. Ushbu yangi muhitda pedagoglar strategiya, innovatsiya va sifrovizatsiya mohiyatini anglagan, islohotlar ijrosini ta'minlashga, ongini o'zgartirishga qodir holda ularning ong-shuurini mustahkamlash borasida qator ishlar qilinmoqda.

Ta'lim tizimini jahon andozalariga to'liq moslashtirish, pedagoglarning nufuzi va jozibadorligini oshirish maqsadida O'zbekiston "World-Skills" xalqaro harakatiga qo'shildi va ushbu tashkilotga a'zo bo'ldi. Bugun butun dunyoda XXI asr kompetensiyalari sifatida talqin etilayotgan "yumshoq" (soft) kompetensiyalarni shakllantirishga alohida urg'u beriladi. Yangi tizim uchun yaratilayotgan o'quv adabiyotlari, kitob va darsliklar, elektron ta'lim resurslari, innovatsion, raqamlashtirilgan ta'lim texnologiyalari, ochiq elektron resurslar tarmog'i, o'quv adabiyotlarini xorijiy davlatlardan olib kelish, qayta ishlash, chop etish va tarqatish, kelajak kutubxonalari, kelajak auditoriyalarini yaratish jarayonlari jadallik bilan olib borilayotganligi pedagoglarning Yangi O'zbekistonni rivojlantirishda ushbu texnologiyalarni qo'llash orqali hissalar juda yuqori bosqichlarga ko'tariladi.

Professional ta'limning yangi tarmog'ida faoliyat ko'rsatadigan pedagoglar, ishlab chiqarish ustalarini saralash, tanlash, tayinlash, qayta tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish, ularning maqomini

belgilash va mehnatini rag'batlantirishning yangi tartiblari ishlab chiqilib keng joriy qilinishi bizning oldimizga qo'ygan maqsadlarga yetishimizni ta'minlaydi.

Bizning nazarimizda kechagi pedagog bilan bugungi pedagogni turli jihatlar ajratib turadi. Shuni alohida aytish kerakki, umuman, ta'lim tizimini takomillashtirish, uni yangilash uchun yana bir muhim omil yuzaga keldi. Endi professional ta'lim sohasida biz ko'proq o'qishimiz va o'rganishimiz talab etiladi. Chunki zamonaviy mehnat bozorida kadrlar malakasiga bo'lgan talablar muttasil va tez o'zgaruvchidir. Bu qo'shimcha va mustaqil ta'lim olishni talab qiladi. Umuman, Yangi O'zbekistonni rivojlantirishda pedagog oldiga ham o'ziga xos talablar qo'ymoqda.

Bu borada quyidagilar zamonaviy Yangi O'zbekistonni rivojlantirishda hissa qo'shaman degan pedagog yon daftarida va dars o'tish texnikasini qamrab olishi kerak:

- *birinchi* navbatda, ta'limni to'liq raqamlashtirish kerak. Bunda dars ishlanmalari, onlayn taqdimotlar, animatsion darslar, videoinstruktorlar kabi raqamli kontentlar yaratilishi lozim.

- *ikkinchidan*, bu kontentlarni joylashtirish va barchaga qulay bo'lgan elektron platformalar yaratilishi kerak.

- *uchinchidan*, o'qituvchilarda raqamli kontent bilan ishlash, uni boyitish, o'quv dasturlariga moslashtirish, o'quvchilarga yetkazish, ular bilan teskari aloqa o'rnatish kabi yangi kompetensiyalarni shakllantirishni talab qiladi.

- *to'rtinchidan*, o'quvchilarning internet tarmog'iga ulanganligi holatida onlayn, internet tarmog'iga ulanmagan o'quvchilar kontingenti bilan offlayn rejimlarida saboqlar tashkil qilish lozim bo'ladi.

Biz yuqorida sanab o'tgan takliflarning barchasini amalga oshirishda ta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasining infrastukturasini takomillashtirish, jumladan, optik tolali aloqa, yuqori tezlikka ega internet trafiklari bilan ta'minlash kabi o'ta dolzarb masalalarni yechishni talab qiladi. Chunki, raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni ta'lim sohasida ham yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, elektron ta'lim resurslarini yaratish va qo'llash, masofaviy o'qitish usullarini takomillashtirish kabi vazifalar pedagoglarning malakasini doimiy ravishda oshirib borishni taqozo etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta o'zlashtirgan o'qituvchi ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Bu esa yoshlarning xalqaro mehnat bozori talablariga mos bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishiga zamin yaratadi.

Undan tashqari, pedagoglarning faoliyati jamiyat ma'naviy muhitini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarda milliy qadriyatlarga

hurmat, vatanparvarlik tuyg'usi, insonparvarlik, bag'rikenglik va fuqarolik mas'uliyatini qaror toptirishda o'qituvchining ta'siri beqiyosdir. Ta'lim jarayoni orqali avlodlar o'rtasidagi ma'naviy meros uzviy davom ettiriladi. Shuningdek, tarbiya ishlariningsamaralitashkilqilinishishaxsningijtimoiy munosabatlarga moslashuvini ta'minlaydi. Bunday holat jamiyatda barqarorlikni mustahkamlash, ijtimoiy birdamlikni kuchaytirish hamda milliy o'zlikni anglash darajasini oshirishga xizmat qiladi. Yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ta'lim tizimi xodimlarining faol ishtirokiga bog'liq. Chunki har qanday o'zgarishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi inson hisoblanadi. Insonni esa bilim, ko'nikma va malaka bilan qurollantiruvchi asosiy subyekt pedagogdir. U nafaqat o'quv dasturlarini amalga oshiradi, balki ta'lim mazmunini hayot talablariga moslashtirish, o'quvchilarning qobiliyatini aniqlash va rivojlantirish, ularni kelajak kasbiga yo'naltirish vazifalarini ham bajaradi. Shu sababli o'qituvchining kasbiy kompetentligi mamlakat taraqqiyoti ko'rsatkichlari bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.

Pedagoglarning ilmiy-tadqiqot faoliyati ham Yangi O'zbekiston rivojida muhim o'rin tutadi. Zamonaviy ta'limning samaradorligi ko'p jihatdan nazariya va amaliyot uyg'unligiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, o'qituvchilar tomonidan ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, yangi metodik ishlanmalar yaratish, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bilim berish samaradorligini oshirish bilan birga, innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini ham kengaytiradi.

Mamlakatda inson qadrini ulug'lash tamoyili asosida olib borilayotgan siyosat pedagog kasbining nu-fuzini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. O'qituvchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, kasbiy rivojlanish uchun qulay muhit yaratish ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zero, jamiyatda pedagog maqomi qanchalik yuqori bo'lsa, yosh avlodni

tarbiyalash jarayoni shunchalik samarali kechadi. Shu bois, ta'lim sohasi xodimlarini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Pedagoglar yoshlarning kasbiy yo'nalishini belgilashda ham katta mas'uliyatni zim-malariga oladi. O'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyat-lari va intilishlarini hisobga olgan holda ularni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirish mamlakat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Bu jarayon mehnat bozori ehtiyojlari bilan ta'lim tizimi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'min-lashga yordam beradi.

Shuningdek, pedagoglar ijtimoiy adolatni ta'minlashda ham muhim vazifani bajaradi. Ta'lim orqali har bir shaxsga o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun teng sharoit yaratiladi. Ayniqsa, chekka hududlarda istiqomat qilayotgan yoshlarga sifatli bilim berish orqali ularning kelajakda munosib o'rin egallashiga ko'maklashiladi. Bu esa aholi farovonligini oshirish, kambag'allikni qisqartirish hamda ijtimoiy mobillikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ta'lim muassasalarida sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishda ham o'qituvchilarning hissasi katta. Ular o'quvchilarni o'rtasida o'zaro hurmat, hamjihatlik, bag'rikenglik va hamkorlik tamoyillarini qaror toptiradi. Bunday fazilatlar jamiyatda tinchlik va totuvlikni saqlash, turli ijtimoiy muammolarning oldini olishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, pedagoglar ekstremizm, axloqiy buzilishlar va turli salbiy ta'sirlarga qarshi ma'rifiy immunitetni shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, Yangi O'zbekistonni rivojlantirishda pedagoglar hal qiluvchi kuchlardan biri hisoblanadi. Ular inson kapitalini shakllantirish, intellektual salohiyatni yuksaltirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish, innovatsion taraqqiyot uchun zarur kadrlarni tayyorlash hamda jamiyat barqarorligini ta'minlash kabi muhim vazifalarni amalga oshiradi. Shu bois, pedagoglarning kasbiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning malakasini muntazam oshirish va ijtimoiy maqomini mustahkamlash Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kenjaboyev A.E., Karimova B.X. Pedagogik menejment asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Irfon-print, 2023. – 204 b.
2. Axmedov A. A. Ijtimoiy pedagogika. O'quv qo'llanma. – Buxoro: Kamolot nashriyoti, 2023. – 244 b.
3. Mavkulov A. O'zbekiston madaniyati tarixi. – Toshkent : Shafoat Nur Fayz, 2025. – 496 b.
4. Gulboyev A. T. Ta'limda pedagogik qadriyatlar // Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 7. – B. 349-355.
5. Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari: 10-sonli Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallari (2023-yil 1-noyabr). – Toshkent, 2023.
6. Shavkat Mirziyoyev. "O'qituvchi va murabbiylarga" yo'llagan bayram tabrigi // Xalq so'zi. – 2020-yil 30-sentabr.
7. <https://www.weforum.org/press/2017/08/millennials-survey-refugees-are-welcome-robots-can-t-be-trusted-climate-change-is-our-biggest-concern/>
8. Jahon Banki guruhi. O'zbekiston fuqarolarini tinglab. – 2018-yil fevral.

Nargiza SAIDBOYEVA,
O'zDSMI San'at nazariyasi va tarixi:
kinoshunoslik mutaxassisligi
magistranti



KINOSHUNOS KADRLAR TAYYORLASH MASALASI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek kinoshunosligining yetakchi namoyandalaridan biri Xanjara Abulqosimovaning soha uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashdagi beqiyos xizmatlari tahlil qilingan. Shuningdek, olimaning fundamental ilmiy asarlari, darslik va o'quv qo'llanmalarining bugungi kun o'zbek kinoshunosligi va ta'lim tizimidagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kinoshunoslik, milliy kino, pedagogik faoliyat, kino tanqidchiligi, san'atshunoslik, oliy ta'lim, kino tarixi, kino nazariyasi.

Аннотация. В статье анализируется неоценимый вклад одного из ведущих представителей узбекского киноведения Ханджары Абулкасимовой в подготовку высококвалифицированных специалистов для отрасли. Особое внимание уделяется её научно-педагогической деятельности, а также значению фундаментальных научных трудов, учебников и учебно-методических пособий учёного в развитии современного узбекского киноведения и системы высшего образования. На основе анализа научного наследия исследователя раскрывается её роль в формировании национальной школы киноведения и совершенствовании профессионального образования в сфере киноискусства.

Ключевые слова: киноведение, национальное кино, педагогическая деятельность, кинокритика, искусствоведение, высшее образование, история кино, теория кино.

Abstract. This article analyzes the outstanding contribution of Khanjara Abulqosimova, one of the leading representatives of Uzbek film studies, to the training of highly qualified specialists in the field. Particular attention is given to her academic and pedagogical activities, as well as to the significance of her fundamental scholarly works, textbooks, and teaching materials for the development of contemporary Uzbek film studies and the higher education system. Through an examination of her scientific legacy, the article highlights her role in shaping the national school of film studies and advancing professional education in the field of cinema.

Keywords: film studies, national cinema, pedagogical activity, film criticism, art studies, higher education, film history, film theory.

Kinematografning paydo bo'lishi hamda rivojlanishi jarayonida ko'ngilochar tomoshadan san'at turiga aylangunga qadar bir qancha bosqichlarni boshidan kechirdi. Ammo bugungi kunga kelib kino san'ati yana-da rivojlanishi kerakligini soha mutaxassislari hamda tomoshabinlar yaxshi anglaydi. Sababi, bu san'at turining texnik jihati kuchaygani sari inson ongiga ta'sir qiluvchi ruhiy omillar va ularning ifoda vositalari susayib bormoqda.

Masalan, ssenariy, ya'ni kinodramaturgiya sohasi sustlashib, undan mazmun, mohiyat to-bora uzoqlashib, voqealar tizimi kompozitsiya nuqtai nazaridan voqea qayerda boshlanib, kulminatsiya va yechimi qayerda tugagani no-anig bo'lib bormoqda. Qisqasi, kinossenariyga kompozitsiya elementlariga amal qilingani sezilmaydi. Fikrimizcha, tasvir tomoshaviyligini hamda badiiyligini yo'qotmasligi uchun film dunyoga kelishidan avval kinoshunoslar tomo-

nidan ssenariy baholanishi va tavsiyalanishi lozim.

O'zbek kinosida hali tilga olinmagan, ekran yuzini ko'rmagan mavzular ko'p. Vaqt va moliyaviy masalalar ham talaygina. Hozir shiddat bilan o'tayotgan davrda sifatli va salmoqli filmlar ishlab chiqarishning o'zi muammo. Bu sababni bahona qilib kinoni san'atdan sanoat darajasiga aylantirib qo'ymaslik lozim. Shunday bo'lsa ham rejissyorning o'z fikri, odamlarga aytadigan gapi, qiynaydigan dardi bo'lishi kerak. San'at oliygohlarini har yili rejissura, dramaturgiya kabi turli yo'nalishlarda bir qancha kadrlar bitirib chiqishadi, ammo ularning ko'pi o'z yo'lini topa olishmaydi. Sohoni rivojlantirishni istagan ijodkor bunga befarq qaray olmaydi. Har qanday mehnat sarobga aylanmasligi uchun kinoshunosning o'rnini chuqur anglash, ular bilan hamfikrlikda ishlanishi kerak.

Bugungi jarayonda o'zbek kino san'atida "kino tanqidchi" degan tushuncha biroz begona va tushunarsizdir. Bu soha vakillarini ijodkorlar tan olishni xohlashmaganidan keyin (albatta, har kim o'z mehnatini qadrsizlanishini xohlamaydi), tomoshabindan nimani ham kutish mumkin?! Jahon kino bozorida kino tanqidchilarning o'rnini nihoyatda katta, shu sababli ham film haqidagi tahliliy biror maqola o'qilganda, "Kino tanqidchilar tomonidan e'tirof etildi" degan jumlagacha doim duch kelinadi.

Ba'zi o'zbek rejissyorlari shunday maqtanadiki, "Bizga sharoit yaratib berilganidan xursandmiz, sizlar film mohiyatini tushunmabsizlar..." deyishdan nariga o'tisholmaydi. Televideniya e'firiga uzatiladigan filmlarni ham saralashda asosan, dialog va nomaqbul sahnalarga e'tibor qaratiladi xolos. Shu o'rinda aytmoqchimizki, televideniya ham kino tanqidchining o'z o'rnini bo'lishi zarur. Hatto, yopiq yoki ochiq premyeralarda ham ularning o'rniga ommaviy axborot vositalari muharrirlari, jurnalistlar, bloggerlar, kino san'atidan yiroqda bo'lgan kishilar o'z munosabatlarini bildiradilar, ya'ni qarsakbozliklar bilan ijodkorni xursand qilishadi. "Yaxshi" va "yomon" hamda umumiy gaplar bilan cheklanishadi. To'g'ri, har qanday mehnat olqishlashga haqli, har qanday filmning ortida jamoaning mehnati, sarflagan vaqti, mablag'i, qiyinchiliklari mavjud. Ammo milliy kinematografiya rivojlanishi, uni jahon prokatiga olib chiqish uchun ularning o'zi kamlik qiladi, albatta.

Haqiqiy ijodkor ijod yo'lida tinmay izlanishda bezovta bo'lib, orom bilmay yashaydi. Haqiqiy kinoasara, tomoshabinning didi, ma'naviyatini

yuksaltirishi bilan alohida ahamiyatga ega. Shu ma'noda tomoshabinning ortidan ergashadigan emas, aksincha uni ergashtiradigan filmlar yaratish kino amaliyotchilar zimmasidagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

Bugun xususiy kinostudiyalar tomonidan ishlanayotgan filmlarni ku-zatarkanmiz, amerikalik mashhur kinomagnat, "Columbia Pictures Corporation" prezidenti Harri Konning quyidagi so'zlari allaqachon kinobiznes vakillarining hayotiy shioriga aylanganiga amin bo'lamiz: "Olomonga o'zi xohlagan narsani bering, shunda u yopirilib kelaveradi". Ammo haqiqiy kinoasara insonni ma'naviyatiga, millat mafkurasiga, o'zligini topishga ijobiy xizmat qilishi lozim. Shubhasiz, bunday filmlarda qahramon xarakteri birlamchi bo'ladi. Negaki, uni maqsadi sari undaydigan ma'naviy kuchi uning xarakteridir. Rossiya kinorejissyori Leonid Trauberg shunday fikr bildirganki, natijada kinoning har qanday janriga tegishli bo'lgan xulosaga kelinadi. "Xarakterning kuchi shundaki, xarakter – bajarish mumkin bo'lmagan ishni ham qoyilmaqom qilib bajara oladi" [6].

Mustaqillik yillarida milliy madaniyat va san'at sohasi uchun yuqori malakali, davr talablariga javob bera oladigan kadrlar tayyorlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zero, har qanday milliy kinosanoat va televideniyaning taraqqiyoti bevosita uning nazariy asoslarini yaratuvchi hamda tahlil qiluvchi mutaxassislar saviyasiga bog'liqdir. O'zbekistonda professional kino san'ati va professional kinoshunosligi ilmining shakllanishi hamda rivojlanishi bevosita professor Xanjara Abulqosimovanning ilmiy-pedagogik faoliyati bilan chambarchas bog'liq.

Xanjara Abulqosimova o'zining ko'p yillik pedagogik faoliyatida bo'lajak mutaxassislarga ekran san'atining tabiati, uning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-estetika funksiyalarini teran anglashni o'rgatib keldi. Olimaning ilmiy-pedagogik faoliyatida talabalarda "ekran tafakkuri"ni shakllantirish markaziy o'rinni egallaydi. Olima kadrlarni tayyorlashda faqatgina tarixiy faktlarni yodlatish bilan cheklanmay, ularda quyidagi fundamental ko'nikmalarni rivojlantirishga e'tibor qaratgan:

1. Filmning kompozitsiyasi, syujet chiziqlari va qahramonlar xarakterining ochilish dinamikasini tizimli o'rganish.

2. Milliy kinematografiya namunalarini tahlil qilish orqali xalqning ruhiyati, mentalitet xarakteri va ijtimoiy muammolarini ekran tilida kashf etish.

3. Kontentning texnik jihatlaridan tashqari,



M.Mirzamuhammedova, J.Teshaboyev, X.Abulqosimova, S.Xaytmatova, N.Karimova (2008-yil).

uning g'oyaviy-ma'naviy yuki va tomoshabin tarbiyasidagi roliga urg'u berish.

Ushbu prinsiplar bugungi kunda san'atshunoslik oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy televizion va internet-media uchun kadrlar yetishtirishda konseptual asos bo'lib xizmat qiladi.

Olima uzoq yillar davomida san'at oliygohlarida dars berib, yuzlab shogirdlarni tarbiyaladi. Uning darslari faqat nazariya emas, balki jonli muloqot va san'atga muhabbat darsi edi. Bugungi kunda o'zbek kinoshunosligida o'z o'rniga ega bo'lgan uning hamkasblari Sabohat Xaytmatova, Nigora Karimova, shogirdlaridan Xafiza Niyozova kabi ko'plab olimlar Xanjara Nosirovna barpo qilgan ilmni, uning tadqiqotlari natijasida olingan tajribalarni yangi kadrlarga, yosh tadqiqotchilarga, ijodkorlarga munosib taqdim qilishmoqda. O'zbek kinoshunosligida tahliliy va tanqidiy yondashuvlar X.Abulqosimova tomonidan poydevor qilib qo'yilgan bo'lsa, S.Xaytmatova o'zining "Kino tanqidi va tahlili" (2019) asarida ushbu an'analarni zamonaviy pedagogik va ilmiy metodlar bilan boyitgan.

Bugungi kunda o'zbek kinosi yangi izlanishlar va texnik imkoniyatlar davriga kirdi. Biroq, ekranlarda chiroyli tasvirlar ko'paysa-da, milliy kinoshunoslikda chuqur tahlil va nazariy asoslarga bo'lgan ehtiyoj har qachongidan ham yuqori. Shu ma'noda, birinchi o'zbek kinoshunos olimaning ilmiy merosi, xususan, uning «Кино и художественная культура» Узбекистана ("O'zbekistonda

kino va badiiy madaniyat") monografiyasi hali ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. U o'z asarida kinoni shunchaki ko'ngilochar vosita emas, balki badiiy madaniyatning sintezi sifatida talqin qiladi.

Xanjara Abulqosimova nafaqat fundamental nazariyotchi, balki o'zbek kinoshunosligi tarixida o'z izini qoldirgan yirik pedagog hamdir. Uning pedagogik faoliyati San'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti bilan chambarchas bog'liq. Olima ko'p yillar davomida nafaqat talabalarga bilim berdi, balki o'zbek kinosining bugungi kundagi qiyofasini belgilab bergan bir qator mutaxassislarni tarbiyaladi.

Bugungi shiddatli davrda kino san'ati biroz ortda qolayotgandek nazarimizda. Albatta, asosan insta-seriallar ishlab chiqilmoqda. Ammo badiiy yaxlitligi butun bo'lgan kinoasarlار sanoqlidir. "Voqealarning qismlari shunday joylashtirilishi zarurki, biron qism almashtirilganda yo olib tashlanganda yaxlit narsa o'zgarib kechin, yo harakatga kelsin, chunki mavjudligi yo mavjud emasligi sezilmayotgan narsa butunning uzviy qismi bo'la olmaydi" [4].

Xanjara Abulqosimova ilmining o'ziga xosligi – bu milliy kino san'atiga shunchaki tomosha obyekti emas, balki chuqur falsafiy va ijtimoiy hodisa sifatida yondashishdir. Uning shogirdlari bugungi kunda nafaqat ilmiy-pedagogik sohada, balki amaliy kino jarayonlarida, kinofestivallarda va xalqaro loyihalarda ham ushbu an'analarni munosib davom ettirib kelmoqdalar.

Bugungi kunda “milliy content” yaratish haqida ko'p gapiriladi. Xanjara Nosirovnaning ushbu yondashuvi bugungi yosh rejissyorlar uchun muhim darsdir: haqiqiy milliy kino – bu faqat milliy liboslar emas, balki milliy ruh va falsafadir. Uning qarashlariga ko'ra, kinoshunos rejissyorni jazolovchi emas, balki uning ichki olamini tushunib, uni jamoatchilikka ochib beruvchi ko'priki bo'lishi kerak.

Bugungi kunda ham yosh kinoshunoslar orasida olimaga xos bo'lgan o'sha “professional fidoyilik” hamda iste'dodlarni tushunish qobiliyati yetishmayotgandek tuyuladi. Olimaning tadqiqotlari bizni tanqid qilishda adolatli bo'lishga va yangilikdan qo'rqmaslikka o'rgatadi.

Olimaning izlanishlari hamda tajribalari natijasida yozilgan nazariy asarlari, xususan, «Кино и художественная культура Узбекистана» monografiyasi o'zbek tiliga tarjima qilinishi shart. Chunki o'zbek tilida professional kinoshunoslikka doir ilmiy adabiyotlar sanoqlidir. Bu nazariy bo'shliqni to'ldirish lozim. Bundan tashqari, yangi avlod o'zbek kinosi qanday poydevorda qurilganini

bilishi kerak. Xanjara Nosirovna orzu qilgan va himoya qilgan o'zbek kinosi – bu nafaqat o'tmish, balki biz intilayotgan yuksak san'atdir. Uning «Кино и художественная культура Узбекистана» asarini o'zbek tiliga o'girish va nashr etish, nafaqat olim ayol xotirasiga hurmat, balki milliy kinoshunosligimiz rivoji uchun tashlangan katta qadam bo'ladi.

Xanjara Abulqosimova o'zbek kinoshunosligi tarixida o'chmas iz qoldirdi. U nafaqat olim, balki milliy g'ururga ega bo'lgan, o'z millatining san'atini dunyoga tanitishni orzu qilgan fidoyi inson edi. Uning pokiza xotirasi hamkasblari, do'stlari va shogirdlarining qalbida abadiy yashaydi.

Olimaning ilmiy merosini asrab-avaylash, uning rus tilidagi asarlarini o'zbek tiliga o'girish va kelajak avlodga yetkazish – bugungi kinoshunoslarning sharaflari burchidir. Xanjara Abulqosimovaning nomi o'zbek kinosining har bir kadrida, har bir muvaffaqiyatida yashashda davom etadi. Bunday insonlar nafaqat o'z sohasining ustasi, balki yoshlar uchun haqiqiy ma'naviy ustoz hamdir” [7].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abulqosimova X. Kino san'ati asoslari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2009. – 100 b.
2. Абул-Касимова Х., Тешабаев Д., Мирзамухамедова М. Кино Узбекистана. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1985. – 288 б.
3. Абул-Касимова Х. Кино и художественная культура Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1991. – 148 б.
4. Аристотел. Поэтика. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 96 b.
5. Каримова Н. Игровой кинематограф Узбекистана: — Ташкент: Санъат, 2015. – 216 с.
6. Saidboyeva N. Zamonaviy o'zbek kinokomediylarida xarakter masalasi // O'zbekiston olimlari va yoshlarning innovatsion ilmiy-amaliy tadqiqotlari mavzusidagi konferensiya materiallari. – №29. – 30.06. 2021.
7. Xaytmatova S., Saidboyeva N. // O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti xabarları jurnali. – No1. – 2026.

VI BO‘LIM

MADANIYATSHUNOSLIK, NOMODDIY MADANIY MEROS

Saidqul ALIMOV,

O‘zDSMI “Folklor va etnografiya” kafedrası
dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi



O‘ZBEK FOLKLORIDA JANRLARARO MUVOFIQLASHUV

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek folklorida janrlararo muvofiqlashuvning nazariy, folkloriy-retrospektiv va genezis jihatidan qiyosiy tahlili, epik ijodga xos yaxlitlashuv xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, o‘zbek folkloriga xos janrlararo muvofiqlashning ichki xususiyatlari, folkloriy asarlarning janrlararo uyg‘unlashuv natijalanishida talqin namunalarning xilma-xillashuvi ifodalaniladi.

Kalit so‘zlar: folklor, muvofiqlashuv, ertak, doston, motiv.

Аннотация. В данной статье представлен теоретический, фольклорно-ретроспективный и генезисный сравнительный анализ межжанровой гармонии в узбекском фольклоре, раскрывающий особенности интеграции, присущие эпическому творчеству. Также выражены внутренние особенности межжанровой координации, присущие узбекскому фольклору, и разнообразие интерпретационных моделей, являющееся результатом межжанровой гармонии фольклорных произведений.

Ключевые слова: фольклор, гармония, сказка, эпос, мотив.

Abstract. This article presents a theoretical, folkloric-retrospective, and genesis-based comparative analysis of intergenre harmony in Uzbek folklore, revealing the integration features inherent in epic poetry. It also highlights the internal features of intergenre coordination inherent in Uzbek folklore and the diversity of interpretive models resulting from the intergenre harmony of folklore works.

Keywords: folklore, harmony, fairy tale, epic, motive.

Tarixiy-folkloriy jarayonda janrlarning motiv, syujet va poetik vositalariga ko‘ra o‘zaro funksional munosabati shartli ravishda muvofiqlashuv deyiladi. Bu ko‘proq ijro va badiha jarayonida namoyon bo‘ladi. Muvofiqlashning eng yorqin ko‘rinishi folklor asarlari ijro jarayonida o‘zi tomonidan tinglovchi yoki tomoshabinlar tarkibi hisobiga olinishi orqali bir janr namunasidagi motiv yoki syujet voqeasi yoki uning vazifasini

ikkinchi janr tarkibiga an’anani buzmasdan singdirilishidir.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o‘zgarishi, turli sinfiy tabaqalanish vujudga kelishi va ziddiyatlarning kuchayishi natijasida folklor janrlararo munosabatida muvofiqlashuv an’anasi paydo bo‘ldi. Chunki tarixiy-folkloriy jarayon bir tekis rivojlanmasligi, jamiyat taraqqiyot sur’ati bilan bog‘liq ravishda yuksalishlar,

pasayishlar bo'lib turishi qonuniy holdir. Demak, muvofiqlashuv hodisasi ham ana shunday hayot taqozosi bilan tug'ilgan folklor an'anasi hisoblanadi. Chunki ijro jarayonida har bir folklor janri namunasi sharoitga ko'ra, u yoki bu darajada o'zgarishi tabiiydir.

O'zbek folklori janrlar tarkibining shakllana borishi va hozirgi holatiga kelish jarayonida muvofiqlashuv hodisasining ham ta'siri bor. Zotan, har bir janr shartli ravishda o'ziga xos xususiyatlar nuqtai nazaridan tabaqalashtirilgan ekan, albatta mushtarak badiiy prinsip asosida folklor asarlari o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash, ularning tarixiy-folkloriy jarayon rivojidagi holatiga baho berish kerak.

Xalq og'zaki ijodi merosini o'rganish, uning ma'naviy-estetik manba sifatidagi ahamiyatini yoritishda janrlararo munosabatdagi muvofiqlashuv hodisasi alohida ahamiyatga ega. Chunki insoniyat aqliy faoliyati, tafakkuri taraqqiy etgan sayin, uning ruhiy ehtiyojini qondirish vositalari ham shu darajada yuksalib boradi. Inson tafakkurining borliqqa, ruh va ongning tabiatga munosabatini dialektik birlikda o'rganish bevosita folklor asarlari taraqqiyotiga ham tegishlidir. Agar masalaga mana shu nuqtai nazardan yondashilsa, san'atning eng birinchi ijodiy shakli bo'lgan folklor asarlari rivojlanishida o'ziga xos an'ana hisoblangan muvofiqlashuv hodisasi ongning atrof-muhitga, tafakkurning inson hayot kechirish tarziga munosabatlarini ko'rsatuvchi hodisasi ekanligi namoyon bo'ladi.

Lekin folklor janrlaridagi ramzlar og'zaki so'zlashuv jarayonidagi ramzlarga nisbatan o'ziga xos badiiy holatini saqlanganligi uchun ularda mifologiyaga yaqinlik sezilib turadi. Shuning uchun ham mifologik obrazlar, tushunchalar va elementlar folklorning epik janrlarida o'z ahamiyatini bir oz saqlagan. Folklorshunos B.Sarimsoqov: *"Mif, umuman, mifologiya borliq haqidagi insonning badiiy ijodi emas, aksincha, izchil sistemaga solingan tasavvurlar yig'indisidir"*, deganida mifologik tushuncha va ramzlardan hosil bo'la boshlagan poetik tasavvurlarni nazarda tutgan edi [5, 103-b]. Bunga xalq afsona va rivoyatlari ma'lum vaqt o'tishi bilan o'zlaridagi informativlik, ma'rifiy-axloqiy tarbiyaga yo'naltirilgan vazifalarni ertaklarga muvofiqlashtirib, ijtimoiy-estetik funktsiya bajarishga xizmat qilganligini ko'rsatish o'rindir.

Bizgacha yetib kelgan janrlar taraqqiyoti kuzatilar ekan, eng qadimgi ramzlar, empirik tasavvurlar, sodda motiv va syujet qurilmalar butunlay inkor etilmay, ularning izlari u yoki bu darajada saqlanib qolganligini afsona,

rivoyat, qo'shiq, ertak, topishmoq, doston va boshqa janrdagi namunalar tarkibida saqlanib kelayotganligini ko'rish mumkin.

Tarixiy-folkloriy jarayon dinamikasida muvofiqlashuv hodisasiga bir xil maromda qarab bo'lmaydi. Buni murakkab kompozitsiyali janr tarkibida muvofiqlashgan afsona, rivoyat naql, ertak, qo'shiq, maqol, marosim folklori namunalari misolida kuzatish mumkin.

Qahramonlik tipidagi xalq ertaklari an'analari bilan qahramonlik va jangnoma tipidagi xalq dostonlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar folkloriy jarayonning markazlasha boshlagan feodal davlat tuzumi sharoitida yanada tez sur'atlar bilan rivojlana boshlaganligini ustoz folklorshunolar ham tasdiqlagan edilar [6, 91–96-bb.]. Arxaik hisoblanuvchi va qadimiy mifologiyaga xos elementlari saqlanib qolgan ayrim janr namunalari nisbatan keyingi davrlarda vujudga kelgan janrlarning elementlarini o'z tarkibiga muvofiqlashtira olmasligi folkloriy jarayon qonuniyatlarini o'z tarkibiga muvofiqlashtira olmasligi folkloriy jarayon ilgarilanma harakatdan iborat ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham, V.M.Jirmunskiy: *"Alpomish" epik rivoyatiga qarab, qadimgi bahodirlik ertagi keyinchalik qahramonlik eposiga transformatsiyalanganlikning yaqqol ko'rinishi hodisasidir*, – degan fikri ham bejiz emas [7, 323-b]. Bundan chiqadigan xulosa shuki, hozirga qadar yetib kelgan turli janrlar o'zlarining taraqqiyoti jarayonida tafakkuriy rivoji bilan hamohang ravishda inkorni etish bo'yicha yashab kelgan.

Matal janriga xos misralar doston qahramoni ichki kechinmasi tarzida berilsa ham, u epik asar mazmun mohiyatini boyitishga xizmat qilmoqda. Dostonlarga muvofiqlashtirilgan bunday o'rinlar ko'plab uchraydi. Masalan, mazkur doston Avazning Balo bilan uchrashuvi epizodi bo'lib, u xalq ertagi, afsonasi motivlarining syujet voqealariga qanday muvofiqlashgani va dostonning epiklik quvvatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rish mumkin. Mifik personaj Balo doston qahramoni aqli, tadbirkorligi va oqilligi qarshisida ojiz bir narsaga aylanishi folklorona tasvir bilan qiziqarli bayon qilingan.

"Avaz qarasa, bir jondor tos tepasi bilan yurib kelayotibdi, ikki buti osmonda objuvoz tuyib kelayotibdi. Sandalday, sandalday toshlarni upaday mayda-mayda qilib yanchib kelayotibdi". Shundan keyin u Baloning qarshisida dovdorab qolmay, "yotib qolguncha otib qol" degan maqolga amal qilib, Chambilda o'rgangan "ko'xna qozoqi do'qdan do'q qilib" o'zini Balogardon – Balo va uning yor-jo'ralarini yeydigan qilib tanishtiradi [2, 24-b].

Demak, xalq epik janr namunalari tarkibidagi xalq marosim folklori an'analari, aforistik janrlar va xalq nasri elementlarining mavjudligi sababi ham tarixiy-folkloriy jarayon rivojlanishi qonuniyatlari natijasi ekan. O'zbek qahramonlik epos – "Alpomish" dostonidagi mifologiya va ertak janriga olam, yer osti dunyosi kabi o'rinlarining zindon bilan almashinishi folkloriy jarayonda reallikka intilishining ta'siri deb qarash kerak.

Folklor janrlari munosabatidagi muvofiqlashuv hodisasi ko'p variantlikning kelib chiqishiga ham turtki bo'ladi. Buni bir epik janrga mansub asarning turli variantlari syujet voqealari chizig'idagi o'zgarishlar yoki biror motiv, obraz va personajlar nisbatida ko'rish mumkin. Masalan, "Alpomish" dostoni variantlari turli davrlar va turli xalq baxshilari tomonidan ijro etilishi jarayonida zamon talabi, ijrochilar badihago'yiligi ta'sirida ayrim o'rinlarni tushib qoldirilgan bo'lsa, ba'zi variantlariga sharoit taqozosi bilan motivlar va boshqa folklor janrlari elementlari muvofiqlashgan.

Ijtimoiy-gumanitar sohadagi ko'pgina tushuncha va g'oyalar istiqlol davriga kelib, o'zining haqiqiy bahosini topmoqda. Shu jumladan, o'zbek folklori qadriyatlariga ham mana shu nuqtayi nazardan qaraladigan bo'lsa, davr taqozosi bilan "maxsus moslashtirish shakli"ga aylantirilgan xalq qo'shiqlari, maqollari, topishmoqlari, latifalari va boshqalarni ko'rish mumkin. Buning eng yorqin dalili sifatida, o'tmish tarixidagi nom qozongan kishilar to'g'risidagi qo'shiqlar, afsonalar va ertaklarni ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi [4].

Sun'iy moslashtiruv natijasida, hosil bo'lgan folklor matnlari strukturasi an'anaviy ijro uslubi va ifoda yo'lida yaratilgan bo'lib, g'oyaviy mazmun xalqchil, ya'ni ommabop emas. Shartlilikdan ko'ra, real voqelikka aniq badiiy vositalar bilan yondashish, umumiylikdan ko'ra, ko'proq mafkuraviy tabaqa manfaatlariga moslashish ko'zga tashlanadi.

Hozirgi folkloriy jarayondagi tarixiy shaxslar, diniy arboblardan va Islomgacha bo'lgan davrdan qolib kelayotgan turli milliy qadriyatlar hamda mifologiya bilan bog'liq folklor namunalari ana shunday "birlamchi shakllar", deyish mumkin. Masalan, folklorshunos Mamatqul Jo'rayev tomonidan nashrga tayyorlangan "Ipak yo'li afsonalari" to'plamidagi aksariyat epik folklor namunalari haqida ana shunday fikrni aytish mumkin [3, 128-b].

Janrlararo munosabatlarda sodir bo'ladigan sun'iy muvofiqlashtirish hodisasi natijasida ayrim asarlar o'zlarining tarixiy-folkloriy jarayon

rivoji davomida shakllangan struktural-tipik xususiyatlarini yo'qotib, butunlay boshqa mohiyat uchun xizmat qiladigan namunaga aylanishi ham ehtimoldan holi emas. Bunga misol qilib, ko'pgina xalq naqlarining hayotiy ertak sifatida talqin qilinganligini ko'rsatish mumkin. Yoki xalq orasida aytib yuritiladigan kundalik turmush bilan uyg'unlashtirilgan ko'pgina latifaga monand namunalarni afsona, rivoyat, deb talqin qilinishi ham ana shunday sun'iylik natijasidir.

"Oltin vodiy ertaklari" to'plamidagi xalq og'zaki jonli ijrosida yashab kelayotgan "Farzand mehri", "Yomon tush", "Yo'lovchi va Shayton" singari naqlar ertak janri xususiyatlariga sun'iy muvofiqlashtirilishi bunga dalildir. Chunonchi "Farzand mehri" xalq nasri motivida ko'plab naql, rivoyat va afsonalar yaratilgan. Mazkur asar "Bir podshohning oldiga bir ayolni va uning otasi, eri, o'g'lini jazolash uchun olib keliptilar" tarzida boshlanadi. Voqealarning keyingi davomi ham naqlga o'xshash usulda bo'lib, syujet yechimi ayolning o'z otasini o'limdan olib qolish uchun podshoga aytgan: "Men uchun erim ham, farzandim ham aziz. Lekin ularni qatl qilsangiz, men boshqa erga tegishim, boshqa o'g'il ko'rishim mumkin. Bunday holatlarni "Asotirlar va rivoyatlar" to'plamidagi xalq nasri namunalari misolida ham kuzatish mumkin [1].

Janrlar o'rtasidagi muvofiqlashuv teng yoki o'rin almashuv, biror muhim elementning boshqasi tarkibiga poetik vosita sifatida singishi kabi munosabatlarda sodir bo'lib, folklor asarlarida ko'p qirralilik yuzaga kelishiga yordam beradi. Kichik epik xalq nasri yoki aforistik janr namunalari ertak, doston singari janrlar tarkibiga muvofiqlashganda poetik vosita rolini o'ynashi bilan birga ularning g'oyaviy-estetik mohiyati kuchayishi xalqchilligi yanada ortishiga xizmat qiladi. Xususan, "Go'ro'g'li" turkumidagi kichik turkum dostonlari, "Rustamxon", "Shirin bilan Shakar" kabi dostonlar, shuningdek, "Zumrad bilan Qimmat", "Muqbil toshotar", "Bulbuligo'yo", "Bektemir botir" va boshqa murakkab epik mazmun ifodalovchi o'zbek xalq ertaklari tarkibi, syujet voqealari chizig'ida boshqa folklor janrlari xususiyatlari folkloriy jarayon an'alariga xos muvofiqlashganligini kuzatish mumkin.

Janrlarning takomilga yetishi, o'ziga xos tabiatga ega bo'lishida folkloriy jarayon dinamik rivoji tempi, uning davr taqozosiga ko'ra tezlashishi yoki sekinlashishi ham muhim ahamiyatga egadir. Bunga dalil sifatida qahramonlik tipidagi ertaklar feodal munosabatlar maydonga kelishi kuchaya boshlagan bir vaziyatda yakka qahramonni ideallashtirishga

Madaniyatshunoslik, Nomoddiy madaniy meros

bo'lgan ehtiyoj tug'ilishi natijasida, qahramonlik qo'shiqlari, dostonlari yaratila boshlanganligi jarayonini ko'rsatish maqsadga muvofiq. Janrlar munosabatidagi muvofiqlashuv hodisasining tarixiy-folkloriy jarayon bilan bog'liqligi quyidagi sabablarga asoslanadi:

a) inson tafakkur doirasining kengayib, hayot haqidagi tushunchalar hajmi ortishi;

b) ilk maydonga kelgan folklor tushunchalarining muayyan sharoit talabiga javob bera olmay qolishi;

v) arxaiklashgan folklor obraz, motiv va syujetlaridagi inson ma'naviy kamoloti uchun muhim bo'lgan jihatlarining butunlay inkor etilmay, ularga nisbatan zaruratning saqlanib qolish an'anasi mavjudligi;

g) ijtimoiy ong shakllari takomili, ilm-fan va san'atning rivojlanib, xalq og'zaki ijodiyoti qadriyatlari janrlar tarkibida inkorni inkor qonunining amal qilishi;

d) tarixiy sharoit taqozosiga ko'ra mavjud ijtimoiy-maishiy hayot ehtiyoji va talabi kuchayishi kabitdir.

Janrlararo munosabatlarda bir yoki bir necha janrga xos tipik xususiyatlarning nisbatan omaviy hisoblangan janr tarkibida muvofiqlashuvi ko'p jihatdan o'sha janr ijrosi va unda sodir bo'ladigan badiha hodisalari bilan ham bog'liqdir. Bunday munosabatlarning mohiyatini aniq ko'rsatishda ertak va doston janrlari ijro jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Ertak, doston ijrosida ertakchi yoki dostonchining birinchidan, folklor an'analari rioya etishi, ikkinchidan, quvvai hofizasi darajasi va uchinchidan, improvizatorlik qobiliyati muhim rol o'ynaydi.

Moslashuv hodisasining sodir bo'lishi uchun zarur sabablar og'zaki ijod an'analari xos doimiy jarayonlar, kishilar o'zlarining ma'naviy ehtiyojini, hayot kechirish davomida tug'iladigan muammolarini folklor usuliga monand ifodalar ekanlar, albatta, voqelik yoki biror obraz fazilatlarini yanada samarali, ta'sirchan bo'lishiga intiladilar. Ana shu ehtiyoj janrlararo

munosabatdagi muvofiqlashuv hodisasi sodir bo'lish uchun yuqoridagi omillarni aks ettiradi.

Tarixiy-folkloriy jarayon dinamik muvofiqlashuv hodisasi uch tip ko'rinishda mavjud:

1. Xalq og'zaki ijodi an'analari buzilmagan holda, ijtimoiy-maishiy muhit taqozosiga ko'ra sodir bo'ladigan muvofiqlashuv;

2. Folklor namunalarini ijro etish jarayonida iste'dodli kishilarning og'zaki ijod san'ati rivojlanish qonuniyatiga zid bo'lmagan holda, faoliyat ko'rsatishlari orqali sodir bo'luvchi muvofiqlashuv.

3. Folklor janrlararo munosabatga sun'iy yondashish orqali sodir bo'ladigan muvofiqlashuv.

Hozirgi folklorshunoslik, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy tuzum sharoitida boshqa ijtimoiy ong shakllari singari folklor merosini ilmiy tadqiq etishda yo'l qo'yilgan ayrim xatolarga xolis baho berish vazifasini qo'ymoqda. Tabiiy rivojlanib kelayotgan va o'ziga xos an'anaga muvofiq o'zaro munosabatlarda barqaror holatga kelgan janrlarni yozma adabiyot qonunlari asosida muvofiqlashtirish sun'iy tipga misoldir. Zero, folklor faqat nomoddiy meros hisoblanmay, "muayyan xalqning til xususiyatiga emas, balki uning turmush kechirish jarayonidagi shakllangan milliy nutq madaniyatini namoyish etish akti" sifatida o'zining tabiiyligini saqlash kerak. Tabiiy holda og'izdan-og'izga, ustozdan shogirdga, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan folklor janrlari tarkibidagi namunalarning tabiiyligi, qadimiyligi, an'anaviyligi qanchalik saqlansa, ular haqiqatdan ham "o'tmishning aksadosi", ota-bobolar merosi sifatida qadrlanadi.

Janrlar orasida sodir bo'ladigan muvofiqlashuv hodisasining birinchi va ikkinchi tip ko'rinishlari tarixiy-folkloriy jarayon rivojida qachonlardir sodir bo'lish kutilgan holat. Biroq, insoniyat tafakkur taraqqiyoti bilan dialektik bog'liq bo'lgan folklor an'analari "maxsus moslashtirish" orqali sun'iy sodir etilgan uchinchi tip haqida bir oz to'xtalishga to'g'ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asotirlar va rivoyatlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 1990. – 144 b.
2. Balogardon. O'zbek xalq ijodi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 1986. – 237 b.
3. Ipak yo'li afsonalari. – Toshkent: Fan, 1993. – 127 b.
4. Latifalar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 1971. – 379 b.
5. Sarimsoqov B. Epik janrlar diffuziyasi // O'zbek folklorining epik janrlari. – Toshkent: Fan, 1981. – 168 b.
6. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: ГИХЛ, 1947. – 519 с.
7. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. – Ленинград: Наука, 1979. – 493 с.

Munisa MAVRULOVA,
O'zDSMI "Madaniyat va san'at
menejmenti" kafedrası dotsenti,
falsafa fanlar doktori (DSc)



IJTIMOY MUHIT VA MA'NAVY EHTYOJ UYG'UNLIGI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy muhitning jamiyat taraqqiyoti va aholi ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, globallashtirish sharoitida yoshlar ma'naviyatini mustahkamlash, ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish va ma'naviy ehtiyojlarni rivojlantirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqiladi va ijtimoiy ma'naviyatning jamiyat barqarorligi, fuqarolik madaniyati va ma'naviy immunitetni shakllantirishdagi ahamiyati haqida atroflicha fikr-mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy muhit, ma'naviy ehtiyoj, ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy ong, milliy an'analar, madaniy muhit, yoshlar tarbiyasi, ma'naviy immunitet, globallashtirish, fuqarolik madaniyati, jamiyat taraqqiyoti.

Аннотация. В данной статье представлен научно-теоретический анализ роли социальной среды в развитии общества и формировании духовных потребностей населения. Рассматриваются также актуальные вопросы укрепления духовности молодежи, улучшения социально-духовной среды и развития духовных потребностей в контексте глобализации, а также дается всестороннее осмысление важности социальной духовности для стабильности общества, гражданской культуры и формирования духовного иммунитета.

Ключевые слова: социальная среда, духовная потребность, духовные ценности, общественное сознание, национальные традиции, культурная среда, воспитание молодежи, духовный иммунитет, глобализация, гражданская культура, социальное развитие.

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the role of social spirituality in the development of society and the formation of the spiritual needs of the population. It also considers the urgent issues of strengthening the spirituality of youth, improving the socio-spiritual environment and developing spiritual needs in the context of globalization, and provides a comprehensive reflection on the importance of social spirituality in the stability of society, civic culture and the formation of spiritual immunity.

Keywords: social spirituality, spiritual need, spiritual values, social consciousness, national traditions, cultural environment, youth education, spiritual immunity, globalization, civic culture, social development.

Xalqning ma'naviy-madaniy ehtiyojlari shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillar juda ko'p. Jamiyat hayotining barcha jabhalari ana shu ehtiyojlarning yo shakllanishi yoki shakllanmasligiga ma'lum darajada ta'sir etadi. Biroq, bunday ehtiyojlarning shakllanishi, ayniqsa qondirilishiga kuchli ta'sir etadigan omil mavjud bo'lib, bu – har qanday davlat va jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy muhitga bog'liq.

Ijtimoiy-ma'naviy muhitning jamiyat a'zolari ma'naviy-madaniy ehtiyojlarining shakllanishiga ijobiy ta'siri, eng avvalo, ushbu davlat fuqarolarining ma'naviy olamiga va jamiyatning qanday g'oyaga suyanishiga bog'liq. Boshqacha so'z bilan aytganda shaxsning tarbiyalanganlik darajasi va bosh g'oyaning hayotiyligi, ishonchligi, jamiyat tomonidan qabul qilinish holati ijtimoiy-ma'naviy muhitning sog'lomligidan darak beradigan omil hisoblanadi.

Madaniyatshunoslik, Nomoddiy madaniy meros

Shu o'rinda, mamlakat rahbarining quyidagi fikrlarini alohida ta'kidlash kerak: *"Ma'naviyatsizlik va g'oyasizlik har qanday jamiyatni tanazzul sari yetaklashi, davlat siyosati va boshqaruvini kuchsizlantirishi, korrupsiya, jinoyatchilik va axloqsizlik kabi illatlarning ildiz otishiga sabab bo'lishi bilan bog'liq misollarni insoniyat tarixidan ko'plab keltirish mumkin"*.

Mazkur holat – jamiyatda sodir bo'ladigan ma'naviyatsizlik, axloqsizlik, qadriyatlarning yemirila borishi, mafkuraviy bo'shliq, g'oyasizlik kabi salbiy hodisalar, hech shubhasiz, har qanday davlatni va millatni ichidan yemiradi, o'sha joyda ijtimoiy-ma'naviy muhit beqarorligi vujudga keladi. Shuning uchun ham, jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhitining sog'lomligi mamlakat va millat taraqqiyotining muhim belgilari hisoblanadi.

Ijtimoiy muhit keng ma'noda, ijtimoiy-iqtisodiy tizimni, ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy institutlar majmui, ijtimoiy ong shakllari va jamiyat madaniyatini qamrab oladi (makromuhit). Tor ma'noda, inson bevosita yashaydigan, mehnat qiladigan oila va jamoa, ta'lim maskanlarini o'z ichiga oladi (mikromuhit). Ijtimoiy muhit shaxs ma'naviyatining shakllanishi va rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan iqtibos, nazarimizda "ijtimoiy-ma'naviy muhit" tushunchasining to'liq mazmun-mohiyatini ochib bera olmaydi. Bizning fikrimizcha "ijtimoiy-ma'naviy muhit – muayyan makonda va zamonda jamiyatda qaror topgan va kishilar ruhiyati, shaxs tarbiyasi, ijtimoiy kayfiyatida aks etadigan, uning mamlakatda amal qilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarga munosabatini belgilab beradigan holat" hisoblanadi.

Aholi ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini shakllantirish va qondirish masalasi bir tekisda yuz bermaydi. Ana shu ehtiyojlar eng avvalo har qanday jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy muhitiga bog'liq ekanligi aksioma. Ayniqsa, mustaqillik yillari ushbu jarayon notekis rivojlanganligini ko'rish mumkin.

Buning ko'plab sabablari bo'lib, ularning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, 1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qildi. O'zbekiston qariyb 74 yil davom etgan va yakka mafkuraviylikka asoslangan ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan ozod bo'ldi. Siyosiy, mafkuraviy-g'oyaviy biqlik sharoitida o'zining ming yillar davomida shakllangan milliy davlatchilik an'analaridan ayrilgan O'zbekiston milliy davlatchilikning yangi taraqqiyot yo'lga chiqdi.

Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston xalqaro hamjamiyatning teng kuchli subyekti sifatida demokratik, huquqiy, insonparvarlikka asoslangan davlatni barpo etishni o'z oldiga eng katta, strategik maqsad sifatida qo'ydi. Bu narsa

rasmiy O'zbekistonning barcha hujjatlarida e'lon qilindi, jahon hamjamiyati mamlakatni mustaqil, suveren davlat sifatida tan ola boshladi.

Biroq, bu jarayon juda ziddiyatli va murakkab sharoitda amalga oshirildi. Hali sobiq SSSRni qo'msaydigan, uning "imkoniyatlari" va soxta "muruvvatlaridan" bahramand bo'ladiganlar safi ko'p edi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitning sog'lomlashtirishga jiddiy to'sqinlik qilar edi.

Ikkinchidan, mustaqillik O'zbekiston milliy iqtisodiyotining taraqqiyotiga keng imkoniyatlar ochgan bo'lsa-da, biroq, uzoq yillar davomida shakllangan va milliy respublikalar va ularning xalqlari milliy manfaatlariga mutlaqo mos kelmaydigan sovet iqtisodiy siyosati mamlakat taraqqiyotiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatar edi.

Mustaqillik qo'lga kiritilgan paytda respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha sobiq SSSRda eng oxirgi o'rinlardan birida turgan edi. O'zbek xalqining turmush darajasi o'sha paytda hattoki ko'pgina Afrika davlatlaridagi turmush darajasidan ham past edi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda yaqqol namoyon bo'lgan xomashyo ishlab chiqarishga yo'naltirilganlik, xomashyoga birlamchi ishlov berish bo'yicha ibtidoiy ishlab chiqarishni kengaytirish siyosati, imperiya munosabatlarining majruh tizimi "Sovet O'zbekistoni" xo'jaligining deyarli barcha tarmoqlari va sohalarida halokatli nomutanosiblikni yuzaga keltirdi. O'zbekiston sobiq sovet davlatining boshqa mintaqalaridan don va go'shtning 70 foizi, kartoshkaning 60 foizi, qand, quruq sut va bolalar ovqatlarining 100 foizini va boshqa xalq xo'jaligi hamda aholining hayoti ta'minoti uchun zarur bo'lgan muhim mahsulot turlarini olib kelishga majbur edi.

Bunday siyosat jamiyatda jiddiy noroziliklarni keltirib chiqardi. Tong sahardan, kech shomgacha qora mehnat qilgan o'zbek dehqoni, ishchisining kosasi sira oqarmadi. Bu esa mamlakatda ijtimoiy-ma'naviy muhitning yanada keskinlashishiga olib keldi.

Uchinchidan, o'zbek jamiyatida ijtimoiy masalalar yanada chigallashib ketdi. Mustabid tuzum davrida davlat mamlakat boshqaruv tizimidan tortib alohida-alohida shaxslarning kundalik turmushi va istiqboliga daxldor bo'lgan barcha katta-kichik masalalarni hal etishni o'z zimmasiga olgani uchun mehnatkash xalq boqimandalik kayfiyatiga duchor bo'ldi. U faqat ishlash huquqiga ega edi xolos. "Mehnat" deb atalgan hissiy mashinaning quliga aylanib qolgan edi.

Boshqa xalqlar qatori o'zbek xalqi shunchaki ishlar, shunchaki umr kechirardi, xolos. Tiriklik degan buyuk ne'matning, hayot degan oliy tushunchaning mag'zini chaqishga o'zida rag'bat ham, ehtiyoj ham sezmasdi. Binobarin, aql bilan ish

tutish, voqelikni idrok qilish, bunyod etish, yaratish tuyg'ulari butunlay so'ndirilgan edi. Shuning uchun ham mamlakat taraqqiyoti sustlashib, odamlar turmush darajasi nomutanosib ravishda pasaya bordi.

Sovet iqtisodiy siyosatining inqirozga yuz tutishi, taraqqiyotning ekstensiv yo'lining tanlaganligi aholining ijtimoiy holatiga o'zining kuchli salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Masalan, aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish kamaya bordi, ayniqsa oziq-ovqatni iste'mol qilish qisqarib ketdi. Ekologik inqiroz alomatlarini yaqqol sezila boshladi.

Oqibatda O'zbekistonning SSSR iqtisodidagi mavqei tushib ketdi. Agar o'tgan asrning 60-yillari boshida O'zbekiston iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha SSSRda 9-o'rinda turgan bo'lsa, 1991-yilga kelib 15 respublika orasida 12-o'rinni egalladi. Iqtisodiy va ishlab chiqarish imkoniyati nuqtayi nazaridan O'zbekiston sobiq ittifoq respublikalari orasida uchinchi (RSFSR va Ukrainadan keyin) o'rinda bo'lsa-da, aholining turmush darajasi bo'yicha 14-o'rinda edi.

Mustaqillik arafasida, shuningdek, istiqlolning dastlabki yillarida sobiq SSSR davridagi notekis iqtisodiy va ijtimoiy siyosat tufayli umumiylikda to'plangan moddiy boyliklarning aksariyat qismi sovet davlatining g'arbiy hududlariga joylashtirilgan edi. Yaratilgan, to'plangan moddiy boyliklarning hissassi Markaziy Osiyo respublikalari, ayniqsa, O'zbekiston hissasidagi qismi juda kam miqdorni tashkil etgan.

To'rtinchidan, mustabid tuzum davrida O'zbekiston tom ma'noda ma'naviy-madaniy inqirozga yuz tutdi. Soxta "sovet madaniyati", "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik, ruhan baynalmilal madaniyat" kabi shiorlar ostida o'zbek milliy madaniyati og'ir kunlarni boshidan kechirdi. Milliy qadriyatlar toptalindi, ular millatchilik harakati sifatida badnom qilindi. Yakka mafkuraviy va haddan tashqari g'oyaviy-siyosiy tus olgan shiorlar ostida o'zbek ziyolilarining eng ilg'or vakillari qatag'on qilindi.

O'n yillar davomida to'planib qolgan va hal etilmagan ana shu ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy muammolar oxir-oqibatda O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy tanglik holatini yuzaga keltirdi. O'tgan asrning 80-yillari oxirlarida, keyinchalik, 90-yillarning boshlarida respublikada kuchli ijtimoiy larzalar paydo bo'ldi. Farg'ona, Qo'qon, Andijon, Namangan, Bo'ka, Parkent voqealari O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz alomatlarining salbiy ta'siridan dalolat berib, ijtimoiy sohada butunlay o'zgacha munosabatlarni shakllantirishini talab qilardi.

O'zbekistonning yo'li shuki, biz tinchlik va osoyishtalikni saqlab, bozor iqtisodiyotiga o'tishni shoshmasdan, aholining nochor qismini asrab-avaylab, ularga yetarli shart-sharoitlarni yaratib

berib, ana shundan keyin amalga oshirishga bel bog'ladik.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq mamlakatda aholi ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini shakllantirishga va qondirishga sobiq sovet davridan meros bo'lib qolgan ijtimoiy-mafkuraviy va biryozlama g'oyaviy muhit jiddiy salbiy ta'sir qildi. Ayniqsa, aholining iqtisodiy-siyosiy, ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirish va qondirishning konseptual asoslarini yaratish kerak edi.

Ushbu vazifalarni ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilgan holda, ularni 4 (to'rt) bosqichda amalga oshirilganligini ta'kidlash mumkin. Birinchi bosqich 1991-1994-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davr sovet mustabid tuzumi bosqichida shakllangan bir yozlama iqtisodiy siyosatdan bozor munosabatlariga asta-sekin o'tish, o'sha davrdan meros bo'lib qolgan og'ir iqtisodiy-ijtimoiy vaziyatni sog'lomlashtirish yo'lidagi dastlabki tadbirlar bilan hamohang bo'ldi.

Aholi daromadlarini ko'paytirish, iqtisodiyotni liberallashtirish, bozor munosabatlariga o'tish, odamlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, kishilar bandligini ta'minlash kabi qator masalalar kun tartibiga qo'yila boshlandi. Birinchi bosqichning eng muhim jihati aholini ommaviy ravishda ijtimoiy himoyalash tizimining shakllanganligi bo'ldi. Iqtisodiyotning liberallashtirish sharoitida kishilar iste'mol mollariga qo'yilgan bahoning mo'tadillashtirishga alohida e'tibor berildi. Bu tadbir, shubhasiz, mustaqillikning dastlabki davrida jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhitini sog'lomlashtirishga jiddiy ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ikkinchi bosqich 1995–1999-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrning xarakterli tomoni aholini ommaviy ravishda ijtimoiy himoyalash tizimidan ularni maqsadli va manzilli ijtimoiy muhofaza qilish tizimiga o'tish bilan izohlanadi.

Agar aholining iqtisodiy-siyosiy, ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirish va qondirishning birinchi bosqichida odamlarda iqtisodiy, siyosiy hayotda sovet mustabid tuzumining qoldiqlaridan qutulish masalasida konservativ fikrlash

alomatlarini kuchli tarzda namoyon bo'lib turgan bo'lsa, ikkinchi bosqichda endi kishilar asta-sekinlik bilan mustabid tuzum kayfiyatini bartaraf eta boshladi. Ular tafakkur tarzida taraqqiyotning yangi davriga moslashuv jarayoni yuz bera boshladi. Aholining ijtimoiy faollik darajasi o'sa boshladi, yangi iqtisodiy siyosat sohasidagi bilim va ko'nikmalarning shakllanishi, ularning bozor munosabatlaridagi ishtirokida faollik darajasining ortishi yuz berdi.

Uchinchi bosqich 1999–2016-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda mamlakat siyosiy rahbariyati ijtimoiy islohotlarni aholining nochor qismi manfaatlariga moslangan holda olib borishga harakat qildi. Shuningdek, mazkur davr mehnat

Madaniyatshunoslik, Nomoddiy madaniy meros

bozorini rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, pirovard natijada xalq farovonligini yanada oshirishga qaratilgan siyosat bilan bog'liq bo'ldi.

Mazkur uch bosqich O'zbekiston jamiyatida barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishda muayyan ahamiyatga ega bo'lganligini alohida ta'kidlash kerak. Mustaqillikning qo'lga kiritilishi, demokratik, suveren, insonparvar davlat barpo etilishi, odamlarda mustabid tuzum davrida shakllangan ijtimoiy kayfiyatning asta-sekinlik bilan yo'qola borishi, yangi jamiyat bunyod etishning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy zaminlarining yaratilishi, hech shubhasiz, aholi ma'naviy-madaniy ehtiyojlarining orta borishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Biroq, mamlakatning 1991–2016-yillar oralig'idagi taraqqiyot bosqichini tom ma'noda aholi ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini shakllantirish davri deb atashda real voqelikni e'tiborga olish lozim. Bu davrda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotdan odamlarning ko'ngli to'lmadi, iqtisodiy taraqqiyotning bosh kuchi bo'lgan tadbirkorlik harakati qator ma'muriy to'siqlar sababli keng tus olmadi. Iqtisodiyot tarmoqlarini tom ma'noda modernizatsiya qilish amalda yuz bermadi. Qishloq xo'jaligini isloh qilishda zamonaviy usullardan foydalanish darajasi past bo'ldi, sohada klasterlar va kooperatsiyalar faoliyati qo'llab-quvvatlanmadi.

Shuningdek, jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhitini sog'lomlashtirish, aholining ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini shakllantirishga zamin bo'ladigan qulay ma'naviy-mafkuraviy muhit ham yaratilmadi. Mamlakat, millat va jamiyat taraqqiyoti uchun o'ta zarur bo'lgan milliy g'oyani ishlab chiqishda muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yildi.

Yana bir muhim masala: milliy g'oya mamlakatning muayyan bir taraqqiyot bosqichida amal qiladigan umummilliy maqsad va vazifalarni o'zida mujassam etgan bo'lishi muhimdir. Bu ayniqsa, taraqqiyotning ma'lum bir bosqichidan boshqa, konseptual jihatdan tamomila yangi davriga o'tgan paytlarda juda kerak.

Aholining iqtisodiy-siyosiy va ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirish va qondirishning navbatdagi, 4-bosqichi 2016-yildan hozirgacha davom etib kelayotgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr ayni paytda mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni qurish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish davri sifatida ham tarixga kiradi.

Bu davr odamlarni qariyb 25 yil davomida qiynab kelgan qator ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy muammolarni ado etish yo'lidagi dadil qadam sifatida tarixga kiradi. Bunda aholining ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini shakllantirish va qondirishning muhim omili sifatida jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhitining barqarorlashuvi va yanada sog'lomlashishiga ijobiy ta'sir qilgan ayrim jihatlar quyidagilardan iborat bo'ldi:

– bu davr inson qadr-qimmatini ulug'langanligi bilan ajralib turadi. Shaxs manfaatini himoya qilish davlat organlari faoliyatining muqaddas maqsadiga aylandi. Bunday maqsad “inson – jamiyat – davlat” tamoyili asosida amalga oshirilishi belgilab qo'yildi;

– o'tgan chorak asr mobaynida jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatgan eng katta omil korrupsiya holati bilan bog'liq edi. 2016-yildan boshlab mazkur holatni bartaraf etish davlat siyosatining eng ustuvor masalasiga aylandi. Bu borada olib borilgan tizimli ishlar natijasida korrupsiya holati avj olgan ta'lim, sog'liqni saqlash, qurilish sohalarida mehnat qilayotgan minglab xodimlar maoshlari oshirildi, korrupsion holatlarga qarshi jiddiy kurash boshlandi. 2017-yil 3-yanvarda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonun qabul qilindi, 2020-yil 29-iyunda korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi;

– fuqarolarni qiynab kelayotgan, pirovard natijada jamiyatda muayyan darajada ijtimoiy-ma'naviy muhit beqarorligiga sabab bo'lgan masalalardan yana biri – bu qo'shni davlatlardagi yaqinlarimiz, quda-anda bo'lib ketgan qarindoshlarimiz bilan aloqalarimizning uzib qo'yilgani bo'ldi. O'zbekiston Prezidentining tashabbusi bilan 2017-yili O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi chegaralar ochila boshlandi. 2019-yilga kelib barcha 17 ta nazorat-o'tkazish punktlari faoliyati qayta tiklandi. Xuddi shu kabi, O'zbekistonning Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston bilan chegaralaridagi to'siqlar ham olib tashlana boshlandi. Bularning bari O'zbekiston jamiyatida ijtimoiy-ma'naviy muhitning yanada barqarorlashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatdi;

Sanab o'tilgan omillar jamiyat iqtisodiy-siyosiy va ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirish va qondirishning 4-bosqichida sodir bo'lgan eng muhim ijobiy o'zgarishlar hisoblanadi. Mazkur o'zgarishlar, tub islohotlar O'zbekiston jamiyatida barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitning shakllanishida alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Ushbu muhit barqarorligida uzoq yillar mobaynida shakllangan mahalla institutining o'zni ham katta bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu haqda shunday deydi: *“Barchamizga ma'lumki, islohotlarimiz natijalari, bo'layotgan o'zgarishlar va aholining kayfiyati, avvalo, mahallada seziladi. Shu ma'noda, “Mahalla – jamiyatimizning yorug' yuzi va vijdoni ko'zgusi”, desak, to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun barcha darajadagi rahbarlar pastga tushib, o'z sohasi bo'yicha mahallalardagi muammolarni o'rganishi va ularga yechim topishi, natijani ta'minlashi shart. Mahalladagi ishlarning ahvoli vazirlik, idora va hokimliklar faoliyatini baholashda bosh mezon bo'ladi”*.

Ma'lumki, jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhitining qay darajada barqarorlashgani yoki beqarorligi

mahallada yaqqol aks etadi. Shuning uchun ham keyingi yillarda mahalla instituti jamiyatning vijdoni sifatida sanalmoqda. Ayni paytda, aholi ma'naviy-madaniy ehtiyojlarining shakllanishida bosh rol ni ham oila bilan birgalikda mahalla o'ynamoqda.

Shaxs kamolotida, uning ijtimoiy mavqeida mahallaning o'ni beqiyos ekanligini kishilarning mahallaga bo'lgan munosabatidan bilsa ham bo'ladi. Mahalla o'zbek uchun o'z mavqei darajasini belgilab beruvchi maskan. Shuning uchun ham biz, o'zbeklar uchun eng muhim savol "Mahalla nima deydi?", degan savolga javob berishdir.

Shu o'rinda Toshkent shahar Olmazor tumani "Qo'shtut", Samarqand viloyati Samarqand shahar "Bog'iston", Toshkent shahar Sergeli tumani "Sohibqiron", Namangan viloyati Namangan shahar "Dashtbog'" mahallalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish bo'yicha o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma natijalariga e'tibor berishni lozim topdik.

"Siz o'zingizning mahalladagi ijtimoiy o'rnigizni qanday baholaysiz?" degan savolga respondentlarning 29 foizi "Mahallada mening yo'qligim darrov bilinib qoladi", 25 foizi "Yig'ilishlarda odamlar mening fikrim qandayligini hamisha so'rab turishadi", 12 foizi "Mahalladoshlar mening pozitsiyamni doimo hisobga olishadi", 13 foizi "Turli tadbirlarni uyushtirishni menga yuklashadi", 9 foizi "Mahalladoshlar mendan ko'mak kutishadi", 1 foizi "Mening iltimosim va takliflarim jamoada e'tiborsiz qolmaydi" va 11 foizi "Odamlar menga ishonishadi" degan javoblarni belgilagan.

Mazkur so'rovnoma natijalaridan shu narsani aniqlash mumkinki, O'zbekistonda mahalla instituti xalqimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotiga to'liq kirib bo'ldi. Biror odam o'zining mavjudligini mahalladan tashqarida ko'rmaydi. Mahalla fuqarolari o'zining iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy muammolarini mahalla instituti bilan hamkorlikda hal etilishi mumkinligiga ishonadi.

Respondentlarning ushbu javoblaridan turli, hattoki, bir-biriga zid xulosalar olish ham mumkin. Masalan, odamlarning o'z hayoti, turmush tarzi, ijtimoiy holatini mahalla bilan bevosita bog'liqlikda ko'rishining, hech shubhasiz, ijobiy tomonlari bor. Jumladan, jamiyatda mustahkam ijtimoiy birlikni, milliy yakdillikni, kishilarning quvonchli va tashvishli paytlarda bir-biriga ko'makdosh bo'lib, o'zaro hamkorlikda yashashga intilishlarini ijobiy baholash mumkin.

Mazkur holatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshidagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tomonidan o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma natijalari ham tasdiqlab turibdi. Jumladan, so'rovnomada qatnashganlarning 20 foizi oila institutini, 18 foizi ta'lim muassasalarini, 16 foizi ommaviy axborot

vositalarini, 4 foizi diniy tashkilot va idoralarni, 6 foizi boshqa jamoat tashkilotlari faoliyatini yoshlar ma'naviy dunyosini shakllantirishdagi o'ni pasayib ketganligini qayd etganlari holda, bu borada mahalla instituti ijtimoiy nufuzining kamayib borayotganligini 27 foiz respondentlar ta'kidlagan.

Respondentlarning fikricha, mahalla faollari turli ma'naviy-madaniy tadbirlar, mahalla ahli-ning olim, ziyolilar, mutaxassislar bilan bo'ladigan uchrashuvlariga muntazam ravishda "sinovdan o'tgan", tadbirlarda "ortiqcha savol" bermaydigan, "tartibli" fuqarolarni taklif etish bilan cheklanmoqdalar. Tarbiyaga muhtoj, mahalla fuqarolarini muayyan xavotirga soladigan "tartibsiz" fuqarolar esa bunday uchrashuv, davra suhbatlariga atayin taklif etilmaydi.

Shuning uchun ham, yuqorida qayd etilgan institut tomonidan o'tkazilgan so'rovnomada Toshkent shahri (44 foiz), Xorazm (53 foiz), Jizzax (37 foiz), Sirdaryo (32 foiz) va Qashqadaryo (31 foiz) viloyatlaridagi mahallalarning yoshlar tarbiyasi, o'z hududlaridagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishdagi faoliyatlarini "sust", deb baholagan.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida mahalla fuqarolar yig'inlari bir-biri bilan bog'liq qator vazifalarni bajarishi lozim. Birinchidan, mahalla fuqarolik jamiyatining real ko'rinishi. Ikkinchidan, mahalla o'z-o'zini boshqarish organlarining amaldagi ifodasi. Uchinchidan, mahalla mamlakatda demokratik tartiblarni aniq makonda va zamonda amalga oshirishga yo'naltirilgan nodavlat notijorat tashkiloti. To'rtinchidan, mahalla jamoatchilik nazoratini samarali va ta'sirchan shakllarini joriy etish mexanizmlari jamlangan tashkilot. Beshinchidan, mahalla jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlovchi, fuqarolarni yagona strategik maqsad va ijtimoiy mo'ljal atrofida safarbar etadigan o'ziga xos va chuqur tajribadan o'tgan institut.

Shuning uchun ham, mazkur ijtimoiy institutga katta e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabrda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida mazkur masalaga alohida e'tibor berib, mahallalarda yoshlar tarbiyasi, jamiyatda muqim ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirish eng ustuvor vazifalardan biri ekanligini qayd etdi.

Demokratik, suveren, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlatda yashashning imkoniyati, imtiyozlari ko'p. Ayni davrda bunday davlatda istiqomat qilishning o'ziga yarasha qiyinchiliklari ham bor. Bunday sharoitda har bir fuqaro uchun eng kerakli vosita – bu uning huquqiy savodxonligidir. Mamlakat rahbari bu haqda shunday deydi: "Yangi O'zbekistonda "Davlat – inson uchun" tamoyili asosida inson

Madaniyatshunoslik, Nomoddiy madaniy meros

huquqlarini rag'batlantirish, himoya qilish va ularga amal qilish masalalari islohotlarimizning eng ustuvor yo'nalishiga aylanadi".

Bu esa nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda mazkur islohotlarning eng demokratik tamoyillariga mosligi, ularning pirovard maqsadi va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi inson qadri va manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilganligining e'tirof etilishiga sabab bo'lmoqda".

Kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabat, huquqni hurmat qilish va unga rioya qilishni ifodalovchi huquqiy madaniyat har qanday jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy muhitini mustahkamlovchi omil bo'lib hisoblanadi.

Huquqiy madaniyat va savodxonlikning yo'qligi yoki kamligi jamiyatda turli salbiy holatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. O'z haq-huquqini bilmagan, mavjud qonunchilikdan bexabar har qanday shaxs turli to'siqlarga duch keladi, jamiyatda munosib o'rin topishga qiynaladi.

Shuning uchun ham keyingi paytlarda shaxs huquqiy madaniyati, huquqiy savodxonligiga keng e'tibor berilmoqda. Ammo, ayrim shaxslarda huquqiy madaniyat, sog'lom ma'naviy tarbiyaning yo'qligi natijasida jamiyatda adolatsizliklar yuz bermoqda, ijtimoiy kayfiyatning pasayish alomatlari sodir bo'lmoqda.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida odamlar ijtimoiy muammolarini hal etish, ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi, bu borada mukammal tizim yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya

milliy agentligi tashkil etildi. Agentlik faoliyatining asosiy yo'nalishlari sifatida aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar va oilalar bo'yicha ijtimoiy yordam dasturlarini ishlab chiqish, kafolatlangan ijtimoiy xizmatlar standartlarini yaratish va amalga oshirish, ijtimoiy sheriklikni kengaytirish, sohani raqamlashtirish kabi muhim vazifalar belgilandi.

Davlat tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtojlarga har tomonlama yordam ko'rsatish tizimi yaratilgan bo'lsa-da, ayni paytda, ularni ish bilan ta'minlash borasida jiddiy ishlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramasdan, hali ham ayrimlarda boqimandalik kayfiyati mavjud. Boqimandalik jamiyatda ayrim noxushliklarni keltirib chiqaruvchi, ba'zan salbiy holatlarga sabab bo'ladigan jarayon hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan misollar, fakt va raqamlar, shuningdek, bildirilgan mualliflik mulohazalaridan xulosa qilish mumkinki, jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi mamlakat taraqqiyotining eng zarur omillaridan biri. Bunday muhitning shakllanishi esa jamiyat a'zolari ma'naviy-madaniy ehtiyojlarining qay darajada shakllanganligi hamda ularning qanday ahvolda qondirilishi bilan bog'liq.

Madaniyat, san'at, ma'naviyat va ma'rifat maskanlari faoliyatining bunday muhitga ta'siri juda katta. O'qimishli, savodxon, ma'naviyati kuchli, ma'rifatli insonlar jamlangan jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi ta'minlanadi. Ushbu jamiyat a'zolari jamiyat hayotini yemiruvchi illatlarga nisbatan doimo o'zlarida kurashuvchanlik kayfiyatida bo'ladilar, ularning ijtimoiy faolligi mamlakat va jamiyatni turli tahdidlar, falokatlardan asrovchi fenomen hodisa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada masalalariga bag'ishlangan videoselektordagi nutqi. – Toshkent, 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. – Toshkent: Tasvir nashriyot uyi, 2021. – 36 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 440 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Asarlar. 1-jild. O'zbekiston, NMIU, 2017. – 592 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi PQ-405-son Qarori. "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida".
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 340-son Qarori. "Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida".
8. Quronov M., To'rayev Sh., Daminov E., Bozorov O. Milliy tarbiya va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish. – Toshkent, 2017. – 284 b.
9. Mavkulov A. Vatanni sevis mas'uliyati. – Toshkent: Sano-standart, 2016. – 71 b.
10. Mavkulov A. Ma'naviy barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – 22 b.
11. Boboyev H., G'ofurov Z. O'zbekistonda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlar taraqqiyoti. – Toshkent: 2001. – 480 b.



Muzafar SAYFULLAYEV,
O'zDSMI mustaqil izlanuvchisi

IJTIMOY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIYAT MUASSASALARINING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda madaniyat muassasalarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Madaniyat muassasalari – madaniyat markazlari jamiyatda ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, milliy qadriyatlarni saqlash hamda yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalashda muhim omil ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, ularning aholining madaniy saviyasini oshirish, ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash va turli ma'naviy tahdidlarga qarshi barqaror immunitetni shakllantirishdagi roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat muassasalari, ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik, globallashuv sharoiti, zamonaviy texnik vositalar, sun'iy intellekt, festivallar, moddiy texnik-baza, besh muhim tashabbus.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение учреждений культуры в обеспечении социально-духовной стабильности. Обосновывается, что учреждения культуры – культурные центры – являются важным фактором оздоровления духовной среды общества, сохранения национальных ценностей и воспитания молодого поколения как гармонично развитых личностей. Также раскрывается их роль в повышении культурного уровня населения, укреплении социальной сплочённости и формировании устойчивого иммунитета к различным духовным угрозам.

Ключевые слова: учреждения культуры, социально-духовная стабильность, условия глобализации, современные технические средства, искусственный интеллект, фестивали, материально-техническая база, пять инициатив.

Abstract. This article analyzes the role and significance of cultural institutions in ensuring social and spiritual stability. It argues that cultural institutions – cultural centers – are an important factor in improving the spiritual environment of society, preserving national values, and nurturing the younger generation as harmoniously developed individuals. It also explores their role in raising the cultural level of the population, strengthening social cohesion, and fostering resilient immunity to various spiritual threats.

Keywords: cultural institutions, socio-spiritual stability, globalization context, modern technical tools, artificial intelligence, festivals, material and technical base, five initiatives.

Har qanday jamiyat taraqqiyoti inson ma'naviyati, aholining madaniy saviyasi va ijtimoiy ongining rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda iqtisodiy omillar bilan bir qatorda ma'naviy muhit ham muhim ahamiyatga ega.

Ayniqsa, globallashuv jarayoni kuchaygan hozirgi davrda turli mafkuraviy tahdidlar, ommaviy madaniyat ta'siri va axborot xurujlari inson ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday sharoitda aholining ma'naviy immunitetini mustahkamlash, milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish va yoshlarni sog'lom

Madaniyatshunoslik, Nomoddiy madaniy meros

dunyoqarash asosida tarbiyalash davlat siyosatidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Madaniyat muassasalari ana shu vazifalarni amalga oshirishda muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Teatrlar, muzeylar, kutubxonalar, madaniyat markazlari, bolalar musiqa va san'at maktablari inson ma'naviyatini yuksaltirish, milliy merosni saqlash va jamiyatda hamjihatlik muhitini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Madaniyat muassasalari jamiyatning ma'naviy hayotini boyituvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ular insonlarni ezgulik, insonparvarlik, bag'rikenglik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida madaniyat muassasalarining ta'siri beqiyosdir.

Madaniyat muassasalari faoliyati jamiyatda ijtimoiy faollikni kuchaytiradi. Turli madaniy tadbirlar, festivallar va ijodiy uchrashuvlar insonlarni birlashtirib, ular o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitini qaror toptiradi.

Ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik – jamiyatda tinchlik, o'zaro ishonch, qonun ustuvorligi va sog'lom ma'naviy muhitning qaror topganligini anglatadi. Bunday barqarorlik jamiyat a'zolarining milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi orqali ta'minlanadi [5].

Ma'naviy barqarorlik insonning ichki dunyosi, axloqiy qarashlari va hayotiy pozitsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Agar jamiyatda ma'naviy muhit sog'lom bo'lsa, turli ijtimoiy ziddiyatlar, jinoyatchilik va ekstremistik g'oyalarga moyillik kamayadi.

Har bir millatning ma'naviy qudrati uning milliy qadriyatlari bilan belgilanadi. Urfodatlar, an'analar, milliy san'at va xalq og'zaki ijodi millatning ma'naviy boyligi hisoblanadi. Madaniyat muassasalari ushbu boy merosni saqlash va kelajak avlodga yetkazishda muhim vazifani bajaradi [6].

Vatanparvarlik qo'shiqlari xalq ma'naviyatini yuksaltirishga hissa qo'shadi. Folklor jamoalari esa milliy an'analarni targ'ib qilish orqali yoshlarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantiradi.

Bugungi axborot asrida internet va ommaviy madaniyat ta'siri orqali yoshlar ongiga turli yot g'oyalar kirib kelmoqda. Bu esa yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratishni talab qiladi.

Madaniyat muassasalari yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish orqali ularni salbiy ta'sirlardan asrashga xizmat qiladi. Turli to'garaklar, ijodiy tanlovlar, kitobxonlik kechalari va teatr tomoshalari yoshlarda mustaqil fikrlash va sog'lom dunyoqarashni shakllantiradi [7].

Shuningdek, madaniyat muassasalari yoshlarni vatanparvarlik, milliy g'urur va ma'naviy poklik ruhida tarbiyalashga katta hissa qo'shmoqda.

Musiqa inson qalbida nafosat tuyg'usini shakllantiradi. Milliy san'at namunalarini xalqning ma'naviy merosini saqlash va targ'ib qilishda muhim ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug'lash, aholining ma'naviy ehtiyojlarini ta'minlash va milliy madaniyatni rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Bu jarayonda madaniyat muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sohada zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish hamda aholining madaniy hayotdagi ishtirokini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda [3].

Mamlakatimizda madaniyat muassasalari faoliyatini modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, hududlarda yangi madaniyat markazlarining barpo etilishi aholining madaniy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi. Qishloq va olis hududlarda faoliyat yuritayotgan madaniyat muassasalarini jihozlash, ularni zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash orqali madaniy-ma'rifiy ishlar samaradorligi oshirilmoqda [1].

Madaniyat muassasalari – bu boshqaruv, ijtimoiy madaniyat va boshqa notijorat vazifalarni amalga oshirish maqsadida tuzilgan tashkilotlardir. Ushbu faoliyatning ham subyekt va ham obyekti shaxs va jamiyatdir. Boshqacha aytadigan bo'lsak, madaniyat muassasalarining ishi shaxs va jamiyatning aqliy, madaniy, ruhiy kuchini ro'yobga chiqarishga va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Madaniyat bilan shug'ullanadigan davlatning vakolatli organi (vazirlik, agentlik, qo'mita va hokazolar) o'z navbatida shaxs va jamiyatni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning madaniy ongi va saviyasini yuksaltirishga xizmat qiladi, bu boradagi davlat siyosatini amalga oshiradi [7].

Shuningdek, madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida ijodkorlar uchun qator imtiyozlar va davlat grantlari joriy etildi. Milliy teatr san'atini rivojlantirish, yosh iste'dodlarni kashf etish va ularni rag'batlantirishga qaratilgan tanlov va festivallar muntazam o'tkazilmoqda. Bu esa milliy madaniyatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda [8].

So'nggi yillarda yosh avlodni qo'llab-

quvvatlash, manfaatlarini ta'minlash sohasida yurtimiz tarixida kuzatilmagan ulkan ishlar qilindi. Albatta, bu jadal demokratik taraqqiyot yo'lini tanlagan vatanimiz uchun mutlaqo tabiiy holdir. Chunki ilm-fan va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan, global dunyoda raqobat ortib borayotgan bir sharoitda mamlakatlarning kelajak taqdiri yoshlarning intellektual salohiyati, iste'dodiga bog'liq bo'lib qolmoqda [9].

Xususan, sun'iy intellekt texnologiyalari jadal sur'atlarda rivojlanib, turli sohalar qatori musiqa industriyasiga ham kirib keldi. Raqamli platformalar va algoritmlar orqali musiqa yaratish, tahlil qilish va tarqatish jarayonlari sezilarli darajada o'zgardi.

Zamonaviy sun'iy intellekt tizimlari nafaqat texnik vazifalarni bajaradi, balki ijodiy jarayonlarda ham ishtirok etmoqda. Bu holat "mashina ijodi" tushunchasini yuzaga keltirib, an'anaviy san'at va texnologiya o'rtasidagi chegaralarni qayta belgilamoqda.

Sun'iy intellekt musiqa yaratishda asosan neyron tarmoqlar, mashinali o'qitish va katta ma'lumotlar tahliliga tayanadi. Ushbu texnologiyalar mavjud musiqiy asarlarni tahlil qilib, yangi kompozitsiyalar yaratish imkonini beradi [10].

Bundan tashqari, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va tiklash ishlariga ham katta e'tibor berilmoqda. Tarixiy obidalarini restavratsiya qilish, muzey eksponatlarini asrab-avaylash va milliy qadriyatlarni targ'ib etish orqali xalqimizning boy madaniy merosi kelajak avlodga yetkazilmoqda. Ayniqsa, YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan madaniy meros obyektlarini saqlash va ularning xalqaro nufuzini oshirishga qaratilgan ishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlarni madaniyat va san'atga jalb etish maqsadida "Besh muhim tashabbus" doirasida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ushbu tashabbus doirasida yoshlarni musiqa, rassomlik, teatr va boshqa san'at turlariga

qiziqtirish, ularning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratildi [4].

Tadqiqot jarayonida shu narsa ayon bo'ldiki, madaniyat muassasalari jamiyatning nafaqat madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi tizim, balki ma'naviy barqarorlikni ta'minlovchi muhim ijtimoiy omil sifatida ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, bugungi tezkor axborot va globallashtirish davrida inson ongi va dunyoqarashiga turli tashqi ta'sirlar kuchayib borayotgan bir sharoitda madaniyat muassasalarining tarbiyaviy vazifasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Madaniyat markazlari aholining ma'naviy saviyasini yuksaltirish, milliy qadriyatlarga hurmat ruhini shakllantirish hamda yoshlarni sog'lom dunyoqarash asosida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Bu muassasalar orqali insonlarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotiraga hurmat va jamiyat hayotiga daxldorlik hissi kuchayadi. Shu jihatdan qaraganda, madaniyat sohasi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim ma'naviy tayanch hisoblanadi.

So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda madaniyat sohasiga qaratilgan e'tibor mazkur yo'nalishning davlat siyosatidagi o'rni tobora ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Zamonaviy madaniyat muassasalarini tashkil etish, milliy san'at va madaniy merosni qo'llab-quvvatlash, aholining, ayniqsa yoshlarning madaniy hayotdagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan islohotlar jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda muhim natijalar bermoqda.

Shu bilan birga, madaniyat muassasalari faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning moddiy-texnik imkoniyatlarini kuchaytirish va hududlarda madaniy xizmatlar qamrovini kengaytirish kelgusida ham muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi. Chunki ma'naviy jihatdan barqaror va madaniy saviyasi yuqori bo'lgan jamiyatda taraqqiyot uchun mustahkam poydevor shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishga oid qarorlari to'plami. – Toshkent, 2022.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar ma'naviyatiga bag'ishlangan chiqishlar to'plami. – Toshkent, 2021 yil.
5. Otamuratov S. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2013 yil.
6. Quronov M. Milliy tarbiya va ma'naviyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015 yil.
7. Jamoliddin Uzoqov. Madaniyat muassasalari tushunchasi, mohiyati va vazifalari // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2021. – SJIF.
8. Abdullayev A. Madaniyatshunoslik asoslari. – Toshkent, 2018 yil.
9. Sa'dullayev A. Intervyu // O'zA. – 2024.
10. Sayfullayev M.A. Sun'iy intellektning musiqa va qo'shiqchilikdagi o'rni // Art and Design: Social Science. – Toshkent, 2026. – № 3.



Bahtiyorjon G'YOSOV,

Namangan davlat universiteti
“An’anaviy xonandalik va cholg’u ijrochiligi”
kafedrası o’qituvchisi

OMMAVIY BAYRAMLAR KONTEKSTIDA TARIXIYLIK VA ZAMONAVIYLIK KATEGORIYALARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI (Namangan gullar festivali misolida)

Annotatsiya. Ushbu maqolada ommaviy bayramlar kontekstida tarixiylik va zamonaviylik tamoyillarining uyg’unligi Namangan xalqaro gullar festivali misolida tahlil qilingan va o’rganilgan.

Kalit so’zlar: ommaviy bayramlar, tarixiylik, zamonaviylik, Namangan xalqaro gullar festivali, madaniy transformatsiya, jamoaviy xotira, nomoddiy madaniy meros, globalizatsiya, madaniy integratsiya, festival madaniyati, turizm, media kommunikatsiya, milliy qadriyatlar, madaniy gibridlik, estetik tarbiya.

Аннотация. В данной статье анализируется и исследуется гармония принципов историчности и современности в контексте массовых праздников на примере Наманганского международного фестиваля цветов.

Ключевые слова: массовые праздники, историчность, современность, Наманганский международный фестиваль цветов, культурная трансформация, коллективная память, нематериальное культурное наследие, глокализация, культурная интеграция, фестивальная культура, туризм, медиакommunikация, национальные ценности, культурная гибридность, эстетическое воспитание.

Abstract. This article analyzes and explores the harmony of the principles of historicity and modernity in the context of mass celebrations using the example of the Namangan International Flower Festival.

Keywords: public festivals, historicity, modernity, Namangan International Flower Festival, cultural transformation, collective memory, intangible cultural heritage, glocalization, cultural integration, festival culture, tourism, media communication, national values, cultural hybridity, aesthetic education.

Ommaviy bayramlar jamiyatning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari va zamonaviy madaniy hayotini aks ettiruvchi muhim ijtimoiy-madaniy hodisadir. Uning subyektlari hisoblangan insonlar ong-tafakkurida transformatsion jarayonlarni yuzaga keltiradi. Bunda zamon va makon muhim ahamiyat kasb etadi. Ommaviy bayramlar tizimida tarixiylik va zamonaviylik kategoriyalarini alohida-alohida emas, balki o’zaro bog’liq madaniy mexanizm sifatida talqin qilish zarur.

Madaniyatshunoslikda aynan o’zbek xalq bayramlarini tadqiq etishda fundamental ahamiyat kasb etgan tadqiqotlardan biri U.Qoraboyevning 2002-yilda nashr qilingan “O’zbek xalqi bayramlari” monografiyasidir [1, 272-b].

Tarixiylik va zamonaviylik uyg’unligi davlat siyosati darajasida ham muhimdir. “O’zbekiston – 2030” strategiyasida hududlarning salohiyatini ochish, madaniyat, turizm va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari o’zaro bog’liq holda

ko'riladi [2]. Festivalni madaniy-turistik transformatsiya jarayoni sifatida tadqiq etish ushbu strategik yondashuvning ilmiy asoslarini mustahkamlaydi.

Tarixiylik festivalga vaqt chuqurligi, jamoaviy xotira, avlodlararo vorisilik va qadriyatlar uzluksizligini beradi. Zamonaviylik esa shu xotirani yangi kommunikativ shakllar, sahnaviy yechimlar, turistik xizmatlar, media obrazlar va urbanistik dizayn orqali hozirgi auditoriyaga yetkazadi. Bunday yondashuvda festival statik marosim emas, balki doimiy qayta talqin qilinadigan madaniy axborot sifatida namoyon bo'ladi [3, 28-b].

Tarixiylik tushunchasi madaniyatshunoslikda oddiy xronologik o'tmishni emas, balki jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan xotira, ramz, an'ana va muqaddaslashtirilgan tajribalar tizimini anglatadi. Pierre Nora ta'kidlaganidek, zamonaviy jamiyatda xotira tabiiy ravishda emas, balki maxsus joylar, belgilar, marosimlar va ramziy amaliyotlar orqali saqlanadi [4, 19-b]. Shu ma'noda Namangan xalqaro gullar festivali ham shahar xotirasining zamonaviy "madaniy joyi" sifatida talqin qilinishi mumkin.

Tarixiylik kategoriyasining festivaldagi yana bir muhim jihati – o'tmishni hozirgi ehtiyojlar asosida qayta o'qishdir. Ommaviy bayramlar ko'pincha o'tmish haqidagi tasavvurlarni mustahkamlaydi, biroq ular o'tmishni aynan takrorlamaydi, aksincha, har bir davr o'zining estetik talabi, siyosiy-madaniy ehtiyoji, ijtimoiy kayfiyati va kommunikativ texnologiyalari asosida tarixiy merosni yangi shaklda namoyish etadi.

Shu nuqtayi nazardan, Namangan xalqaro gullar festivalida tarixiylik mahalliy gulchilik tajribasi, xalq sayli an'anasi, shahar madaniyati va estetik tarbiya bilan bog'liq bo'lsa, zamonaviylik uning xalqaro ko'lamda targ'ib qilinishi, turistik mahsulotga aylanishi, obraz kommunikatsiyasi, raqamli foto-video kontent va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalishi orqali yuzaga chiqadi. Demak, festival o'tmish va hozirgi zamonni qarama-qarshi qo'ymaydi, balki ularni bir madaniy maydonda sintez qiladi.

Nomoddiy madaniy meros konsepsiyasi ham festivalni izohlashda muhim nazariy tayanchdir. YUNESKO 2003-yilgi Konvensiyasida nomoddiy madaniy meros sifatida og'zaki an'analar, ijro san'ati, ijtimoiy amaliyotlar, marosimlar, bayram tadbirlari, tabiat va koinotga oid bilimlar, an'anaviy hunarmandchilik ko'nikmalari e'tirof etiladi [5, 21-b]. Namangan gullar festivali aynan ijtimoiy amaliyot, estetik ko'nikma, tabiatga madaniy munosabat va ommaviy bayram elementlarini birlashtiradi.

Zamonaviylik kategoriyasi bayram, festival-larni o'rganishda yangilik, texnologiya yoki tashqi bezak bilangina belgilanmaydi. A.Giddens zamonaviylikni ijtimoiy institutlarning jadallashuvi, makon va vaqt munosabatlarining o'zgarishi hamda ijtimoiy amaliyotlarning doimiy qayta ko'rib chiqilishi bilan bog'laydi [6, 7-b]. Namangan festivalida ham zamonaviylik festival maydonining kengayishi, auditoriya tarkibining o'zgarishi, turistik xizmatlar va media kommunikatsiyaning kuchayishi orqali namoyon bo'ladi.

Globallashuv sharoitida lokal festival xalqaro auditoriya bilan muloqotga kirishadi. Madaniy oqimlar turli yo'nalishlarda – media, turizm, migratsiya, texnologiya va g'oyalar orqali harakatlanishi amalga oshirilishi mumkin. Namangan gullar festivali ham mahalliy hodisa bo'lib qolmay, media tasvirlar, turistlar, blogerlar, xorijiy mehmonlar va raqamli platformalar orqali transmilliy madaniy oqimga ulanadi.

R.Robertson tomonidan ilgari surilgan "glokalizatsiya" g'oyasi festivalni tahlil qilishda ayniqsa samaralidir [7, 13-b]. Chunki Namangan gullar festivali bir tomondan mahalliy gulchilik an'analari, shahar mentaliteti va milliy estetik didga tayanadi, ikkinchi tomondan xalqaro festival, turizm va ko'rgazma standartlariga moslashadi. Natijada lokal an'ana global madaniy muloqotga kiradi.

P.Burke madaniy gibridlikni turli madaniy elementlar to'qnashuvida emas, balki ularning o'zaro moslashuvi, tarjimai va qayta talqinida ko'radi [8, 38-b]. Namangan gullar festivalining istiqboli ham aynan shunda: u milliy estetikani saqlagan holda, xorijiy festival tajribasi, zamonaviy landshaft dizayni, ekologik madaniyat va turistik xizmatlar bilan boyitilishi lozim.

O'zbek lingvomadaniyatshunosligida milliy tajriba, urf-odat va qadriyatlarning til, ramz va ifoda vositalari orqali jamiyat xotirasida saqlanishi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. M.S.Karimova paremiologik birliklar xalqning ijtimoiy hayoti, mentaliteti va madaniy tajribasini ifodalashini asoslagan. Bu qarash festivaldagi shiorlar, xalqona iboralar, bayram nutqi va ramziy obrazlarni tahlil qilish uchun muhim nazariy asosdir [9, 46-b].

U.Qoraboyev nazariyasiga muvofiq, ommaviy bayramning chinakam samarasi uning jamoaviy ongda qoldiradigan izi, avlodlararo aloqani mustahkamlash darajasi va xalqning o'zini yagona madaniy birlik sifatida idrok etish imkoniyatida namoyon bo'ladi [1, 18–35-bb.]. Aynan mazkur ramziy mexanizm Namangan

Madaniyatshunoslik, Nomoddiy madaniy meros

misolida quyidagicha ifodalanadi: gul shahar maydonida vizual obyekt sifatida ko'zga tashlanadi, biroq ayni paytda mahalla, oila, kasbiy guruh va shahar identitetini birlashtiruvchi semiotik obyekt vazifasini bajaradi.

Tarixiylik kategoriyasi bu yerda faqat o'tmish haqidagi ma'lumotlar yig'indisi emas, balki avlodlar tomonidan tan olingan ramzlar, odatlar va ma'no shakllarining hozirgi bayram maydonida qayta ishlashidir. Karimova tadqiqotidagi "milliy-madaniy birlik" tushunchasi festivalga tatbiq etilganda, gul obrazi ham tabiat mahsuli yoki bezak elementi darajasidan chiqib, ijtimoiy xotirani uyg'otuvchi belgi maqomini oladi. Masalan, Namangan gulchiligi, hovli madaniyati, bahoriy sayl, oilaviy tomosha va mehmon kutish marosimlari festivalda birgalikda namoyon bo'lsa, ular tarixiylikni muzey eksponati sifatida emas, yashayotgan madaniy amaliyot sifatida ko'rsatadi.

Mazkur manbadan kelib chiqadigan asosiy nazariy xulosa shundan iborat, festival tarixiyligini faqat "qadimdan mavjud" degan tasdiq bilan isbotlab bo'lmaydi. Uni ramzlar qanday ishlayotgani, tomoshabin ularni qanday qabul qilayotgani, festival makonida qadriyatlar qaysi amaliyotlar orqali ko'rinayotgani bilan asoslash zarur. Tadqiqotda bu yondashuv Namangan festivalini tarixiy xotira, mahalliy estetik did va zamonaviy ommaviy kommunikatsiya o'rtasidagi tutashuv nuqtasi sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Madaniy integratsiya, transformatsiya va diffuziya jarayonlari lokal madaniyatning saqlanishi hamda zamonaviy muhitga moslashuvi bilan bog'liq murakkab ijtimoiy-madaniy hodi-

salardir. Namangan gullar festivalida ham mahalliy an'analar, shahar makoni, turistik ehtiyoj va xalqaro kommunikatsiya o'zaro tutashib, madaniy transformatsiyaning o'ziga xos modelini yuzaga keltiradi.

Madaniy integratsiya masalasi festivalning jamiyatdagi birlashtiruvchi funksiyasini ham ochib beradi. O.Nishonova madaniy integratsiyani umuminsoniylikni rivojlantirish omili sifatida talqin qilgan [10, 362-b]. Festival jarayonida turli yoshdagi, turli kasb va ijtimoiy guruhlardagi insonlar yagona estetik tajriba atrofida birlashadi. Bu esa jamoaviy hamjihatlik va shahar fuqaroligi hissini kuchaytiradi.

Shunday qilib, tarixiylik festivalning ildizini, zamonaviylik esa uning harakat trayektoriyasini belgilaydi. Tarixiyliksiz festival yuzaki tomoshaga, zamonaviyliksiz esa muzeylashgan, harakatsiz marosimga aylanib qolishi mumkin. Namangan xalqaro gullar festivalining ilmiy qiymati aynan ana shu ikki kategoriya – meros va yangilanish, xotira va kommunikatsiya, an'ana va innovatsiya, mahalliylik va xalqaro ochiqlik o'rtasidagi muvozanatni namoyon etishidir.

Xulosa qilib aytganda, tarixiylik va zamonaviylik kategoriyalari Namangan xalqaro gullar festivali kontekstida bir-birini istisno etmaydigan, balki o'zaro ma'no hosil qiluvchi ikki jihat sifatida amal qiladi. Tarixiylik festivalga ildiz, jamoaviy xotira va vorisiylik beradi. Zamonaviylik esa shu xotirani yangi sahnaviy, raqamli, turistik va kommunikativ shakllar orqali keng auditoriyaga yetkazadi. Mazkur ikki kategoriyaning uyg'un ishlashi festivalning lokal ildiziligini saqlagan holda uni xalqaro madaniy maydonga olib chiqishning konseptual mexanizmini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. – Toshkent: Sharq, 2002. – 272 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2023. – 12-sentabr. – № 06/23/158/0694.
3. Getz D. The Nature and Scope of Festival Studies // International Journal of Event Management Research. – 2010. – Vol. 5, №1. – P. 1–47.
4. Nora P. Between Memory and History: Les Lieux de Mémoire // Representations. – 1989. – №26. – P. 7–24.
5. Toshmatov O', Isakulova N. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2014. – 21 b.
6. Giddens A. The Consequences of Modernity. – Stanford: Stanford University Press, 1990. – 186 p.
7. Robertson R. Globalization: Social Theory and Global Culture. – London: Sage, 1992. – 211 p.
8. Burke P. Cultural Hybridity. – Cambridge: Polity Press, 2009. – 180 p.
9. Karimova M.S. Paremiologik birliklarning lingvokulturologik aspekti: filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Andijon, 2022. – B. 46–63.
10. Nishonova O. Madaniy integratsiya – umuminsoniylikni rivojlantirish omili // O'zMU xabarları. – Toshkent, 2021. – №1(1). – B. 362.

Shodiya JALILOVA,
O'zDSMI Madaniyatshunoslik
mutaxassisligi magistranti



MADANIYATDA AN'ANAVIYLIK VA ZAMONAVIYLIK O'RTASIDAGI MUVOZANAT

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada madaniyat tarixida an'anaviylik va zamonaviylik tushunchalari, ularning o'zaro muvozanati hamda madaniyat taraqqiyotidagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Maqolada ijtimoiy jarayonlarda madaniyatning uzluksiz rivojlanishi va innovatsion o'zgarishlar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: an'anaviylik, zamonaviylik, formatsion yondashuv, sivilizatsiya, Sharq sivilizatsiyasi, G'arb sivilizatsiyasi.

Аннотация. В данной научной статье анализируются понятия традиционности и современности в истории культуры, их взаимное соотношение, а также изменения в развитии культуры. В статье исследуются непрерывное развитие культуры и инновационные изменения в социальных процессах.

Ключевые слова: традиционализм, современность, формационный подход, цивилизация, восточная цивилизация, западная цивилизация.

Abstract. This scientific article analyzes the concepts of traditionalism and modernity in cultural history, their interrelationship, and changes in cultural development. The article explores the continuous development of culture and innovative changes in social processes.

Keywords: traditionalism, modernity, formational approach, civilization, Eastern civilization, Western civilization.

Madaniyat taraqqiyotida an'anaviylik va zamonaviylik dinamik munosabatda bo'lib, bugungi globallashuv jarayonida zamonaviy madaniyatlar ko'pincha ikkala elementning, ya'ni an'anaviylik va zamonaviylikning muvozanatini tartibli joylashishidan tashkil topib, har bir jamiyat o'ziga xos tarixiy-ijtimoiy va madaniyat sharoitlariga mos ravishda bu ikki tamoyil o'rtasidagi nisbatni shakllantiradi.

"An'anaviylik" so'zi urfdan kelib chiqqanlik, qadimdan davom etib kelayotgan odat va qadriyatlarga moslik, degan lug'aviy ma'nolarni beradi. Aniqroq qilib aytganda esa, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan urf-odatlariga sodiqlik demakdir.

An'anaviylik – madaniyatning uzluksizligi. Madaniyat, qaysi turi bo'lmasin, mazmunan va

mohiyat jihatidan jamiyatning talablariga javob berishi, inson hayoti va dunyoqarashida jiddiy o'zgarishlarga sabab bo'lishi kerak. Zotan, jamiyatda yuz bergan o'zgarishlarni madaniyat aks ettiradi. Ayniqsa, nomoddiy madaniyat bu jihatdan ahamiyatlidir.

Masalan, mustaqillik davrida o'zbek xalqining qadriyat, udum, oila munosabatlarida katta siljishlar yuz berdi. Chunki uzoq tarixga ega bo'lgan qadriyatlar aynan an'anaviylikka tayanadi. An'ana o'zbek xalqining madaniyati uzluksizligini ta'minlaydigan asosiy omil sifatida butun dunyo odamlari, ayniqsa, g'arbliklar tomonidan e'tirof etildi. An'ananing uzluksizligi oilaning mustahkamligiga, yoshlar tarbiyasining tobora takomillashib borishiga omil bo'ldi. Masalan, O'zbekistonning turli hududlarida

yashovchi xalqlar orasidagi marosimlar, an'ana va urf-odatlar o'ziga xos tarzda davom ettiriladi. Bu – madaniyatning moddiy va ma'naviy qatlamlarining to'qnashuvi emas, balki tarixiy uzluksizlikning dalilidir.

An'analirimiz haqida gapirar ekanmiz, shu terminning etimologiyasiga to'xtalib ketish o'rinlidir. "An'ana" atamasi arab tilidan olingan bo'lib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan urf-odat, axloqiy me'yor, madaniy ko'nikmalar, dunyoqarashlar tizimidir. Ya'ni an'anaviylik jamiyatning madaniy xotirasi, u o'zida o'tgan tajriba, tarixiy o'zlik, milliy ruhni saqlaydi. An'ana milliy o'zlikni anglashga olib keladi. Sababi, hamma davrlarda ham barcha mamlakatlarda madaniyatning rivojlanishi doimo qadriyatlarni baholash natijasi o'laroq yuz bergan. Madaniyatshunos olim E.Tylor aytganidek, *"An'anaviylik – inson tomonidan o'zlashtirilgan bilim, e'tiqod, san'at va urf-odatlar majmuyi"*dir.

"Zamonaviylik" – davr talablari, o'zgarishlari va taraqqiyotni chuqur his etib, hozirgi zamon bilan hamnafas yashash, dolzarb vazifalarga tezkor javob bera olish va kelajakka mas'uliyat bilan yondashishdir. Bu tushuncha o'tmishni anglagan holda bugungi kun hodisalarini teran tasavvur qilish va faol bo'lishni ifodalaydi. Zamonaviylik – madaniyatning yangilanishi, bu yangilikka intilish, texnologiya, san'at, ijtimoiy hayotda yangilikka bo'lgan ochiqlik. U madaniyatning texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy va axborot jarayonlari natijasida yuzaga kelayotgan o'zgarishlaridir. Zamonaviy madaniyat, asosan, global ta'sirlar va kommunikatsiya vositalari orqali shakllanadi. U an'anaviylikni inkor etmaydi, balki uni yangicha shaklda qayta talqin qiladi. Masalan, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar madaniyatini tubdan o'zgartirdi. An'anaviy muloqot shakllari raqamli muloqot bilan birlashmoqda, bu esa madaniyatning yangi zamonaviy ko'rinishiga olib keladi – bu esa zamonaviylikning amaliy ifodasidir.

Bugungi kunda madaniyatshunoslikning dolzarb masalasi – an'anaviylik va zamonaviylikning o'zaro munosabati, ularning madaniyat taraqqiyotiga ta'siri va ular orasidagi uyg'unlikni izohlashdir. Umuman olganda, ikkisi o'rtasidagi uyg'unlik nimada? Madaniyatni bir daraxt deb hisoblasak, an'anaviylik uning ildizi, zamonaviylik esa shox va barglaridir. Ikkisi har doim bir-birini to'ldiradi: biri o'zida o'tgan tajribani saqlasa, ikkinchisi uni yangi sharoitda davom ettiradi. Ayniqsa, O'zbek madaniyati kontekstida bu masala mustaqillik davrida milliy qadriyatlarni

saqlash va zamonaviy madaniy jarayonlarga moslashish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb eta boshlagan.

An'anaviylik – bu jamiyat tarixining ma'naviy qismi bo'lib, u avloddan-avlodga o'tadi. O'zbek madaniyatida an'anaviylik bir qator ijtimoiy-madaniy fenomenlar orqali ifodalanadi: oilaviy qadriyatlar, qishloq urf-odatlari, bayramlar, madaniy xotira kabi. Buni Navro'z bayrami misolida ko'rib chiqsak. O'zbekistonning barcha hududlarida Navro'z bayrami an'analari nafaqat tarixiy marosim sifatida saqlanib qolmoqda, balki zamonaviy yoshlar tomonidan ham yangi formatlarda nishonlanmoqda – bu an'anaviylik va jamiyatning hozirgi madaniyati o'rtasidagi uyg'unlikning amaliy ko'rinishidir. Navro'z bayrami Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatida an'anaviylik va zamonaviylik uyg'unligining yorqin namunasi sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, ushbu bayramning ildizlari qadimgi zardushtiylik davriga borib taqaladi [1]. "Avesto"da bevosita "Navro'z" atamasi uchramasa-da, unda yangi yilning boshlanishi, tabiatning uyg'onishi hamda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash g'oyalari muhim o'rin egallaydi. Aynan shu g'oyalar keyinchalik bahorgi tengkunlik bilan bog'liq marosimlar tizimida mujassamlashgan [2].

Arxeologik va tarixiy manbalarga ko'ra, Navro'z dastlab quyoshning bahorgi tengkunligiga bag'ishlangan astronomik marosim sifatida shakllangan. Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida turli xalqlarda yil boshi va bahorgi tengkunlik munosabati bilan o'tkazilgan marosimlar haqida batafsil ma'lumot beradi. Bu holat Navro'zning tabiat va kosmik tasavvurlar bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi [2]. Islom madaniyati davriga kelib, Navro'z diniy mazmundan ko'ra ko'proq ma'naviy va ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xalq bayrami sifatida yashab qolgan.

Madaniyatshunos olim A.Mavrulov ta'kidlaganidek, islomiy davrda ko'plab qadimgi marosimlar yangi madaniy muhitga moslashgan holda xalq an'analari shaklida davom etgan. Bu jarayon madaniyatning tarixiy uzluksizligi va moslashuvchanligini yaqqol namoyon etadi [3]. Temuriylar davrida Navro'z davlat miqyosida nishonlanadigan umumxalq bayramiga aylangan bo'lib, u jamiyat birligi va ijtimoiy barqarorlik ramzi sifatida qaralgan. Keyinchalik sovet davrida Navro'z mafkuraviy nazorat ostiga olinib, "Bahor bayrami" nomi ostida cheklangan shaklda nishonlangan. Uning nomi o'zgartirilib, mazmunini cheklashga urinishlar bo'lgan bo'lsa-

da, xalq qalbidan o'chmadi. Bahor nafasi bilan birga yashab kelgan bu qadriyat odamlar xotirasida, urf-odatlarida va oilaviy marosimlarda yashirincha davom etdi. Aynan shu ichki sadoqat va e'tiqod tufayli Navro'z vaqt sinovidan o'tib, o'z asl mohiyatini saqlab qolgan holda bugungacha yetib keldi. Mustaqillik yillarida esa Navro'z yana o'zining tarixiy va milliy mazmunini tiklab, rasmiy davlat bayrami maqomiga ega, an'anaviy qadriyatimiz sifatidan nishonlanadigan bo'ldi. Bu holat an'ana va zamonaviylik o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yaqqol ko'rsatadi [4].

Bugungi kunda Navro'z nafaqat tarixiy-madaniy meros sifatida, balki zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda yangicha shakl va mazmunda nishonlanmoqda. Ayniqsa, yoshlar tomonidan Navro'zning ommaviy tadbirlar, madaniy festivallar va zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali keng targ'ib etilishi an'anaviy madaniyatning zamonaviy madaniy muhitga integratsiyalashuvini ko'rsatadi.

Madaniyat va tarixni o'rganishda ikki xil metodologik yondashuv mavjud: formatsion va sivilizatsion. Biz quyida aynan shu kabi o'zgarishlarni misollar orqali yoritishga harakat qilamiz. Formatsion yondashuv XIX asrning ikkinchi yarmida Karl Marks va Fridrix Engels tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, jamiyat taraqqiyotini ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar almashinuvi orqali tushuntiradi. Ushbu yondashuvga ko'ra, jamiyatning ishlab chiqarish usullari, mulkchilik shakllari va iqtisodiy munosabatlari o'zgarishi madaniyatning shakl va mazmuniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. A. Mavrulov "Madaniyat nazariyasi" asarida formatsion yondashuv madaniyatni jamiyatning moddiy bazasi bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilish imkonini berishini ta'kidlaydi. Bu yondashuvga ko'ra biz madaniyat va tarixni besh davrga bo'lamiz.

Ibtidoiy davr madaniyati sinkritik, ya'ni tabaqalashmagan madaniyat hisoblanadi. Bu davrda madaniyat diniy, badiiy, axloqiy, ilmiy tushunchalarga ajralmagan. Bunga bitta yorqin misol bu – nikoh. Hozirda nikoh diniy, huquqiy, ijtimoiy-madaniy shakllarga bo'linadi. Lekin ularning ildizlari ibtidoiy davrga borib taqaladi. Chunki nikoh alohida diniy yoki huquqiy marosim bo'lmagan, u tabiat sikli bilan bog'liq marosim bo'lgan. Qabila jamiyatiga kelib esa nikoh endi ijtimoiy me'yorga aylanadi: turmush qurish qabilaviy qoidalar bilan tartibga solina boshladi, diniy ruhoniylar yoki oqsoqollar tomonidan o'tkazildi. Qadimgi Misr va Bobilda ham to'ylar xudolar ismi bilan qasamyod tarzida o'tgan, bularning

barchasi ibtidoiy sinkritiklikning an'anaviylik shakliga aylangan holati edi.

Quldorlik davriga kelib esa jamiyat sinflarga ajratila boshladi, ya'ni qullar va quldorlar sinfiga. Shu jumladan, madaniyat ham tabaqalashgan: quldorlar madaniyati yozma, falsafiy, qullar madaniyati esa og'zaki, xalqona shaklda. Qullar madaniyati timsoli sifatida biz Ezopni olishimiz mumkin. Uning masallarida tabiat, hayvon, inson dunyosi bir-biri bilan aralashadi, ko'p masallarida hayvonlar insoniy fazilatlar bilan gavdalanadi. Ezopning masallaridagi axloqiy-diniy pandlar g'oyasini keyinchalik "Guliston", "Qobusnoma", "Hayrat ul-abror"da, oxirgi asrlarga kelib esa Jorj Oruelning "Hayvonlar fermasi" asarida ko'rishimiz mumkin. Ezop yozma madaniyatga kira olmagan bo'lsa ham, "xalq og'zaki ijodiyoti" qadriyatlariga ildiz yaratib bergan.

Feodalizm davrida Sharqda saroy madaniyati, tasavvuf falsafasi, adab va axloq ta'limoti gullasa, G'arbda Renessans boshlanib, inson shaxsining qadri, erkin fikr, san'at va fanning uyg'onishi davri bo'lgan. Alisher Navoiy tasavvuf falsafasi asosida insonni Yaratuvchining in'omi sifatida ulug'laydi, "komil inson" g'oyasi bilan insonni yetuklik, axloqiy kamolot sari chorlaydi. Bu umuminsoniy yondashuvning sharqona shaklidir.

G'arbda esa Shekspir asarlarida inson ruhiyati, muhabbat, vijdon, xiyonat, adolat kabi umumbashariy kechinmalarni tahlil qiladi. Navoiydagi an'anaviy, diniy-axloqiy qadriyatlar saqlanib, bugunda ma'naviyat, millatlararo hurmat, tinchlik zamirida, Shekspirdagi shaxs erkinligi, fikr mustaqilligi bugungi inson huquqlari, demokratiya g'oyalarida o'z ifodasini topmoqda. Har ikkisi ham feodal davr madaniyatidan chiqib, umuminsoniy qadriyatlarga yo'l ochib bergan.

Kapitalizm davrida ishlab chiqarish, ilm-fan, shahar madaniyati shakllandi, millat va davlat tushunchalari paydo bo'ldi, sanoat inqilobi, ma'rifatparvarlik va realizm san'ati madaniyatni yangi bosqichga olib chiqdi. Bu davrda shakllangan qadriyatlarni bugungi global zamonaviy madaniyatning poydevoriga aylandi. Masalan, inson erkinligi – inson huquqlari, gender tenglikka, ilm-fan taraqqiyoti – raqamli madaniyat, sun'iy intellekt, global ta'limga, mehnat qadri esa kasbiy erkinlikka. Kapitalizm davrida shakllangan madaniyatni bugungi umuminsoniy hamkorlik, ilm-fan yutuqlari va milliy o'zlikni saqlash g'oyalarining poydevori desak xato bo'lmaydi.

Formatsion yondashuvga ko'ra, kommunistik (sotsialistik) formatsiya jamiyat taraqqiyotining

Madaniyatshunoslik, Nomoddiy madaniy meros

muhim tarixiy bosqichlaridan biri bo'lib, unda jamoaviylik, ijtimoiy tenglik va mehnatning ustuvor qadriyat sifatida talqin etilishi madaniyatning asosiy belgilarini tashkil etgan. Davlat mafkurasi ta'sirida madaniyat ijtimoiylashgan va ideologik mazmun kasb etgan. Mazkur davrda shakllangan madaniy qadriyatlar bugungi jamiyatda to'liq yo'qolib ketmagan, balki yangi ijtimoiy sharoitlarda transformatsiyaga uchragan. Jumladan, jamoaviylik g'oyasi zamonaviy fuqarolik jamiyati, ijtimoiy hamkorlik va volontyorlik faoliyati orqali namoyon bo'lmoqda. Rasmiy tenglik g'oyasi esa bugungi kunda teng huquqlilik va teng imkoniyatlar tamoyillari bilan boyitilgan.

Kommunistik formatsiya sharoitida mehnat jamiyatning asosiy axloqiy mezoni sifatida qaralgan bo'lsa, zamonaviy madaniyatda bu qadriyatkasbiyerkinlik, malakavajodiy salohiyatni rivojlantirish g'oyalari bilan uyg'unlashmoqda. Ilm-fan va ta'limning ustuvorligi esa bugungi raqamli madaniyat, global ta'lim tizimi va ilmiy hamkorlik jarayonlarining rivojlanishiga zamin yaratdi. Shu bois, kommunistik formatsiya davrida shakllangan madaniy qadriyatlar zamonaviy madaniyatning bevosita poydevori bo'lmasada, uning shakllanishiga muhim ta'sir ko'rsatgan tarixiy-madaniy omillar sifatida baholanadi. Bu holat madaniyat taraqqiyotining formatsion izchilligini yaqqol ko'rsatadi.

Sivilizatsion yondashuv XIX–XX asrlarda N.Danilevskiy, O.Shpengler va A.Toynbi tomonidan ilmiy asoslangan bo'lib, jamiyat va madaniyatni o'ziga xos tarixiy-sivilizatsion tizim sifatida tahlil qiladi. Ushbu yondashuv madaniyatni faqat iqtisodiy omillar bilan izohlashni cheklangan deb hisoblaydi va madaniy rivojlanishda qadriyatlar, diniy e'tiqodlar, mentalitet va tarixiy xotiraning hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi. Mavrulovning fikricha, sivilizatsion yondashuv madaniyatning ichki mantiqiy rivojlanishini, uning uzluksizligini va barqarorligini tushuntirishga xizmat qiladi. Sivilizatsion yondashuvga ko'ra, har bir sivilizatsiya o'ziga xos madaniy kodga ega bo'lib, bu kod an'analar orqali avloddan avlodga uzatiladi. Zamonaviylik esa mazkur madaniy tizim doirasida yangilanish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Madaniy va sivilizatsion jarayonlar shunchaki texnologik taraqqiyot emas, balki insonlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar, davlat tuzilmasining markazlashuvi, madaniy tamoyillar va inson xulq-atvoridagi o'zgarishlar orqali shakllanadi [5].

Sivilizatsion yondashuv madaniyat taraqqiyotini jamiyatning iqtisodiy tuzilmasidan ko'ra kengroq tarixiy-madaniy jarayon sifatida talqin qiladi.

Ushbu yondashuvga ko'ra, madaniyat har bir sivilizatsiyaning tarixiy tajribasi, qadriyatlar tizimi, diniy e'tiqodlari, mentaliteti va turmush tarziga bevosita bog'liq holda shakllanadi. Shu sababli, madaniy rivojlanish bir xil formatsion bosqichda bo'lgan jamiyatlarda ham turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Sivilizatsion yondashuv nuqtayi nazaridan qaralganda, zamonaviy global madaniyat yagona model asosida emas, balki turli sivilizatsiyalarning o'zaro muloqoti va ta'siri natijasida shakllanmoqda. Sivilizatsiya tuzilishida ijtimoiy identitet, madaniyat, qadriyatlar va davlatning roli kabi murakkab komponentlar bor [6]. Masalan, G'arb sivilizatsiyasida shakllangan texnogen madaniyat ilm-fan, texnologiya va ratsional tafakkurga tayanadi. Bugungi kunda bu qadriyatlar raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va global axborot makoni orqali butun dunyoga tarqalmoqda. Biroq bu jarayon boshqa sivilizatsiyalarning madaniy xususiyatlarini to'liq inkor etmaydi.

Sharq sivilizatsiyasi misolida esa madaniyatda an'anaviylik, ma'naviy meros va axloqiy qadriyatlarning ustuvorligi kuzatiladi. Bugungi zamonaviy madaniyatda bu xususiyatlar milliy o'zlikni saqlash, madaniy merosni asrash va an'analarni zamonaviy sharoitga moslashtirish jarayonlarida namoyon bo'lmoqda. Masalan, zamonaviy ta'lim va texnologiyalar joriy etilayotgan bir paytda, milliy qadriyatlar va tarixiy xotirani asrab qolishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Sivilizatsion yondashuv madaniyat taraqqiyotini faqat iqtisodiy bosqichlar almashinuvi bilan emas, balki sivilizatsiyalararo muloqot va uyg'unlik jarayoni sifatida izohlaydi. Shu bois, zamonaviy madaniyatda global standartlar bilan bir qatorda mahalliy va milliy madaniy shakllarning saqlanib qolishi sivilizatsion xilma-xillikning ifodasi hisoblanadi. Natijada, sivilizatsion yondashuv formatsion tahlilni to'ldirib, madaniyatning tarixiy uzluksizligi, milliy o'ziga xosligi va global jarayonlar bilan uyg'un rivojlanishini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu yondashuv madaniyat tarixini o'rganishda kompleks va ko'p qirrali ilmiy metod sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi doirasida shakllangan mehmondo'stlik qadriyati turli tarixiy davrlarda saqlanib qolgan. Ipak yo'li davrida mehmondo'stlik savdo va madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilgan bo'lsa, bugungi globallashuv sharoitida u turizm, xalqaro madaniy muloqot va milliy imidjni shakllantirish vositasiga aylangan. Bu holat sivilizatsion

yondashuvda an'ana mazmunan saqlanib, shaklan zamonaviylashishini ko'rsatadi.

Sivilizatsion yondashuv madaniyatni xalqning ma'naviy xotirasi, urf-odatlar, diniy qadriyatlari va mentaliteti bilan bog'lanadi. Bu yondashuv madaniyatni faqat iqtisodiy faktlar bilan tushuntirishdan ko'ra yana chuqurroq ijtimoiy-falsafiy kontekstda qarashni talab qiladi. Masalan, Sharq sivilizatsiyasida an'anaviy qadriyatlar va ma'naviyatning ustunligi madaniyatning barqarorligini ta'minlagan bo'lsa, G'arb madaniyatida individualizm va ratsional tafakkur asosiy trend hisoblanadi. Bu farqlar madaniyatning sivilizatsion oqimlarini tahlil qilishda muhim.

Formatsion va sivilizatsion yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi. Madaniyatshunos olim A. Mavrulov ta'kidlaganidek, formatsion va sivilizatsion yondashuvlar bir-birini inkor etmaydi, balki madaniyatni turli rakurslardan o'rganish imkonini beradi. Formatsion yondashuv madaniyatdagi o'zgarishlarning ijtimoiy-iqtisodiy sabablarini ochib bersa, sivilizatsion yondashuv madaniyatning tarixiy uzluksizligi va an'anaviylik mexanizmlarini tushuntiradi. An'anaviylik va zamonaviylik munosabati aynan shu ikki yondashuv uyg'unligi orqali to'liqroq ochib beriladi.

Mazkur tadqiqotda madaniyat taraqqiyoti an'anaviylik va zamonaviylik dialektikasi asosida tahlil qilinib, formatsion hamda sivilizatsion yondashuvlar uyg'unligida yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, madaniyat tarixiy jarayon sifatida uzluksiz rivojlanib, har bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya va sivilizatsion muhitda o'ziga xos mazmun va shakl kasb etadi. An'anaviylik madaniyatning tarixiy xotirasi va barqarorligini ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'lsa, zamonaviylik uning yangilanishi va moslashuvchanligini ifodalaydi.

Formatsion yondashuv doirasida ibtidoiy

davrda madaniyat sinkritik va tabaqalashmagan, quldorlik va feodalizm davrida esa tabaqalashgan va yozma-og'zaki shakllarga bo'lingan, kapitalizm davrida esa ilm-fan, shahar madaniyati va milliy davlatlar shakllanishi bilan yangi bosqichga ko'tarilgan. Kommunistik formatsiyada esa jamoaviylik, ijtimoiy tenglik va mehnat qadriyatlari asosiy tamoyil sifatida namoyon bo'ldi.

Sivilizatsion yondashuv nuqtayi nazaridan esa madaniyatning rivoji faqat iqtisodiy omillar bilan emas, balki tarixiy tajriba, mentalitet, diniy va ma'naviy qadriyatlar bilan ham belgilanishi asoslab berildi. Bu yondashuv madaniyatning milliy va mintaqaviy xususiyatlarini saqlab qolgan holda zamonaviy global jarayonlarga moslashuvini tushuntirish imkonini beradi. Natijada, formatsion va sivilizatsion yondashuvlar bir-birini inkor etmay, balki madaniyat taraqqiyotini chuqurroq anglashda o'zaro to'ldiruvchi metodologik asos sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, an'anaviylik va zamonaviylik o'rtasidagi muvozanat madaniyat barqaror rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Bu tushunchalar madaniyatning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular bir-biri bilan dialektik bog'liq va shu sababdan to'ldirish va yangi madaniy shakllarni yaratish mumkin. Bu terminlar har bir jamiyatda o'ziga xos tarzda ifodalanadi va madaniy o'zgarishlar jarayonida muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy madaniyat tarixiy formatsiyalar va sivilizatsion tajribalar asosida shakllanib, milliy o'zlikni saqlash, umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish hamda global madaniy muloqotni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Mazkur tadqiqot natijalari madaniyat tarixini o'rganishda kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatib, ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Толстов С.П. Древний Хорезм. – Москва: Издательство МГУ, 1948. – 352 с.
2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: Fan, 1968.
3. Mavrulov A. Madaniyat tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.
4. Ochildiyev A. Madaniyat falsafasi. – Toshkent, 2010.
5. Elias N. The Civilizing Process. – Basel, 1939.
6. Burkhanov R.A. Civilization-state: research methodology, essence, main features. – Philosophical and Cultural Analysis journal, 2025.

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI XABARLARI

Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi



Nashrga tayyorlovchi:
Laziza AXMATALIYEVA

Sahifalovchi-dizayner:
Abdug'ani SODIQOV

Bosishga ruxsat etildi: 20.07.2026-yil
Ofset bosma usulda bosildi.
"Arial" garnituras. Bichimi 60×84^{1/8}.
Shartli bosma tabog'i 12,25.
Buyurtma raqami №. Adadi: 100 nusxa.

Manzilimiz: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och dahasi, 127-a uy. Tel.: 230-28-02, 230-28-03, 230-28-13